

*Книжка*

И. В. Пивалов



PIVALOV  
MILLIONLARI

Книга должна быть возвращена  
не позже указанного здесь срока

Количество предыдущих выдач \_\_\_\_\_

3022/4-39

28

M-23

Rus adabiyoti durdonalari

# DMITRIY NARKISOVICH MAMIN-SIBIRYAK



# PRIVALOV MILLIONLARI

*Romandan parchalar va hikoya*

TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2021



UO'K 821.161.1-32

KBK 84(2Ros-Rus)

M 23

Rus tilidan **Farhod TOLIPOV** va  
**Ma'suma AHMEDOVA** tarjimai

**Mamin-Sibiryak, Dmitriy Narkisovich**

M 23 Privalov millionlari [Matn]: romandan parchalar va hikoya /  
D.N. Mamin-Sibiryak. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2021. –160 b.

ISBN 978-9943-7607-0-7

Atoqli rus yozuvchisi va dramaturgi Dmitriy Narkisovich Mamin-Sibiryak (1852–1912), aytish mumkinki, o'zining barcha asarlarini sayohatlar, kuzatuvlari asosida yozdi. Zotan, u adabiyotga «Uraldan Moskvagacha» yo'l ocherklari bilan kirib kelgan edi. Mamin-Sibiryakning qahramonlari oddiy xalq, o'z kunini o'zi ko'ruvchi, sodda va jaydari insonlardir. Xususan, uning «Privalov millionlari» romanidagi, Maksim Gorkiy ta'biri bilan aytganda, o'zgacha turmush tarzi, yorqin xarakterlar va teran demokratizm rus xalqini tushunishga va yaxshi ko'rishga ko'mak beradi.

Mazkur kitobdan joy olgan «Ural hikoyalari» turkumidagi «Doktor Osokinning sog'ayishi» hikoyasida esa muallif Ural va Sibirdagi islohotlar davrini, umumxalq ongi hamda inson huquqlari va axloq masalalarini o'rta taqshlaydi.

Ushbu kitob keng kitobxonlar auditoriyasiga mo'ljallangan.

UO'K 821.161.1-32

KBK 84(2Ros-Rus)

ISBN 978-9943-7607-0-7

© D.N. Mamin-Sibiryak, 2021

© F. Tolipov va boshq. (tarj.), 2021

© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021

Toshkent viloyati «TURON»  
axborot-kutubxona markazi

2022/1 № 4-39





## BIRINCHI QISM

### I

– Keldi... begoyim, keldi! – deya pichirladi Xioniya Alekseyevna Zaplatinaning yotoqxonasiga hovliqib kirgan xizmatkor Matryoshka. – Kecha tunda keldi... «Oltin langar»ga joylashdi, – nafari bo‘g‘ziga tiqilgan holda so‘zini davom ettirdi u.

Yuzi oqarib ketgan, ko‘rinishiga qarab yoshini taxmin qilish mushkul bo‘lgan ayol – Zaplatina, bu vaqtda yarim yalang‘och holda ko‘zgu qarshisida turardi. Yelkasiga yoyilib tushgan tuyaning yungiga o‘xshash sochlari uning ingichka bo‘ynini ham, kir tungi ko‘ylagining yuqoridagi tugmachasi uzilgani sabab, ochilib qolgan qoqsuyak ko‘kraklarini ham berkitishga ojizlik qilardi. Matryoshkaning xabaridan Zaplatina chaqmoq urgandek titrab, tarog‘ini tushirib yubordi. Xona burchagida xovliga qaragan deraza oldida tonggi gazeta bilan yuzini to‘sib olgan 40 yoshlar chamasidagi erkak o‘tirardi. Bu kimsa yerni o‘rganish idorasi topografi janob Viktor Nikolayich Zaplatin edi. Janob Zaplatin tashqi qiyofasiga ko‘ra turmush o‘rtog‘ining aksi: to‘ladan kelgan, och jigarrang soqolli va muloyim kulrang ko‘zli, qip-qizil yonoqlari g‘arq pishgan olmaga o‘xshardi, uning jufti esa aksincha suvi qochgan nokni eslatardi. U o‘rindiqda yastanib olganicha, finjondagi qahvadan ohista ho‘plab qo‘yardi. Matryoshkaning paydo bo‘lishi va pichirlab aytgan so‘zlari Zaplatina hech qanday ta‘sir ko‘rsatmadi, befarqlik bilan gazetasini o‘qishda davom etdi.

– Matryona, azizam, hoziroq Agrippina Filipevnaning oldiga yugur... – hovliqdi Zaplatina xonim. – Aytgancha, to‘xta... Unga faqatgina «keldi» deb ayt. Tushundingmi?.. Xudo haqqi, tezroq bo‘lsangchi...

Odatda bu kabi favqulodda vaziyatlarda Matryoshkaga topshiriqni ikkinchi marta takrorlash shart emasdi. U bekasining birgina ishorasi bilanoq dunyoning narigi chekkasiga bo‘lsa ham yashin tez-



ligida uchib ketardi. Matryoshka aksariyat xizmatkorlar singari odmi, qachon qarasa kiyimlari kir-chir yuradigan, burishgan yuzlari ahmoqona ifoda kasb etgan, jigarrang ko'zli, qovoqlari ostida katta-katta qora dog'lari bor qiz. Egnidagi eskirgan chit ko'ylagi torligidan yosh va go'zal qomatini siqib qo'ygandi. Zaplatina qo'l ostidagilar orasida Matryoshka «tilla» xizmatkor hisoblanardi. Chunki u buyruqlarni muhokamasiz bajarish qobiliyatiga ega edi.

– Ey, Xudoyim... bu nima?.. Ha, Viktor Nikolayich... Ey, Xudoyim!.. – deya g'udranardi Zaplatina devorlar orasida u yoqdan-bu yoqqa borib kelarkan.

– Nima bo'ldi?..

– Axir eshitding-ku: ke-lib-di...

– Xo'sh?

– Tentak! Axir Privalov – millioner, tushunsangchi...Jin ursin, korsetim... korsetim qayerda qoldi?

– Meni tinch qo'y, iltimos...

– Tentak!.. Yo, Tangrim. Axir Agrippina Filipevnaga necha marta aytdim: «Mon ange,<sup>1</sup> ishonchim komilki, ukangiz bejiz kelmagan...» Ha-a! Mana, huddi men aytgandek bo'ldi. Ox! Endi to'polon bo'ladi: Baxarevlar, Lyaxovskiylar, Plovodovlar... bir tarafdin xursandman, chunki Privalov ularning kibrini sindiradi, ya'ni, Lyaxovskiylar va Plovodovlarning... Ularning dimog'i toshni yorardi... Shoshmay turinglar, hali bu merosxo'r sizlarni o'zingizga keltirib qo'yadi.. Xaxa... Viktor Nikolayich, nega daraxtga o'xshab qaqqayasiz? Privalov keldi deyapman, eshityapsizmi?

– Meni tinch qo'y, dedim senga! Tong sahardan «keldi, keldi» deb boshimni og'ritib yubording, – dedi janob Zaplatin. – Agar mening ham million pulim bo'lsa... – erining gaplari Zaplatina xonimni battar jig'ibiyron qildi.

– Qiziq, u nega Baxarevlarnikiga bormadi? – o'zicha fikr qilardi Zaplatina suyaklarini korset bilan yopar ekan. – Aftidan, bir narsani o'ylagan...Shunday bo'lsa ham men hozir Baxarevlarnikiga boraman. Marya Stepanovnani ogohlantirish kerak... Mana senga Nadine to'plami. Tavba, omad boylarga kulib boqadimi, deyman: shundoq

---

<sup>1</sup> Mening farishtam – fr. (izohlar tarjimonlamiki).



ham pullarini qayerga qo'yishni bilishmasdi, endi esa boshga yoqqan qor singari millioner kuyov... Tasavvur qilyapman: Lyaxovskiyning va Veryovkinlarning qizi bor, Plovodovning singlisi, Baxarevlar-da esa birdaniga ikki qiz... marhamat, shuncha kelinga bitta kuyov, bo'lishib olaveringlar!...

– Ayollar – o'zi shunaqa, – xalating etagiga rangli ipak bilan tushirilgan naqshga o'ychan boqqancha so'z qotdi Zaplatin. – O'zlaricha xayol suradilar. «Kuyov»mush... Odam Peterburgdan keldi. Sizlarning qizlaringizga uylanish uyoqda tursin, qiyo boqmaydi. Bunday baliqsifat qizlarga kim ham uylanardi... Jin ursin!..

– Hech vaqoni tushunmaysiz, azizim, – beparvolik bilan dedi Zaplatina xonim. Bo'yalgan ipak ko'ylakda turgan ayol, jigarrang chiziqli yozgi somon shlapasini bir necha marta kiyib ko'rib, gapida davom etdi. – Erkaklar bunday masalalarning farqiga borarmidi? Sizningcha, Privalov, masalan, Ivan Yakovlevich bilan birga «Magnit»dagi san'atkor qizlarning oldiga boradi va shu bilan o'zini baxtiyor his qiladimi? Xo'sh, shundaymi? Huddi Lepeshkin, Lomtevg'a o'xshab-a... Aytmoqchi, axir siz ham o'sha davraga qo'shilishga jon deysiz-ku. Iltimos, o'zingizni oqlashga urinmang... Siz, erkaklar, hammangiz bir go'rsiz. Lekin meni aldolmaysizlar. Duch kelgan raqqosaga bizni almashtirasiz. Buni besh barmog'im-day bilaman.

Shu gaplarni aytib, Zaplatina ko'zgu oldida keskin burildi va bor bo'yicha o'zini tomosha qildi. Ko'ylagi nihoyatda beo'xshov turardi. Yelka qismi osilib qolgan, oyoq tarafi g'ijimligidan ko'ylak ostida oyoq emas yog'och bordek tasavvur uyg'otardi. Kiyimidan ko'ngli to'lmagan xonim: «Panafidlar Kapochkaning to'yida sovg'a qilgan yangi ko'ylakni kiysammikan», deb o'yladi. Ammo shu zahotiyoy fikridan qaytdi: – Keragi yo'q...Bunday qilsam Marya Stepanovna ularning ko'zini o'ynatish uchun atayin yasanib kelgan, deb o'ylashi mumkin. – shunday o'ylar ta'sirida xonim qomatini tik tutganча yuziga mag'rur tus berdi.

– Sen-chi, Xina, – dedi janob Zaplatin rafiqasining oxirgi harakatlarini kuzata turib. – Sen unchalik ham... bilasanmi... Sharobdan kamroq ich... Burning qip-qizil bo'lib qolibdi...

– Burnim? Qip-qizil?





Xioniya Alekseyevna qaddini rosladi va eriga dramatik teatr aktrisalari singari o'qrayib qaradi. So'ngra kiborlarcha so'z qotdi:

– Agar men yo'g'imda bu yerga Agrippina Filipevna kelib qolsa, bugun uning yoniga albatta borishimni aytib qo'ying... Tushundigizmi?

– Tushunmay o'libmanmi: axir endi Agrippina Filipevna bilan asosiy ishingiz, o'zgarlar ziyofatida maishat qilish-ku...

Zaplatinlar oilasining Ural tog'lari yonbag'ridagi Uzle shaharchasida bo'lishi tabiiy va o'ziga xos hodisa hisoblanardi. Bu mavjud voqelik natijasida yuzaga kelgan sabablar va oqibatlarining mantiqiy natijasi edi. Ushbu oila o'z asrining haqiqiy vakili sifatida, o'sha davrning intilishlari, yutuqlari va kamchiliklari ifodasi o'laroq xizmat qilardi. Viktor Nikolayich iste'fodagi qo'riqchi askarning o'g'li edi. Bir amallab savod chiqardi va yoshligidanoq tuman sudiga ishga joylashdi. O'ttiz yoshga kirganida 15 rubl maosh oluvchi xodimga aylangandi. O'sha davr hisobiga ko'ra bu daromad ko'rkam kiyinish va amaldorlar uchun mo'ljallangan kamtargina uyda yashash uchun yetarli mablag' edi. O'z mohiyatiga ko'ra ahamiyatsiz bo'lgan so'nggi voqealar Zaplatinning hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. Amaldorlar uchun mo'ljallangan so'nggi ziyofatlardan birida u nihoyatda dadil xonimni uchratdi. To'g'ri, bu xonimning o'tmishi haqida shubhali gap-so'zlar yurar, biroq uch ming rubl qalin puli barcha gumonlarni tarqatib yubordi. Zaplatin aqlli kishi edi, shu bois, bir yuz sakson rubl ish haqi uning uchun buyuk kelajak garovi bo'la olmasligini tushunib, o'tmish bilan ko'p ham qiziqmagan ma'qul, degan qarorga keldi. Shunday qilib ular turmush qurdilar. Buning natijasi o'laroq, janob Zaplatinning avvalgi o'n besh rubl maoshi yigirma besh rublga aylandi. Shuningdek, qiymati kamida o'n besh ming rublga teng boshpana, chopag'on ot, ekipajlar, xizmatkorlar, ajoyib sharoit va saqlash bo'lmasidagi mo'maygina daromad sohibi bo'ldi. Bir so'z bilan aytganda, Zaplatinlarning mavqeyi mustahkamlanib, yiliga uch ming rubl sarflaydigan oilalardan biriga aylanishdi. Bu orada Viktor Nikolayich tuman sudida emas, balki yerni o'rganish idorasida topograf bo'lib ishlashiga qaramay, yiliga uch yuz rubl maoshini olishda davom etdi. Albatta, atrofdagilarning barchasi Viktor Nikolayichning daromadi ozligini bilar, shuning uchun odatda

ularning hayoti haqida gap ketganda ayrimlar: «Rahmingiz kelsin, axir Xioniya Alekseyevnaning maktab-internati bor: u fransuz tilini juda yaxshi biladi...», – deyishadi. Boshqalar esa, shunchaki: «Ha, Xioniya Alekseyevna juda aqlli ayol» degan gap bilan cheklanishadi. Shunday qilib olisdagi bu qishloq aholisi, aqlli kishilar yiliga uch yuz rubl maosh olishi, biroq uch ming rubl sarf qilishi mumkinligini tabiiy qabul qila boshladi. Bu holat hech kimga g'alati tuyulmadi, aksincha, aslida ham shunday bo'lishi kerak bo'lgan hodisalardan biri sifatida qarshilandi.

Zaplatinlarning uyi quyidagi tartibda qurilgandi: ko'rkam podyezddan uyning oldi tarafiga chiqiladi. Old eshiklardan biri shi-namgina kichik zalga, ikkinchi eshik alohida-alohida joylashgan uchta xonaga, uchinchi eshik esa internat va Zaplatinlar yashaydigan tarafdarni ajratib turuvchi chegara sifatida xizmat qiladigan qorong'u ayvonga olib chiqardi. Butun uyning markazi bo'lgan mehmonxona esa milliy restoran uslubida zeb berilgan, choqqina oshxona orqali uyning Zaplatinlar yashaydigan qismiga bog'langandi, mehmonxona eshigi esa, alohida joylashgan uchta xonadan yaxlit bino sifatida foydalanish imkonini beradi yoki zalga ulanib ketish mumkin. Zalga did bilan tanlangan mebellar va chiroyli royal joylashtirilgan edi. Qolgan xonalar esa anchayin ta'mirtalab holga kelgan, devorga yopishtirilgan gulqog'ozlar ko'chib qolgan, pardalar Matryoshkaning barmoq izlaridan dog' bo'lib ketgan edi. Xonalardagi mebellar bir qancha bo'laklardan yig'ib chiqilgan edi. Zaplatinlarning uyi har doim gavjum edi: hamisha unisi kelgan, bunisi ketgan. Kelib-ketuvchilarning aksariyati ayollar bo'lib, ular bu xonadonga so'nggi yangiliklardan xabardor bo'lish, g'iybatlashgani kelib, bu yerda gullardan asal yig'ib olgan asalari singari mish-mishlar bilan to'lib qaytishardi. Xioniya Alekseyevnaning Idee fixe'siga ko'ra, o'z mehmonxonasini jamiyatning eng buyuk markazlaridan biriga aylantirish, bu yerda yoshlarga kiboriy madaniyatni tirik misollar yordamida o'rgatish, hatto semiz insonlarga ham o'zini ko'rsatish, ayollarga o'z go'zalliklari va zeb-ziynatlarini ko'z-ko'z qilish, san'atkor erkak va ayollarga homiy topish, mahalliy iqtidorlarni qo'llab-quvvatlash asosiy o'rinda tu-

---

<sup>1</sup> Oliy maqsadi (fr.).



rardi. Shuningdek, bu yerdagi barcha qizlar – kelin, bo‘yoqlar esa kuyov sifatida gavalantirishga harakat qilardi. Ushbu ulkan rejani barcha ikir-chikirlarigacha amalga oshirish uchun esa, Zaplatinlarning mablag‘i yetarli emasdi. Ushbu davralarning eng badavlat oilalari bo‘lmish Baxarevlar, Lyaxovskiy va Plovodovlarning mazkur xonadonni chetlab o‘tishgani esa Xioniya Alekseyevna uchun eng alam qiladigan jihat edi. Biroq bu holatda Xioniya Alekseyevnaning hech qachon yorqin kelajakdan umid uzmagani ta’kidlash adolatdan bo‘lardi. U hamisha to‘riga ulkan o‘lja tushishini sabr bilan poylab, to‘r to‘qishdan to‘xtamaydigan o‘rgimchak singari «zamon o‘zgaruvchan, kim bilsin, balki ertaga bizning ko‘chamizda ham bayram bo‘lib qolar», degan ishonch bilan yashardi.

– Bu Xioniya Alekseyevna deganlari uch qavatli parazitning xuddi o‘zi, – degan edi xususiy advokat Nikolas Veryovkin. – Bilasizmi, shunaqa suv qo‘ng‘izi bor, lotinchada nima deb atalardi-ya, jin ursin yodimdan chiqdi. Xullas, o‘sha qo‘ng‘izning ichida parazit chuvalchang, chuvalchangning ichida esa qandaydir qurt yashaydi... Tushunyapsizmi? Chuvalchang qo‘ng‘izni, qurt esa chuvalchangni yeb boraveradi... Bizning Xioniya Alekseyevna ham shunday... U bizni, biz esa qo‘limizga kim tushsa, o‘shani yeymiz!

Xioniya xonim ziyofat-u bazmlardan yoki mehmondorchilikdan bo‘shab, uyiga qaytganda, aniqrog‘i, tungi soat ikkidan kunduzgi soat o‘ngacha, ya’ni, uyqudan uyg‘onguncha bo‘lgan vaqtini oilaviy hayoti uchun ajratilgan, deb hisoblardi. Qolgan payt esa vaqtini butunlay uyiga kelgan mehmonlarni kutib olish yohud tanishlarini ko‘rgani borishga sarflardi. Bunday hayot tarzi uning eri Viktor Nikolayichni to‘liq qoniqtirardi. Chunki, erkinlikda sevimli mashg‘uloti – siyosat bilan shug‘ullanish imkoni ko‘proq bo‘lardi. Uning uchun yumshoq kursida o‘zi yoqtirgan «mokka» ichimligidan xo‘plab, gazetalarning so‘nggi sonida berilgan yangiliklarni o‘qib o‘tirishdan yaxshiroq mashg‘ulot yo‘q edi. Viktor Nikolayichning fikri-zikri hamisha Yevropa siyosatining o‘ziga xos jihatlari to‘g‘risidagi o‘y-xayollar bilan band bo‘lardi: Bikonsfild, Bismark, Gambetta, Andrashi, Grant kabi yetuk siyosatchilarning faoliyati har doim mushohada qilishga arzirdi. Janob Zaplatin o‘z mehmonlariga nisbatan shunday yo‘l tutardi: ularni tavoze bilan qarshilar, iltifot

ko'rsatar, jilmayardi va ular orasidan birortasini yevropacha siyosat haqidagi fikrlari bilan o'rtoqlashish uchun burchakka tortqilardi.

– Men erim bilan maslahatlashishim kerak, – odatda gap biror jiddiy mavzuga borib taqalsa Xioniya Alekseyevna hamisha shunday javob qaytarardi. – Uning ijozatisiz biror ish qilishimni yoqtirmaydi...

Tabiyyiki, bu gaplar faqatgina rasmiyatchilik uchun bo'lib, bundan ko'zlangan maqsad Viktor Nikolayichning boshqalar oldida obro'sini oshirish edi xolos. Er-xotin hech qachon maslahatlashmasdi, ular orasidagi gap-so'z asosan yomon ob-havo yoki bir kun oldingi ichkilik ta'sirida bo'ladigan bosh og'riq sabab yuzaga keladigan mayda janjallardan iborat bo'lardi. Viktor Nikolayich rafiqasining ishlariga aralashishni istamasdi.

Xioniya Alekseyevnaning maktab-internatiga kelsak, uning mavjudligi o'ziga xos sirlarga ega edi: xususan, bu yerda yashovchilar ham, uzoq qarindoshlar ham, yetimlar va tarbiyalanuvchilar ham bir necha oy yashab, izsiz g'oyib bo'lardilar. Ularning o'rniga boshqa qarindoshlar, boquvchisini yo'qotganlar va tarbiyalanuvchilar paydo bo'lardi. Bundan Xioniya Alekseyevnaning butun dunyoga tarqalib ketgan behisob qarindoshlari bor, deb o'ylash mumkin edi. Biroq ushbu maktab-internatda nimalar o'qitiladi, kim o'qitadi degan savolga Xioniya Alekseyevnaning ham javob berishi mahol edi. Internatni tashqi dunyo bilan bog'lovchi yagona vosita Matryoshka edi.

Zaplatinlar xonadonidagi hayot tarzi haqida ta'riflarni fransuz tili mazkur oilaning yuragi, alfa-omegasi bo'lganini aytmay turib yakunlab bo'lmaydi. Bu uyga kirgan har qanday oila havoda fransuz iboralari uchib yurganini his qiladi. Mehmonlarni kutib olishda ham, kuzatishda ham ulardan foydalanilardi. Rus tilida aytish uyat hisoblangan so'zlar, tildan bexabar kishilarni mayna qilishda va so'zlariga o'ziga xos ohang berishda fransuz tili asosiy o'rin tutardi. Xioniya Alekseyevnaning hayotida fransuz tili barcha mavjud imkoniyatlarning asosiy manbai hisoblanardi. Eng muhimi, uning yordami bilan Xioniya Alekseyevna juda jiddiy, nihoyatda o'qimishli va umuman olganda ilg'or ayol sifatida katta obro'ga ega edi.

Baxarevlarning uyi Nagornaya ko'chasining oxirida joylashgan. Bu uy bir qavatli bo'lib, ko'chaga qaragan o'n beshta derazasi bor edi. Binoning qiyofasida allaqanday xushmanzara va shinamlik barq urib turardi (qanchalik g'alati tuyulmasin, har bir uy o'z qiyofasiga ega). Ushbu keng yashil tom ostida, yovvoyi kulrangga bo'yalgan pastkkinaga devorlar ortida hayot shunday osuda tarzda kechardi. Kalta ipak parda tortilib, tokchasiga gullar terib qo'yilgan kichkina va yorug' derazalar nuroniylardagina bo'ladigan samimiy tabassum bilan tashqariga boqib turardi, Nagornaya ko'chasining piyodalar yo'lakchasi bo'ylab o'tib borayotganlar hayotdan mamnunlik va oilaviy baxt ufurib turgan Baxarevlar uyi derazalariga hasad bilan boqishardi. Bu o'tkinchilarning aksariyati hayot qiyinchiliklari, turmush tashvishlaridan qutulib, bir oy, bir hafta yoki bir kungina bo'lsa ham mana shu ulug'vor va qadimiy uyda yashashni orzu qilgan bo'lsalar ajab emas.

Uyning arxitekturasi ham o'ziga hosligi bilan ajralib turardi. Ulkan tosh darvoza xuddi sirkda bo'lgani kabi mayda sariq qum sepilgan keng hovliga olib chiqardi. Hovlidan uyga olib kiruvchi ikkita eshik orasida keng ayvon barpo etilgan bo'lib, u chim bilan qoplangan va chig'anoqlar bilan bezatilgan markizaga<sup>1</sup> ulanib ketgan edi. Ayvondan keng va pastqam zinapoyalar orqali yashil yog'och panjara bilan o'ralgan go'zal gulzorga o'tilardi. Hovlining ichkari qismida mustahkam yog'ochdan yordamchi qurilmalar bor edi. Ular va uy o'rtasida chiroyli cho'yan panjara yordamida yashil setka bilan ko'tarilgan akatsiya hamda nastarin gullaridan iborat jonli devor cho'zilib ketgandi. Uyning asosty binosiga parallel ravishda oshxon, hammom va izvosh xonasini o'zida jamlagan uzun yog'och kulba joylashgan edi.

Baxarevlar uyi ichki tomondan ikki qismga bo'linib, har birining alohida kirish joyi bor edi. Uyning darvozaga yaqin joylashgan old tarafi uy sohibi Vasiliy Nazarichga tegishli, ikkinchisi esa uning rafiqasi Marya Stepanovnaga tegishli. Old tarafdan kirishingiz bilan sizni asrlar davomida saqlanib kelayotgan qanoat muhiti qamrab oladi.

<sup>1</sup> Hovlini quyosh nuridan to'suvchi matoli ulkan soyabon (fr.).

Uyning har ikki qismi ham pollari yarqiragan, devorlariga yangi gulqog'ozlar yopishtirilgan bir qancha xonalarga ega edi. Shiftlar rangbarang naqshlar bilan bo'yalgan, kichkina oq eshiklar esa har doim kecha bo'yalgandek yaltirab turardi. Xonadan xonaga olib o'tuvchi yo'laklarga esa qalin va yumshoq gilamlar to'shalgan. Uyning Vasiy Nazarich va Marya Stepanovnaga tegishli qismlarining bir-biridan farq qiluvchi taraflari ham mavjud bo'lib, bu haqda keyinroq so'z yuritimiz. Chunki, ayni paytda uyning ikkinchi kirish tarafiga Xioniya Alekseyevnaning ekipaji shitob bilan kelib to'xtadi va xonim shu zahoti uni qarshilash uchun ayvonga chiqqan allaqanday qizga xushnud holda bosh irg'adi.

– *Ax, mon ange!* – deb xitob qildi Xioniya Alekseyevna quruqshab qolgan ko'kimtir lablarini qizning pushti yonog'iga bosib. – *Je suis charmee!*<sup>1</sup> Azizam Nadine, siz bugun atirgul kabi go'zalsiz!... Bo'zdan tikilgan ko'ylagingiz juda yarashipty... Siz «Faust»dagi Margaritaning o'zisz... Uning boqqa chiqib keladigan sahnasi yodinizdami?

Baxarevlarning to'ng'ich qizi Nadejda Vasilyevna yigirma yoshlardagi baland bo'yli, yoqimtoy qiz edi. Ehtimol, uni chiroyli de-yish mumkindir, biroq Margaritaga xatto yaqin kelolmasdi. Xioniya Alekseyevnaning muqoyasasidan so'ng qizning bo'liq yuzida xotirjam jilmayish ko'zga tashlandi. Biroq uning ingichka qoshlari ostidagi qalin qop-qora kipriklar bilan qoplangan quyuq kulrang ko'zlari jiddiy va o'ychan tarzda boqardi. U yozgi somon shlapasi ostidan tushib turgan, silliq qilib taralgan och-sariq kokillarini qo'li bilan to'g'irlab, xotirjam so'z qotdi:

– Siz chindan ham meni Margaritaga o'xshaydi, deb hisoblaysizmi?

– Bo'lmasamchi! Margaritaning aynisi!...

– Axir yaqindagina meni boshqa birovga qiyoslagandingiz-ku?

– E, ha, u butunlay boshqa masala: agar siz rus sarafanini kiy-sangiz...Darvoqe, Marya Stepanovna uydami? Men juda-juda muhim masala yuzasidan keldim. O'ylaymanki, *mon ange*, bu masalaning bir uchi sizga ham taalluqli...

---

<sup>1</sup> Men hayratdaman! (fr.).



– Katta ehtimol bilan, menga kuyov izlash haqida bo‘lsa kerak?  
– Buning nimasi yomon, *mon ange*? Har bir Margaritaning o‘z Fausti bo‘lishi shart. Bu tabiat qonuni... Lekin men hech kimni qidirmadim, aksincha, kuyovning o‘zi bizni topdi. Xuddi osmondan tushgandek...

– Qattiq tushib jarohatlanmagandir?

Xioniya Alekseyevna qo‘llarini shamol tegirmoni singari siltab, darvozaga yaqin eshikdan ichkariga kirib ketdi. U xuddi o‘z uyida yurgandek dadil odimlab, bir necha xonalardan o‘tib, uyning ikki yarmini bir-biriga bog‘lab turadigan qorong‘u va tor yo‘lak bo‘ylab yurib borardi. Qorong‘ulikda kimdir kichkina va yumshoq kaftlari bilan Xioniya Alekseyevnaning ko‘zlari yopdi hamda qizlarga xos bo‘lgan jarangdor ovoz bilan so‘radi: «Kimligimni toping-chi»

– Ax, uloqcha... – deb pichirladi Xioniya Alekseyevna issiq va bo‘liq kaftlarini ochib. – Siznikida sendan boshqa kim ham hazil qilardi? Hozir Nadineni ko‘rdim... Unga tabassum qilish ham juda og‘ir tuyulsa kerak... Hayolida qizlarga xos bo‘lgan hech narsa yo‘q... Xo‘-o‘sh, salom, Verochka, *ma petite, chevre!*<sup>1</sup>

Eh, yoshlik, yoshlik, har bir hazil va kulgu hozirgacha esimda.

– Nega qayg‘urasiz, Xioniya Alekseyevna? – so‘radi Verochka, mehmonni cho‘lpillatib o‘parkan. Verochka hech narsani shovqinsiz bajara olmasdi, hammani «yalab chiqardi». Uning o‘pichlari haqida Nadejda Vasilyevna shunday ta‘rif bergandi.

– Ax, *ma petite*,<sup>2</sup> hali hammasi oldinda: ko‘z yoshlar ham, ehtimol yurak siqilishi ham bo‘lar...

– Mayli, siqilsin: men o‘shanda yig‘layman. Oyim ibodat qilyaptilar...Axir siz ularning oldiga keldingiz-ku shundaymi?

– Ha, albatta, men uni zudlik bilan ko‘rishim kerak, – dedi jiddiy tarzda Xioniya Alekseyevna g‘ijimlangan belbog‘ini to‘g‘rilab. – Bu juda muhim, – ma‘noli tarzda qo‘shib qo‘ydi u.

– Men hozir, – shunday deganicha Verochka ilkis o‘girildi va tezda g‘oyib bo‘ldi.

<sup>1</sup> Mening jajjigina uloqcham!.. (fr.).

<sup>2</sup> Mittivoyim (fr.).

Yugurib ketayotgan Verochkani ko'zlari bilan kuzatib qo'yarkan «Bunisiga kuyov qidirishning hojati yo'q: o'zi topadi», – deb xayol qildi Xioniya Alekseyevna va jilmayib qo'ydi. – Agar u, o'zini hammadan muhim hisoblab, aftini burishtirib oladigan boshqa qizlarga o'xshamasa... Kamiga o'zlarini tarbiyali hisoblashadi, turmushga chiqish payti kelganda esa, kuyov qidirish uchun men sarson bo'laman. O'rgildim, bunaqa malikalardan!

Xioniya Alekseyevna uncha katta bo'lmagan, burchakli xonaga o'tdi. Bu xona qadimiy mebel bilan jihozlangan bo'lib, kumush idishlar va qimmatbaho chinnilar bilan liq to'la edi. Xitoy finjonlari, yapon guldonlari, sevr va sakson to'plamlari ulkan oynalar ortida yarqirab ko'rinardi. Old burchakdagi zarrin devorga turli ramzlar tushirilgan, qadimiy yozuvlarning tasviri qorayib turardi; o'tmishdagi buyuk ajdodlar yuzlari, burunlari va lablari ipga tortilgan, peshona va ko'z osti chuqur ajin bosgan holda marvarid, olmos, zumrad va yoqutlar bilan bezatilgan qimmatbaho oltin ramkalarda juda g'arib ko'rinardi. Ularning oldida hech qachon o'chmaydigan chiroq zaif shu'la sohib turardi. Unchalik katta bo'lmagan derazalar toza oppoq pardalar bilan to'silgandi. Laklangan deraza tokchalari terilgan gultuvaklar o'rtasida o'rmon mevalaridan tayyorlangan ichimliklar solingan shisha chelaklar joylashtirilgandi. Xioniya Alekseyevna yumshoq Eron gilamlaridan yurib, qizil daraxtdan yasalgan, oyoqlari o'rninga sher panjalari qo'yilgan stol yonidagi divan qarshisida to'xtadi. Bu xonada o'ziga xos havо hukmron edi: shudring tutatqi hidi, daraxt yog'i, xushbo'y giyohlar va faqat Xudogagina ayon bo'lgan allaqanday yoqimli islar bu yerga birinchi marta kirgan kishining boshini aylantirib qo'yishi shubhasiz. Devorga yopishtirilgan guldastalar tasviri tushirilgan, tilla suvi yugurtirilgan to'q ko'k gulqog'ozlar xonaga o'ziga xos yoqimli oydinlik bag'ishlardi. Og'ir tilla ramkadagi moybo'yoq bilan chizilgan qadimiy surat aynan shu divan tepasida osilib turardi. Unda birinchi fransuz inqilobi kostumlarini kiygan yigit va qiz shohlari tarvaqaylagan daraxt ostida o'tirganicha bir-birlariga mehr to'la nigoh bilan boqishardi. Divanning o'ng tarafida esa, devorda kichkina eshik bo'lib, jigarrang pardalar bilan to'silgandi. Bu shaxsan Marya Stepanovnaning yotoqxonasi edi.



– Yaxshi xabarning qanoti bo‘ladi, deyishadi! – dedi yotoqxona eshigi oldida paydo bo‘lgan baland bo‘yli, to‘ladan kelgan ayol shodon ovozda; uning yelkasi osha Verochkaning jonli, pushti chehrasi va kulgili do‘ng peshonasi namoyon bo‘ldi.

– Oh! Marya Stepanovna... – dedi Xioniya Alekseyevna qomatiga tortilgan kamonlar yordamida divandan turarkan. Qavs ichida aytish lozim, bu kamonlar faqatgina go‘zallik uchun emas, balki kiyimdagi dog‘ va yirtiqalarni yopish uchun ham xizmat qilardi. – Men chindan yaxshi xabarlar keltirdim sizga.

Marya Stepanovnaning ko‘rinishidan aniq yoshini bilish mushkul edi. U o‘zini shunchalar yaxshi saqlagan ediki, yonoqlari yashnab turgan tarang yuzlar, tiyrak boquvchi qora ko‘zlarga qaragan kishi unga aslo 55 yosh bermasdi. U eski bichimdagi orqasi burmasiz, belidan sezilar-sezilmas choklar o‘tgan moviy rangli shoyi sarafan kiyib olgandi. Oq batis ko‘ylak chiroyli burmalari bilan o‘zimizdan chiqib turar va to‘pbarggulli bezagi bilan sutdek oppoq bo‘yinni to‘liq yopgan edi. Sarafanning old tarafiga ikki qator qilib tepa qismidan etakkacha zar uqa tikilgan edi; uqalar orasida esa qimmatbaho ametist toshli tugmalar yarqirab turardi. Quyuq malla sochlar sarafanga o‘xshash mato yordamida chiroyli qilib yig‘ilgan: matoning old chetlari sadaf bog‘ich bilan bezalgandi. Bu kiyimda Marya Stepanovna tarixiy rus go‘zallariga o‘xshardi. U baland qizil poshnali tuflida ohista mehmonning qarshisiga chiqib, u bilan o‘pishib ko‘rishdi.

– Verochka, sen qaznoqqa tushib chiqsang bo‘lardi, – dedi Marya Stepanovna divanga o‘tirarkan. – U yerda bankada murabbo bor... Ha, aytmoqchi, yo‘l-yo‘lakay Dosifeyushkaga ayt, bizga choy bersin.

Verochka Xioniya Alekseyevna nima demoqchiligini judayam bilgisi kelayotgandi, shu bois, bu topshiriqdan so‘ng norozi bo‘lgancha istamaygina xonadan chiqdi. Chunki, Xioniya Alekseyevna hamisha o‘zi bilan bir olam hikoyalar, yangiliklar olib kelardi. Bu safar esa o‘z og‘zi bilan «Marya Stepanovnani ko‘rishi juda va juda zarur» ekanini aytgandi. Demak aytiladigan gap har doimgidan ham muhim va qiziqarli bo‘lishi tabiiy. «Onaxonimiz shunaqa!» – deb o‘yladi qiz shundoq ham lo‘ppi lablarini shishirib.

– Nega uni chiqarib yubordingiz? – so‘radi Xioniya Alekseyevna Verochka chiqqandan so‘ng.

– Hali yosh: ko‘p bilgan – tez qariydi.

– Eh, Marya Stepanovna, sizga shunday yangilik olib keldimki! – dedi Xioniya Alekseyevna tantanali ohangda siyrak qoshlarini shlapasigacha ko‘tarib. – Kecha Pri-va-lov keldi... Sergey Aleksandrich Privalov... Nahotki eshitmagan bo‘lsangiz???...Ha, u keldi.

Bu yangilikdan Marya Stepanovna bo‘shashib qoldi va sarosimga tushgan holda pichirladi:

– Qanday qilib... Qayerga joylashdi?

– «Oltin langar»da, mehmonlar uchun mo‘ljallangan, rublli xonani band qilgan, – axborot berdi Xioniya Alekseyevna. – U bilan birga yana bir kishi kelgan...uchta chemodan...Kelishi bilan uxlashga yotipti.

– Bu Privalov deganlari nima uchun traktirda qoldi?

– Traktirda emas, mehmonlar uchun mo‘ljallangan xonada, Marya Stepanovna, – deya uning gapini to‘g‘irlagan bo‘ldi Xioniya Alekseyevna.

– Yo tavba, onajonim, men uchun farqi yo‘q... U yerda hech qachon bo‘lmaganman. U nima uchun biznikiga yoki o‘z uyiga bormadi? Kelsa haydab yubormasdik...

– Bekor bunday deypsiz, Marya Stepanovna!.. Axir aqlli odam bunday vaqtda boshqalarni bezovta qiladimi? To‘g‘ri, Privalovning o‘z uyi bor, biroq hozir u yerda ijarachilar yashayapti. Privalov uchun siznikiga kelishi to‘g‘riroq bo‘lardi, biroq u sizning ham qizlaringiz – ya‘ni, kelinlar borligini juda yaxshi tushunadi... Bilasizmi, yosh yigit uchun o‘zini to‘pori ko‘rsatish noqulay. Ochig‘i, men Privalovning kelganini eshitishim bilan ibodat qildim: xayolimga kelgan birinchi fikr Xudo Nadine uchun qanday ajoyib kuyovni yuboripti, deb o‘yladim...O‘zim esa yig‘ladim... Nima uchun yig‘laganimni bilmayman, lekin ko‘zimdan tinimsiz yosh quyilardi. Hozir sizni oldingizda...

– Balki, Privalov bizsiz ham allaqachon uylangandir?

– Ox, Marya Stepanovna! Sizni bekordan-bekorga bezovta qil-magan bo‘lardim. Men Matryoshkani atayin besh marta yubordim. U Privalovsk odamining oshxonachisidan barcha nozik masalalarni surishtirib bildi. Yo Tangrim, barchasini o‘zing foydali tarzda tartibga sol. Agar shu ham kuyovlikka bo‘lmasa, unda butun dunyoni ayla-

nib chiqishingiz kerak bo'ldi: yosh, chiroyli, boy. Mil-lion-ner... Yana o'zingiz yaxshiroq bilasiz!

– Millionlarni hali o'zi ishlab topishi kerak, – dedi Marya Stepanovna labini burib...

– Rahmingiz kelsin, nimalar deyapsiz? Axir onasining o'limidan so'ng unga besh yuz ming meros qolgan...

– Yana uch yuz qo'shing, Xioniya Alekseyevna.

– Xo'sh, nima bo'пти? Boring ana ikki yuz ming bo'lsin. Bu ham pul.

– Axir ularni, allaqachon Peterburgda ishlatib bo'lgandir.

– Hech qancha ishlatmagan... Nikolas Veryovkin u bilan universitetda birga o'qigan. Uning aytishicha «Privalov eng kamtar yigit». Undan tashqari, otasidan so'ng Privalovga uch million qoladi... Shu naqami?

– Kampir buni ikkilanib aytdi, Xioniya Alekseyevna... Bu pullarni, agar ular bor bo'lgan taqdirda ham, olish oson emas. Axir zavodlarining barchasi qarzga botib yotipti-ku.

– Oh, Xudoyim!.. – iltijo qildi Xioniya Alekseyevna. – Nima uchun barchaga, har bir odamga Privalovning uch million olishi kundek ravshan bo'lib turganda, siz bu haqiqatning aksini tushunishga urinyapsiz? Ha, uch, uch, uch!..

So'nggi so'zlar likobchada gilos murabbo ko'tarib burchakli xona oldiga yaqinlashgan Verochkaning kichkina pushti quloqchaloriga to'lig'icha yetib bordi. Ayniqsa, Privalov familiyasi uni titratib yubordi... Nahotki bu Kostya bilan bir gimnaziyada o'qigan va ularning uyida yashagan o'sha Seryoja Privalov bo'lsa? Xatto bir marta o'yin o'ynashganda qiz uning qulog'ini tishlab olgandi... Noma'lum sabablarga ko'ra Verochkaning yuragiga vahima tushdi, shu on hayolida chaqmoq kabi bir fikr yarq etdi: «Kuyov...Nadi uchun kuyov!»

– Senga nima bo'ldi, Verochka? – dedi Marya Stepanovna, piyongul singari qizarib xonaga kirgan qizidan.

– Men...men, onajon, zinadan yugurib chiqdim, – deya javob berdi Verochka, battarroq qizarib.

– Ox, yoshlik, yoshlik! – ko'zlarini yumgancha shirin ovozda pichirladi Marya Stepanovna. – Ha... Yoshlik degani shu: begunoh, uyatchan va kulgili. O'n oltiga kirmagan kim bor!...

Verochka shu vaqtdagi uyalishi, katta ochilgan jigarrang ko'zlari, yuziga yugurgan tabassumi va kulgichlari bilan chindan ham juda chiroyli edi. Uning tim qora sochlari singlisiniki singari silliq taralgan edi, faqat sochning peshonaga yaqin qismidagi jimjiloq singari chiqib turadigan kichik tutamchani hisobga olmaganda, deyarli bir xil edi. Quvur singari og'ir kokili yelkasi osha tushib turardi. Faqatgina yengil och libos unga yengiltabiat xonim tusini berib, qizning go'zalligini buzib turardi. Biroq yorqin ranglar Verochkaga ishtiyoq berardi, u hamisha pushti, nastarin yoki ko'k kiyimlarda tovlanishni yaxshi ko'rardi. «A...kamalak», – degan edi Veraning akasi Viktor Vasilich uning kiyinishiga qarab. U endigina o'n olti yoshga kirgandi, shu bois aqlini olgan bu uzun ko'ylagiga hali unchalik moslasha olmagandi. Tabiiyki, Verochkaning qomati hali to'liq shakllanib ulgurmagandi, shuning uchun u hanuz otasi hazillashib aytadigan «bulochka»ning o'zi edi.

Oradagi sukunatni xonaga juda qattiq haqoratlangan insonning g'azabdan pishqirishiga o'xshab qaynab turgan kichikroq samovar olib kirgan Dosifeyaning paydo bo'lishi bilan bo'lindi. Dosifeya xuddi Marya Stepanovna singari baland bo'yli, chiroyli ayol edi. Biroq uning yuzi barcha kar-soqovlarda bo'ladigan biroz qo'pol ifoda kasb etardi.

Marya Stepanovna unga bir qancha qo'l ishoralari qildi: Dosifeya hayrat to'la ko'zlari bilan atrofga qaradi, keyin yugurganicha xonadan chiqib ketdi va bir daqiqadan so'ng Nadejda Vasilyevna kitob o'qib o'tirgan ayvonga yetib bordi. Kar-soqov ayol uni bag'riga qattiq bosib, o'pichlari va ko'z yoshlari bilan yuzini, bo'ynini va qo'llarini ho'l qilib tashladi.

– Senga nima bo'ldi? – hayron bo'ldi Nadejda Vasilyevna, Dosifeya biroz shashtidan tushgach.

– Mmm...aaa... – imo-ishora qildi Dosifeya qo'li va boshini qimirlatib.

– Shu yetmay turuvdi, – dedi Nadejda Vasilyevna, – Bu Xioniya hammani aqldan ozdiradi.

Qiz Dosifeyaga buning barchasi hazil ekanini, hech qanday ku-yov yo'q va bo'lmasligini imo-ishora orqali tushuntirdi. Dosifeya esa ishonmagandek boshini sarak-sarak qildi va harakatlari bilan

unga bu gaplarni Marya Stepanovnaning shaxsan o'zi aytganini ta'kidladi.

### III

– Bu Privalov! – qichqirib yubordi Xioniya Alekseyevna hovlining old qismiga kelib to'xtagan foytundan tushgan baland bo'yli, kulrang shlapa kiygan janobni ko'rishi bilan.

– Qanaqasiga...tez...balki, – dedi o'zini yo'qotib qo'ygan Marya Alekseyevna. – Verochka, zudlik bilan otamizning oldiga yugur... unga... Oh, endi nima qilaman?

– Verochka, Nadineni chaqiring, – topshiriq berdi Xioniya Alekseyevna.

– Ha, ha, chaqir uni, – deya bu fikrni ma'qulladi Marya Stepanovna. – Qanday qilib?... Aksiga olib bugun tushlikka hech narsa hozirlamagandik. Oh, Xudoyim! Uning tunda keldi deganingizga, biznikiga ertaga keladi deb o'ylagandim...Menimcha Nadining yangi ko'ylagi ham yo'q edi. Tikuvchiga buyurtma berganmiz, ammo hali ham olib kelinmagandi...

Nadejda Vasilyevna Verochka bilan qorong'u ayvonda qarshilashdi; u qo'lida buklangan kitobini ushlaganicha o'z xonasiga ketayotgandi.

– Yur, Xudo haqqi, tezroq yur!... shivirladi Verochka oyoq uchida yugurib kelib.

– Senga nima bo'ldi, Verochka?

– Men bilan yursangchi...

Nadejda Vasilyevna, Verochkadan biror narsa bilish qiyinligini tushunib, ayvon bo'ylab yurib ketdi. Verochka bir zum uning ortidan qarab turdi-da, shitob uni quvib yetdi. Yo'l-yo'lakay ko'ylagini tartibga keltirdi va opasining qo'lidan tutib, jimgina uning bo'ynidan o'pdi.

– Menimcha, bugun hamma aqldan ozgan, – dedi Nadejda Vasilyevna singlisining quchog'idan chiqqach norozi ohangda. – Buzoqchaga o'xshab yalab-yulqashlarning sababi nima? Boya Dosifeya sal qolsa meni bo'g'ib qo'yardi, endi esa sen...

– Nadya... – deya bo'g'iq ovoza shivirladi Verochka. Uning yuragi qinidan chiqqudek urar, huddiki yuragini joyiga solmoqchiday ko'kragini changallab olgandi. – Keldi... Privalov!..

Nadejda Vasilyevna onasining xonasi tomon yurdi, Verochka esa oyog'ining uchida old eshik tarafga bordi va kalit tirqishidan Privalovni kuzatdi. U ayni paytda xonaning o'rtasida qariya Luka bilan suhbatlashib turardi.

– Nima bo'ldi, meni tanimadingmi? – so'radi Privalov ko'zlari pipirib turuvchi past bo'yli oqsoch qariyadan.

– Yo'q...taniyolmadim, – dedi Luka quruqshagan lablarini ohista qimirlatib.

– Seryoja Privalovni eslaysanmi?

– Otajonim, Sergey Aleksandrich!.. – titroq ovozda xitob qildi Luka mehmonning ustidagi paltosini olish uchun borarkan. Shu as-noda uning surtugi yengini o'pdi. – Keksayib xotiram zaiflashib qo-libdi... Ox, Xudoyim! To'polonchilar, qaroqchilar...

– Vasiliy Nazarich salomatmi? – so'radi Privalov.

– Ha, ha...Ya'ni...Ox, nega ezmalanayapman!.. Meni afv eting, otaginam, ruxsat bering, men ularga xabar bersam. Mehmonxonada biroz kutib turasizmi...bu qanday quvonch!

– Xo'sh, senchi, Luka, ahvoling qalay? – so'radi Privalov, meh-monxonaga kirarkan.

– Har doimgidek; issiq pechka ustida yotadigan mushukka o'xshab yashayapman. Faqat, la'nati oyoqlarim menga quloq sol-mayapti. Xuddi birovning oyoqlarida yurganga o'xshayman... Xudoyim-ey! Tekis yo'ldan yurib ketasiz, chap oyog'ingiz o'z-o'zidan ko'tarilib ketaveradi. Xuddi zinadan chiqayotganga o'xshaydi.

Luka ikki-uch daqiqa davomida chollarga xos ezmalik bilan bu xonadonda sodir bo'lgan voqelarni, xususan, xo'jayinning ham bir oyog'i oqsayotgani, Kostenka bilan oralaridagi ziddiyat va qa-chon qarasa uxlashdan boshqa narsaga yaramaydigan «Kamardin Igrenka»ni ishga qabul qilib uning, ya'ni Lukaning, dilini qattiq og'ritganlarini gapirib berdi.

– Ana o'zi, – dedi Luka, yosh va kelishgan xizmatkorga ishora qilib. – Tovba, o'zicha kokilini tarab olipti! Ammo, siz haqingizda shaxsan o'zim xabar beraman, Sergey Aleksandrich... Ox, siz qan-chalar yaxshi odamsiz... a! Men sog'lom oyog'im bilan... Ox sen, sa-moviy bekacha!

So'ngra Luka chap oyog'ini sudragancha emandan ishlangan yo-piq eshik tarafga qarab yurdi. Verochka ko'rganlaridan to'liq qoniqish hosil qildi: u Nadining qallig'ini hamisha afsonaviy mavjudot sifatida tasavvur qilardi, Privalov aynan o'sha mavjudotning o'rnini boshiga nihoyatda loyiq ko'rindi. Axir Nadya – go'zal, aqlli va o'ziga xos qiz edi. Tabiiyki, uning qallig'i ham hech kimga o'xshamasligi lozim edi. Birinchidan, Privalov – millioner (Verochka amaliyotga ko'proq e'tibor qaratardi, shu bois bu sehrli so'zning qadri yaxshi bilardi); ikkinchidan, u haqda shunchalar ko'p gapirishgandi va u to'standan o'zini yashirgan mavhumlikdan chiqib keldi... Uning baland bo'yi, ovozi, hatto chetlari qizg'ish uzun malla soqoli, – barcha barchasi Verochkaning ko'zida ajoyib edi. Shu bilan birga, Privalovni chiroyli deb bo'lmasdi. Yuzi notekis, iyagi turtib chiqqan, og'zi katta jigarrang ko'zlari esa kichkina edi. Ammo tan olish kerak, bu ko'zlar mehrlan boqardi, biroq bu chiroyli bo'lish uchun kamlik qilardi.

– Iltimos, u bilan sen gaplashib ko'r! – dedi jahl bilan Marya Stepanovna xonaga yugurib kirib kelgan Verochkaga opasini ko'rsatib. – Hatto ko'ylagini kiyib ko'rishni ham xohlamayapti...

– Xo'sh, u qanday ekan: chiroylimi? Qorasochmi? Mallami? Eng muhimi – ko'zlari, uning ko'zlari qanaqa? – xuddi qop yorilib donlar har tomon sochilib ketgandek savollarini yog'dirdi Xioniya Alekseyevna.

– Baland bo'yli...uzun soqol qo'ygan... Luka bilan gaplashib turardi.

– Ox, Verochka, ko'zlari...uning ko'zlari qanaqa?

– Menimcha, qora...yo'q, kulrang...qora...

– U Luka bilan nima haqda gaplashdi? – so'radi Marya Stepanovna.

Verochka ko'rganlarini bir joyga jamlashga harakat qildi, ammo, shu qadar chalkashib ketganidan hadeb bir narsani takrorlardi. Nadejda Vasilyevna nima qilishi, qayerga borishini bilmaganidan, sukut saqlab bu jarayonni kuzatib turardi.

Privalovning kutilmaganda paydo bo'lishi Baxarevlar uyida boshdan oyoq tartibsizliklarga sabab bo'ldi. Marya Stepanovna yotoqxonasida uy bekasi Dasha va Xioniya Alekseyevna yordamida uchinchi sarafanini kiyib ko'rayotgandi; Verochka esa qaysi ko'ylagi

ko'proq ma'qul ekanini aniqlab, pushti kiyimni tanlaguncha, qo'liga birinchi ilingan kiyimga o'ralib oldi. Har doimgidek, bunday holatda ilgaklar sinar, tugmalar uzilar, choklar yorilib ketardi; bu vaziyatda igna-ip ishlatish masalani yechishdagi eng yaxshi yo'ldek tuyulardi, ammo buning uchun Dosifeyaning oldiga borish kerak edi. U esa, ayni paytda oshxonada shu darajada band ediki, idish tovoqlaridan boshqa narsani o'ylashni istamasdi. Qariya Luka – u ham qo'lida ohak va bir parcha lattani tutganicha eshikning bronza tutqichini sayqallash bilan ovora edi.

– Mehribon Tangrim, barini foydali qil... – dedi sodiq keksa xizmatkor qo'lidagi lattaga tupurib. – Menimcha, shunday yaxshi bo'ladi, yaxshi bo'ladi... Tavba! Qancha o'ylasang ham, bunaqasi xayolingga kelmaydi!..Men esa, qanday yaxshiman...o'z ajdodlarimdan o'tib ketdim. Otam daraxtga o'xshardi: ursa ham tepsa ham tebranib turaverardi.

– Hech bo'lmasa siz, Xioniya Alekseyevna, iltimos, bizni yolg'iz qoldirmang, – dedi Marya Stepanovna nega bunday deytganini o'zi ham bilmasdan.

– Rahmingiz kelsin, Marya Stepanovna: men atayin sizni ogohlantirish uchun keldim, – faxr bilan so'z qotdi Xioniya Alekseyevna qoqsuyak qo'llari bilan Verochkaning korsetiga tegishga befoyda urinarkan. – Ox, Verochka...Axir bu daxshat-ku: ayol kishi uchun eng muhimi bel... Ba'zi erkaklar ayollarning dastlab beliga, so'ngra yuziga boqadilar.

– Nima qilay, Xioniya Alekseyevna? – yig'lagudek so'radi bechora qiz.

– Endi hech narsa qilolmaysan...Siz esa, uloqcham, ovqatdan nafsingizni tiysangiz – belingiz ham, qomatingiz ham juda go'zal bo'ladi. Biz yanada chiroyli ko'rinish uchun pansionda sirka ichardik hatto ohak ham yerdik...

Bu uyda yashaydiganlar orasida mazkur shov-shuvli to'polonlarda qatnashmagan yagona odam Baxarevning kenja o'g'li, Viktor Vasilich edi. U uyning eng ichkarisida joylashgan, oynalari boqqa qaragan xonada dam olib yotardi. Tonggi oltiga yaqin «arang sudralib» uyiga yetib kelgan, kiyimlari bilan eski divanga yotdi shu holda uxlab qoldi. Ayni paytda u egnida tamaki rangli g'ijim kamzul,



bir oyog'ida etik bilan dong qotib yotardi. Poyabzalining ikkinchisi esa tilladan ishlangan qo'isoati bilan birga divan yaqinida yotardi. Qora qalin qoshlari, kalta echkisoqoli va oqargan yuziga qarab bu yigitni unchalik ham chiroyli deb bo'lmadi. Ammo shu bilan birga o'ziga xos edi: burun kataklari biroz shishgan va ingichka, hissiz va doimiy chimirilgan lablari uning yuziga qaysar va erkatoy bola tusini berardi. Iorning uni uyg'otishga bo'lgan barcha harakatlari besamar ketdi: Viktor Vasilich har safar uni urib-tepib haydadi.

Igor eshik oldiga borib, favqulodda vaziyat tug'ilsa qochib qolishga oson tarzda joylashib oldida so'z qotdi:

– Sizni darhol uyg'otishimni buyurdilar. Janob Privalov mehmonga keldi.

– Yana qanaqa Privalov.... Hech qanday mehmonni bilishni istamayman. Menman Privalov...jin ursin!.. – qichqirdi Baxarev va Igorga etigini uloqtirdi. – Kecha bo'kkuncha ichganmisan deyman, nima deytganingni bilmayapsan!.. Privalovni xotini oynadan uloqtirgan. U allaqachon o'lib ketgan, sen bo'lsang: «Privalov keldi...» deyapsan. Ahmoq!

– O'zingiz bilasiz, – dedi Igor arazlagandek eshik oldida turarkan.

– Hozir bilganim shuki, sening daf bo'lishingni istayapman!

– Ehtimol, ma'danli suv yoki nashatir spirti lozimdir.....bosh og'rig'ini bir zumda qoldiradi.

– Sen men bilan qanday gaplashyapsan...

– Menga nima...menga baribir, – piching qildi Igor, eshik tarafga chekinib. – Sizni foydangizni ko'zlayapman-ku...Garchi siz ikki marta poshnangiz bilan yelkamni «siypalagan» bo'lsangiz ham. Mana sizga belgi...

– Seni ko'chaga uloqtirmasimdan, o'sha belgi-melgilaring bilan daf bo'l.

Igor ko'zdan yo'qoldi. Baxarev ko'zlarini ochishga harakat qildi, ammo kechagi ziyofatdan keyin boshi otilib ketay derdi. Shu bois, ko'zlarini qayta yumdi.

«Bu Irkutsklik savdogarlar ichishni qoyillatisharkan... Juda ko'p ichar ekanlar! – o'zicha mulohaza qildi u. – Ivan Yakovlich-chi... qari ko'ppak»

## IV

Privalov Baxarevning xonasiga kirganida, qariya yozuv stoli oldidagi qadimiy kreslosida o'tirardi. Mehmonga peshvoz chiqish uchun o'rmidan turmoqchi bo'ldi, ammo shu zahoti bo'shashib o'tirib qoldi va tashvishli ohangda so'zladi:

– Sen...siz....qayerdan bunday...to'g'risini aytganda, boshga yoq-qan qor singari kutilmaganda... Darvoqe, salom!

Qariya Privalovning boshini mahkam quchoqlaganicha o'ziga tortib, bir necha marta peshonasidan o'pdi va uni quchog'idan bo'shatmay so'z qotdi:

– Qanday ajoyib bo'libsan...a! Otangni o'zi bo'libsan, otangni... bizning Uzelga qachon kelding?

– Bugun tunda, Vasiliy Nazarich.

– Ha, ha, tunda, – ma'qulladi qariya, bir narsani eslashga harakat qilib. – Ha, bugun tunda...

– Marya Stepanovnaning salomatligi qanday?

– Kampirimmi? Yaxshi, ibodatda...Yo'q, chindan, sen juda ajoyib bo'libsan...!

– Men eng avvalo, sizga rahmat aytishim kerak, Vasiliy Nazarich... – dedi Privalov qariyaning qarshisidagi kresloga joylasharkan.

– Rahmat aytishim, dedingmi?

– Ha, chunki sizni oldingizda qarzim katta, Vasiliy Nazarich.

– E, oshna, bunaqa gaplarni qo'ysangchi. Bizni oramizda hech qanaqa qarzdorlik yo'q... Aksincha, bizni yo'qlab kelganing uchun men senga rahmat aytaman. Allaqachon kelishing kerak edi. Xo'sh, o'zingni ishlaring qalay?

– Bari o'sha-o'sha, Vasiliy Nazarich.

– Ha...yaxshi tarafga o'zgargandir, deb o'ylagandim. Mayli, hali sen bilan bu haqda gaplashishga ulguramiz. To'g'risi, sen juda o'zgarib ketibsan...Afsus, rahmatli otang Aleksandr Ilich bu kunlarni ko'rmadi...Aytganicha, sen uni ayblama. Hali yoshsan, bu ishlarga uncha tushunmaysan.

– Buni juda yaxshi tushunaman, Vasiliy Nazarich.

– Yo'q, sen ayblama. Gunohini bo'yningga olma...

Baxarev chayir qomati, keng yelkalari bilan o'tirgan joyida og'ir o'girildi. Uning boshi katta, siyrak sochlari va soqoli oppoq bo'lib,

o'ziga xos nuroniyligi bilan go'zal edi. Uncha katta bo'lmagan ta'sirchan kulrang ko'zlari sovuq va qahrli boqardi, ammo, ayni paytda sevgi va mehrga liq to'la edi. Kulrang qoshlari va cho'chchaygan lablari joylashgan hissiz yuzidagi eng ajablanarli jihat uning tabassumi edi. U butun yuzini yoritib turardi. Faqatgina bolalar yoki nihoyatda jiddiy va quvvatli qariyalargina bunday kulishi mumkin.

Baxarevning xonasi ikkita deraza orqali ko'chaga, uchta deraza orqali hovliga qaragandi. Devorlarga kamtargina qilib jigarrang gulqog'oz yopishtirilgan, derazalarga ko'k rangli shtof pardalar tutilgandi. Bu xonada hamisha yarim qorong'ulik hukmron edi. Polga qalin fors gilami to'shalgan. Stol qarshisidagi devor oldida pastakkina turk divani o'rnatilgan, bir burchakda temirdan ishlangan o'tda yonmas shkaf, narigi burchakda esa qavatli shkaf joylashgan edi. Yozuv stoli ustida hisob qog'ozlari, ish kitobi va bir qancha hujjatlar tartib bilan terib qo'yilgandi. Toshidan ishlangan yozuv moslamasiga «V.N.Baxarevning asosiy kon boshqarmasi» deb sarlovha qo'yilgan qog'ozlar qog'oz qisqich o'rni bir necha funt og'irlikdagi platinadan ishlangan maxsus qisqich bilan qistirilgandi. Xonaning eng ko'zga tashlanadigan joyida tilladan ishlanib, moviy kristallar bilan zeb berilgan ramka o'rnatilgan edi. Unda to'rtta farzandi bilan tushgan Marya Stepanovnaning rangi o'chgan va sarg'ayib ketgan surati osig'liq turardi. Divanning yuqorisida esa qora daraxtdan o'yib ishlangan shoxona ramkada moyli bo'yoq bilan chizilgan surat osilib turardi. Unda Sibir tog'lari qariidagi tashlandiq konlarning manzarasi bor bo'yi bilan tasvirlangan edi. Unda oltinni qazib olayotgan bir guruh konchilar old planda tasvirlangan edi. O'ng tarafda qazib olingan ma'danni yuvish mashinasi turardi. Bilmagan odam uni yog'ochdan ishlangan allaqanday arava deb o'ylashi mumkin edi. Suratning orqa planida esa kon boshqarmasining ulkan binosi tasvirlangandi. Sibirning zich o'rmoni qurshovidagi baland tog'lar esa ufqni to'sib turardi. Bu Sibir oltin qazib olish yilnomalarida ma'lum-u mashhur bo'lgan Varvarinskiy koni bo'lib, u o'z vaqtida Vasiliy Baxarev hamda Aleksandr Privalovlar tomonidan Sayan tog'lari qariida nomsiz daryo qirg'og'ida ochilgandi. Kon Sergey Privalovning onasi – Varvara Pavlovna sharafiga Varvarinskiy deb nomlangandi.

O'n besh yil davomida bu xonada deyarli hech narsa o'zgar-  
magani Privalovni ayniqsa xayron qoldirdi. Xuddi o'n besh yil avval  
bo'lganidek, xonada barchasi oddiy va sodda, hanuz o'sha-o'sha ish-  
chanlik muhiti hukmron edi. Privalov uchun bu yerdagi barcha narsa:  
xona ham, qariya ham, va xatto qimmat sigara tutuni bilan to'yingan  
havo ham nihoyatda yaxshi tuyuldi.

Qariya Baxarev tomonidan yuz minglab rubl daromad keltirgan  
g'oyalar o'ylangan va qat'iy qarorlar qabul qilingan xona muhitini  
Privalov aynan shunday tasavvur qilardi.

– Nega bu yerda o'tiribmiz? – uning qo'lidan tutdi Baxarev. –  
Yur, kampirinning yoniga boramiz... Sendak ajoyib yigitni ko'rsa  
boshi osmonga yetadi. Yuraqol, qadrdonim!

Qariya o'rnidan turishga harakat qildi, biroq shu zahotiy oq  
bo'g'i ingragancha qayta o'tirib qoldi. Oyog'idagi og'riq o'zini  
eslatgan edi.

– Ruxsat eting, sizga ko'maklashay, – taklif qildi Privalov.

– Yo'q rahmat, bu seni qo'lingdan kelmaydi, – dardli tabas-  
sum bilan dedi otaxon va qo'ng'iroqni chaldi. – Luka esa bu ishlar-  
da ustasi farang. Ha...Oltin davrimiz o'tib ketgan ko'rinadi, Sergey  
Aleksandrich, – dedi Baxarev g'amnok. – Bugun oyog'im og'riyapti,  
ertaga qo'lim, shunday vaqt keladiki og'riydigan joy qolmaydi. Vaqt,  
qanchalar uchqur...a? Axir har bir soat qadrlil. Men esa qimmatli vaq-  
timni bu yerda, doktorlar bilan ovora bo'lib isrof qilyapman. Uxlolma-  
yapman ham. Bilasanmi, men bo'lmasam kondagi ishlar nima bo'lishi  
haqida o'ylasam, yurak-bag'rim ezilib ketadi. Agar imkonim bo'lganda  
allaqachon qanot chiqarib uchib ketgan bo'lardi. Biroq, o'rnimga kim-  
ni qoldiraman? Bir o'g'lim otasidan aqlliroq bo'lishni xohlaydi, yana  
biri...hozir o'zing ko'rasan! Axir qizlarni kongga yuborib bo'lmaydi-ku.

Lukaning ko'magi bilan Baxarev bir amallab o'rnidan turdi va bir  
oyog'ini bazo'r bosganicha eshik tomon yurdi.

– Ko'rdingmi Luka, biz sen bilan shunday quvonchli kunlargacha  
yashadik, – dedi Baxarev, sadoqatli xizmatkorining yelkasiga suyan-  
ganicha. – Ko'rdinmi, qanday azamat?

– Darhaqiqat ajoyib, Vasiliy Nazarich!..Men hatto tanimadim  
ham...butunlay boshqa odamga aylanipti, desa ham bo'ladi. Bir vaqt-  
lar Kostenka bilan gimnaziyada o'qishardi...

– Yanami? – ezmalanayotgan qariyaning gapini cho‘rt kesdi Baxarev. – Kelishuvni unutdingmi?

– Tavba qildim, boshqa unday qilmayman, Vasiliy Nazarich!.. Shunchaki, quvonchdan tilimni tiyolmay qoldim...

– Quloq sol, bu yerga necha kunga kelding? – so‘radi Baxarev, eshik oldida to‘xtab. – Boyadan beri gap sotib eng muhimi haqida so‘rashni unutibman...

– Butunlay qolish haqida o‘ylayapman, Vasiliy Nazarich.

– Xudoyim, o‘zingga shukr, – ulkan xochni siypalarkan mehr bilan dedi Luka.

## V

Privalov Vasiliy Nazarich ortidan yurib borar ekan so‘nggi urfda bezatilgan bir nechta xonalardan o‘tdi. Qimmat yumshoq mebellar, gilamlar, deraza va eshiklarning bronza tutqichlari, ipakdan ishlangan darpardalar – bularning bari avvalgi kamtarona xonaga solishtirganda nihoyatda dabdabali ko‘rinardi. Moviy rangda bo‘yalgan kichik mehmonxonada Bekker royali yaraqlab turardi. Bu Privalov uchun chindan yangilik bo‘ldi va u royal ustida turgan notalar to‘plamiga qiziqib qaradi.

– Hozir kampirim bilan alohida yashayapmiz, – jilmayib qo‘ydi Baxarev oshxona oldida nafas rostlash uchun to‘xtaganda. – Zamonaviy munosabatlar, degandek... U men tarafga qadam bosmaydi. Agar zarur bo‘lib qolsa, mana shu oshxonada uchrashamiz.

Oshxonaning ayni shu yeridan uyning Marya Stepanovnaga tegishli hududi boshlandi va shu zahotiyoq Privalov o‘zini uydagidek his qila boshladi. Bu yerdagi hamma narsa mayda jihatlarigacha unga tanish va bolalik xotiralari bilan bog‘langandi. Poldagi ranggi o‘chgan qimmatbaho gilamlar, o‘ymakorlikning yuksak namunasini o‘zida aks ettirib qizil yog‘ochdan yasalgan qadimiy mebel, bronzadan ishlangan qandil va shamdonlar, malaxit vazalar va burchaklardagi marmar stollar, kumushdan ishlangan eski oshxona soatlari, o‘xshamagan ammo qimmat ramkalarga solingan suratlar, deraza oynalariga chizilgan gullar va qadimiy yozuvlar oldidagi stol chiroqlari – bularning bari uni bolalik chog‘lariga, bu oilaning a‘zosi bo‘lgan, ushbu shinam va pastakkina xonalar o‘z-o‘ziniki bo‘lgan damlarga

olib ketdi. Hattoki bu xonalarning havosi ham o'sha-o'sha ko'ngilga yaqin, samimiy iforlar bilan to'yingan holatida qolgan edi.

– Ana Marya Stepanovnaning o'zlari, – dedi Vasiliy Nazarich unchalik katta bo'lmagan to'q qizil rangdagi mehmonxonaga kirganlarida.

Marya Stepanovna eskicha uslubdagi havorang sarafan kiygan holatda namoyon bo'ldi. Xonim Privalovning ko'z o'ngida daroz qomatli o'sha-o'sha go'zal ayol sifatida gavdalandi. Ayolning qo'lini o'pmoqchi bo'ldi, biroq Marya Stepanovna eski kunlardagi kabi uni bag'riga bosdi, yuzini yuziga tekkizdida va quruqshagan lablari bilan o'pib qo'ydi.

– Sen bir qara. Masha, qanday azamat...a? – takrorladi Vasiliy Nazarich, Lukaning yordami bilan kursiga cho'karkan.

– Onasiga, Varvara Pavlovnaga tortgan, – dedi Marya Stepanovna Privalovga boshdan oyoq razm solib.

– Shu yerda yanglishding, – e'tiroz bildirdi qariya. – U marhum Aleksandr Ilichga ikki tomchi suvdek o'xshaydi. Quyib qo'ygandek uning o'zi.

– Yo'q, onasining xuddi o'zi!

Bu masalada chol-kampir o'zaro bahslashishdi. Biroq har ikkisi ham o'z fikrida qoldi.

– Seni qara-yu, begona o'lkada o'zligingni unutib qo'ydingmi? – So'radi Marya Stepanovna mehmondan. – So'rashganda yuzingni qanday tutish kerakligini ham esdan chiqaribsan. Ibodatni ham pichirlab qilyapsan shekilli?...

– Yo'g'-e, eski odatlarni nega esimdan chiqaraman, – deya javob berdi Privalov tanbehdan xijolat bo'lib.

– Eskilardan hech kim qolmagan, deb hisoblayver, – dedi Marya Stepanovna g'amgin ohangda. – Qariqiz Razmaxnina amal-taqal qilib yuribdi, ha, yana Kolpakova ham bor... Ularni eslaysanmi?...

– Albatta, esimda.

– Yaxshi odamlar o'lib ketishdi va bizga yo'l ochilyapti, – qo'shimcha qildi Baxarev. – Sergey Aleksandrich, sen bir paytlar gimnazistlardan eding. Endi esa...

Oraga og'ir sukunat cho'mdi; ayni paytda ular uzoq vaqt bir-birini ko'rmagan odamlarni chulg'ab oluvchi tuyg'ular ta'sirida

edilar. G'ira-shira dahlizdan bu holatni kuzatib turgan Xioniya Alekseyevna bu vaziyatdan unumli foydalandi. U Nadejda Vasilyevnani mehmonxonaga deyarli itarib olib kirdi va ketidan o'zicha cho'qintirgan bo'ldi.

– To'ng'ich qizim, Nadejda, – dedi beixtiyor Vasiliy Nazarich farzandi bilan faxrlanuvchi har bir otaga xos g'urur bilan.

Privalov qiz bilan salomlashdi va nimanidir eslashga urinib, bir zumga uning hayrat to'la ko'zlariga tikilib qoldi. Katta-katta va to'q-jigarrang ko'zli bu qizning yuzida uning uchun juda tanish va shu bilan birga butunlay yangicha jihatlar ko'p edi.

– Kostya bilan Peterburgga jo'nab ketgan paytingizda Nadya endigina besh yoshga kirgandi, – ta'kidladi Marya Stepanovna qiziga o'z yonidan joy berarkan.

– Tushlik tortildi, – deya xabar berdi shu payt eshikdan kirib kelgan Igor.

– Bizda hammasi hanuz o'sha-o'sha, tushlik soat o'n ikkida, – izoh berdi Marya Stepanovna, o'rnidan turib. – Kechki soat sakkizda esa, odatdagidek, kechki ovqat uchun stol atrofiga yig'ilamiz.

– Ha, kim ham kunduzgi o'n ikkida uyqudan turardi, – ta'kidladi Privalov.

– Xo'sh, senchi?

– Kim biladi, Marya Stepanovna. Agar Uzelda yashasam, men ham tushlikni o'n ikkida qilishga urinib ko'raman.

– Shunday qilsang yaxshi bo'ladi, – dedi Marya Stepanovna xursand bo'lib; Privalovning javobi uni juda mamnun qilgandi. – Sen eski odatlarni hech qachon unutma, – deya uqtirdi u oshxona tomon ketib borisharkan. – Ajdodlaring qanday odamlar edi... a? Axir ular qadimdan qadriyat va urf-odatlarning ustuni edilar-ku. Yangi odatlar haqida eshitishni ham istashmasdi, ammo asrlar davomida hech kimdan kam bo'lishmagan. Bobong Paveo Mixaylich Gulyayevni olaylik. U besoqollar va kashandalar bilan bir tovoqdan ovqat yegandan ko'ra och qolishni afzal bilardi. Qara sen uchun qanday uy qurib ketdi. Ellik yildan beri mustahkam turibdi, shu holida yana ikki yuz yil bemalol turadi. Hozir yer yuzida bunday odamlar qolmadi hisob.

Marya Stepanovnaning so'zlari Privalovning qulog'iga kirmasdi. Uning xayoli otasi bilan kelayotgan Nadejda Vasilyevnada edi. Qiz

Privalovni go‘zalligi bilan emas, balki, boshqalarda uchramaydigan allaqanday o‘ziga hosligi bilan maftun qilib qo‘ygandi.

– Kichik o‘g‘lim va kenja qizim, – Vasiliy Nazarich ularni oshxonada kutib turgan Verochka va Viktor Vasilichni ana shunday qisqagina qilib tanishtirdi.

– Bu esa oilamizning yaqin do‘sti, Xioniya Alekseyevna, – deya Zaplatina xonimni tanishtirdi Marya Stepanovna Privalovning ta‘zimiga javoban.

– Mamnun bo‘ldim, – xuddi tushida gapirgandek takrorladi Privalov Viktor Vasilichning qo‘lini qisib.

– Men ham xursand bo‘ldim, – deya javob berdi Viktor Vasilich ortiqcha takallufsiz oyoqlarini yirib olgancha, Privalovga bosh-oyoq razm solarkan. U endigina uyg‘ongani bois ko‘zlari qizargan, surtugi esa qiyshayib turardi.

Verochka pushti ko‘ylagida yal-yal tovlanardi. Uning fikricha barchaning nigohi unga qadalgandi; shu bois, uyalib yana ham qizarib ketdi... «Kuyov...» – o‘yladi u shirin entikish bilan ko‘zlarini pasga qadagancha. Privalov uyatchan Verochkaga qiziqish bilan qaradi va o‘zini uzoq safardan so‘ng uyiga qaytib kelgan odamdek juda yaxshi his qila boshladi. U ayni paytda doimiy shovqin, to‘polon va bola kulgusi bilan Baxarevlar uyida hukmron tantanali sukunatni buzib turadigan ikki qizaloqni xotirladi. Shu boisdan ularni «bulochka» deb atashardi... Privalov Verochkaga boqarkan yuziga yugurgan tabassumini zo‘rg‘a yashirdi: o‘n olti yoshda bo‘lishiga qaramay u hali-hanuz «bulochka» edi. Ana shu bir lahzalik xotira Privalovni o‘sha uzoq va baxtli paytga, o‘zini hali Baxarevlardan ajratmagan vaqtlarga olib ketdi. O‘sha vaqtdagi o‘ziga xos va maxfiy tushliklar aynan shu oshxonada bo‘lib o‘tardi. Yosh Privalov qattiqqo‘l Marya Stepanovnadan o‘lgudek qo‘rqardi. Ayniqsa, tushlik payti u o‘zini yanada jahldor qilib ko‘rsatardi: hech kim ortiqcha bir og‘iz so‘z aytishga jur‘at qilmasdi. Faqatgina Vasiliy Nazarich uyda bo‘lgan vaqtlarda bu zerikarli tushlikdagi holat bir oz yumshardi.

– Mehmondorchiligimiz uchun bizni aybga buyurmaysan, – dedi Marya Stepanovna mehmonga rus milliy ovqati hisoblangan «Shi» sho‘rvasidan suzarkan. Ta‘kidlash joiz, Marya Stepanovna oshxonalarida tayyorlanadigan ushbu taom bilan nihoyatda faxrlanardi va



Dosifeyadan boshqa hech kim Shini bunday totli tayyorlay olmasligiga ishonchi komil edi.

Ko'k qushlar va ko'k daraxtlar tasviri tushirilgan qadimiy sopol idish tovoqlar ham xuddi avvalgidek edi: tutqichiga alohida ishlov berilgan kumush sanchqi va qoshiqlar ham o'sha-o'sha edi. Tabiiyki Dosifeya pishirgan Shi hanuz avvalgidek mazali bo'lib hidi ishtahani qitiqlardi. Privalov o'zi uchun qadrlı bo'lgan bu xonadonda yana o'ziga tanish narsalarni uchratganidan cheksiz lazzat tuyardi. Tushlik vaqtida o'tirganlar orasida doimgidek jiddiy va dilga yaqin suhbat davom etar. Marya Stepanovna esa bu jarayonda go'yo qirolichadek tasavvur uyg'otardi. Hatto Xioniya Alekseyevna ham millioner bilan ovqatlanish baxtiga musharraf bo'lganini o'ylab g'ayritabiiy haya-jon his qilardi. U o'zicha bir necha bor Privalov bilan suhbatlashish uchun urinib ko'rdi, ammo, uning harakatlari Marya Stepanovna tomonidan qo'llab-quvvatlanmagani bois, odob bilan o'z urnishlarini to'xtatdi. Biroq, bu hurmatli xonim yuz ifodalari uchungina ham taq-dirlashga lozim edi. U tushlik vaqti goh Privalov, goh Nadejda Va-silyevna tomon ko'zlari bilan imo qilib, Marya Stepanovnaga qarab chuqur uh tortar va yerga tikilardi.

– Hozirgi odamlar butunlay o'zlaricha bo'lib ketishgan, – o'zicha mulohaza qildi Marya Stepanovna. – Ularga yetib ham, bu haqda ay-tib ham bo'lmaydi.

– Nimasini aytasiz, juda g'alati kishilar, judayam! – xuddi or-kestrdagi ikkinchi skripkadek uning fikriga jo'r bo'ldi Xioniya Alek-seyevna.

– Onajon, shunaqa tuyuladi xolos, – dedi Nadejda Vasilyevna. – Bunday ahmoqlar avval ham bo'lgan, yaxshi odamlar esa hozir ham bor...

– To'g'ri aytding, – uning gapini tasdiqladi Viktor Vasilich. – Biz ham keksayganimizda «bizning davrimizda odamlar unday edi, bun-day edi» deb gapiramiz...Axir barcha qariyalar shunday deydi-ku.

– Sen hali David Lyaxovskiy bilan bu yurishingda keksalikka ye-tib borishing ham gumon, – dedi Vasiliy Nazarich.

– Eh, yoshlik, yoshlik, – shivirladi Xioniya Alekseyevna ko'zlarini yumib. O'n oltiga kirmagan kim bor...Shunday emasmi, Marya Stepanovna?

Biroq, Xioniya Alekseyevnaning burishgan, ajin bosgan yuziga qarab u ham qachonlardir, hatto juda uzoq o'tmishda ham o'n olti yosh bo'lganiga ishonish qiyin edi.

– Ehtimol, bizning klublarimizdan biriga obuna bo'larsiz, Sergey Aleksandrich? – deya so'radi Zaplatina *grande dame*'larga xos nazokat bilan...

– To'g'risini aytsam, bu haqda hali o'ylab ko'rmadim, – javob berdi Privalov. – Umuman olganda, klubga borishimga hojat bo'lmasa kerak...

– Albatta... Siz juda bandsiz. Ishingiz ko'pligini tushunaman. Ammo sizdek yoshlar uchun maroqli dam olish muhim ahamiyatga ega. Shunday emasmi? – dedi Xioniya Alekseyevna savol nazari bilan Marya Stepanovnaga qarab. – Biroq, sizga maslahatim, Ezgulik klubiga a'zo bo'lmang. U yer juda zerikarli va barchasi g'iybatchilar. Bizning Jamoatchilik klubida esa aksincha, bir dasta go'zal qizlar bilan qarshilashasiz. Ammo, bizga faqat Nadine yetishmayapti...Sizdagi fazilatlar, Nadine...

– Bu kashfiyotga qachon qo'l urdingiz, Xioniya Alekseyevna? – tabassum qildi Nadejda Vasilyevna.

– O, azizam, men doimo buni ta'kidlab kelaman...doimo!..Albatta, kamtarligingiz bois bu kabi havaskor spektakllarda qatnashishni xohlamaysiz, buni tushunaman.

Nadejda Vasilyevna kulgan payti, uning keng va oppoq peshonasida, chap qoshining tepasida xuddi Vasiliy Nazarichniki singari ajin paydo bo'ldi. Privalov bu tabassumni ham, qizning xuddi otasi singari chap yelkasi sezilar-sezilmas qimirlab qo'yganini ham ko'zdan qochirmadi. Umuman olganda, Nadejda Vasilyevna onasidan ko'ra ko'proq otasiga tortgani bir qarashdayoq bilinardi. Unda Luka bir so'z bilan – «tug'ma», deya ta'riflaydigan Baxarevlar shaxsiyatining eng inja jihatlarigacha namoyon edi.

Tushlik yakuni ancha jonli tarzda kechdi. Xioniya Alekseyevna tilini tiyishga qancha urinmasin, yakunda baribir shaharning so'nggi mish-mishlarini to'kib-soldi. Shu bahona Privalov ham Plovodovning aqlli inson ekanini, biroq manmanligi sabab unga saboq be-

---

<sup>1</sup> Kibor xonim (fr.).

rib qo'yish kerakligini bilib oldi. Atigi bir necha kun oldin Xioniya Alekseyevna buning uchun qulay imkoniyatga ega bo'ldi, biroq singlisi Anna Pavlovna sabab undan foydalana olmadi. Anna Pavlovna yoshlar qatorining avvalida turmasa-da, o'zini eng oldi safda deb hisoblardi...va hokazo..va hokazo...

– Nimalar deyapman o'zi? – o'zini tutdi Xioniya Alekseyevna. – Axir Plovodov va sizning himoyachilaringiz-ku, Sergey Aleksandr-ich, – ularni siz yaxshiroq bilasiz.

– Shaxsan men ular bilan to'qnash kelmaganman, – javob berdi Privalov.

– Ha, bo'lmasamchi...Nikolas Veryovkin... axir siz, adashmasam, u bilan universitetda birga o'qigansiz.

– Ha, birga o'qiganmiz.

– Uning qanchalar aqlli inson ekanini siz tasavvur ham qilolmaysiz, Sergey Aleksandr-ich. Savdogarlar uni boshlariga ko'tarishadi... Uning fikrlarini aytmaysizmi! Yaqinda prokuror-ning ayblov nutqiga shunday javob berdi: «Muhtaram sudya va sud maslahatchilari... Men janob prokurorning nutqini, qo'liga qoshiq tutib karam sho'rva olib uni og'ziga emas balki qulog'i-ga olib borgan insonga o'xshatdim. Tushunyapsizmi: hayrat va zavq».

– Mijozlaridan Veryovkinning bunday zakovati ular uchun qancha-haga tushishini so'rab ko'rish kerak, – ta'kidladi Baxarev.

– Ex, Vasiliy Nazarich...Shubhasiz, Nikolas katta foyda keltiradi, ammo biz shunday davrda yashayapmizki...Fikrimga qo'shilasizmi, Marya Stepanovna?

Bu vaqtda Marya Stepanovna boyadan beri Xioniya Alekseyevnaning ustidan kulib o'tirgan Verochka va Viktor Vasilichga tanbeh berish bilan ovora edi. Shu bois bu savolni javobsiz qoldirdi. Ish shu darajaga borib yetdiki, kulgusini tiyishga harakat qilganidan lola-dek qizarib ketgan Verochka, likopcha ustiga engashib olgandi. Agar yana bir tomchi bo'lsa qiz yorilib ketardi va barcha bu uy bunyod etilgandan buyon hali hech kim eshitmagan kuchli qahqaha guvohi-ga aylanardi. Tushlik tugab, barcha o'midan turganigina Verochkani qutqarib qoldi va u hech kimga bildirmay oshxonadan qochib chiqib ketdi.

Tushlikdan keyin Vasiliy Nazarich, Luka va Privalov ko'magida o'z xonasiga chiqdi. Odatiga ko'ra, Baxarev bu vaqtda biror soat mizg'ib olishni yaxshi ko'rardi. Tabiiyki, Privalov uning bu odatini bilardi va shuning uchun tezda chiqib ketmoqchi bo'ldi.

– Shoshma, chiqib ketma, ayollar bilan gaplashishga hali ulgurasan, – to'xtatdi uni Baxarev va kasal oyog'ini qo'yib o'tirgan divan oldidagi kursiga o'tirish uchun ishora qildi. – Xolostovning o'limi..., – qariya bu familiya bo'g'ziga qadalib turgandek uni aytishga ancha qiynaldi. – Axir o'sha voqea sodir bo'lganda sen shu yerda eding-ku, shundaymi?

– Yo'q, o'sha vaqtda men Peterburgda edim, – javob berdi Privalov, savolga unchalik tushunmasdan.

– Juda g'alati... Xolostovning qarzi vazirlik tomonidan sizlarning zavodlaringizga o'tkazilganini qanday bilding?

– Uning o'limi haqida telegramma olishim bilan hujjatlarni tartibga solish uchun darhol vazirlikka bordim. Voqea tafsilotlarini o'sha yerdagi mansabdor tanishlarimdan o'rgandim. Aytishlaricha, Xolostov bilan bog'liq ish uning o'limi sodir bo'lgan vaqt bilan bir paytda, ya'ni Xolostov ayni stol ustida yotgan vaqtda hal bo'lgan. Vazirlik uning qarzlarini huddi o'sha vaqtda zavodlarga o'tkazgan ekan.

– Bu xabar meni adoyi tamom qildi, – dedi Baxarev g'amnok. – Bu adolatdan emas... Xolostov sizning o'gay otangiz va homiyingiz sifatida firibgarlik yo'li bilan millionlab qarz oldi, to'g'ri, bu firibgarligi uchun sud qilishdi va barcha huquqlaridan mahrum etib, Sibirga surgun qildilar. Biroq o'lumidan keyin o'sha qarzlarning barchasi – merosxo'rlari, ya'ni, sizlarning bo'yingizda qoldi. Bundan tashqari, Xolostov ishi o'n yil davomida orqaga surib kelindi va uni narigi dunyodan boshqa joyga surgun qilish imkonsiz bo'lgandagina bunday hukm chiqarilishi... Buni tushunish mumkindir, chunki Xolostov o'z vaqtida kuchli odam bo'lgan va eski boyvachchalar uni qo'llashardi; ammo, uning shaxsiy qarzini, buning ustiga boshqalarni aldash yo'li bilan o'zlashtirib yeb yuborgan pullarini merosxo'rlari bo'yniga ilish...buni hech qachon tushunolmayman. Keyin, zavodlarni davlat vasiyligiga o'tkazish paytida

muhandis Masman tomonidan olingan yetti yuz ming – ular ham zavodlar hissasiga yo'naltirildimi?

– Ha, u pullarni to'lash ham bizning bo'ynimizda. Chunki davlat bu mablag'ni Masmanga zavodlarning faoliyatini jonlantirish uchun ajratgandi.

– Yaxshi. Biroq Masman pullarni qayerga ishlatgani haqida haligacha hech qanday hisobot topshirmadi-ku, shundaymi?

– Hech qanaqa hisobot ham, izoh ham bermadi.

– Senga o'sha vaqtda ham yozgandim, bu masalani hal qilish uchun nima bo'lishidan qat'i nazar Masmanni ham shu ishga tortish kerak edi.

– Vasiliy Nazarich, axir zavodlar davlat vasiyiligiga o'tkazilganiga deyarli o'n yil bo'ldi... Shuncha urinishlarga qaramay men qayerdadir bunday hisobotning mavjudligini aniqlolmadim. Men nazorat bo'limiga ham, kon departamentiga ham, dvoryanlar vasiylik bo'limiga ham murojaat qildim. Barchasidan bir xilda: «Hech narsa bilmaymiz...Boshqa joydan surishtirib ko'ring» degan javob oldim.

– Masman Peterburgda yashaydimi?

– Ha, qishda Peterburgdagi, yozda esa Qrimdagi shaxsiy mulklarida yashaydi.

– Sizlarning pulingizga olgan shaxsiy mulkida, shundaymi? Ha-ha-ha...Unikida bo'lganmisan?

– Ha, ko'p borganman.

– Doim «betob» bo'ladi yoki «qabul qilmaydi»mi? Ablahlar...

Vasiliy Nazarich labini tishladi va o'midan og'ir qo'zg'alib qo'ydi.

– Sen, foizlari bilan qo'shib hisoblaganda bu ikki qarzning miqdori qancha ekanini bilasanmi?

– Taxminan to'rt millionga yaqin...

– Ha. Otang vafot etgan vaqtda zavodlarning bir tiyin ham qarzi yo'q edi. Qog'ozlar arzimagan chaqalar yozilgandi xolos. Ammo o'gay onang Xolostovga turmushga chiqqandan so'ng, u ablah uch yil ichida otangdan qolgan pullarning barini yeb bitirdi. Yetmaganiga, zavodni butunlay xonavayron qilib millionlik qarzga botirib qo'ydi. Men zavodlar davlat vasiyiligiga o'tkazilsa, oyoqqa turib ketmasa ham, hech bo'lmasa zarar keltirishdan to'xtaydi, deb umid qil-

gandim. Biroq bu orada ishga Masman aralashdi va bir yil ichida zavodlarga yangi millionlik qarz olib keldi. Zavodlar vasiylik boshqarmasiga o'tganida esa, ishlar asta-sekinlik bilan o'z yo'liga tushishiga ishonдим. Kostya mana besh yildirki u yerda mahkum kabi ishlaydi. Uning harakatlari bilan zavodlar yiliga uch yuz ming dividend keltirishni boshladi. Lekin bu pullar qayerga ketyapti?.. Axir to'r millionlik qarzni to'lash uchun zavodlarni oyoqqa turg'izish shart; so'ngra tushgan foydadan qarz foizlarining hech bo'lmasa bir qismini yopish kerak edi. Nihoyat, undan qolgani merosxo'rlarning zimmasiga o'tardi. O'gay onang o'ziga tegishli o'n to'rtinchi qismini oldi, siz uchchalangiz...

– Mening ulushim to'laligicha muammolarni hal qilishga sarflandi, Vasiliy Nazarich.

– Nahotki buni bilmasam...Yaxshi, sen uni ko'rdingmi...o'gay onangni, demoqchiman.

– O'zim ko'rmadim, ammo u haqda ko'p eshittim.

– U hali ham Moskvadami?

– Ha. Ikkinchi ukam telbalikdan aziyat chekmoqda. Kichkinasi, Tit esa, dom-daraksiz g'oyib bo'lgan.

– Eshittim, eshittim...Mening fikrimcha, bu ishda nimadir bor.

– Endi bu haqda bir narsa deyish qiyin, Vasiliy Nazarich.

– Hozirgi vasiylaringizni olaylik: Lyaxovskiy – uzoq yillar davomida borini so'rib tugatdi, ammo uni qo'lga tushirish juda qiyin; Plovodov esa o'z ulushini olish imkoni bormi yoki yo'qmi, hozircha faqat kuzatib turipti. Men vasiyligimda hech bo'lmasa barchasini oydinlashtirish uchun harakat qildim. Buning natijasida Lyaxovskiy bilan nizo kelib chiqdi va vasiylikdan voz kechdim. Ammo mening o'rnimga dabdurustdan Plovodov tayinlandi. Bilganimda edi... Men Lyaxovskiyni qo'rqitib qo'yishni xohlagandim, ammo barchasi boshqacha bo'lib ketdi. Bunday bo'lishini kim ham o'ylapti, deysan. Qizishib ketdim va ishni rasvo qildim.

– Nega unday deysiz, Vasiliy Nazarich?

– Meni o'rnimda yashab ko'rsang, nimanı his qilayotganimni tushunib olarding. Azizim, bu yorug' dunyoda yashash juda qiyin: har tarafda adolatsizlik, yolg'on, razolat. Axir, siz yetimlarni ochiq-

chasiga taladilar-ku. Otangiz sizlarga binoyidek yurib turgan Shatrov zavodlarini qoldirgandi: o'sha vaqtda ularning bahosi olti milliondan baland edi, hozir esa qarzlari hisobiga to'rt million ham berishmaydi. Zavodlar joylashgan maydonning o'zi to'rt yuz ming desyatina... Eh-he! Shatrov zavodlari qarzga botib ketgani uchungina sotiladigan kunlarga yashayman, deb hech o'ylamagandim. Axir ushbu zavodlarning yarmi Gulyayev kapitali hisobiga bunyod etilgan-ku. Pavel Mixaylich esa ularni deb hatto o'z qizini halok qilgandi... Mayli, bo'lar ish bo'ldi, men endi dam olmoqchiman, sen ayollarning oldiga bor.

Ammo, dam olish haqida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Baxarev hayajonlanganini sezdirmaslik uchungina Privalovni xonasidan chiqarib yuborgandi. U ancha vaqtgacha ko'zlarini shiftga qadagancha, xayollar ta'sirida qimirlamay yotdi. Ta'kidlash joiz, Privalovning paydo bo'lishi to'g'risida bu qariyani juda quvontirgan, ammo shu bilan birga, uning qalbida uzoq yillardan buyon to'planib yotgan iztirob va alamni ham yuzaga chiqargandi.

## VII

Xioniya Alekseyevna ular tomonga yaqinlashib kelayotgan Privalovning oyoq tovushlarini eshitishi bilanoq ketishga shoshildi. Verochkani qattiq o'pdi va Marya Stepanovnaning qo'lini siqib, so'zlariga urg'u berib gapirdi:

– Eski qadrdonlar o'zaro o'tirarsizlar, gaplaringiz yig'ilib qolganidir. Men sizlarga xalaqit bermay...

Privalov yolg'iz emasdi. Hanuz o'zini qanday tutishni aniq bilmayotgan Viktor Vasilich ham u bilan birga kelardi. Marya Stepanovna mehmonni o'z mehmonxonasiga boshladi. Dosifeya esa qadimiy shisha likobchalarga solingan bir necha xil murabbo va allaqanday xitoy idishida bir bo'lak asal mumidan olib kirdi.

– Nahotki bu Dosifeya bo'lsa? – so'radi Privalov. Gung xizmatkor bu vaqtda mehmonga yana bir bor razm solish uchun eshik oldida to'xtagandi.

– Xuddi o'zi...kampirsho esingdami?

– Ma'zur tuting, Kostya ikkimiz u bilan ko'p urishardik, – kuldi Privalov.

Gap o'zi haqida ketayotganini tushungan Dosifeya, imo-ishora orqali Kostenkani yoqtirmasligini va yaxshiyamki u bu yerda yo'qligini tushuntirdi. Shuningdek, Privalov bolaligida asal mumini qanchalar yaxshi ko'rgani ham esida ekanini bildirdi.

– Men hozir ham ularni yaxshi ko'raman, – deya javob berdi Privalov Dosifeyaga. Meni unutmaganing uchun rahmat...

Dosifeya quvonch bilan g'o'ng'illadi va g'oyib bo'ldi. Mehmonnavozlik Marya Stepanovna uchun muqaddas vazifa edi, shu bois u imkoni boricha mehmonga ikrom ko'rsatishga harakat qildi. Privalov esa uy bekasini ranjitmaslik uchun barcha noz-ne'matlardan tatib ko'rishi lozim edi. Marya Stepanovna Poluyanovlar, Kolpakovlar va Razmaxinlarning qayg'uli hikoyasini so'zlab berarkan, Privalov bularning barini maroq bilan tingladi. Ularning bari ayni paytda o'lib ketgan yoki xonavayron bo'lgan, o'rniga avlodlari yoxud umuman boshqalar kelib yangicha tartib, yangi hayot tarziga o'tishgandi. Gap orasida Marya Stepanovna Viktor Nazarichdan shikoyat qilishga ham ulgurdi. Aytishicha, unda yangilik qilishga intilish paydo bo'lgan. Xususan, katta qizini o'qitishni o'ylab topdi, xonasidagi mebelni yangisiga almashtirdi, soqolsizlar va tabashniklar bilan tanishishni boshladi. Bu shikoyatlar shunchalar kulguli, Privalov butun suhbat davomida nigohini Marya Stepanovnaning egnidagi sarafanga sochilgan mayda pushti va ko'k gullarga qaratib o'tirdi. Darvoqe, Marya Stepanovning sarafani juda qadimiy bo'lib, qutiga o'xshash og'ir ipak matodan tikilgan, uning egnida teriga o'xshab turardi: extimol, bir zamonlar firuza rangida bo'lgan, ammo ayni paytda zamonaviy *gris de perle*<sup>1</sup> edi.

– Sarafaningiz juda qadimiy ekan, – so'z qotdi Privalov.

Bu maqtovdan Marya Stepanovna qizarib ketdi. U har qanday qadimiy narsaga katta ehtirom bilan munosabatda bo'lar, ayniqsa, Pavel Mixaylich Gulyayevning rafiqasidan meros qolgan noyob sarafanlar to'plami «ona tomonidan qolgan» deya o'zgacha qadrlardi. Marya Stepanovna to'plamdagi har bir sarafanning tarixi bilan bog'liq voqealarni maroq bilan so'zlab bera olardi. Bu liboslar o'tmishda uning

<sup>1</sup> Kulrang (fr.).



uchun qadrlı bo'lgan, allaqachon hayotdan ko'z yumgan insonlar ha-yoti haqida so'zlovchi tarix edi.

– Axir bu sarafan buvingdan qolgan-ku, – dedi Marya Stepanov-na. – Pavel Mixaylich bu matoni Moskvadan olib kelgan...Hozir bu-naqa matolar qolmagan, – deya qo'shib qo'ydi kampirsho sarafan-ning g'ijimlarini qo'li bilan tekislarkan. – Bugungi xonimlar ko'ylak tikib ikki marta kiyadi bo'ldi, darhol yangisini oladi. Hozirgi matolar boshqacha, umuman, odamlar ham o'zgargan, avvalgidek emas.

– Onajonim, hozirgilar – haqiqiy odamlar, – dedi oldingi odamlar haqidagi gaplardan bezor bo'lgan Viktor Vasilich.

– Seni qara-yu...Haqiqiy insonlarnish!

– Demak, sizningcha men va Sergey Aleksandrıch ham hech nar-saga yaramas ekanmızda?

– Gapni aylantırma: Men bo'ladigan ishdan gapıryapman.

Verochka boyadan beri bu suhbatga aralashgisi kelar, ammo bir o'zi mehmonxonaga kirishga jur'at qilolmayotgandi. Shu bois Nadejda Vasilyevnaning panasida ular o'tirgan xonaga kirdi va Marya Stepanovna o'tirgan stul ortiga yashirindi. Qizlarning tashrifidan so'ng xonada bolalikdagi turli voqealar haqida suhbat boshlandi. Ta-biiyki, bu xotiralar chetdan qaragan odamga umuman ahamiyatsız, hatto kulgili tuyulishi ham mumkin, biroq bu yerda o'tirganlar uchun o'zgacha qadrlı edi. Privalov bolalik damlari bilan bog'liq ko'plab voqealarnı esidan chiqarishga ulgurgandi, shu bois Nadejda Vasil-yevna so'zlab bergan sari xotiralarnı yodga olish uning uchun juda maroqli kechdi. «Esingızdami?», «Bir safar Viktor...» Bu jumlarlar Privalovning qulog'iga moydek yoqar va taqdir taqazosi bilan uzoq-lashib ketgan bu xonadonning mehri taftini chuqur rohat bilan o'zida qayta his qila boshladi. Bu voqealarga ko'p bo'lgan, ammo shunga qaramay xuddi kechagina sodir bo'lgandek!

– Yetar, bo'ldi endi, ninachilar, – dedi keskinlik bilan Marya Stepanovna. Bunga sabab, bolalik xotiralaridan barchaning kayfiyati ko'tarilgan va biroz odobsız voqelar ham yodga olina boshlangandi. Qanchalar yaqin va qadrdon bo'lmasin, ayni paytda Privalov begona edi va ular haqida yomon xayolga borishi mumkin. Shu bois Marya Stepanovna bu mavzuga qat'iy tarzda yakun yasashga qaror qildi. – Biz boyadan beri bo'lar-bo'lmas narsalarnı gapirib yotibmız, sen esa,

Sergey Aleksandrich o'zing haqingda hali hech narsa aytib bermading.

– To'g'risi, nimani deyishni ham bilmayman, Marya Stepanovna, – javob berdi Privalov.

– Buni qara-ya! O'n besh yil davomida mamlakat poytaxtida yashading, qaytib kelgach aytadigan gap yo'qmi? Biz qishloqda yashasak ham, bir dunyo narsani gapirib tashladik.

– Juda g'alatisizda, oyi, – Privalovni himoya qildi Nadejda Vasilyevna. – Bordi-yu, Sergey Aleksandrich zavoddagi ishlari haqida gapirib bergan taqdirda ham biz hech narsani tushunmaymiz-ku.

– Axir biz o'n besh yil ko'rishmadik, Nadya...Mana bu sarafan shuncha vaqt sandiqda yotsa, bir dunyo yangilik bilan qarshimizga chiqadi: bu joyini kuya yegan, bu yeriga dog' tekkan. Sergey Aleksandrich esa sandiqda yotmagan. Aksincha, tirik odamlar orasida yashagan...

Marya Stepanovnaning so'nggi gapi Privalovni hayron qoldirdi: o'tmishiga nazar tashlarkan, u hanuz Marya Stepanovna nazarda tutgandek yashashni hatto boshlamaganini tan olishga majbur bo'ldi. Dastlab universitetdagi mashg'ulotlar bilan band bo'ldi, so'ngra meros bilan bog'liq yugur-yugurlar, hujjat yig'ish uchun idorama-idora qatnash, ish safarlari va kanselyariyaga borib-kelishdek zerikarli yumushlar bilan ovora bo'lib umrining yetti yili qanday o'tib ketganini sezmay qoldi. Hayotim hali oldinda, deb o'zi uchun yashashni ortga surib yuraverdi va qarabsizki umrining o'ttiz yili behuda sarflandi. Shu bois Marya Stepanovnaning ayollik hislariga tayanib to'g'ridan-to'g'ri bergan savoli Privalovni noqulay ahvolga tushirib qo'ydi. Uning sukuti sabab Marya Stepanovna yigitning o'tmishi haqida noto'g'ri xulosaga borishi mumkin edi. Shu bois Privalov universitet, professorlar bilan munosabat va poytaxt lazzatlari haqida so'zlab berishga majbur bo'ldi.

«Bu narsalar bizdagidan qanchalar farq qilarkin?» – deb o'yladi Viktor Vasilich. Uning xayollari allaqachon poytaxtning ko'ngilochar maskanlarida uchib yurardi.

## VIII

Barcha uchun muhim ahamiyat kasb etgan o'sha kuni oqshom payti Vasiliy Nazarich o'z xonasida, divanda yonboshlab yotardi. U har doimgidan ko'ra rangparroq ko'rinardi. Baxarev odatda og'riyotgan oyog'ini qo'yadigan pastak yog'och skameykada esa Nadejda Vasilyevna o'tirar, uning yuzlari qizargan, ko'zlari esa porlab turardi.

– Otajon, menga rahmingiz kelsin, – dedi u otasiga erkalanib. – O'zimni istagan odam kelib ko'rib, tekshirib, baho berishi va sotib olishi mumkin buyumdek his qilyapman... Bu esa ko'nglimni og'rityapti, ota. Bularning bari alamli va jirkanch tarzda amalga oshiriladi... Masalan, Privalovning bugungi tashrifini olaylik: agar uning qarshisiga buyum sifatida chiqmaganimda, unga bugungidan ko'ra yaxshiroq muomala qilgan bo'lardim. Faqat xushmuomalalik tufayligina tishlarimni tekshirib ko'rishmaydi shekilli...

– Privalov senga nisbatan qanday ayb qildi? – so'radi Vasiliy Nazarich nim tabassum bilan.

– Masalan, Xinadan boshlaylik, otajon. Ayting-chi, uning men bilan nima ishi bor? O'zicha bir narsalarni pichirlab, goh menga, goh Privalovga qarab nimagadir sha'ma qiladi. Uning jilmayishidan turli ma'nolarni uqish mumkin. Privalovning holati ham ahmoqona edi. Umuman, meniki ham undan yaxshi emasdi.

– Bilasanku, men hech qachon Xinani uyimizga taklif qilmaganman. Onangni ishlariga esa umuman aralashmayman.

– Ko'rasiz, onam va Xinaga qarshi borish uchun ham Privalovga turmushga chiqmayman... O'zimni qamal qilingan qal'a holiga tushirishni xohlamasligimni ularga ham aytdim.

– Nadya, hammasi sen aytgandek emas, ammo baribir men bu yerda Sergey Aleksandrichning biror aybini ko'rmayapman...

– Mana hozir...Uyimizda millioner Privalov paydo bo'ladi: men esa zarurat yuzasidan u bilan tanishaman va uning ajoyib sifatleri, iste'dodi va fazilatlarini kashf etaman. Qisqasi, yakunda: «Madame Privalova bo'lish unchalik ham yomon emas» degan fikrga boraman. Axir minglab qizlar mening o'rnimda bo'lganda xuddi shunday xulosa qilardilar...

– To‘g‘risi, hech vaqoga tushunmadim... Sen shunchaki «kuyov» degan so‘zdan asabiylashyapsan... Privalovni tarbiyali, aqlli va halol yigit sifatida tasavvur qilib ko‘r.

– Yo‘q, to‘xtang. Siz vaziyatga bir tomonlama baho beryapsiz. Tasavvur qiling, dunyoda Privalov degan millioner yo‘q va hech qachon bo‘lmagan. Uning o‘rnida millioner Sidorov uyimizga keladi va men barcha insoniylik fazilatlarimni jamlagan holda unga eshik ochaman. Yaxshi sifatlarini namoyon qilaman va «Madame Sidorova bo‘lish unchalik ham yomon emas» degan fikrga boraman. Bundan bitta xulosa kelib chiqadi: uyimizga kim kelishining ahamiyati yo‘q, men kelinman va mening turmushga chiqishim masalasi shunday hal bo‘lishi lozim.

– Seni hech kim majburlab erga berayotgani yo‘q, Nadya.

– Sizni shuning uchun ham yaxshi ko‘raman... Ammo oyim, Dosifeya, Luka va Xina – mening hammalari aqldan ozishgan.

– Ehtimol, ammo insonlarni o‘zlari tushuna olmaydigan narsa uchun ayblash qiyin.

– Ularning telba bo‘lib qolganlarini isbotlash uchun ham, hech qachon turmushga chiqmayman, otajon.

– Ajoyib, unda seni monastirga jo‘nataman... Xa-xa-xa... Bechora qizalog‘im, bugun sening aqling joyida emasga o‘xshaydi... Iltimos, onangni muhokama qilma, gunohga botma: hayoting oldinda Nadya, hali bu haqdagi fikringni kamida o‘n marta o‘zgartirasan.

Vasiliy Nazarich qiziga Privalov merosi bilan bog‘liq vaziyat haqidagi so‘nggi yangiliklarni aytib berdi. U ancha paytgacha Gulyayevlar va Privalovlar hayotida bu voqealar bilan bog‘liq bo‘lgan turli holatlarni eslab o‘tirdi. Qiz esa uning har bir gapiga diqqat bilan quloq soldi va dedi:

– Otajon, axir u kishilarning eng yaxshilari ham dahshatli odamlar bo‘lgandi. Har tarafda zulm, o‘zboshimchalik, zo‘ravonlik... Sergey Aleksandrichning onasi – bechora Varvara Gulyayeva, qanday azoblarga dosh berdi ekan, deb o‘ylayman...

– Ha, bechora aqldan ozib qoldi... Mana endi sen ham hech bo‘lmasa Privalovning holatini tasavvur qilib ko‘r. U – xuddi o‘zi uchun begona joyga, hatto undan ham battar bo‘lgan Uzelga keldi. Privalovlarni halokatga yetaklagan narsa nimaligini bilasanmi? Xa-

rakersizlik. Ular yoki haddan tashqari mehribon, yoki haddan tashqari vaxshiy bo'lishgan: hech narsada me'yorni bilishmagan.

– Sergey Aleksandrichchi, sizningcha u qanaqa odam, otajon?

– Sergey Aleksandrichmi... U Konstantin Vasilyevich bilan birga barcha kitoblarni o'qib chiqishgan. Shu bois ulardan bug'doy ham, un ham chiqishi mumkin. Seryoja bolaligidan yirtqichga o'xshardi: bog'lab qo'ysang ham bir joyda turmasdi, bir so'z bilan aytganda Privalovlar qoniga tortardi. Yana kim biladi deysan, ehtimol o'zgargandir.

## IX

Privalov va Baxarev familiyalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq edi.

Privalovlar mulk egalari sifatida Ural hududida anchayin shuhrat qozonishgandi. Dunyodagi eng boy yerlardan to'rt yuz ming desyatin maydonni egallagan mashhur Shatrov zavodlari ularga tegishli edi. Uraldagi aksariyat zavod sohiblari singari Privalov oilasining so'nggi vakillari ham zavod ishlarini mahalliy boshqaruvchilarga topshirib, o'zlari dabdabali hayot kechirardilar. Buning natijasida zavod iqtisodiyoti cho'ka boshladi va katta ehtimol bilan zavodlar kunda ostiga tushgan mahkum holiga tushib qolgandi. Ammo bir baxtli mo'jiza sodir bo'ldi va ularni qutqarib qoldi: qirqinchi yillarning yarmida Shatrov zavodlarining egasi bo'lgan Aleksandr Privalov mashhur tillafurush korchalonlardan biri Pavel Mixaylich Gulyayevning qiziga uylandi. Ushbu mashhur sulolalarning birlashishi natijasi o'laroq qahramonimiz Sergey Privalov dunyoga keldi. Bu hodisa qirollar oilasiga xos ulkan tantana bilan qarshi olindi. Uning sharafiga uyushtirilgan bazmda shampan vinosi daryo bo'lib oqdi, to'plar gumburladi, bir oy davomida Privalov xonadonida taklif qilingan va chaqirilmagan mehmonlarning bari ziyofatdan bahramand bo'ldi. Pavel Mixaylich nabirasiga «sut haqi» sifatida o'n pud oltin sovg'a qildi.

Sergey Privalov onasi tarafdan bobosini tushida ko'rgandek elas-elas xotirlardi. U baland bo'yli, sochlari oppoq, qomati xiyol bukri, ko'zlari esa g'ayritabiiy darajada jonli nuroniy edi. Qariya nabirasini juda yaxshi ko'rar va unga doimo bir gapni takrorlarddi:

– Sen mening yagonamsan...Bitta, xuddi barmoqdek.

Tabiiyki, olti yoshli bolakay bu g'alati so'zlarning ma'nosini anglamasdi va og'zini katta ochib bobosiga termulib turardi. Gap shundaki, millionlari bo'lishiga qaramay, Gulyayev o'zini nihoyatda baxtsiz odam deb hisoblardi: uning o'g'li yo'q edi. Birgina farzandi – Privalovga turmushga chiqqan qizi Varvara edi.

– Qiz farzand degani nima o'zi? – mulohaza qildi qariya raskolnik. – Qiz buloq suviga o'xshaydi. Uning chiqishini kutasan, qaynab chiqqanda xursand bo'lasan, u esa bir keladi va ketadi...

Pavel Mixaylich Gulyayevning nasabi Arxangelsk tomirlariga borib taqalardi. O'z vaqtida uning ajdodlari bosqinchilardan qochib, Uralga borishgan va Shatrov zavodlariga to'liq joylashib olgunlaricha o'tgan yuz yil davomida o'rmon va ibodatxonalarda sarson-sargardonlikda umr kechirishgan. Privalovlar esa har bir zavod egasi singari turli qochqinlar va pasporti yo'q daydilar uchun bag'rilarini ochib, ularni o'z himoyalariга olganlar. Chunki, zavodlarning asosiy ishchi kuchi aynan shu toifadagi kishilardan tashkil topgandi. Raskolniklarni esa ular ayriча hurmat qilib, ularga doim iliq munosabat va homiylik ko'rsatishardi. Bunga sabab esa, Privalov oilasi urf-odat va irimlarga sodiq bo'lib, oltin yordamida boshlariga kelgan turli kulfat va baxtsizliklarni daf qilishiga ishonardilar. O'sha yuz yilning birinchi choragida Sharqiy Sibirda Yenisey taygasi qa'rida konlar ochila boshlagan va Pavel Gulyayev ushbu oltin konlaridagi eng birinchi ishchilar qatorida bo'lgandi. Atiga o'n yil ichida u oddiy konchidan butun Sibirdagi eng yaxshi konlardan biriga ega oltin qazib chiqaruvchiga aylandi. Tabiatan kuchli shaxs hisoblangan Gulyayev Uralga qaytganda uning shuhrati, millionerligi haqidagi gap-so'zlar ham unga ergashib keldi. Mashhur bo'lib ketganiga qaramay Gulyayev Shatrov zavodlaridan chiqib ketmadi. Aksincha, tayga safaridan bo'sh vaqtlarida shu yerda yashardi. Gulyayev Shatrov zavodida o'zi uchun ulkan yog'och uy barpo etgan bo'lib, bu bino bir vaqtning o'zida qal'a, monastir va hashamatli bezatilgan xonalar vazifasini ham bajarardi. Bu o'zboshimchalik, zo'ravonlik va krepostnoylikning barcha illatlari inson ruhi va tafakkurining eng yorqin jihatlari bilan yonma-yon yashagan o'sha davr ruhiyatining eng yuqori cho'qqisi edi. Gulyayevlar xonalaridagi hayot barcha narsa qurbonlik uchun keltiriladigan qadimiy taqvodorlik turiga ko'ra yaratilgan edi.

Gulyayevning yolg'iz farzandi – qizi Varvara ekanini avval ham aytgandik. U qizini bir vaqtning o'zida ham sevar, ham yomon ko'rardi. Chunki uning farzandi qiz edi, qaysar chol esa o'g'il orzu qilgandi. Gulyayevning o'g'il ko'rishga intizorligi haddan tashqari yuqori edi. Bu esa tabiiyki, atrofdagilarga ham ta'sir ko'rsatardi va shu bois uning uyi hamisha yetim bolalar va qizlar bilan gavjum bo'lardi. Bu bolalarning aksariyati quvg'inda, qamoqda yoki surgunda vafot etgan raskolniklarning farzandlari edi. Ularni mamlakatning turli burchaklaridan, aniqrog'i, raskolniklar qayerda qo'nim topgan bo'lsa, o'sha hududlardan olib kelishgandi. Xususan, bolalar Vетка, Kerjenskiy o'rmonlari, Irgiz, Starodub, Chernoramen va hokazo hududlardan kelgan edi. Bu bolakaylar Gulyayevlar xonadonining g'amxo'rligi va mehribonligi ostida bir oila sifatida yashardilar. Raskolnik oqsoqollar va rohiblarning qat'iy nazorati va tarbiyasi ostida ulg'aygach, o'g'il bolalar ishlash uchun konlarga jo'nab ketar, joyi chiqqan qizlar uzatilar, qolganlari esa o'z taqdiriga bitgan juftlari kelib olib ketishini sabr bilan kutishardi.

– Xo'sh, mening kulbam nima o'zi? – Gulyayev odatda kondan qaytganda shunday savol berardi.

Ta'kidlash joiz, aynan ushbu «kulba» Gulyayevlar xonadoniga o'zgacha jo'shqinlik baxsh etardi. Gulyayevning qadimiy raskolnigi yonida mazkur xonadonning muqaddas oti yaratilgan va bu yerdagilar uchun – «Pavel Mixaylichning shaxsan o'zlari aytdilar», «Pavel Mixaylich aynan shunday qiladilar» ulug'roq hech narsa yo'q edi. Gulyayevning so'zi qonun hisoblangan bu maskandan butun Ural va Sibirga dong'i ketgan kuchli shaxslar yetishib chiqqandi. Kolpakovlar, Poluyanovlar, Baxarevlar – ushbu mashhur familiya sohiblarining bari bir vaqtlar Gulyayevlar uyasidan uchirma bo'lgan polaponlar edi. Ular boshpana va ota-ona mehri bilan bir qatorda, o'zlarini boshqalardan yaqqol ajratib turuvchi metin iroda va fe'l-atvorni ham aynan shu uyda o'zlashtirishgan. Gulyayevlar tabiatiga xos matonat, iroda, quvvat, qadimiy e'tiqodga sodiqlik, – bir so'z bilan aytganda, kuchli shaxs sifatida e'tirof etish mumkin bo'lgan sifatlarning bari ularda mujassam bo'lgandi.

Gulyayevlarnikida Vasya va Masha nomi bilan tanilgan Vasiliy Nazarich Baxarev va Marya Stepanovnaga nisbatan qariya Gulya-

yev alohida muhabbat bilan munosabatda bo'lardi. Ular chin yetim bo'lishgani bois, yosh ko'ngillarida xonadon sohiblariga nisbatan to'liq ixlos bilan voyaga yetganlar. Marya Stepanovna uchun ayol sifatida bu uyda kechgan hayoti muqaddas xotiralar bilan to'la edi. Ularning avvalida Pavel Mixaylichning o'ziga xos qiyofasi, so'ngra uning rafiqasi va Aleksandr Privalovga turmushga chiqqan qizi Varvara turardi. Shu bois ham Marya Stepanovna dugonasining o'g'liga nisbatan huddi o'z farzandidek munosabatda bo'lishi tabiiy edi. Sergey Privalovning ko'rinishi uning uchun aziz bo'lgan marhum insonlarning qiyofasini ko'z o'ngida gavalantirdi. Vasya va Mashaning o'zaro nikohi Pavel Mixaylichning irodasi bilan sodir bo'lgandi. Qariya bir safar Mashani o'z xonasiga chaqirdi va Vasyani ko'rsatib: «Mana sen uchun qayliq, Masha...Hali menga rahmat aytasan», deya gapni qisqa qildi. Qiz tutingan otasining oyoqlari ostiga yiqildi va shu bilan marosim yakuniga yetdi. Ikki haftadan so'ng Baxarevlar raskolniklar rasm-rusumlari asosida unashtirildilar.

– Uni extiyot qil, Masha, – dedi Gulyayev yoshlarni tabriklarkan. – Vasiliy meni o'ng qo'lim...Senga aytadigan gapim shu.

Baxarev chindan ham Gulyayevning o'ng qo'li edi va o'n yoshidan buyon undan ajralmasdi. Ular birgalikda butun Sibirni kezib chiqishgan, asta-sekin Gulyayevning ishonchini qozongan Baxarev, keyinchalik uning uchun juda muhim odamga aylangandi.

Vaqt kelib, Gulyayev qizini Privalovga uzatayotganda Baxarevni oldiga chaqirib, shunday dedi:

– Privalovning peshonasi yarqiragan ekan. Aks holda, mening Varvaramni tushida ham ko'rmasdi...Bu chechakni uning uchun parvarish qilmagandim, Vasya, biroq ko'rib turganingdek, taqdirdan qochib bo'lmaydi. Nima ham qilardik... Har qalay Privalovlar tabiati yomon emas-ku...yana zavodlarga ham achinaman, Vasya: arzimmas chaqalar deb barbod bo'lardi. Ammo, endi afsuslangandan foyda yo'q: boshidan ayrilgan sochini o'ylab yig'lamaydi.

Varvara Gulyayevaning nikohi Marya Stepanovnaning erga tegishidan ham g'aroyib bo'ldi. U-ku, Baxarevga turmushga chiqishini bilar va o'zini amallab ko'niktirgandi. Biroq millionerning qizi bo'lajak qaylig'i yanglig' uni biror marta ham ko'rmagandi. Shu bois, sovchilikka borish oldidan, kuyov bo'lmish bo'lajak umr



yo'ldoshini uzoqdan bo'lsa ham ko'rishni istadi. Bu istakka azbaroyi rahmlari kelganidan, bir shart bilan rozi bo'lishdi: kuyovni bir xonaga qamab qo'yishadi va u kelinni faqat kalit tirqishidagina ko'rishni mumkin edi. Ushbu o'ziga xos nikoh ayrim hisob-kitoblar asosiga qurilgandi: birinchisi, Shatrov zavodlarining xonavayron bo'lishiga yo'l qo'ymaslik. ikkinchisi, Privalov va Gulyayev degan ikki mashhur oilani birlashtirish edi. Pavel Mixaylich kuyovini hech qachon yoqtirmagan, ammo uning nasabiga nisbatan chuqur hurmat bilan munosabatda bo'lardi. Varvara Gulyayeva ham ana shu familiya qurboniga aylangandi.

Nabiraning dunyoga kelishi qariya Gulyayev g'oyalarining tom ma'nodagi tantanasi bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Quvonchdan yoshligiga qaytgandek bo'lib. chaqaloq Seryojaga o'zi bir umr orzu qilgan o'g'il farzandidek g'amxo'rlik ko'rsatdi.

– Mana, endi bizning ko'chamizda ham bayram, Vasya, – dedi Gulyayev sirdoshiga. – Yaxshilab eslab qol, qancha umrim qolgan, bilmayman, ammo, bor-yo'g'imni Sergeyga qoldiraman...Mening vasiyatim shu. Unutma.

Varvara Gulyayeva yangi oilasida nimaga erishgani haqida hech kim, hech qachon gapirmagan. ochig'i, bu biror kimsani qiziqitirmagandi. Qizning hayoti ham boshqa boy kelinchaklar taqdiri bilan uyg'un edi: hamma uning Gulyaevlar va Privalovlar millionlari asosiga qurilgan baxtiga hasad qilardi. O'sha davrning urf-odat va qarashlari, xuddi hozirgidek «boy – boyga boqar», degan azaliy qarashga to'la mos kelardi. Eri bo'sh-bayov, shu bilan birga, mehribon inson bo'lib, uni o'zi bilgancha sevardi. Gulyayev avvalroq uncha uzoq bo'lmagan Uzle uezdidadagi shaharchada qizi uchun saroy qurishni boshlagandi. Lekin, o'zi bu yerga atigi bir marta. nabirasi tug'ilgandagina borgan. Qariya o'z kulbasiga shu qadar o'rganib qolgan ediki, uezdidadagi xonalar uning uchun zindondek tuyulardi. U kuyoviga nisbatan g'alati munosabatda bo'lardi: birinchidan, u qiziga uy va dabdabali sepdan boshqa narsa bermagandi; ikkinchidan, kuyovi yonida bo'lishiga chidolmasdi, aks holda har doimgidek qo'pol hazillari bilan uni mayna qilib qo'yishdan qo'rqardi. Zavodlar to'lig'icha uning vasiyligiga o'tgan bo'lsa-da, Gulyayevlar sarmoyasi hisobiga faoliyat yuritardi. So'ngra, Gulyayev butunlay qarib, kuchdan qolgach, kuyovini Sibir-

dagi konlariga sherik sifatida yoniga oldi. Shunga qaramay, barcha ishlar hanuz to'lig'icha Baxarev tomonidan yuritilardi.

Bunday holat Gulyayev vafot etgunicha davom etdi. Qizig'i, qariyaning o'limi ham boshqalarnikidan butunlay farqli kechdi. Baxarev taygada yurgan vaqti, Gulyayevdan qo'lda yozilgan qisqagina xat oldi. Unda quyidagi so'zlar bitilgandi: «Vasya, meni dafn qilish uchun yetib kel...». Bu voqea yozda, ya'ni, konlarda ish nihoyatda qizg'in bo'ladigan vaqtda sodir bo'lgandi. Ammo, Baxarev har qancha ish odami bo'lishiga qaramay, barchasini tashlab, Shatrov zavodlari sari uchib borishiga to'g'ri keldi. U mingan foytun Gulyayevlar darvozasi oldiga kelib to'xtaganda, betob yotgan qariya ko'zini ochib, shunday dedi: «Vasya keldi...». Aslida u kasal emasdi, uning holatiga qarab biror xavf haqida gapirish ham qiyin edi.

– Kunim bitgan ko'rinadi, Vasya... – deya shivirladi mo'ysafid, Baxarev esa uni tinchlantirishga urindi. – Sening kelishingni kutayotgandim, Vasya. Senga aytadigan gapim bor... Butun mol-mulkimni nabiram Sergeyga qoldiraman... Uni yolg'iz tashlab qo'yma... Varvaraning holidan ham xabar olib tur: mendan keyin unga yanayam qiyin bo'ladi...

Gulyayev hatto o'limi oldidan ham kuyovini ko'rishni istamadi va u bilan sirtdan vidolashdi. Baxarev kelganidan bir necha soat o'tib, oqshom paytida qariya Gulyayev qizi va Baxarevning qo'llarida mangu uyquga ketdi.

Mo'ysafidning bashorati tez orada amalga oshdi.

Vafotidan keyin uning ham Privalovning ham xonadonida barchasi teskari tarafga qarab ketdi. Bulutlar tarqagan va Aleksandr Privalov ham ortga o'g'irilgandi. U qaynotasi butun kapitalini nabirasiga meros qoldirganini bilganida shunchaki kulib qo'ydi. O'g'lining yagona vasiysi o'zi bo'lgani sabab, barcha mol-mulk uning ixtiyoriga o'tdi. Gulyayev butun umr qadrlab kelgan uya buzildi va Privalov xonalariga shunday hayot oqimi kirib keldiki, bu haqdagi afsonaviy mish-mishlar bugungi kungacha yetib kelgan. Privalovning xotini va Baxarevning Sergey Privalov huquqlarini saqlab qolishga bo'lgan urinishlari besamar ketdi. Chunki, Aleksandr Privalov bu kunlarga yetishni juda uzoq kutgan, qaynotasining ko'plab xurmacha qiliqlariga sabr bilan chidagandi. Shu bois endilikda o'zini naqd bo'lib

turgan mukofotdan mahrum qilolmasdi. Quvonch va qayg‘u yonmayon yuradi, deganlaridek, bu qayg‘uli kunlar Sayan tog‘lari qa‘ridan yangi ulkan oltin koni topilgan vaqtga to‘g‘ri keldi. Bu vaqtda hanuz ish boshida Baxarev bo‘lib, endilikda u Privalov bilan hamkorlikda ish olib borardi. Gulyayevga yaqin bo‘lgani va uzoq yillardan buyon uning eng yirik ishlarini yurguzib kelayotganiga qaramay, Baxarev tunganmas g‘ayrat va kon ishidagi bilimidan boshqa narsaga ega emasdi. Hayotda uchragan har bir omadsizlik uni yanada kuchli qilar va natijada u aqlbovar qilmas marralarni zabt etardi. Sayan tog‘larida qidiruv o‘tkazish uchun u bor-budini sarflab yuborgandi va shu bois Privalovni sherik sifatida qabul qilishga, aniqrog‘i, Privalov mablag‘lari hisobidan ishni davom ettirishga majbur bo‘ldi. Ta‘kidlash lozim, Privalov Baxarevga o‘ziga ishongandek ishonardi. Tog‘ yonbag‘ridagi nomsiz daryo qirg‘og‘ida kashf qilingan birinchi konga Privalovning rafiqasi Varvara nomi berilgan. Qirqinchi yillarda faoliyatini boshlagan ushbu kon o‘n yil davomida o‘n milliondan ko‘p sof foyda keltirgan. Shunday qilib Aleksandr Privalovning qo‘lida afsonaviy boylik to‘planib bordi va u rafiqasining hayotiga zomin bo‘lgan ushbu pullarni o‘zi istagandek sarfladi.

Privalov bitmas-tunganmas mol-mulk ortidan qurgan hayoti, Ural yilnomalarida xalq orasidagi afsona bo‘ldi. Ushbu yirik oltin ishlab chiqaruvchi magnat, xuddi fransuz qirollari singari asablarini tinchlantiruvchi har qanday yangi xursandchilik uchun bir necha o‘n minglab to‘lov qilishga tayyor edi. Gulyayevning Uzledagi uyi qirollik saroyiga xos hashamat bilan bezatilgandi. Bizning har bir chaqa hisobli bugungi kunimizda ushbu saroy hayoti qanday bo‘lganini tasavvur qilish ham mushkul: faqatgina, bu yerda rus tabiati eniga ham, bo‘yiga ham kengayib ketganini aytish mumkin xolos. Privalov koshonasida ertadan kechgacha ziyofat avjida bo‘lar va unda chaqirilgan ham, chaqirilmagan ham kelib mehmon bo‘lardi. Shu bilan birga, o‘sha uydagi maxfiy ibodatxonalarda doimiy raskolnik xizmatlari ham ko‘rsatilardi. Mezbon ham, mehmonlar ham ko‘pincha ichkilik bazmidan chiqib to‘g‘ri ibodatxonaga kirishar va peshonalari ko‘karib ketguncha sajda qilardilar. Bir so‘z bilan aytganda, chegaralarsiz hayot me‘yorni bilmay qirg‘oqdan chiqib ketgan to‘lqin singari, yo‘lida uchragan barcha narsani yutib borardi. Ammo odatiy hasha-

mat, pulni havoga sovurish tabiatning bu quturgan farzandlari uchun kamlik qilardi. Allaqanday yovvoyi aysh-ishrat barchani o'z domiga tortgandi: shirakayf mehmonlar bosib o'tishi uchungina o'nlab chaqirim yo'l qizil mato bilan qoplanardi; ularga nafaqat shampan vinosi ichirishar, balki u bilan cho'miltirishardi; son-sanoqsiz mehmonlar o'zlarini uyda yurgandek his qilishar va ularni krepostnoy sobibjammollaridan tarkib topgan haram bilan mehmon qilishardi.

Muttasil davom etgan aysh-ishratlar Aleksandr Privalovni butunlay o'zgartirdi va u atrofda gilarning ta'rifi bilan aytganda telba bo'lib qolgandi. Natijada doimiy buzuqlikdan bo'shashgan asab va tuyg'ular sharob hamda odatiy lazzatga qoniqmay qo'ydi. Endi uni uyg'otish uchun odamlarning azoblari, dod-faryod va qon kerak edi.

Privalov tarafdorlari orasida iste'fodagi kazak ofitseri Sashka Xolostov alohida shuhrat qozongandi. Baquvvat gavdali bu kishi bir ko'tarishda bir dyujina(o'n ikki) shampan vinosini ichar, homiysi uchun hatto ayiq bilan yakkama-yakka jang qilishga tayyor edi. Sashka xato tufayli odam sifatida dunyoga kelgan haqiqiy yirtqich edi. Uyda uning hurmati beqiyos edi. Privalov Sashkaga shu darajada o'rganib qolgan ediki, usiz hayotini tasavvur qilolmasdi. Hatto o'z yotoqxonasida ham Sashka uchun joy hozirlatib qo'ygandi. U Privalovning og'zidan «zerikdim» degan so'z chiqishi bilanoq biror ko'ngilxushlik o'ylab topardi. Ma'lumki, insonning zavqlanish doirasi cheklangan, shu bois Sashka tez orada turli rasvogarchiliklarni o'ylab topishiga to'g'ri kelardi. Tabiiyki, Privalovning baxtiqaro xotini, bunday hayot tarzini qabul qila olmasdi. Erining irodasiga so'zsiz itoat qilishning eng qat'iy qoidalari asosida tarbiyalangan ayol, rafiq va ona sifatida o'z uyida, deyarli ko'z o'ngida sodir bo'layotgan kayf-safo va aysh-ishrat bilan murosasiz qilolmasdi. Bu girdobga tushib qolgan yolg'iz ayolning qo'lidan keladigani, barcha tashvish va yovuzliklarning sababchisi deb hisoblaydigani Sashkadan nafratlanish edi xolos. Shunga monand ravishda Sashka ham ishini aynan undan boshladi.

U eng avvalo Privalovning erlik tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatib, unda rafiqasiga nisbatan rashk tuyg'usini uyg'otdi. Endi ayolni muntaзам kuzatishar, har bir so'zini diqqat bilan poylashar, qarashlari, harakatlari nazoratga olingandi...Sashka odamlarni bir-biriga bunday qoyilmaqom tarzda qayrash bo'yicha ustasi farang edi. Oxir-

oqibat millionlarning baxtli merosxo'ri butunlay aqldan ozdi va erining navbatdagi «ixtiro»sidan so'ng uni hushsiz holatda olib ketgan Baxarevning uyida vafot etdi.

Bu vaqtda Sergey Privalov yetti yoki sakkiz yoshlardagi bolakay edi. U onasini elas-elas xotirlar, ammo dabdabali dafn marosimi ongida bir umrga muhrlanib qolgandi. Otasini ham faqat ana shu jaryondagi holatini eslab qolgandi. O'shanda qirq besh yoshda bo'lgan Aleksandr Privalov keng yelkali, qaddi bukchaygan, sarg'ish yuzlari biroz shishgan, charchagan hissiz ko'zlari har tomonga sarosar boquvchi kishi edi. Peshonasini chuqur ajin bosgan, tepakal, labi qiyshiq va tabassumi g'ayritabii edi. Bolakay otasidan qo'rqardi va shu bois u dafn marosimidan so'ng Baxarevning oldiga kelib:

– Sergey bundan buyon seniki...uni istaganingdek tarbiya qilishing mumkin, faqat, Xudo haqqi, uni bu yerdan olib ket, – deganida o'zida yo'q xursand bo'ldi.

Rafiqasining vafotidan keyin Privalov butunlay aqlini yo'qotdi va uning uyi do'zaxga aylandi: kechalari maishat davom etar, kunduzlari esa krepostnoy krestyanlar qoni to'kildirdi. Ularning qichqiriq va dod-voylari hammayoqni tutib ketardi.

Barcha tartibsizliklar birgina kutilmagan voqea bilan nihoyasiga yetdi... Privalov Moskvadan sohibjamol Stasha boshchiligidagi lo'lilar xorini chaqirtirib keldi. Bu primadonna butunlay qurib bitgan oltin ishlab chiqaruvchisiga erga tegib oldi va erining ko'z o'ngida Sashka bilan yashay boshladi. Shuncha voqeaga qaramay, Privalovning ko'zini ochadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqealarning butun dahshatini tushuntirib beradigan yaxshi insonlar bor edi. U xiyonatkor xotini va xoin do'stini barchaga namuna bo'lishi uchun devor orasiga suvab tashlamoqchi bo'ldi, ammo uning rejasini ayyor lo'li ayol yo'qqa chiqardi: tunda Sashkaning ko'magi bilan ular Privalovni uchinchi qavatdan pastga uloqtirishdi. Ertasiga bog'dan uning muzlagan murdasi topildi.

Privalov ortidan uch o'g'li qoldi: to'ng'ichi – Sergey birinchi xotini bilan bo'lgan nikohdan, qolgan ikkisi, Ivan va Tit esa lo'li ayol Steshadan. Erining o'limidan ko'p o'tmay, Stesha bolalarini vasiylikka olgan Sashkaga turmushga chiqdi. Atigi besh yil davomida u nafaqat Privalovdan qolgan butun boylukni sarflab yubordi, balki,

barcha zavodlarni ham boy berishiga sal qoldi. Baxarev bunga keskin qarshilik qildi va natijada Sashka katta qiymatga ega bo'lmagan metallni davlat bankiga garovga qo'yish bilan cheklandi. Bu quyidagi tartibda amalga oshirildi: dastlab qora bolvanka, so'ngra uning bir marta ishlov berilgan holati va nihoyat to'liq tayyor bo'lgan yuqori sifatli temir qo'yildi. Tabiiyki Sashka yolg'iz o'zi bunday puxta ish qilolmasdi. Unga bu borada tog' politsiyasi boshlig'i va boshqalar ko'maklashishdi. Nima bo'lganda ham bu uddaburonlik Sashkaga naqd bir million daromad keltirdi. Ammo tez orada uning kirdikorlari fosh bo'ldi va ish sudga oshirildi hamda bu jarayon o'n besh yil davom etdi. Uzundan uzoq davom etgan bu sud ishi yillar davomida o'nlab ma'muriy instansiyalarda ko'rildi. Eng qizig'i achchiq ichakdek cho'zilgan ish yakuniga yetgan kuni Sashka jonsiz holda stol ustida yotardi. Uning qarzlari to'g'ri zavodlar hisobiga o'tkazildi.

Sashka faqatgina bir narsani uddalay olmadi. Ya'ni, Gulyayevlarning to'ng'ich merosxo'riga vasiyat qilingan boylikni o'zlashtirishga qurbi yetmadi. Baxarev Sergey Privalovning manfaatlarini himoya qilish uchun ikki marotaba Peterburgga borib keldi va yakunda o'z maqsadiga erishdi. Gulyayevlarning davlati, aniqrog'i uning betalofat qolgan qismi Sergey Privalovga meros qolgan kapitalga qo'shib berildi. Qariya Gulyayev tomonidan qizining nikoh to'yida sovg'a qilingan Uzeldagi Gulyayevlarga tegishli uy ham Sergeyning nomiga o'tdi. Bolakay hali otasi hayotlik chog'idayoq Baxarevning uyida va uning g'amxo'rligi ostida yashar edi. Tabiiyki, Aleksandr Privalovning o'limidan so'ng Baxarev o'z-o'zidan Sergeyning vasiysiga aylandi va uning risoladagidek tarbiya olishi uchun bor kuchini sarfladi. Shu tariqa, Seryoja Privalov uzoq muddat ularning uyida Baxarevlar xonadonida yashadi va oilaning to'ng'ich farzandi Kostya bilan birga ta'lim oldi. Aleksandr Privalovning qolgan ikki merosxo'ri taqdiri quyidagicha kechdi: Sashka sud harakatlari bilan ovora bo'lib yurganda, lo'li ayol Stesha bolalarni o'zi bilan Moskvaga olib ketdi va o'sha yerda yolg'iz o'zi ularni tarbiya qildi. Chunki, bolakaylarning voyaga yetmaganini hisobga olib sud Shatrov zavodlarini merosxo'rlar orasida bo'lmay turish haqida qaror chiqardi. Baxarev esa Sergey Privalov manfaatlarini himoyasi uchun zavodlarga davlat tomonidan birlashtirilgan vasiylar safiga kiritildi. U bir paytlar mash-

hur bo'lgan zavodlarning ishlab chiqarish quvvatini yana avvalgidek yuksaltirish yo'lida tinim bilmay harakat qildi. Bu yo'lda juda ko'p kuch sarfladi va nihoyat o'g'li Kostya universitetni tamomlab, Shatrov zavodlariga boshqaruvchi bo'lib ishga kelganda uning ko'magi bilan maqsadiga erishdi.

## X

Baxarev uyidagi hayoti Privalov xotirasidagi eng yorqin sahifa bo'lib qoldi. U nimaniki hurmat qilishga, eng joiz, yaxshi deb hisoblashga o'rgangan bo'lmasin uni Baxarevlar nomi bog'lardi.

Uning hozirgi hayoti qachonlardir Pavel Mixaylovich Gulyayev qasrida o'tgan hayotining in'ikosi bo'lib tuyulardi. Marya Stepanovna Gulyayev uyidagi barcha rasm-rusmlar, urf-odatlarini, qonun-qoidalarini muqaddas deb bilardi. Uning nazarida yo'qlik sari yuz tutgan bu oilaning bir asr mobaynida qishloq diyonati (taqvosi) ga mustahkam tayanchi bo'lib xizmat qilgan muqaddas vasiyatning birorta harfini o'zgartirish ham eng og'ir gunoh edi. Baxarev uyida hamon Gulyayev ruhi hukmron, u oilaning barcha tartib qoidalarida aks etardi. Go'yo u mushkul damlarda unga kuch-quvvat ato etardi. Oltin sanoati rivoji juda ko'p xatoliklar va kutilmagan o'zgarishlarga to'la. Vasiliy Nazarichning hayoti ayniqsa bunday tasodiflarga boy. Ulkan daromadlar va zararlar tez-tez o'rin almashib turardi. Bunday beqaror baxtiyorlik bamisoli bir qizil ip bo'lib uning hayotida ajib bir mazmun kasb etgandi.

Sergey Privalov o'n besh yoshgacha Baxarevlarinikida yashadi, keyin do'sti Kostya bilan Peterburgga jo'nab ketdi. Mana o'n besh yildirki u yerda muqim o'rtnashgan.

Bu davr ichida Baxarevlar uyida ulkan o'zgarishlar ro'y berdi. Avvalo uy o'rtasidan qoq ikkiga bo'lindi. Yarmi Marya Stepanovnaga yarmi esa Vasiliy Nazarichga. Nafsilamrini aytganda bunday bo'linish o'n yildan buyon erining bo'sag'asini bosib o'tmagan Marya Stepanovnagagina tegishli. Baxarev va bolalar bunday bo'linishni parvolariga olmay uyning ikki tarafidan ham bexijolat foydalanaverishdi. Bu bo'linish tushunmovchilik va murosasizlik oiladagilar uchun azob edi. Bolalar ulg'ayib qolishdi. Ularni tarbiyalash lozim. Vasiliy Nazarich oltin ishlab chiqaruvchilarning tur-

li toifa oilalarini, har xil kishilarni kuzatib bolalarni alamzadalik ruhidagi rivoyatlar bilan mutlaqo tarbiyalab bo'lmashligiga ishonch hosil qildi. U ich-ichidan bolalariga yaxshi bilim berishni, oyoqqa turib olishiga ko'maklashishni xohlar, u yog'ini o'zlari eplab ketar, deb o'ylardi. Sibirda Baxarev har qadamda halol, ziyoli odamlarga duch kelardi; U bilimning qudratli kuchini yaxshi his qilar, farzandlarining ham o'qimishli, ziyoli kishilar bo'lishini chin dildan istardi. Uning bu qarashi butun umr odamovi, ixtiloflar orasida yashab, hech qanday yangiliklarni tan olmaydigan Marya Stepanovnaning qattiq qarshiligiga uchradi. Ko'p tortishuvlardan keyin u o'g'il, qizlarining hech qachon betavfiqlik qilmasligiga ishonib, ularga yon bosdi. Bu yerda Baxarevga ishni yutib chiqish unchalik qiyin bo'lmadi, chunki o'g'illari unga ko'maklashib yuborishdi. Ular allaqachon Baxarev uyidagi hayotning yangicha oqimida suzishardi. Ularning har bir harakati o'zgacha hayotdan so'zlardi. Anchagina ikkilanishlardan so'ng ish ikkiga bo'lindi: Marya Stepanovna to'ng'ich qizi Nadejdani otasiga berdi, kichigini esa o'ziga olib qoldi.

– Hamonki sen uni mendan tortib oldingmi, uning uchun javobgarsan, – dedi Marya Stepanovna. – Agar Pavel Mixaylich hayot bo'lganida...

– Masha, Masha, – xotiniga tasalli berdi Baxarev. – axir hozir butunlay boshqa davr, boshqacha odamlar...

– Bo'пти, o'sha boshqacha odamlarning bilan yashayver!..

Shu kundan boshlab Baxarev uyi ikkiga bo'lindi: Marya Stepanovna shu tariqa o'zining so'nggi qat'iy noroziligini bildirdi.

Vasiliy Nazarich bolalarini ma'lumotli qilish jarayonida o'zi ham sezmaganda yangi qatlamga, yangi odamlar davrasiga qo'shildi, uning yarmini yangiliklar ruhi zabt etib oldi. Bu yarimtanga o'n ikki yil Nadejda Vasilyevna bekalik qildi. U qizi bilan o'z ishlari haqida fikrlashar va hatto dil tubidagi nozik tuyg'ularini ham undan yashirmasdi.

Ota-bolaning bunday do'stona munosabatlari doirasida Vasiliy Nazarichning yarim hayotidagi muhim voqealar ham hal qilinardi. Boshqa suhbatlar, qiziqishlar, hatto til ham. Ota bola bir-birini bir nigoh, bir og'iz so'zdanoq tushunardi.



Baxarev katta o'g'li Kostyani ham juda yaxshi ko'rardi. Biroq u uyda deyarli yashamadi. Universitet kursini tugatgachgina qaytdi. Ular orasida ham Luka Privalovga yetkazgan «kontrlar» sodir bo'ldi. Gap shundaki, Konstantin Baxarev ham dangallikda otasidan qolishmasdi. Turgan gap, bir qozonda ikki qo'chqorning kallasi qaynamaydi. O'ta jiddiy suhbatdan keyin ota-bola butunlay ajralib ketishdi. Aslida, bunga arzimagan bir ish sabab bo'ldi. Bu holat otani qizi bilan yanada yaqin qilib qo'ydi. Vasiliy Nazarich qizisiz yashay olmasdi. Nadejda Vasilyevna esa otasi to'ng'ich o'g'lidan topmagan narsa – chorasiz qolgan chog'dagi suyanchni undan axtarayotganini tushunardi. U jon-jahdi bilan otasining dunyoqarashida fikrlashga, uni tushunishga harakat qildi va bunga muvaffaq bo'ldi.

Nechog'lik g'alati bo'lmasin Viktor Vasilich Marya Stepanovna ning arzandasi, shu bilan birga eng zaif nuqtasi ham edi. U hech qachon onasining izmidan chiqmas, har qanday sho'xlik, to'polonlardan keyin darhol ko'zda yosh bilan kechirim so'rar, ming martalab boshqa bunday qilmaslikka ont ichardi. Bolalik sho'xliklariga qo'shib yirik kamchiliklar ham ulg'aydi. Endi Viktor Vasilich vaqtga va onalik mehriga suyanib hech qachon kechirim so'ramaydigan bo'ldi. Gimnaziyaning uchinchi sinfidan haydalgach, bekor qolib ketdi. Vasiliy Nazarich esa undan allaqachon qo'lini yuvib qo'ltig'iga urib qo'ygandi. Ko'rinishidan mehribon, o'zicha aqlli bo'lgan Viktor Vasilich «rubaxa-paren» deydiganlar turidan, ya'ni, boshqalar qilganni qila olmaydigan, oqim qayoqqa sudrasa o'sha yoqqa oqib ketaveradiganlar toifasidan edi. Bu qat'iyatsiz, beqaror, o'ta ta'sirchan, o'ziga mos kasb qidirgan, ammo topolmagan kimsa edi. Viktor Vasilich vaqtida sovungar, texnik, olmos konlari qidiruvchi bo'lib ishladi; Endilikda Sirka zavodi egasi bo'lish bilan qanoatlanib turibdi. Zero boshqa iloji ham yo'q. Chunki Vasiliy Nazarich uning boshqa barcha ermaklariga haq to'lashni rad etdi. Umuman otasi kenja o'g'lining xatti-harakatlariga panja orasidan qarardi. Faqat xotiniining dilini og'ritib qo'ymaslik uchungina o'zini unga astoydil achingandek ko'rsatardi. Viktor Vasilich yetakchilikka bo'lgan tashnaligini qondirish uchun qilmishlarida o'ziga raqib chiqmaydigan sohaning barcha-barchasini foyda zarariga qaramasdan ko'tarasiga sotib oldi. Mahalliy klublarda janjal chiqarish, or-nomusli beva ayol

xonadonining oynasini urib sindirish, aktrisalarga xushtak chalish, izvoshchini do'pposlash – bularning barchasida Viktor Vasilichning qo'li bo'lib uni *jeunesse doree'* deb atalgan ko'cha bezorilari orasida obro'sini oshirib borardi. Marya Stepanovna arzandasining bu qiliqlarini yoshlikka yo'yar va uni xonaki usullar bilan davolashga harakat qilardi. Ahvol juda tang bo'lganda, «Qarab tur, endi otangga aytaman. Bir ta'ziringni bersin!» – deb zorlanardi. Biroq bu quruq po'pisalar har gal bir xil shaklda takrorlanaverganidan Viktor Vasilich uyoqda tursin, undan yovvoshrog'ini ham cho'chitolmasdi.

Hozir Viktor Vasilich uchun ikkinchi planda turgan Verochka yoki Vereta ham (Viktor Vasilich uni shunday atardi) bor yo'g'i «shirmoy» edi. U juda go'l, hayotni mazza qilib ovqatlanish, to'yib uxlash va uyni jaranglatib xurрак otishdan iborat, deb bilardi. Verochkaning yozuvli qog'ozlardan ko'ngli aynir ulardan faqat biror narsani o'rashdagina foydalanardi. Uydagilarning hammasi Verochkani yaxshi ko'rar, unga juda sodda, nozik oyimqiz deb qarashardi. Verochka o'ta tadbirkor, uning chiroyli betashvish boshi kuchli, sog'lom, hali hech narsaga sarf qilinmagan aqlga to'la edi. Odatda bunday oyimqizlar sabr bilan o'z orzularidagi shahzodalarini kutadilar. Keyin ota-onalarini mayliga ko'nib, maqsadli nikoh bilan turmush quradilar. Birin-ketin yonoqlari banotdek o'g'il-qizlarni dunyoga keltirishadi. Asta-sekin bo'sh-bayov, sal o'tmay qattiqqo'l bekaga aylanishadi. So'ng nevara, evaralarning mehribon, yoqimtoy buvisi bo'lib o'zlarini saksondan sakrashlarini sabr bilan kutib yashashadi. Verochka bolaligidan soqov Dosifeyaga ergashib oshxonaga, kirxonaga, katta-kichik omborlarga borishni xush ko'rardi. Karam tuzlashga ko'maklashar, gullarni sug'orardi. Qizaloq ko'chadagi daydi mushuklarning chinakam valine'mati edi. Uning g'amxo'rligi bois daydivoylar qorin to'ydirish tashvishidan holi, xotirjam edi. To'yib ovqat yeb yunglari yaraqlab, ko'zga yaqin bo'lib qolgan mushuklarni Verochka o'z tanishlariga tarqatardi. Ana shunday kuydi-pishdilik, o'zgalar dardiga sheriklik, boshqalar ko'ngliga oson yo'l topa olish mahorati bois qizaloq o'n olti yoshidayoq butun boshli uyni qo'lga

<sup>1</sup> Oltin yoshlar (fr.).

olgandi. Biroq u chinakam diplomatlardek bu iqtidorini hokisor maʼsumalik ortiga yashirib, hech kimga sezdirmaslikni uddalardi. Butun uy boʻylab uning baland ovozi va kulgusi jaranglardi. Zotan bu kulgu juda yuqumli boʻlib, eshitganlar yuzida beixtiyor tabassum zohir boʻlardi. Shu bilan birga, Verochka juda mutaassib ham edi. Har xil irim-sirimlarga, koʻrgan tushlari, sezgan alomatlari roʻyobiga ishonardi. U rohibalardek xudojoʻy, har qanday diniy marosimlar (raskolnik xizmatlari), uzundan uzoq duolarni, rasm-rusumlarni kiprik qoqmasdan Marya Stepanovna bajaradigan ibodatlardek qoyilmaqom qilib oʻrinlatardi. Ibodat duolarini qiroat bilan tilovat qilish, musofirlarga iliq munosabat, yigʻlab turgan bolani ovutish, xastalarga koʻmaklashish, chol-kampirlarning koʻnglini ovlash – Verochka-ning suyumli mashgʻulotlaridan edi. U choʻkkan koʻngillarni yoqimli soʻzlar bilan koʻtarar, alamzada kishilarning koʻnglidagi gʻuborni bir zumda tarqatib yuboradigan muloyim, yoqimli soʻzlarni topar, kerak boʻlsa dardiga sherik boʻlar, lozim topsa birgalashib yigʻlab ham olaverardi. Eng qizigʻi, shunday fazilatlariga ega qiz sevmaslikni ham uddalardi. Uning gʻazabini qoʻzgʻash oson emasdi, biroq Xudo koʻrsatmasin agar shunday boʻlsa... xafa qilganlarni aslo unutmas, kechirishni xayoliga ham keltirmas edi.

## XI

Privalovning uezd shaharcha Uzelga tashrifi kunning eng muhim voqeasiga aylandi. Shaharchadagi hammaning ogʻzida shu gap. Uning har bir qadami, har bir aytgan soʻzi odamlar orasida yashin tezligida tarqalar, qizgʻin muhokamalarga sabab boʻlardi. Allaqachon egalari bilan birga koʻmilib, unutilib ketgan voqealar yana ogʻizga tushdi. Shu tariqa rost yolgʻon bilan, boʻlgan voqealar toʻqima bilan, uydirmalar haqiqat bilan qorishib, mish-mishlar tirik odamlar nomi bilan bogʻlanib ajoyib afsonalar toʻqildi. Aleksandr Privalov, Gulyayev, Sashka va Steshkani yangi kuch-quvvat bilan tiriltirishdi Ularning atrofida xuddi afsonaviy qahramonlar yonida boʻlganidek ularni eng chiroyli soʻzlar bilan ulugʻlovchi rivoyatchi, dostonchilar paydo boʻldi. Oddiy, juda joʻn fikrlovchi, omi xayolparast kishilarga bunday ulkan ishni amalga oshirish uchun bor-yoʻgʻi Privalov «Oltin langar»da hordiq chiqargan oʻn kun kifoya qildi. Bu kun ichi-

da Privalovning mablag'ini yuz millionga «yetkazishdi». Gulyayevdan unga qolgan sirli xazina haqidagi mish-mishlar avjiga chiqdi. Bu tarixiy asos juda tez nish urib, hammaning ko'z o'ngida pulli mehmonxonada yashayotgan Privalov uning qahramoniga aylandi.

Tabiyki, sahnaga Sergey Privalov chiqqach barcha diqqat-e'tibor uning qayerdan paydo bo'lib qolganini aniqlashga qaratildi.

Chindan ham bu millioner shu choqqacha Peterburgda nima qildi? Nima uchun o'ttiz yoshga kirguncha u yerda yashadi? Bunda qariya Baxarev va boshqa vasiylarning qanday xizmati bor? Nihoyatda zukkolik, teranlik, guvohliklar, daliliy ashyolar asosida, hech qanday ikkilanishlarga o'rin qoldirmasdan qoyilmaqom javob talab qiladigan bunday savollar juda ko'p edi. Eng avvalo bunda ayol qo'li borligi hammaga, har kimga oydek ravshan edi. Ha, ha, aynan ayol. Balki bitta emas, ikkita, uchta ehtimol bir talay... Xo'sh qani o'sha ayol?! To'g'ri o'sha sirli ayol haqida o'z qulog'i bilan nimadir eshitgan, nimadir ko'rgan kishilar ham topildi, albatta. Ayrımlar o'z xotirasiga tayanib zo'r berib bu haqda kimdir qachondir nimadir deganini vaysardi. Ko'pchilik hech ikkilanmasdan hech qachon yolg'on gapirmagan, birovni biror marta ham aldamagan, hech nimani ichidan to'qib chiqarmagan har doim haqiqatni so'zlaydigan samimiy, diyonatli, insofi kishilarga, yaqin qarindoshlari fikriga suyanishdi. Shu tariqa Privalov shijoatli yoshlar orasida yoshlikning sururini simirib yashagani, uning fransuzcha urf bo'lgan laqablardagi mashuqalari undan guldasta o'rmda (shaklida) tez-tez yuz rubllik qog'oz pul-lar, aql bovar qilmaydigan kattalikdagi brilliantlar, shohona bezatilgan butun boshli mehmonxonalarni sovg'a sifatida taqdirlanganlari ma'lum bo'ldi. Faqat yengil tabiat, kaltabin odamlargina shunday deb o'ylardi. O'zini bilgan, har narsaga aql bilan yondoshadigan kishilar bu alahsirashlarga ko'pam e'tibor qilishmadi. Aksincha ularni ancha jiddiroq masala – Privalovning nima maqsadda Uzelga kelgani qiziqtirar edi. Yuzaki qaraganda bunga ikkita aniq javob bor. Birinchidan Privalov arzon mehmonxonada to'xtadi. Ikkinchidan, Privalov ertasi kuniyoq Baxarevni yo'qlab bordi. Birinchi harakatini ma'lum ma'noda tushunsa bo'ladi Privalov har doim quvnoq hayotini Blyansh va Syuzet bilan nihoyalagan. Yoki o'zini tejamkorlikka chog'layapti. Yohud birinchi uchrashuvda aslini ko'rsatgisi kelgan.

Yoki pirovardida o'zidan kichkina ingkognito yasab olgandir. Biroq ikkinchi faktga bu qadar sodda baho berib bo'lmaydi. Privalovni Uzelga tashrifining ertasigayoq Baxarevlarnikiga borishga nima majbur qildi? Nima uchun Privalov vasiylarinikiga bormadi? Yoki bu harakati bilan u vasiylaridan noroziligini namoyish qildimi? Baxarevning g'alati kasalligi bilan bu tashrif orasida bog'liqlik yo'qmi? Ehtimol Privalov Baxarevning qizlaridan biriga uylanish niyatidadir? Undan ham qizig'i, vasiylar uning bu tashrifini qanday baholashadi?.. Ha, garchi bu shaharchaliklar uchun yopishmagan yamoqday ko'rinsa-da, bosh qotirsa arzigulik mish-mishlar.

– Meni eng hayron qoldirgan narsa Xiona Alekseyevnaning o'zini tutishi bo'ldi, – derdi uzelnig *beau monde*'a vakili Agrippina Filipevna Veryovkina takror-takror, – tasavvur qiling axir u aynan Privalov kelayotgan kun tongda oqsochini yuborib, bu haqda menga xabar berdi. Ammo keyin negadir suvga cho'kkan toshdek jim bo'lib ketdi. Xudo haqqi hech narsaga tushunmadim.

Xioniya Alekseyevnaning esa shu kunlarda tanishlarinikiga borish uyoqda tursin, boshini qashishga ham vaqti yo'q, kecha va kunduzni ham farqiga bormay qolgandi. Ishi boshidan oshib yotibdi. Chunki chog'roqqina uyidan Privalovga xona tayyorlashi kerak. Ishonasizmi, bu Xioniya Alekseyevnaning butun ish faoliyatida duch kelgan eng mushkul vazifa bo'ldi. Negaligini hozir tushuntiraman.

Xioniya Alekseyevna Baxarevlar bilan tushlik qilayotgan paytda uning miyasiga Privalovni o'zining uyiga joylashtirishdek g'aroyib fikr kelib qoldi. Bu juda tavakkalchilik edi. Biroq Xioniya Alekseyevna sirayam cho'chimadi. Butun diqqat e'tiborini arzon mehmonxonaga qo'ngan Privalovga, Matryoshkaning u yoq-bu yoqdan yig'ib kelgan ma'lumotlariga qarattirdi. Uni hammadan ham Privalovga bu taklifni qanday yetkazish ko'proq o'ylantirardi. To'g'ridan-to'g'ri borib, o'ziga aytish noqulay. Viktor Nikolayevich hali bunaqangi munosabatlarning hadisini olmagan. Demak bitta yo'l qoldi – bunga Baxarevni aralastirish!

Biroq, qanday qilib? Xioniya Alekseyevna bu mas'uliyatli ishga zakovati va o'ta qaysarligi bilan ajralib turadigan Marya Stepanov-

---

<sup>1</sup> Yuqori tabaqa (fr.).

nani tayyorlashga astoydil bel bog'ladi. Nozik ta'b xonim nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ish olib bordi. Avvalo Privalovni Baxarevlar uyiga joylashtirishni noqulay deb hisobladi. Xudo biladi, suyaktsiz tillar nimalar deb vaqillamaydi? Keyin u o'zlarini juda erkin tutadigan yoshlar (ayniqsa poytaxtda) haqida gap tarqatdi. Bu borada, shubhasiz, Xioniya Alekseyevna Privalov haqida bunday fikrlardan yiroqligini, chunki u har qanday g'iybat va bemazagarchiliklardan yuqori turishini, biroq provinsiya hayoti unga o'lguday zerikarli tuyulishi, agar bunday davraga tushib qolsa... Shubhasiz, Privalov Nadine uchun eng munosib nomzod, ammo, oxir-oqibatda afsuslanib qolmaslik uchun ham undan xabardor bo'lib turish lozim. Bordi-yu... Marya Stepanovna Xioniya Alekseyevna qanday o'yinga kirishganini juda yaxshi anglardi. Shunday bo'lsa-da bir muddat ikkilanib yurdi. Nihoyat, Privalovga Xioniya Alekseyevnanikida to'xtash haqida maslahat beradigan bo'ldi.

– Albatta, bu vaqtincha... – tasdiqladi Xioniya Alekseyevna. – Axir Privalov mening kulbamda bir umr yashab qolmaydi-ku.

– Marya Stepanovna, siz mening nechog'lik sadoqatli ekanimni bilasiz. O'zim uchun emas Nadine uchun kuyib-pishyapman. U shunaqangi qizki, shunaqangi... Siz uning bahosini bilmaysiz, Marya Stepanovna! Ha, buning ustiga, hamma Privalovga xushomad qiladi, uni qo'lga kiritishga intiladi. Zosya Lyaxovskayani, Anna Pavlovnani, Liza Veryovkinalarni qarang – barchasi tayyor kelinposhsho! To'g'ri, Nadine bilan bellashishga ularga yo'l bo'lsin! Biroq, raqibga bepisand qarash to'g'ri emas.

«Ox-xo-xo! Ishqilib, bu Xioniya tushmagur kuyovimizni boshqalarning qo'lga topshirib qo'ymasa go'rga edi, – o'ylardi Marya Stepanovna Zaplatinaning totli so'zlarini tinglar ekan. – Unga bilaguzuk sovg'a qilishimga to'g'ri keladi».

– Marya Stepanovna siz Lyaxovskiy va Polovodovlarning nechog'lik kalondimog'ligini tasavvur ham qilolmaysiz. Ishonavering ular hozir Privalov to'g'ridan-to'g'ri ularnikiga kirib kelishini, uni qo'lga kiritishni orzu qilishyapti, ha-ha, orzu qilishyapti.

Marya Stepanovna Privalovga Zaplatina xonimlaridan qo'nim topishni maslahat berganida u bu uy qayerda joylashganini, unga

nechta xona ajratishlarini ham so'rab o'tirmasdan o'sha xaxotiyoyq rozilik berib yubordi.

– Boya tushlik chog'ida yonimizda turgan xonim Zaplatina edi. U nihoyatda royishli, ziyoli, halol mehnati evaziga kun kechiradi. To'g'ri ba'zan juda ko'p gapirib yuboradi. Ammo uning aqlliligi oldida bu nuqsondan ko'z yumsa bo'ladi.

– Tashakkur, – samimiyat bilan dedi Privalov, garchi xayolida butunlay boshqa narsa aylanayotgan bo'lsa-da. – Aslida menga ko'p narsa kerak emas. Umid qilamanki xonim meni yeb qo'ymaydi. Faqat, ismi sal g'alatiroq ekanmi?

– Biz uni Xina deb chaqiramiz, balki eslab qolarsan.

– Xina bo'lsa, Xinada!

Zaplatina eriga yangi qo'noqning ismi sharifini aytganida, Viktor Nikolaevich avvaliga dovdirab qoldi, keyin chiroyi ochilib dedi:

– Jonginam, axir sen mening bebahoyimsan! Shunday o'ljani qo'lga kiritish...Shunday odam bilan, shunday millioner bilan yonmayon yashash...Fu, jin ursin, yetti uxlab tushingga kirmagan ishlar!..

– Menga muhimi o'sha kalondimog' Polovodov va Lyaxovlarni burnini yerga ishqash, – dedi donishmand(zukko) ayol o'ychanlik bilan. – Tasavvur qilyapman, bu ularni qanchalar yerga urishini! Xa-xa-xa.

Xioniya Alekseyevnaning asosiy maqsadi Polovodov hamda Lyaxovlarni boplab ta'zirini berish edi. U yog'iga xudo poshsho! U hozircha o'zi egallaydigan mavqeni tuzukroq o'ylab ham ko'rmadi. Bitta narsa aniq – shunday qo'yilmaqom qalliqni qo'lga kiritay-kiritay deb turgan shu pallada aynan uning uzal birjasidagi jamg'armasi jadal sur'atlarda ko'tarilishi kerak. Hali totib ko'rmagan (sinovdan o'tmagan) baxtiyorlikdan Zaplatinaning boshi aylanib ketdi. Ana o'shanda ketidan yugurib iltifot ko'rsatganlar, xushomad qilganlarga viqorli jilmayib qo'yadi xolos.

– Ko'ramiz kuyovchasi tushmagur kimga nasib qilarkin, – o'ylardi Xioniya Alekseyevna Marya Stepanovnaga bergan va'dasi yodiga tushib. – Nadinening burni juda ko'tarilib ketdi. Aytishadi-ku, qushning kattaligi pati bilan o'lchanmaydi. Yaxshi qizmish Annushka, buvisi-yu onasi maqtar ko'pincha... Albatta, Lyaxovski yiqna kalondimog' arzandasi ham bo'lishi mumkin, balki Zosyani tanlar–

menimcha u kelinlikka har tomonlama munosib, har tomonlama...  
Ha... dimog'dor Nadine uning **jufti** bo'lolmaydi.

Xioniya Alekseyevna bu monologini ko'zgudan unga o'ljasiga tashlanishga shay turgan yirtqich qushdek o'tkir nigoh bilan tikilayotgan zahil chehra qarshisida ijro qildi. Hurmatli xonim barmog'ini unga nuqib dedi:

– Muhimi Xina hech narsani kavlashtirmaslik kerak, o'zingni yuvvoshgina tut, ana o'shanda bizning ko'chada ham bayram bo'ladi. O'shanda ko'ramiz, Lyaxovskiy va Polovodovlarning qo'lidan nima kelishini. Xa-Xa! Ehtimol, Xina qarshisida ta'zim bajo qilishingizga to'g'ri kelar, janoblar...

Xioniya Alekseyevna ko'zgu qarshisida pansionatda o'rgatganlaridek ishtiyoq bilan ta'zim qildi.

## XII

Bir necha kun ichida yugurib-yelib, Privalovga ko'ngildagidek xona jihozlash Zaplatinaga unchalik ham oson bo'lmadi. Xioniya Alekseyevna uchta chog'roqqina xonani xafsala bilan, yog' tushsa yalagudek qilib qo'ydi. Ko'ngildagidek mebel, eshik va deraza pardalar gullar va kartinalar – oddiy, ammo juda qulay, yuksak did bilan tanlandi. Matryoshka Privalovning lakey (xizmatkor)iga o'n marta lab uchrab, uning xo'jayini avval qanday yashagani, xonasi, mebel-lari, gullarni yoqtirish-yoqtirmasligi, gilamlar va hokazolar haqida sinchiklab so'rab oldi. Zaplatina ana shu ma'lumotlar asosida unga uch xona ajratdi. Ulardan biri qabulxona, ikkinchisi ish kabinet, uchinchisi esa yotoqxona.

Xioniya Alekseyevna uni ixtiyoriga berilgan xonalar bilan tanishtirganda Privalov hayratda qoldi. Chunki bu mo'jaz, shinam xonalar unga juda manzur bo'lgandi.

– Balki sizni ortiqcha urintirib qo'ygandirman. Unday bo'lsa yuklarimni o'zimda olib qolishga izn so'rayman.

– O, yo'q, Sergey Aleksandrich, nega unday deysiz! Bunday mayda-chuydalar gapirishga arzimaydi. Muhimi sizga ma'qul bo'lsa bas. Men barchasini muhayyo qilishga tayyorman. Albatta, menda siz o'rganib qolgan hashamatlarni yaratish imkoni yo'q...



– Aslo unday emas, Xioniya Alekseyevna, men aynan shunday odmilikni xush ko‘raman.

Xioniya Alekseyevna baxtiyor edi. U aldashga qanchalik o‘rganib qolgan bo‘lsada, ayni paytda nihoyatda samimiy va rost gapirgandi. Darhaqiqat Privalov uchun hamma narsaga tayyor, bunda hech qanday ta‘magirlik yo‘q edi. Hozirgi vaziyatda o‘zini sodda, samimiy tutishi Privalov uchun yoqimli va kerak bo‘lgan holat edi. Privalovning samimiy maqtovlari uning allaqachon qurib, ajin bosgan teri ostiga qon yugurtirib vujudini qizdirib yubordi. Haqiqiy millioner bilan yuzma-yuz suhbatlashishga muyassar bo‘lgani haqidagi o‘y uning boshini aylantirib sarxush qilgan edi. Unda hozir barcha musavvirlarda bo‘ladigan tuyg‘u uyg‘ongandi, u o‘zini braxmanga xizmat qiladigan braxmandek millionerga millionlarini sarflashiga ko‘maklashishga qodir his qilardi. Nazarida u o‘zining mo‘jaz xonasiga oxanrabodek barchaning e‘tiborini qaratadigan allaqanday g‘ayritabiiy kuchni berkitib olgandek edi...bu maqsadga erishish uchun keragidan ham ortiq edi va shu bois Xioniya Alekseyevna bir muddat o‘zining odatiy rolidan chiqib, panada yurishga qaror qildi. Eng qisqa hamda o‘z manfaatini ko‘zlagan kimsagina bunday xush onlarda ma‘lum maqsad bilanmas aksincha qalb amriga tayanib ish ko‘radi.

Ishini nihoyasiga yetkazgach, Xioniya Alekseyevna voqealar kuzatuvchisiga aylandi. Privalovning ko‘rinishi g‘amgin, norozi va ahmoqona yuzli odami (uni Ipat deb chaqirishardi) izvoshda xo‘jayinning buyumlarini olib keldi. Xioniya Alekseyevna, Matryoshka va hatto Viktor Nikolayich ham nafasini ichiga yutib, Ipatning chemodanlarni olib kirishini diqqat bilan kuzatib turishardi.

– Ko‘rinib turibdi, ichi pulga to‘la, – o‘zicha fikr yuritdi Matryoshka, bu taloto‘pda xonimga odatiy tarzda murojaat qilarkan. – Og‘irgina...ehtiros!...

– Tentak, kim pulini uyda saqlaydi?! – sodiq xizmatkorini koyidi Xioniya Alekseyevna.

Matryoshka har doim yigirma tiyinlik chaqani yonida, taqdir tuh-fasi bilan qo‘liga tushib qoladigan rublni esa eski-tuski lattalar orasida saqlardi. Shu bois, xonim ustimdan kulmayaptimikan, degan fikrda unga savol nazari bilan qaradi.

– Pullar bankda saqlanadi...Tushundingmi?.. – izohladi Xioniya Alekseyevna. – Uyda bo'lsa o'g'ri urib ketishi mumkin, ammo bankda saqlaganing uchun ustiga foiz ham to'lashadi...

Matryoshka ikkilanib qoldi; u hech qachon yigirma tiyinlik chaqalarini hech bir bankka bermagan bo'lardi. «Juda ishondim-da, – o'yladi u, – ahmog'ingni topibsan...»

Ko'zlarini ochib, o'zini shaxsiy kvartirasida ekanini bilgandan so'ng Privalov erkinroq nafas oldi. Bu yerga joylashishi bilan ana shu uchta xona uning uchun eng sevimli maskanga aylanib qolgan. Ayniqsa, uning uchun qadrlı bo'lgan turli buyumlar saqlanadigan sandiqni ochish o'zgacha roxat bag'ishlardı. Sandiq ichida onasining yog'li bo'yoq bilan chizilgan surati, kitob va ish qog'ozlari bor edi. Suratda onasining ancha yoshligi tasvirlangan bo'lib, sochlari tim qora, katta-katta ko'zlari esa ko'm-ko'k edi. Pavel Mixaylich Gulyayevning ko'zlari ham huddi shunday bo'lib, chuqur va o'ychan nigoh bilan boqardi. Qo'llari ingichka, barmoqlari uzun bo'lib, ustida kumush gullar tasviri tushirilgan sarafan kiyigan holda edi. Oq dokadan tikilgan ko'ylagi ipga terilgan marvarid taqilgan bug'doy rang bo'ynini to'liq ochib turardi. Boshidagi kokoshnik (rus ayollarining yarim doira soyabonli qadimgi bosh kiyimi) silliq taralgan sochini deyarli to'liq yopgan, uning chetlaridan chiqib turgan bir nechta jingalak tolalar esa suratga bolalarga xos ifoda bag'ishlab turardi... Privalovning sochlari ham xuddi onasinikidek edi va aynan shu sababdan ularni juda yaxshi ko'rardi.

«Hozir hayot bo'lganingizda nima bo'lardi?» – xayolidan o'tkazdi Privalov.

U rangi uniqib, qorayib ketgan polotnoga qarab, bir necha marta og'ir xo'rsindi: hech qachon onasini ko'rish istagi aynan hozirgidek kuchli bo'lmagan, hech qachon unga hozirgidek achinmagandi. Qalbi xotirjam, ammo boshida ming xil fikr aylanar, dardini kim bilan bo'lishishni, yuragini kimga ochishni bilmasdi! Privalov hayotini allaqanday nur yoritganini butun borlig'i ila his qildi. Uni anchadan beri qiynab kelayotgan narsalar o'z-o'zidan yo'qolgan, kelajak esa oydin va ajoyib edi.

«Ishlash va yana ishlash kerak», – o'yladi Privalov, qog'ozlarini tartibga solarkan. Hatto ana shu jonsiz varoqlar ham uni ko'ziga bu-

tunlay boshqacha ko‘rinar, ularni xuddi birinchi marta ko‘rib turgan-  
dek tuyulardi.

Privalov bu orada ulkan valetsli (jo‘vali) tegirmon loyihasini stol  
ustiga qo‘yib, uning barcha tafsilotlarini diqqat bilan ko‘rib chiqdi.  
Loyihada tegirmon barcha qo‘shimcha binolari bilan aks ettirilgan,  
hatto qorovulning kichikkina kulbasini kiritish ham e‘tibordan chet-  
da qolmagandi. Privalov beixtiyor beshta derazali, oldida gulzori bor  
fligel loyihasini qog‘ozga tushirdi. Aynan shu fligelga qarab uning  
yuragi hapqirib ketar, yaxshi va sog‘lom hislarga to‘lib urardi. Fligel-  
ning derazasidan katta, to‘q jigarrang ko‘zlar va go‘zal tabassumga  
ega bir qiz qarab turardi.

### XIII

Xioniya Alekseyevna g‘alabasini nishonlashga biroz shoshildi,  
chamasi. Na Lyaxov, na Polovodov Privalov huzuriga tashrif buyu-  
rishmadi. Shu tariqa, o‘z mavqelarini asrab qolishdi. Bu esa Xioniya  
Alekseyevnaning ham jahlini chiqardi, ham hayron qoldirdi. Chunki,  
g‘alati tabiatli bu inson mashxur kishilar hayotiga taalluqli bunday  
voqealarga ko‘p bora guvohi bo‘lgan. Hurmatli xonim Privalov o‘z  
vasiylarining hiylalarini tushunushni istamagan paytlarda nechog‘lik  
g‘azablanmasin, o‘zini bosishni uddasidan chiqa olgan edi. Xioniya  
Alekseyevna uning har bir qadamini xushyorlik bilan kuzatar, g‘azab  
bilan bosh chayqar, Privalov darvozadan kirishi bilan chappa qarab  
ketardi.

– Yanami... – alamzadalik bilan pichirlardi Xioniya Alekseyevna.  
Privalovning Baxarevlar uyi tomon tashlagan har bir qadami uning  
g‘azabini qo‘zg‘ar edi. – Namuncha u yerga tanda qo‘yib olmasa?  
Nadinedan nima topdi o‘zi? Axir unda na ko‘ngilni jizillatuvchi  
istara, na nazokat bor?! Erkaklarni ko‘zi qayoqda o‘zi? Bor-yo‘g‘i  
bir kulrang paypoq va...tful..

Xioniya Alekseyevna o‘z qo‘nog‘i haqida bir bechora, birinchi  
dush kelgan qizgayoq ilashib ketaveradigan qip-qizil ahmoq, degan  
qat‘iy qarorga keldi. U ataylab biror yangilik bor-yo‘qligini, Priva-  
lov u yerda nimalar qilib yurganini bilish uchun bir necha bor Marya  
Stepanovnaning yoniga borib keldi. Bu tashriflardan shuni angladi-  
ki, Privalov ko‘proq vaqtini Marya Stepanovna bilan suhbatlashib

yoki qariyaning huzurida o'tkazar ekan. Nadine Privalovdan ham ahmoq. U yigitni ruhoniylilik bilan o'ziga og'dirmoqchi bo'lardi. Tashqaridan kuzatgan odamga uning bu harakatlari g'alati ko'rinar, hatto g'ashini keltirardi. Qiz go'yo teatr ingenuesidek, Privalovdan uzoqroq bo'lishga urinar, biroq shu bilan birga goh ko'ylaklari ostidan botinkalarni Privalov ko'z-ko'z qilar, goh xizmatkorlardek nigohlar orqali imo-ishora qilardi. «Gap yo'q, asl xazinani voyaga yetkazishipti. Marya Stepanovnaga ham qoyil qolish kerak – o'zini olima qizi nimalar qilayotganni sezmayotgandek tutadi». Endilikda Baxarevlar uyida ko'rgan har qanday narsa Xioniya Alekseyevnani ko'ngliga shubha solardi. Hatto, Marya Stepanovna mendan qutitishni o'ylamayotganmikan, deb xavotirga ham tushdi. U o'zining yangi holatiga juda berilib ketganiga iqrar bo'lib, badanini muzday ter bosdi.

– Nimagadir juda serqatnov bo'lib qoldi, – o'ylardi Marya Stepanovna Privalov haqida. – Xudo biladi, hali odamlar nima deydi...»

Privalovning har bir tashrifi Marya Stepanovnani ham quvontirar, ham o'ylantirardi. Qizi Nadya Privalovga yoqib qolganini sezmasligi mumkin emasdi. Chunki, Privalov beixtiyor u bilan muloqotga kirishga imkon qidirardi. Go'yo yaqin orada Marya Stepanovna ich-ichidan xohlayotgan narsa yuz beradigandek edi.

– Lyaxovskiy larnikiga kirib chiqsang bo'lardi, – maslahat berdi Marya Stepanovna Privalovga onalardek mehrli ohangda. – U busurman bo'lsa ham, shaharning eng aqlli kishisi. Polovodovlarnikiga ham borib qo'y.

– Men har kuni shunga ahd qilaman, keyin yana ortga suraman, – dedi Privalov.

– Bilaman, bu oson emas, – hamdardlik bildirdi Marya Stepanovna, ammo na iloj. Otasi ham shunday deyapti.

Marya Stepanovna qizi bilan gaplashib, ularning orasida nimadir bo'lgan bo'lmaganini bilishga qaror qildi. Hamonki, ular bir-birlari bilan shunchalik uzoq suhbatlashayaptimi, demak nimadir bor. Marya Stepanovna boshi og'riyotganini bahona qilib, uyga qamalib oldi. U «Xudoning ishlari»ga aralashishni istamasdi. U nikohni shunday

deb atardi. Qizi bilan Privalov to'g'risida gaplashgach faqat kuldi, shunday g'alati kuldiki...

– To'g'risi ona, sizni mutlaqo tanimayapman, – dedi Nadejda Vasilyevna. – Privalovga albatta turmushga chiqishim kerakligi haqidagi gap qayoqdan chiqdi?

– Shunday bo'lganda-chi, buni nimasi yomon, axir hamma qizlar ham kitob o'qib o'tmaydilar-ku. Otang bilan gaplashib ko'r, tangri baxtni o'z-o'zidan bermaydi. Yoshing yigirma ikkiga qarab ketdi. Sen haliyam jilmayib o'tiribsan. Sendayligimda mening uchta bolam bor edi. Kostya olti yoshda edi. Hayronman, otang qayoqqa qarayapti?

– Buni hammasini o'sha Xinangiz o'ylab topyapti, onajon.

– Xina?! Buni men Xinasiz ham yaxshi bilaman, onaginam.

– Mana ko'rasiz, shunday qilaversangiz, Privalov kelganda men umuman xonamdan chiqmayman. Aqlim bovar qilmaydi. Yigit menga yaxshi munosabatda bo'lgani uchungina uni uylantirib qo'yish shart, deb hisoblaysizmi? Biz u bilan faqat yaxshi tanish bo'lishni xohlaymiz, tamom vassalom.

– Ha, yaxshi tanish bilan emas, er bilan yashash kerak!

– Er topiladi, ona. Shuncha-shuncha meros hamda sarpo surug'li juda yaxshi qiz turmushga chiqmoqchi deb gazetaga e'lon beramiz.... Men ofitserga tegaman.

– Bema'ni gaplarni gapirma. Nega unda mehmonxonada u bilan chaqchaqlashib o'tirding?

– Shuni bilmoqchimisiz?

– Men senga tavba-tazarru qil, demayapman, shunchaki, so'rayapman.

– Men ham sizga shuni aytmoqchiman. Kitob o'qib o'tirganimda Sergey Aleksandrich ko'rib qoldi... o'sha kitob haqida gaplashdik.

– Sen o'sha kitoblarning bilan o'tiraver, Sergey Aleksandrich Lyaxovskiylarnikiga borib Zosyaga uylanib olsin.

– Yaxshi-ku, ona, Zosya yaxshi qiz, Sergey Aleksandrich ham yomon odam emas. Ulardan ajoyib juftlik chiqadi. Men kelinni uzatib boraman.

– Onaga aql o'rgatma, Nadejda Vasilyevna, – gapini zarda bilan tugatdi Marya Stepanovna. – Faqat keyin pushaymon qilib yurma...

Vasiliy Nazarich kunda kasal, deyarli xonasidan chiqmasdi U hamma vaqt Privalovni iliq kutib olar, vasiylik haqida u bilan uzoq suhbatlashardi. Nadejda Vasilyevnadan onasi bilan oralarida bo'lib o'tgan gap-so'zlardan xabar topgach, uni jiddiy ogohlantirdi:

– Nadya, onang eskicha fikrlaydigan ayol, uning ustidan kulish gunoh. Men senga ochiq aytaman, seni zo'rlab erga bermayman. Ammo, onang bo'ladigan gapni aytibdi. Ota-onaning birinchi vazifasi bolalarini uy-joyli qilish, undan keyingina o'zlari haqida bosh qotiradi. Men senga faqat do'st sifatida maslahat berishim mumkin. Uzelda kuyovbop tuzukroq yigit bormi? Allaqanday irkutsklik savdogar va ikkita injener...Privalov esa boshqa gap...

– Agar sizlar meni kelinlikka majbur qilmaganingizda, men uni sevib qolgan bo'lar edim.

– Voy xudoyim-yey! Sen o'zingni allaqanday kampirsho deb o'ylamayapsanmi, ishqilib?

– Ota, mavzuni o'zgartiraylik, aks holda yana tortishib qolamiz?

Qizi bilan oralarida bo'lib o'tgan suhbatdan Vasiliy Nazarichning ko'ngli g'ash bo'lib qoldi. Ammo u buni goh hazilga yo'yib, goh biror mashg'ulotga berilib unutishga harakat qildi. Nadejda Vasilyevnaning o'zi esa Privalov haqida kamdan-kam o'ylardi, chunki fikr-u hayoli boshqa narsa bilan band edi. U tezroq Shatrov zavodiga akasining yoniga ketishni istardi. Qiz u yerda o'zini ancha yengil his qilardi. Bu istak Nadejda Vasilyevnada ayniqsa, hozir, kelinlik mashmashasidan tezroq qutilishi uchun ham kuchaygandi.

#### XIV

Privalov esa vaqtning qanchalik tez o'tib ketganini sezmay ham qoldi. U orzu qilgan ish unchalik yurishmas, kundan kunga cho'zilardi. Privalov Baxarevlar uyiga nima ko'proq tortganini o'ylab ko'rmas, ketma-ket tashrifi chog'idagi kunlarni qo'msardi. Yolg'izlikka ko'nikishga o'zini zo'rlab, allaqanday kitobni o'qishga yoki qandaydir rejalar hisobini qilayotganda, xayolan o'n martalab Nadejda Vasilyevna uning uchun qanday qadrga ega-ligini o'ylardi.

Ular birinchi bor Baxarev bog'ida uzoq vaqt yolg'iz sayr qilishdi. Odatda bunday paytlarda Marya Stepanovna ularga hamrohlik qilar,

o'zining vaqti bo'lmasa Verochkani qo'shib yuborardi. Bu safar onaxonning yoniga kimdir kelib qoldi, Verochka esa uyda yo'q edi.

– Nega Lyaxovskiylarnikiga borishni xohlamaysiz? – so'radi Nadejda Vasilyevna ular jo'ka daraxtlari soyasidan ketib borishar ekan.

– Menga Lyaxovskiylarnikiga emas, aslida bir vaqtlar bobom Pavel Mixaylich qurgan o'sha ko'hna uyga borish mushkul. Menimcha, siz o'sha uy devorlari ortida bo'lgan bema'niliklardan xabardorsiz. Onam u yerda ko'rgan xush kunlari uchun hayoti bilan tovon to'ladi.

– Sergey Aleksandrich xotiralardan tashqari, bugungi kun ham bor-ku, axir.

– Zavodlarni aytyapsizmi?

– Ha, men tez-tez Shatrov zavodlariga, Kostyaning yoniga borib turaman. Biz u bilan ko'pincha siz haqingizda gaplashamiz. Axir, bu zavodlar taqdiri qirq mingga yaqin aholi taqdiri bilan chambarchas bog'liq-ku. Kostya xayolparastlikni yoqtirmaydi, ammo gap zavod haqida borganda u qip-qizil xayolparastga aylanib qoladi. Men uni shuning uchun ham yaxshi ko'raman. O'zingayam zavodlar yoqadi, bilasizmi, nima uchun? Uning juda qimmat bo'lgani uchun ham, hatto bizning eng yaxshi oilaviy xotiralarimiz u bilan bog'liqligi uchun ham emas, men undagi ishni, hayotga bergan alohida ko'tarinki kayfiyati, zavqi uchun yaxshi ko'raman. Zavodda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni ko'rganingda o'zingda qandaydir yangi, yaxshi, kuchli g'ayratni xis qilasan. Agar so'zning mag'zini chaqsang yangi kuch-g'ayrat degani...

Bu paytda ular bog'dagi o'rindiqlarda o'tirishgandi. Nadejda Vasilyevnaning yonoqlari qizarib, ko'zlari chaqnaq yanayam qora ko'rinardi. U boshidan poxol shlapasini yechib olib, shlapasi atrofiga qadab chiqilgan sun'iy marvaridgul qo'ng'iroqchalarini asabiy aylantirardi. Bu suhbat o'z-o'zidan Privalovning rejalarini buzib yubordi. U endi Nadejda Vasilyevnaga orzularini aytishga og'iz juftlagandi, biroq uning hozirgi holatini ko'rib tilini tiydi. Nazarida qiz undan sal nariga siljib, nigohlarini bog' etagida yorqin sariq rangli ko'ylagini xilpiratib kelayotgan Verochkaga qadadi.

– Ketskik, onam bizni kofe ichishga chorlayapti, – dedi Nadejda Vasilyevna o'rindiqlardan turayotib.

Shunday qilib Privalovning Nadejda Vasilyevnaga aytmoqchi bo'lgan gaplari ichida qolib ketdi.

Marya Stepanovna xonasining yarmi ibodat qilish uchun ajratilgan. Bu birorta derazasi yo'q uzun, qop-qorong'i xona edi. Avval bu yerda bo'lmagan kishi xonani o'n marta aylanib ham xonimni topa olmaydi. Bu yerga Marya Stepanovna yotog'ining yonidagi qorong'i qaznoqdan o'tilardi. Qaznoqning orqa devoriga ibodatxonaning qandaydir eski mo'yna qoplangan eshigi o'rnatilgan. Privalov Marya Stepanovnani mehmonxonadan topmagach to'g'ri ibodatxonaga o'tdi. U o'sha yerda edi. Qiya stoldagi Bibimaryam surati oldida tilovat qilayotgandi. Burchakda uzun qop-qora ko'ylak kiyib beliga raskolnikchasiga ip bog'lagan, ya'ni belbog'ning ikki uchini xuddi tatar kampirlardek pastga ositirib olgan kampirlar g'imirlardi. Devorning o'ng tomonida turgan etaklari uzun chakmon kiygan oppoq soqolli qariya egilayotganda boshi shoyidan tortilgan tasmaga tegib sajdani qoldirib yuborardi. Shu onda Privalovning ko'z oldida bolalik chog'laridagi manzara aniq namoyon bo'ldi: shudringli ladan (diniy marosimlarda tutatiladigan xushbo'y smola), asalari mumi va daraxt moyining hidi anqidi. Ibodatxona mehrobini qimmatbaho kumush va oltindan eng qadimiy yozuv shaklida bezak berilgan ikonastos band etgandi. Bu yerda fryaj butlari, qadimiy stroganov xatlari, (kormovix) podshoh izograflarining asarlari yig'ilgandi. Bu boyliklarning barchasi Marya Stepanovnaga Privalovning onasi vafotidan keyin xonavayron bo'lgan Privalovlar uyidagi ibodatxonadan meros bo'lib qolgan edi. Hamisha yonib turadigan tagi marvarid va rangli toshlar, tilla shokilda va munchoqlar bilan bezatilgan chiroqlar zimistonni tilkalab gir atrofga bir ajib shu'la taratardi. Ba'zi sanamlarning tagiga tilla butlar osilib, burchaklari qimmatbaho iplar bilan o'ralgandi. Mo'jazzgina stol ustida, ibodat stolining shundoqqina yonida kumush katsey tutardi.

Marya Stepanovnaning qiroati sal-pas dimog'ida, so'zlarni cho'zib, «y»ni «i» dek talaffuz qilib xuddi raskolniklardek qiroat bilan qilayotgan tilovati xonada jaranglardi. Privalov orqasiga o'g'irilib, chap burchakda kampirlar orasidagi kattakon ro'molda, qo'lini ko'ksida raskolnikchasiga qovushtirib turgan tanish ayol qomatini ko'rib qoldi. U Nadejda Vasilyevna edi.



– Biz bilan birga ibodat qilishga kelganing qanday yaxshi bo‘ldi, – dedi Marya Stepanovna chiqishda. – Bu yerdagilarning yarmidan ko‘pi senga tegishli. Biroq men hozircha ularni senga bermayman...

– Nega bermaysiz, Marya Stepanovna?

– O‘zim shunchaki... Ularni nima qilasan? Bo‘ydoq bo‘lsang, uyda ularga qaraydigan hech kim yo‘q bo‘lsa. Ibadatga xushing bo‘lmasa. Arafa kuni kampirlar aytishdi, menikida ular hamisha yonib, marhumlarni yo‘qlab turarkan.

– Mayli yaxshisi ular siznikida turaversin, Marya Stepanovna, – rozi bo‘la qoldi Privalov.

– Qanday tursin?

– Hozir qanday turgan bo‘lsa o‘shanday. Menga ularning keragi yo‘q.

– Bekorga unaqa deyapsan, – dedi Marya Stepanovna keskin ohangda. – O‘ylab ko‘rmabman. Bu sanamlar sen uchun qadrdon: bobolaring, bobokalonlaring unga cho‘qingan. Sizlar juda aqlli bo‘lib ketgansizlar, g‘ururingiz baland.

– Ona, siz Sergey Aleksandrichni tushunmadingiz, – oraga tushdi Nadejda Vasilyevna.

– Kechirib qo‘yasan, azizam...Qarib, miyam suyilib, ko‘p narsalarni tushunolmay qolgan bo‘lsam ham, buni juda yaxshi tushunaman.

Kampirshoning astoydil jahli chiqqan shekilli, Nadejda Vasilyevna uni arang tinchitdi. Kutilmagandagi bu vazohat Privalovni avvaliga shoshirib, esankiratib qo‘ydi.

– Bilasizmi bugun onam sizdan nega buncha xafa bo‘ldi? – so‘radi Nadejda Vasilyevna u uyga ketganidan so‘ng.

– Dinga beparvo bo‘lganim uchunmi?

– Yo‘q... siz o‘zingizni Privalovlarga munosib tutmadingiz. Tushunarlimi?

– Unchalik emas.

Nadejda Vasilyevna hech narsa demadi. Faqat unga qarab kulib qo‘ydi. Ko‘zlarida esa bir olam ma‘no mujassam edi. Qizning gaplari uni har taraflama anglab olmagunicha Privalovning qulog‘i ostida jaranglab turdi. U hammadan ham qizning jon jahdi bilan uni himoya qilganidan, tarafini olganidan xursand edi. Nazarida Nadejda

Vasilyevna bilan uning orasida ko'z ilg'amas axloqiy bog'liqlik yuzaga kelgandi.

## XV

Bir kuni Privalov Baxarevlarnikida o'tirganida, gap aylanib hanuz eski, vayrona kulbasida kun kechirayotgan kampirsho Kolpakovaga borib taqaldi.

– Meni Pavla Ivanovnanikiga kuzatib qo'yishni istaysizmi? – taklif qildi Nadejda Vasilyevna Privalovga. U buni ataylab, onasining asabiga tegish uchun qilgandi.

– Bajonidil... – dedi Privalov bunday taklifdan hayratga tushib. U Marya Stepanovna o'zining ulug'vor qiyofasiga shikast yetkazmagan holda qat'iyat bilan lab burganini ko'rib qoldi.

– Verochka biz bilan boradi, onajon, – qo'shib qo'ydi Nadejda Vasilyevna shlapasini kiya turib.

Shubhasiz, Verochka bunday sayrga jon deb rozi bo'ldi. Azbaroyi xursandligidan qizarib ketdi. «Tentak qiz, – o'yladi Marya Stepanovna baxtiyor uchlikni ayvongacha kuzatib qo'yarkan. – Otasiga aytmasammi!». Ayni vaqtida onasini qattiq quchoqlab o'pgan Verochka bu alamzada fikrni beliga tepdi. Marya Stepanovna qizlarini ortidan kuzatar ekan ularni shu kichkina quvonchdan qanchalar baxtiyor ekanliklarini sezdi. Ayniqsa, Verochka o'zini juda yaxshi his qilardi. Hozir Nadya nima qilmasin uning uchun o'rnak, butun boshli fan bo'lib tuyulardi. Nadyada har qanday jo'n narsa ham juda zo'r ko'rinadi. Atigi besh so'mlik shlapa ham unga juda yarashadi. Arzimagan burmali ko'ylakda ham ochilib ketadi. Verochka opasini ko'klarga ko'tarar ekan, unga kelindek qarayotganini sezmasdi.

– Bu yerdan atigi besh daqiqalik yo'l, – dedi Nadejda Vasilyevna darvozadan chiqishgach. – Darvozadan chapga yurib daryoga tushamiz, keyin burchakka burilamiz – ana shu yer Kolpakov uyasi.

Kolpakov uyi batamom vayronaga aylangandi; u bir paytlar pomeschchikcha did bilan qad rostlagandi. Avvalgi tinch zamonlarda Aleksandr I davrida shunday binolar qurishar edi. Oldi ustunli, boloxonali, zafar arki shaklidagi darvoza, hashamatli yo'lak, keng hovli

va o'nlab keraksiz qurilishlar ular qatorida ananaslar uchun oranjeriya, yigirmata ot sig'adigan otxona, endilikda nimaligini aniqlash mushkul bo'lib qolgan bir qator allaqanday korpuslar. Kolpakov eng boy oltin sanoatchilaridan edi. U rus fe'l-atvorini butunlay o'zgartirishni yaxshi ko'rardi. Biroq juda tez xonavayron bo'ldi va xotini Pavla Ivanovna bilan qizi Katyaga qashshoqlikni meros qoldirib, o'zi ham qashshoqlikda o'lib ketdi. Kolpakov kulbasi Privalov ko'nglida noxush taassurot uyg'otdi. Endi u Pavla Ivanovna bilan uning qizi bu yerda qanday yashayotganidan hayron edi. Qachonlardir yashil bo'lgan tom allaqachon zanglab ketgan, ko'pgina joylaridan chirigan tunukalar, ular orasidagi rangi o'chgan yog'och to'sinlar yalang'och qovurg'adek ko'zga yoqimsiz tashlanadi. Bolxona shiftiga yopishtirilgan karnizlar, ko'chib, qora suvoqning o'zigina hilvirab turar, bir zamonlar balkonga o'yib ishlangan naqshlar allaqachon chirigan tishlar kabi to'kilib tushgan. ikkinchi qavat hamda bolxonadagi deraza romlari oynasiz, deraza tuynuklari xuddi o'yib olingan ko'zdek xunuk ko'rinar edi.

– Pavla Ivanovna qayerda umrguzaronlik qiladi? – so'radi Privalov ko'cha eshikning omon qolgan tavaqasiga yaqinlashganlarida. Tavaqa yerga batamom cho'kib qolgani bois yopilmas, hovliga ana shu yerdan muammosiz kirib chiqish mumkin edi.

– Huv pastdagi, burchakdagi uychada...

Ular uyni aylanib o'tib, chirigan zinalardan qorog'ilikka tushib qolishdi. Bu yerdan mog'or va zah hidi anqirdi. Verochka oldinga yugurib o'tib pastdagi xonaga olib kiruvchi chang bosgan darchali og'ir eshikni lang ochib yubordi.

– Bu biz, Pavla Ivanovna, kirsak bo'ladimi, – dedi u eshik oldida to'xtab.

– Kiring, kiravering, – javob berdi xirildoq ovoqli ayol va deraza oldidagi qayin daraxtidan qilingan kreslodan kumush ko'zoynak taqqan pakana kampir o'rmidan qo'zg'aldi. – Bu senmi, Verochka?

Privalovni ko'rgan kampir go'yo nimadir chaqib olganday qaddini rostlab, yelkasidagi rangi uniqqan baxmal ro'molini shosha-pisha to'g'riladi.

– Siz meni tanimasangiz kerak, – dedi Sergey Privalov Nadejda Vasilyevna kampir bilan hol-ahvol so'rashib bo'lgach.

– Seryoja! – qichqirib yubordi Pavla Ivanovna qurib qaqshab qolgan ajinli qo‘llarini serpiib. – Qanday shamol uchirdi? Kichkinagina bo‘lvolib Kostya ikkalangiz istiqbolimga chopqillab kelganlaringiz yodingizdami... voy Xudoyim-ey, valdirashimni qarang...o‘tinglar, bu yoqqa o‘tib o‘tiringlar, – kampir o‘zida yo‘q shodlanardi.

– Pavla Ivanovna ortiqcha urinmang, biz mehmon bo‘lib emas, eski qadrdonlar sifatida sizni yo‘qlab keldik, – dedi Nadejda Vasi-lyevna.

– Yaxshi, yaxshi...– shivirladi kampir Privalovga boshdan oyoq sinchiklab qarar ekan. Uning qora ko‘zlari mehmonga qiziqsinib, samimiy tikilar, qurib, ko‘kimtir tusga kirgan lablari: – Yaxshi... qanday yaxshi, – deb pichirlardi.

«Nadya qallig‘ini ko‘rsatishga olib kelibdi-da...» – sevinchi ichga sig‘may o‘ylardi kampir, qo‘shni qorong‘i xonaga o‘tarkan. U qorong‘i uychada sichqondek u yoqdan bu yoqqa zipillab nimadir qildi. Ko‘p o‘tmay xonadan samovarning shig‘illashi eshitildi.

Privalov qorong‘ilikka ko‘nikkach, mebellar bilan to‘ldirib tashlangan nimqorong‘i xonaga ko‘z yugurtirdi. Bu yerda nimalar yo‘q edi, deysiz. Qizil daraxtdan yasalgan guldor baxmal qoplangan divan oldida palisandr daraxtidan bo‘lgan kontorka, divan tepasida cho‘milayotgan nimfa tasvirlangan kartina osilgan, kareliya qayinidan qilingan komodlar derazalar orasidagi yerga bir xil qilib joylashtirilgan. Oddiy qarag‘aydan yasalgan bo‘yalmagan taburetka oldidagi pardozi buyumlarini ko‘tarolmay oyog‘i sinib qiyshayib qolgan trumoga chang bosgan shnur o‘ralib, devorga tortib qo‘yilibdi. Yog‘och qutisi qirralariga sevgi ma‘budining bir necha kallasi o‘yib ishlangan ko‘hna pardozi buyumi shandal komodga husn berib turardi. Bu eski xashamning barcha qoldiqlarini xuddi eski-tuski buyumlar sotiladigan do‘kondagi singari chang bosgandi. Qari xitoy mushugi komoddan otilib chiqib mehmonlarga bir zum loqayd qarab turdi-da, xijolat tortib Pavla Ivanovna samovari bilan andarmon bo‘layotgan qorong‘i xonaga o‘tib ketdi.

– Xudoga shukr, Xudoga shukr, nihoyat kelibsiz! – Privalovga jilmayib gap boshladi Pavla Ivanovna. – Sizens uyingiz bo‘ldi xarob, uni tuzatish kerak shitob. Egasiz uy nima ekanligini juda yaxshi bila-

man, boshimdan o'tkazib turibman. Ko'ryapsizmi, meni uyim vayronaga aylanganini.

«Tavba, u nega bunchalik xursand?» – xayron bo'ldi Privalov. U shu topda ko'pincha g'ira-shira esiga tushib qoladigan marhamatli Pavla Ivanovnani yaxshi ko'rishini yurakdan his qilardi. Choy ustida miriqib suhbatlashishdi. Qadimiy baqaloq finjon, shoxdor qo'zichoq qiyofasidagi qanddon, sakson chinnisidan bo'rtib ishlangan daroz choynak, qirrador, tagi yassi, pakana stakan – hamma-hammasidan o'tmishning qadrton nafasi ufurar va nihoyatda dilga yaqin edi. Verochka qushday chirqillar, mushukni jig'iga tega-tega oxiri qotgan non berdi. Bu kichik hodisadan Pavla Ivanovna qattiq hayajonlandi.. U boshini chayqab: – Bu men uchun chinakam bayram bo'ldi, rahmat sizga, yelkamdagi yigirma yillik yukdan qutildim. U paytlarda kichkinagina bolakay edingiz. Endi esa...Sizga qarab turib o'ylab qoldim: yaqindagina men ham yosh edim, endi-chi... Vaqt. vaqtni qarang yelday o'tib ketibdi-ya!

Pavla Ivanovna ataylabmi, yoki shunchakimi Verochkani tomorqasida yetilgan g'aroyib karamni ko'rsatgani olib ketdi. Privalov Nadejda Vasilyevna bilan yolg'iz qoldi. Qiz Pavla Ivanovnaning hiylasini tushundi. Kampirsho «kelin-kuyovga» bir necha daqiqa yolg'iz qolishga imkon yaratgandi.

– Sho'rlik Pavla Ivanovna, – tilga kirdi Privalov.

– Nega endi, sho'rlik bo'larkan? Dastlab shunday tuyuladi. Uning hayotda o'z falsafasi bor. Siz biror kun u bilan bafurja gaplashib ko'ring.

– U qanday falsafa ekan?

– Nima desam ekan. U hayotga, baxtga o'zgacha ko'z bilan qaraydi. Qarang boshidan qancha ko'rgiliklar kechirganiga qaramay, shu yoshgacha o'zini qanday saqlagan. Bilib qo'ying, u hech qachon hech kimdan yordam so'ramagan. Garchi sodda, kamtargina ko'ringani bilan aslida juda mag'rur.

– U qanday qilib kun kechiradi?

– Ip yigiradi, paypoq to'qiydi... Odamlarga hamisha samimiy, yaxshi muomalada bo'ladi. Axir shunday ulug' yoshgacha bunday go'zal, iliq tuyg'ularni saqlay olish, tashvishlar, qiyinchiliklarga bo'ysunmaslik ulkan boylik emasmi?! Uning o'rnida boshqa birov

bo'lsa, allaqachon o'zini yo'qotib qo'yar, g'azabnok bo'lib qolardi, hamma narsadan, har kimdan nolirdi. Agar bu ayolni ataylab boy, to'kin, farovon hayotga tayyorlashmaganda o'ziga va boshqalarga ko'proq nafi tekkan bo'lardi.

Pavla Ivanovna bilan Verochkaning xonaga qaytishi suhbatni uzib qo'ydi. Choy ham tugagan, uyga ketish payti bo'lgandi.

Hovlida ular baland bo'yi bukchaygan, sariq sochli cholga duch kelishdi.

– U telba, – so'rashish uchun qo'l uzatgan Privalovni ogohlantirdi Nadejda Vasilyevna.

Qariya ko'zlarini qisib yoshlarga qaradi-da, to'zg'ib ketgan etigini ildam sudrab, Privalov qarshisida to'xtadi.

– Hamma qog'ozlar shu yerda, – ovozi qaltirab dedi u xafsala bilan taxlanib, pushti bog'ich bilan o'ralgan uniqqan qog'ozlar bog'lamini Privalovga uzatar ekan.

– Bu qanday qog'ozlar? – so'radi Privalov qog'ozga tikilib.

– Bu mening barcha boyligim...Mening haq-huquqlarim, – jilmaydi qariya titroq qo'llari bilan bog'ichni yechishga urinib. – Meni bor narsamni tortib olishdi, meni tunashdi... Faqat huquqim qoldi. Hammasini qaytarib olaman. Mana, ishonmasangiz o'zingiz ko'ring qog'ozlarni. Ha ishonavering, bu rost. Hammasi kunday ravshan-ku. Men buni ko'pdan buyon kutyapman, ammo nachora.

Ehe, nimalar yo'q edi bu bog'lamda – teatr afishalari, allaqachon o'ynab bo'lingan lotoreya chiptalari, do'konlarning turfa xil e'lonlari hatto gazlama va dorilarning titilib ketgan etiketkalari. Privalov bu «huquq»larga diqqat bilan tikildi, uni egasiga qaytarayotib, taassuf bildirdi:

– Ha yana kutishingizga to'g'ri keladi...

– Siz nima deb o'ylaysiz, bu hujjatlar bilan biror natijaga erisha olamanmi?

Cholning serajin yuzida shunday iltijo zohir edi-ki, Privalovning ich-ichidan unga rahmi keldi. Verochka bo'lsa Privalovning panasiga o'tib sekingina hingilladi.

– Ehtimol, undirarsiz, – telba cholni ishontirdi Nadejda Vasilyevna. – Axir shuncha kutdingiz-ku, buyog'iga ozgina qoldi.

– Ox, minnatdorman, behad minnatdorman, – chol pichirlagan-  
cha uning qo‘lini o‘pdi. – Eringiz juda aqlli yigit... Ha, men kutaman...  
Verochka kulgidan o‘zini tiyolmasdan, oldinga o‘tib ketdi.

## XVI

Qishloqning zerikarli hayotini turli tashriflar jonlantiradi. Bu turfa xil musiqalar ifodalangan o‘ziga xos gamma. Privalov huzuriga birinchi bo‘lib Viktor Vasilich bilan Nikolas Veryovkin kirib kelishdi. Qo‘llariga oq qo‘lqop, boshiga ayni paytda urfda bo‘lgan kalta hoshiyali, tepasi yassi shoyi silindr kiygan, Vasiliy Nazarich nomidan tashrif buyurgan Viktor Vasilich negadir frak tugmalarini bezovta aylantirardi. Mahalliy advokat Agrippina Filipevnaning to‘ng‘ichi Nikolas Veryovkin Viktor Vasilichning butunlay aksi edi. Baland bo‘yli, semiz, yo‘g‘on baqbaqalari osilgan bo‘yni pivo qozoniga o‘xshardi. Jingalak qizg‘ish sochlari chiroyli taralgandi. Uning shu turishi mahalliy hazilkash, saxiy qaroqchini eslatardi.

Chindan ham Veryovkinning yuziga bir qaragan kishi uning kimligini bilib olardi – kulrang, kaltakesaknikidek chaqchaygan ko‘zlar, loqayd nigoh, bu qalin sergo‘sh lablar, bo‘rtib turgan yonoqlar, taqir, tor peshona, baroq qoshlar va nihoyat yaltirab turgan qizg‘ish teri – xojasi haqida unsiz so‘zlardi. Buning ustiga mahalliy advokat onda-sondagina jilmayardi. Bu g‘alati qiyofani yuzlab boshqa chehralardan farqi, uning sezilar-sezilmas surbetligi, o‘rinli kinoya va qochirimlari, kulgili holatlarigina chiroyli ko‘rsatardi. Nikolas Veryovkinning har bir dovdirashi – butunlay jiddiy turib aytgan gaplari ham nihoyatda kulgili va bema‘ni bo‘lardi. U oddiy kishilardan o‘zining g‘alati qiliqlari bilan ajralib turar, ana shuning uchun ham zotli jonivordek erkaklar orasida ham, ayollar orasida ham birdek arzanda edi.

– Qarang, Sergey Aleksandrich, men sizga qanday mahluq keltirdim, – qichqirdi Viktor Vasilich oldingi qatordan.

– Juda, juda mamnunman... – dedi Privalov sobiq universitetdosh do‘stining ulkan kaftlarini siqib.

– Bizning chernenkalarimizga ham iltifot qiling... – javob qildi Veryovkin yoqimli bariton ovozda, Privalovning qomatiga qarab.

Viktor Vasilich shu zahoti o‘z-o‘ziga Privalov xonasini to‘lato‘kis tariflashga tushdi.

– Xina shunaqa! Hammasini a’lo darajada joy-joyiga qo’yibdi, qoyil. Nikolas esingdami, Lomtev bu xonalarni Ivan Yakovlevich bilan birga qanday tozalab chiqqan edi? Xa-xa, onalar nega endi kasalvandlarni dunyoga keltiradi? Xa-a...

– Siz Uzelimizga ayni vaqtida keldingiz, – dedi Veryovkin bu sakkiz pudli bremenning zalvoridan ingrashga ulgurmagan kreslodan vazminlik bilan turar ekan. U nimadir axtarib xonani bir necha bor ko’zdan kechirgach, qo’shib qo’ydi: – men bugun juda chanqadim...

– Darvoqe, men ham kechagi bazmdan keyin qattiq titroqdaman, – uni ma’qulladi Viktor Vasilich. – Nikolas, senga tozasidanmi? Menga vino. Mayli, Privalov, siz qo’yavering, men o’zim amallayman! Xudo haqqi!

Viktor Vasilich ko’z ochib yumguncha Xioniya Alekseyevna tomonga o’tib g’oyib bo’ldi. U yerdan qo’lidagi patnisda shisha va gazak solingan likoplarni ko’tarib olgan Ipat hamrohligida qaytib keldi. Viktor Vasilich aroq va vino so’rab og’iz ochishi bilan Xioniya Alekseyevna ularni allaqachon taxt qilib qo’yganini aytdi.

– Xonimga aytib qo’y, – xonadan chiqib ketayotgan malayning ortidan qichqirdi Baxarev. – Mehmonlar tushlikka qolishadi... Tushunarlimi?

– Badnafslilik odamni yengadi, – dedi Veryovkin qadahdagi aroqni icharkan ashaddiy aroqxo’rlar udumiga binoan.

Privalov bir necha daqiqadan so’ng barcha yangiliklar va shaharning deyarli barcha siridan voqif bo’ldi. Viktor Vasilich garchi beshinchi qadahdan keyin tili yaxshi aylanmay qolgan bo’lsa-da, valaqlashdan to’xtamas edi. U allaqachon Privalovni senlashga o’tib olgandi.

– Privalov, men seni bir ko’rishdayoq yoqtirib qolganman. Xudo haqqi!. – javradi Baxarev ko’zlari chaqrab. – Jin ursin seni o’sha millionlaringni...Pul bilan emas, yaxshi odamlar bilan yashash kerak. Men agar xohlaganimda allaqachon millioner bo’lardim. Tasavvur qilyapman, agar o’shanday bo’lganida menga qanchalik xushomad qilishlarini... Xa-xa!.. «Viktor Vasilich, Viktor Vasilich...» Men ularning basharasiga tupurishni ko’rsatib qo’yardim...Ha. Biz hali shunday jononlar bilan tanishtirib qo’yamizki – barmog’ingda o’ynatasan.



Senga ko'proq kimlar yoqadi? Qizlarmi yoki xonimlar? Menga qolsa bevalari ma'qul... qizlar bilan vaqting behuda o'tadi... Oh!... Mana Nikolasning singlisi Alla, haqiqiy oyimcha. Agar Lyaxovskiylarniki-ga borsang, u yerda senga shunaqangi oyimqizlarni ko'rsatishadiki boringni bersang ham kam... Bu, og'ajon, go'zallik, otash, latofat, ayyorlik...

– Zosya chindan ham ajoyib, yoqimtoy qiz, – uning fikriga qo'shildi Veryovkin qoq baliqni g'ajiyotib.

– Bir marta meni o'pib olishiga sal qolgandi, – maqtandi Baxarev.

– E, opqochma, – ogohlantirdi Veryovkin. – Haydashga-ku, chindan haydagan, ammo seni o'pish... buning uchun g'irt ahmoq bo'lish kerak...

– Sen shoshma, avval gapimni eshit... Zosyaga kulgili narsalar yoqadi, bir kuni men unga pashshani qanday qilib tutishni ko'rsatdim. Menga buni bir toshkentlik zobit o'rgatgan edi.... Qarasam, bir it oftobda yotib, mudrayapti (Baxarev it oftobda qanday mudrayotganini ko'rsatib berdi) ... Bir vaqt pashsha uchib keldi «vizz». Ko'ppak avval bir ko'zini keyin ikkinchi ko'zini ochib bir pas kuzatib turdi va tushudingizmi to'satdan «xam!..» (Baxarev san'atkarona abjirlik bilan ko'ppak harakatini ijro qildi). Men Zosyaga o'sha holatni ko'rsatganimda, buni unga ham o'rgatishimni so'radi... O'rganib oldi. Hozir pashshani mendan yaxshiroq tutadi. Biror kun undan so'ra, ko'rsatib beradi.. ana o'shanda u meni o'pib olay degandi.

– U seni haqiqiy it o'rnida ko'rgani aniq!

– U donoliging uchun og'dirib oldimi.. – bo'kirdi Baxarev. – E, o'zi men nega siz bilan valaqlashib o'tiribman, yaxshisi Xinning yoniga boraman...

Baxarev sarxushlarga xos yoyilib iljaygancha, yengil yo'rg'alab xonadan chiqdi. Uning «Privalovni yaxshi ko'rib qoldim..Xudo haqqi, yaxshi ko'rib qoldim. Uning nigohida o'ziga tortuvchi nimadir bor. Mayli jin ursin», deb o'zicha pichirlagani Privalovning qulog'iga yetib bordi. Xonada ikkovlon yolg'iz qolishdi. Privalov o'ychan tamaki tortar, Veryovkin esa stakan tagidagi so'nggi aroq tomchisini ishtaha bilan simirdi.

– Siz biz tomonlarga butunlay qaytdingizmi? – so‘radi Veryovkin.

– Shunday qilsammikan, deb o‘ylab turibman.

Veryovkin stakanni chayqatib ichidan nimanidir oldi. So‘ngra Privalovga qattiq tikilib so‘radi:

– Baxarevlarnikida bo‘ldingizmi?

– Ha.

– Hm,... – yamlandi Veryovkin va barmoqlari bilan stolni bamaylixotir chertdi. – Gap bunday Sergey Aleksandrich... Men siz bilan eski universitetdosh o‘rtog‘ingizday gaplashmoqchiman. Hm... siz allaqachon yaxshilikcha chekinganimni sezgandirsiz?

Privalov bunchalik oshkora tan berishdan xayron bo‘lib yelka qisdi, nimanidir inkor qilmoqchi bo‘ldi:

– Yo‘q nega endi? – xotirjam gapida davom etdi Veryovkin... – Ko‘rinib turibdi, qushcha allaqachon uchib ketdi. Yomon shalvirab qoldim, – Veryovkin so‘nggi jumlanı aytarkan, nimadandir qutilish istagida xumdek kallasini qattiq-qattiq siltadi. – Oyni etak bilan yopib bo‘lmaydi. Men sakkiz yildan buyon advokatman. Yillik daromadim o‘n-o‘n ikki ming; Bo‘ynimgacha qarzga botganman. Yana pul ishlab olish imkoniyati yo‘q emas. Bu haqda eshitishga ulgurasiz. Men bularnı sizni aldashni istamaganım uchun aytyapman. Bir so‘z bilan aytganda, aqldan ozay deypman. Undan-bundan sizning meros borasidagi harakatlaringizni eshitib qoldim. Sizga o‘z xizmatimni taklif qilmoqchiman. Shuni aytishim mumkinki, bunday chalkash ishni hal qilib, pul ishlab olish niyatidaman. Axir sizga ham ishonchli odam kerak-ku?

– Albatta, men roziman, – dedi Privalov. – Mamnunman.

– Do‘stim, xursand bo‘lishga shoshilmang, avval Konstantin Vasilich bilan maslahatlashib ko‘ring, – qani u nima der ekan. Men kutib turaman. Ish juda jiddiy. Buning ustiga siz meni hali unchalik yaxshi bilmaysiz. Kimlar bilan kurashishimizga to‘g‘ri kelishini sizga tanishtiraman... Vasiylaringizdan biri aynan Polovodov, menga *beau frere*<sup>1</sup> bo‘ladi. Ammo hech qisi yo‘q... Biz uni ham jalb qilamiz. «nonimiz o‘rtada, tamaki alohida» degan rus maqolini eshitganmisiz.

<sup>1</sup> Kuyov (fr.).

Kimningdir qo'li bilan ochilgan eshikdan ichkariga kirgan Baxarev tufayli suhbat uzildi. Baxarev mudroq nigohlar bilan Privalovga qarab, bosh chayqadi va g'iybat boshladi:

– Jin ursin... pansionning xazinasi g'oyib bo'libdi, ya'ni, bu yerdan ozodlikka chiqibdi... Xina uyiga ketvorgan jononni berkitib qo'ygan ekan... Ko'zlari – olovday chaqnaydi... uning mushtlari bu yorug' olamda yo'q. Men u bilan ko'ngilxushlik qilmoqchi bo'lgandim, shunday musht tushirdiki...

Privalov bilan Veryovkin kulib yuborishdi. Baxarev boshini chayqaganicha oyoqlarini arang sudrab, divanga yetdi-yu uni ammalab yoydi. Tirsaklariga tayanib zo'rg'a qaddini ko'tardi: – Privalov quloq sol... men seni yaxshi ko'raman... seni hech narsadan xabaring yo'q... y-o'-qq.

– Biroq Sergey Aleksandrich sen to'yib uxlab olishing kerakligini biladi, – ogohlontirdi Veryovkin.

– Yo'-o'q... Siz meni ahmoq.. sarxush deb o'yalayapsiz... Privalov quloq sol, men senga bir gap aytaman...

Baxarev o'tirib olib, atrofga olazarak qaradi.

– Onam seni juda ham... yaxshi ko'radi, – u oyog'ini chalishtirib olib, gapida davom etdi. – Axir onam ajoyib kampir... ha-a. U Veryovkindan ham aqlli. Biroq bilasanmi onam nimadan qo'rqadi... Hmm...ha-ha... u seni Zosyaga uylanadi, degan xavotirda... Xudo haqqi! Axir Nadya bebaho qiz.. Xudo haqqi...U mening singlim, ammo to'g'risini aytaman, u juda ajoyib, juda aqlli... agar Nadya singlim bo'lmaganida... har qanaqasiga senga to'sqinlik qilardim... Sen nima eshitsang ham, nima ko'rsang ham albatta unga uylan... eshityapsanmi? Keyin rahmat aytasan. Onam, Zosya kuyovini yo'ldan urib oladi, deb cho'chiydi... Ha-ha. Zosyaga pashshani qanday qilib tutishni o'rgatganimda, quvonchdan meni o'pib olay degandi.

– Bo'ldi, yetar, uxla, – dedi Veryovkin, tinmay aljirayotgan oshnasini o'ringa yotqazayotib.

Privalov duv qizardi. Sarxush Baxarevning gaplari unga yomon ta'sir qildi – Yo'q, Marya Stepanovnani o'rtaga tiqqani uchun emas, uning uchun qadrli bo'lgan qizning ismini Veryovkin oldida qayta-qayta tilga olgani uchun. Xudo biladi axir, u nima deb o'ylaydi...

– Viktor juda yaxshi yigit, hayronman xayoliga bunday bo‘lmag‘ur fikrlar qayoqdan kelib qoldi, – dedi Veryovkin go‘yo Privalovning holatini sezmaganday. – Xuddi mast xotinday aldaptiya... Eng chirkin nusxa! Umuman, Viktor bugun butun shahar aytayotgan gaplarni aytdi, – qo‘shib qo‘ydi Veryovkin. – Ko‘pni ko‘rgan odam sifatida, sizga bitta noyob maslahat bermoqchiman: hech qachon bu yerda orqavoratdan aytilayotgan gap-so‘zlarga e‘tibor bermang. Bu provinsiyaning, ya‘ni bizning og‘riqli nuqtamiz. U tushunarli: biz erkaklar hech bo‘lmasa qimor bilan ovunamiz, biroq xonimlarga qiyin. Axir ular ham nimadir qilishi kerakku. Umuman men bu gap-so‘zlarni aytaman... ayollar bilan ishim yo‘q.

Baxarev qattiq xurрак tortib yonboshga arang o‘g‘rildi. Privalov sal yengil tortib, suhbatdoshiga minnatdor qarab dedi:

– Menga tegramizda bo‘layotgan gap-so‘zlarning mutlaqo ahamiyati yo‘q. Ammo o‘rtada qiz bolaning sha‘ni bor; qolaversa Marya Setapnovnani ham bunday qiyofada ko‘rish...

– Otaginam, bularning hammasiga tupuring... Yaxshisi ish haqida gaplashaylik. Viktor, uxlayapsanmi? Uxlayapti...

Veryovkinning bir necha so‘zlaridan bildiki, u meros ustidagi chalkashliklarni ipidan ignasigacha biladi. Buning ustiga suhbat chog‘ida Tita Privalovning g‘oyib bo‘lishi vasiylar o‘tkazib yuborishni xohlayotgan qandaydir o‘tkir g‘oya bilan bog‘liqligi haqida ham qistirib o‘tdi.

– Aynan nima? – so‘radi Privalov.

– Aniq ma‘lumotlarga ega emasman, – dedi Veryovkin mujmal ohangda. – Lekin kalavanning bir uchi qo‘limda... Ko‘ryapsizmi, haqiqiy ish endi boshlanadi, avvalgilari bor-yo‘g‘i shunchaki urinish edi.

– O‘zingiz o‘ylang, Nikolay Ivanovich bundan boshqacha bo‘lishi mumkinmi?

– Bu haqda keyinroq gaplashamiz, Sergey Aleksandrich, endi men siz bilan xo‘shlashaman... Sudda ishim bor, – dedi Veryovkin, tilla soatiga ko‘z qirini tashlarkan. – Bir soatdan so‘ng uch kishini o‘ldirgan bir subyekt himoyasi uchun nutq irod qilaman. Afv eting, keyingi safar... Ha, aytmoqchi, shu kunlarda bir ilojini qilib, ishxo-

namga o‘ting. O‘sha yerda chaqqaqlashamiz. Hoy Viktor, tursang-chi inim!

– Qo‘yavering, uxlayversin, – dedi Privalov. – Menga xalaqit bermaydi.

– E, siz undan tortinmang... Demak sizni kutaman. Sergey Aleksandrich, hech qanday tamasiz. Taklifim haqida o‘ylab ko‘ring, keyin jiddiy gaplashamiz.

Veryovkinning taklifi, sarxush Viktor Vasilichning gaplari Privalovni o‘ylantirib qo‘ydi. Veryovkin meros borasida nimadan shubhalanayapti? Axir u o‘zidan-o‘zi gapirmaydi-ku. Shubhalanish, bu shama bilan Veryovkin o‘z narxini oshirmayaptimi? Privalovda bunga ko‘plab sabab bor. Birinchidan u Veryovkinga universitetdagi davrlari tufayli yaxshi munosabatda bo‘ldi. Qolaversa bunday qo‘pol muomalani sezmaydigan darajada ahmoq emas. Va nihoyat, Veryovkin o‘zini tavsiya qilgani, u darhol o‘zini oqlashi va turfa chala-chulpa gaplarga o‘rin qoldirmaslikni istayotganidan... Suhbatda faqat bit-ta narsa – aynan Veryovkin Privalovning Konstantin Vasilichga bog‘liqligiga sha‘ma qilgani yoqmadi.

«U bu bilan nima demoqchi bo‘ldi? – o‘ylardi Privalov xonada u yoqdan bu yoqqa yurib, xurullab uxlayotgan Viktor Vasilichga ko‘z qirini tashlab. Konstantin Vasilich ham menga o‘xshab o‘z fikriga egadir...Yo‘q, menimcha sal boshqacharoq...»

Privalov qalbining tub-tubida hali ham Viktor Vasilichning gaplaridan sal g‘ashlik bor edi. U o‘zini Veryovkin bilan bir xil fikrdaligini ko‘rsatdi, garchi o‘zini hech narsa sezmaganday tutgan bo‘lsa ham. «Nima jin urib u tiliga buncha erk berdi...» – o‘ylardi u yonboshlaganicha xotirjam xurrak otayotgan mehmoniga jahl bilan tikilib. Viktor Vasilichning qo‘llari ikki yonga yozilgan, bir oyog‘i polga osilib qolgandi; uning navqiron chehrasida havas qilgudek sog‘lomligi aks etar, yuzida tabassum jilvalanardi. Bu chehra bilan Nadejda Vasilyevna chehrasida qandaydir o‘xshashlik bor edi. Privalov uxlayotan mehmoni tepasida to‘xtadi. Xuddi unikiday oppoq, sezilar-sezilmas qavargan lablar, o‘sha qosh, o‘sha qiyiq ko‘zlar va hatto qop-qora uzun kipriklar... Biroq unda bularning barchasi ayollik nafosati bilan shunday ma‘sum ko‘rinardiki, to‘q kulrang ko‘zlaridan uning nozik, mehribon qalbi aks etib turar edi. Nega endi Viktor Va-

silich uning ismini bu qadar keskin fikrlar bilan tilga oldi? Nadejda Vasilyevna dastlabki uchrashuvdayoq guvohi bo'lganimizday Privalovda kuchli taassurot qoldirgan edi. Agar u tuyg'ularini chuqurroq tahlil qilganida edi, bu taassurot anchagina murakkabligini: u qizga bolaligidagi nigoh bilan qarar, uning ismi ortida nasl-nasabi yashiringan edi... axir u Vasiliy Nazarichning qizi, uning tomirlarida Marya Stepanovnaning ham qonlari oqmoqda, degan xulosaga kelgan bo'lar edi. Alaloqibat Privalov qizni o'sha o'zi ko'rgan muhitdan ayro ko'ra olmasdi. Bu ko'hna uy, shinam xonalar, bu qadimiy jihozlar, gullar, xizmatkorlar chehrasi.. Eng asosiysi – bularning barchasi uning uchun juda qadrli, aynan shu jihatdan ham Nadejda Vasilyevna odatdagidek qizlarga o'xshamas edi. Bir so'z bilan aytganda so'zga chechan. So'nggi suhbatda qancha voqealar va qancha qadrli nomlar g'iybat qilinmadi deysiz.

Shu bilan birga Privalov nima uchundir Nadejda Vasilyevnani o'zining xotini bo'lishi mumkin, degan fikrdan yiroq edi. Bo'lmaydi, nega endi buncha tez... Xotin – butunlay boshqa masala. U qizni qanday bo'lsa shundayligicha ko'rishni xohlaydi. Xotin – u Nadejda Vasilyevnada ko'rishni istagan fazilat uchun nihoyatda qo'pol so'z. U ayollarning eng yaxshisi sifatida unga tan berar edi. Agar boshqa kishining rafiqasi bo'lganida ham unga hozirgidek munosabatda bo'lar edi. Tushinarsiz ish, bu ism uning shirin orzulariga, dilidagi rejalariga qanot berdi. Avvallari bu narsalar shunchaki xayol edi, endi esa... Yo'q Nadejda Vasilyevnaning bu yorug' olamda borligi uning rejalariga o'zi aynan shu choqqacha yetisholmagan iliqlik va mutlaqo o'zgacha mazmun baxsh etdi. Bu yerda Uzelda shular haqida o'ylar ekan, ularda avval his qilmagan ko'plab yangiliklarni kashf qildi. Ilgari ularning mavjudligiga ham shubha bilan qarar edi, qandaydir shubhalar ko'nglini g'ashlantirar edi. Endi esa tasavvuridagi qimmatli qirralarni o'ylashi bilan hammasi osongina hal bo'lar, shubhalar tumanday tarqalib ketar edi. Har gal bu haqda o'ylaganida o'zida qandaydir qudratni his qililar, baxt og'ushida qolgandek bo'lardi.

## XVII

– Barin kelyapti! – bo‘g‘iq ovozdagi shivirladi Matryoshka Xioniya Alekseyevnaga. – O‘z ko‘zim bilan ko‘rdim... Hozir dahlizda paltosini yechyapti...

Zaplatina derazaga yopishdi, uning ozg‘in ko‘kragida yuragi gupullab urib ketdi: Privalov qay tarafga buriladi? Agar o‘ngga Nagornoy bo‘ylab yursa – demak, Lyaxovlarnikiga, agar to‘g‘riga Uspenskiy bulvari bo‘ylab ketsa – Polovodovlarnikiga. Ana Ipat izvozchiga xushtak chaldi, ana Privalov ham tushdi, o‘zicha nimanidir o‘ylab, o‘ngga qarab izvoshchiga dedi:

– Chapga, Nagorniyga...

So‘nggi jumladan Zaplatinaning ko‘ksida aniq bir narsa yorildi. U titrar edi. Tamom, hammasi tugadi. Albatta hammasi... Privalov Nadinening qo‘lini so‘rash uchun Baxarevlarnikiga ketyapti. Mana senga kuyov...

Zaplatina o‘zini bosib olguncha Privalov Marya Stepanovna tarafga o‘tishga ulgurdi. Yo‘lda jilmayib turgan Dashaga ro‘para keldi, keyin Verochka ko‘rindi. U oddiygina chit xalatda, juda hayajonda edi.

– Marya Stepanovnaning ko‘rsak bo‘ladimi? – so‘radi Privalov u tomonga engashib.

– U ibodatxonada...

– «Verochka naqadar ajoyib qiz...» – o‘yladi Privalov, uning hayajonidan hayratlanib. U hatto shu paytgacha Verochkaga yetarli e‘tibor qilmagani uchun xijolat bo‘ldi. Va bu xatosini tuzatish uchun uni taqdirlashga ahd qildi.

– Men hozir Lyaxovskiy larnikiga boraman...ungacha Marya Stepanovna bilan gaplashib olmoqchi edim... – tushuntirdi u.

Verochka xo‘rsindi, Privalovga qanshara ostidan qarab, xuddi bolalardek, xotirjamgina javob berdi:

– Nadya avvallari Lyaxovlarnikiga tez-tez borardi... Menga onam ruxsat bermas edi; Ularnikiga hamisha ko‘pchilik yig‘ilardi, ko‘p kishilar... ana onam ham kelib qoldi.

– Nihoyat otlanibsiz-da, – suyini ketdi Marya Stepanovna eshikdan kirar ekan. – Sezdim, sezdim; nima ham derdik Xudo yarlaqasin..

– Marya Stepanovna, kuch to‘plab olish uchun atay huzuringizga keldim.

– Vasiliy Nazarichning yoniga o‘tmadingizmi? Kirib o‘ting, tag‘in xafa bo‘lib qolmasin. U shundog‘am sizni anchadan buyon ko‘rinmay qoldi, deb hayron bo‘layotgandi. Adashmasam bir haftadan buyon kelmadingiz...

– Joningizga tegishdan qo‘rqaman...

– E, bunday bema‘ni gaplarni gapirmang. Vasiliy Nazarichni oyog‘i qiynaydi, tajangligi ham shundan.

Ular yana chorak soat gaplashishdi. Privalov qo‘shni xonadan ayol kishi ko‘ylagining o‘ziga tanish shitirlashini eshitish umidida bu yerdan ketolmayotgandi. U Marya Stepanovnaning diqqatini jalb qilmaslik uchun nihoyatda ehtiyotkorlik bilan ichkariga bir-ikki marta mo‘raladi. Marya Stepanovna ham buni sezib, sezmaslikka oldi. Privalov hoziroq Nadejda Vasilyevnani ko‘rish istagi bilan yonardi. Bir ikki marta shunday bo‘lgan, qiz uni kelganini bila turib ko‘rinish bermagan edi.

O‘shanda Privalov bunga unchalik ahamiyat bermagandi. Biroq bugun u kutish qanchalar yurakni siquvchi, zerikarli tuyg‘u ekanini his qildi. Go‘yo qiz unga ko‘rinishni istamayotganday tuyuldi. Viktor Vasilichning kayfda aytgan gaplaridan keyin Privalovning ko‘nglida uni ko‘rish, ovozini eshitish, suhbatini tinglashga allaqanday ehtiyoj paydo bo‘lgandi. U Baxarevlarnikiga kelishni ataylab ortga surgan edi. Mana oqibati... Marya Stepanovnani mehmonining kayfiyati mutlaqo qiziqtirmas, Privalovning telba-teskari javoblariga parvo qilmay qayoqdagi gaplarni gapirishdan to‘xtay demasdi. Verochka ikki marta xonaga kirib, ko‘z qirini tashladi. So‘ng imo-ishora bilan Privalovning hamon shu yerdaligidan hayratdaligini anglatdi.

– Nadya ketgandi-ya, – dedi Marya Stepanovna Privalov xayrxo‘shlashayotganda. – Zavodga, Kostyaning oldiga ketdi, – qo‘shib qo‘ydi u Privalovning taqqa to‘xtab, unga dovdirab qaraganini ko‘rib. – Doktor Sarayevni taniysanmi?

– Ha, sal-pal eslayman...

– Ana shu kishi bilan birga ketdi.

«Ketdi, ketdi, ketib qoldi...» bu so‘zlar uning boshiga to‘qmoqdek urilar, u Marya Stepanovna bilan qanday xayrlashganini ham uncha-



lik eslolmas o'zini qorong'i tunda tumanda ketayotgandek his qilardi. Uning Vasiliy Nazarich tomoniga o'tganda uning huzuriga kirishi kerakligi yodiga tushdi.

Baxtiga Baxarevning dimog'i juda chog' ekan. Uni ochiq chehra bilan qarshi oldi. Garchi kasallik uni bir oydan buyon xonaga tiqib qo'ygan bo'lsa-da, unga kulgili tuyulgan shekilli qariya uni qarilikning qaysarligiga yo'ydi. Privalov yelkasidan tog' qulagandek yengil tin oldi. Boyagi uni qiynagan og'ir tuyg'ular tutundek tarqalib ketdi. Vasiliy Nazarichning tashvish va sarguzashtlarga to'la hayotida yuz bergan kulgili voqealarni tinglab unga qo'shilib yurakdan xoxolab kuldi.

– Ayting-chi, Sergey Aleksandrigh, – Privalovning yelkasiga qoqdi Baxarev, – mana uch haftadan buyon uzelimizda yashadingiz, u bilan tanishib olgandirsiz? Fikringizni bilgim kelyapti. Axir siz yoshsiz, qoningiz qaynoq. Bizga o'xshab o'tirib qolmagansiz. Boshingiz oqqan tomonga keta olasiz. Shunday navqiron yigit qo'l qovushtirib o'tirmasa kerak.

Privalov bunday savolni kutmagan edi. Nima deyishni bilmay chaynaldi. Baxarev esa gapida davot etdi:

– Aytmasang ham bilaman: «O'ylab ko'rishim kerak... Hali yaxshi tanishib ulguranim yo'q...» To'g'rimi? Odamlar hozir shunaqa ehtiyotkor bo'lib ketishgan. U biz edik yo ostidan, yo ustidan deb tavakkal qiladigan. Yomon bo'lmadik, ochdan ham o'lmadik. Shunday emasmi Sergey Aleksandrigh... Senga gapning po'stkallasini ayta-man: Uzelda uch hafta yashasang ham o'n yil yashasang ham – hech qanday yangilikni topolmaysan. Faqat ovoragarchilik: kun – tunga aylanaveradi, kunlar bir zaylda o'taveradi. Hech qisi yo'q. Balki uzelda butunlay qolarsan?

– Shunday.

– Juda soz. Demak o'zingni zavod ishiga bag'ishlamoqchisan? Nachora, bunday ishda xo'jayinning xohishi birinchi o'rinda turadi.

– Unchalik emas. Vasiliy Nazarich, axir hozircha zavodlar kimga nasib qilishi ma'lum emas. Bu haqda gapirishga hali erta.

– Albatta, albatta. Axir somon xashak emas, qarz berilgan pul emas... Baribir, sening zavodlar haqidagi fikringni bilgim kelyapti, Sergey Aleksandrigh.

– Bu siz uchun shunchalik muhimmi, – cholning ko‘zlariga tikildi Privalov.

– Ha, shubhasiz.

Biroz jimlikdan so‘ng Privalov Baxarevga zavod ishlari unga unchalik ma‘qul emasligini, uni sanoatning sun‘iy tarmog‘i deb hisoblashini, shunga qaramasdan zavoddan voz kechmoqchi emasligini, buning iloji yo‘qligini, bunga sabab – birinchidan bu mulk unga ota merosligi, ikkinchidan zavod taqdiriga qirq minglab aholi taqdiri bog‘liqligi hamda kelajakda Uralda uch yuz ming tanob yeri bo‘lishini batafsil tushuntirdi. So‘zining oxirida hech qachon zavoddan oladigan daromadiga tayanmasligini, bu foydadan oz-ozdan qarz to‘lashini, zavodning ishlab chiqarish hajmini oshirib borishini ta‘kidladi. Baxarev bu ochiq e‘tirofni boshini yonboshga sal qiyshaytirib o‘tirib, jon qulog‘i bilan tingladi. Privalov gapini tugatgach, uni jimgina bag‘riga bosib o‘pdi. Cholning ko‘zida yosh qalqan edi, u buni artmadi, chuqur xo‘rsinib hayajonli ovozda bo‘lib-bo‘lib gapirdi:

– Rahmat, Seryoja, endi oyoq-qo‘limni bemalol uzatib o‘lsam bo‘ladi... ha, bo‘tam. Sen ko‘nglimni xotirjam qilding... Rahmat, baraka top...

– Men qilishim kerak bo‘lgan ishni qilyapman, – dedi Privalov hozirgi holatdan hayajonlanib. – Merosxo‘r sifatida nafaqat zavodning davlat oldidagi qarzini, balki undan ham kattaroq qarzimni to‘lashim kerak...

– Yana qanaqa qarz?

– Siz nima deb o‘ylaysiz, zavod kimlarning mehnati bilan qad rostlagan?

– Kim bo‘lardi? Zavod poydevorini sening bobokaloning Tit Privalov qurgan, keyin Gulyayev davom ettirgan – demak, bu – Gulyayevning mehnati.

– Bu to‘g‘ri. Ammo zavod egalari mehnatlari rohatini ham ko‘rgan, siz boshqirdlarni unutyapsiz. Axir zavod ularning yeriga qurilgan. Zavod ishiga yollangan dehqonlarni ham eslamayapsiz.

– Axir boshqirdlar yerlarini ularga sotgan-ku...

– Arzimagan chaqaga.

– Shunday bo‘lgan taqdirda ham. Bu ularning ishi, bizga ahamiyati yo‘q.

– Juda ham ahamiyati bor-da, – Vasiliy Nazarich, agar o‘sha savdo hozir qilinganda nima bo‘lardi? Men bu bilan Tit Privalovni qoramloqchi emasman, biroq...

– Demak sen bu bilan boshqirdlarga yerini qaytarib bermoqchimisani? Aslo, ular bobokaloning olmagan taqdirda ham, allaqachon boshqaga sotib yuborishardi... Sen bu haqda ham o‘ylab ko‘rdingmi? Agar sen hozir ularga yerini qaytarib bersang, ertagayoq undan asar qolmaydi... Yo‘q, Sergey Aleksandrich, sen hech qachon bunday qilmaysan...

– Men yerni boshqirdlarga qaytarib berish haqida o‘ylaganim ham yo‘q, Vasiliy Nazarich, mayli u hozircha meniki bo‘lib qolaversin. Boshqirdlar bilan boshqacha hisob-kitob qilaman...

– Hech narsaga tushunmadim...

– Agar yerni boshqirdlarga qaytarib bersam, ellik yildan buyon zavodda mehnat qilayotgan ustalarga qayerdan haq to‘layman... yer boshqirdlarniki, zavodni krepostnoylar barpo qilgan. Ularni ham, boshqalarni ham ranjitmaslik uchun, men zavodni oyoqqa qo‘yishim kerak. Ana shundagina o‘zimning tarixiy qarzlirimni asta-sekin uzib boraman. Ish qanday shaklda tashkil qilinadi – hozircha sizga bir narsa deyolmayman. Biroq bir narsani aniq ayta olaman – zavodning bir tiyini ham o‘zimga olmayman...

– Eh, Seryoja, Seryoja, – pichirladi Baxarev boshini sarak-sarak qilib. – Tilladay sof ko‘ngling bor-a. Qoning toza-da, sening... Faqat...amalg oshishi mushkul ishga bel bog‘layapsan... Mana men ko‘p narsani ko‘rgan, yoshini yashab bo‘lgan qariya bo‘la turib ham, buni yaxshi tushunmadim...

– Biz hali yana bu haqda siz bilan gaplashamiz, Vasiliy Nazarich.

– Ha, ha, gaplashamiz... Bordi-yu sen aytganlaringni chindan ham bajara olsang, otangni juda ko‘p gunohini yuvgan bo‘lasan. Demak zavodlar avvalgiday o‘z holiga ishlayveradi. Xo‘sh sen, o‘zing nima ish qilasan? Eh, Sergey Aleksandrich, Sergey Aleksandrach, senga qarab turib: navqiron, sog‘lom, boshi ochiq, to‘rt tomoni qibla... Biz qariyalarga qiyin. Biror narsaga urinay desak, yelkangdagi ajalga ro‘para kelasan.

– Xohlasang xohlamasang ham baribir o‘lasan. Eh, agar sening o‘ringda bo‘lganimda otangni ishlariga qo‘l silkib ketar edim. Sayanda sayr qilardim. Hozir erkin qushsan, senga o‘nlab go‘zal joylarni ko‘rsatardim keksalarni yaxshiliklar bilan xotirlardim. Kostya gaplarimga kirmadi, hech bo‘lmasa sen yayrab qol...

Privalov jilmaydi.

– Men senga jiddiy gapiryapman, Sergey Aleksandrich. Uzelga suqilishning nima keragi bor. Kostya zavodni boshqaraversin. Oyog‘im sal tuzalsin, ikkalamiz sayohatga chiqamiz.

– Bo‘lmaydi, Vasiliy Nazarich, men hech qachon oltin ishlab chiqarish sanoatida ishlamayman, – qat‘iy ohangda dedi Privalov. – Kechiring, men sizni ranjitmoqchi emasman, biroq majburiyat yuzasidan zavodni boshqarishim kerak ekan, menda sayohat (priisk) qilish majburiyati yo‘q.

Baxarev so‘nik nigoh bilan Privalovga qarab lab burdi, keyin sovuq jilmaydi.

– Bu yerda nima qilishni o‘ylayapsan?

– Men un savdosi bilan shug‘ullanmoqchiman.

Qariya o‘rindiqqa yaxshilab joylashib, hamrohiga cho‘chigan-namo tikildi.

– Men yaxshi eshitolmadim shekilli... – dedi Privalovning yuziga savolomuz ohangda yana boyaginday qarab.

– Aslo, Vasiliy Nazarich, xato eshitmadingiz, men chindan un savdosi bilan shug‘ullanmoqchiman.

– Sen... un sotasanni?

– Balki, rostdan un ham sotarman, – tabassum bilan dedi Privalov, xuddi yer hozir uni oyog‘i tagidan chiqib ketadiganday tuyg‘u bilan. – Men sizga nega aynan shu ish bilan shug‘ullanmoqchiligimni tushuntirmoqchiman.

Baxarev yana peshonasini artar ekan shoshilib dedi:

– Yo‘q... kerak emas!... Men tushunishim kerak bo‘lgan narsalarni tushunaman...

Chol kresloga yonboshlab yuzini qo‘llari bilan to‘sgancha horg‘in pichirladi:

– Un sotish.. un bilan. Privalov un sotar emish... Vasiliy Baxarev Sergey Privalovdan qopda un sotib oladi...



## IKKINCHI QISM

### I

Vaziyatning mavhumligi sabab, Xioniya Alekseyevnaning bo'sh vaqti ko'payib qoldi va u butun vaqtini eski qadrdoni Agreppina Filipevnaga bag'ishladi. Varyovkinalarning muhtasham buduarida, aniqrog'i hashamatda undan qolishmaydigan yotoqonasida kechadigan suhbatlar hayajonli o'tar, bildirilayotgan taxminlar aqlbovar qilmas darajada dadillashgan, chindan ulug'vor rejalar tuzilardi. Bu ikki ayol jang yakuniga yaqin sirli majlis o'tkazuvchi tajribali qo'mondonlarning holatida edilar. Ular qizg'in bahslashar, hatto o'zlarini yo'qotib tortishib ketishar, ammo, barcha erkaklar o'zlarining aqlli ekaniga qattiq ishonuvchi yaxshi ma'nodagi tentak, degan qarashda hamisha hamfikir edilar.

– Oh, bir ko'rsangiz edi, Agreppina Filipevna! – ko'zlarini yumganча shivirladi Xioniya Alekseyevna. – Axir hamma narsaning chegarasi bor-ku... Men Baxarevlar uyida sodir bo'layotgan vaziyatga qarashdan jirkanaman! Bu Nadine deganlari birinchi ko'rishidayoq Privalovning bo'yniga osilib oldi...U-ku mayli, qariyalarga nima bo'lgan? Ular Privalovning atrofida qanday girdikapalak bo'lishlarini ko'rsangiz edi... G'urur degan narsa qayoqqa ketdi! Vasiliy Nazarich kuvchasiga tamaki olib kelish uchun baqqollik do'koniga chopishga ham tayyor edi. Xudoyim-ey!... Marya Stepanovna menga qanday jirkanch takliflar bildirganini aytmay sizmi... Nahotki men o'sha ijara-rachini ortidan kuzatib yurish va uning gap-so'zlarini poylashga rozi bo'lsam?!

– Ammo, siz uni uyingizga qo'yib, yanglishmagan ko'rinasiz, – dedi Agrippina Filipevna shamali ohangda.

– Yanglishmaganman?! Bunga qanday rozi bo'lganimni bilsangiz edi! Eh...Men avvaliga bu taklifni rad qildim, ammo bu Marya Stepanovna shunday tixirlik qildiki, hiqildog'imga keldi, tushunyapsizmi?

«O'tinaman, Xioniya Alekseyevna! Azizam, Xioniya Alekseyevna... Agar Privalov sizning uyingizda yashasa, biz xotirjam bo'lamiz». Axir mening yaramas fe'limni bilasiz-ku: yo'q deyolmay qoldim. Ko'nglim bo'shligi endi bo'ynimga sirtmoq bo'lib tushdi... Xarajat, yugur-yugur, bezovtalik, buyog'i nima bo'lishini tasavvur ham qilolmayman...

– Shunday qilib, siz, Privalov ayollar e'tiboridan foydalanmaydi, demoqchimisiz? – o'ychan holda so'radi Agreppina Filipevna ikkinchi bor.

– Menimcha shunday, chunki unda... sizga qanday tushuntirsam ekan... oramizda qolsin-u... unda ayollarga yoqadigan jasorat yetishmaydi. Axir barchaga ma'lum va mashhur munosabatlarda hammasi qulay fursatni poylash va undan foydalana bilishga bog'liq-ku, Privalovda esa... Men uning muvaffaqiyat qozonishiga ishonmayman.

– Privalovning millionlari bor, – dugonasining fikrini davom ettirdi Agrippina Filipevna.

– Ha, faqat millionlari bor xolos...

– Menimcha, shuning o'zi yetarli.

– Ha... Lekin millionlar bilan ayol kishini sizni sevishga majburlay olmaysiz... Quvonch, ehtiros – nahotki bularni pulga sotib olish mumkin bo'lsa? Albatta, Baxarevlar va Lyaxovskiyning barchasi Privalovga mehribonlik qilishadi: Nadine ham, Sophie ham, ammo... to'g'risini aytсам, erkaklar bu shaddod Zosyaning nimasiga uchishadi o'zi? Xudo haqqi ayting-chi, uning nimasi o'ziga xos: kichkinagina, qoqsuyak, sho'x-shaddod, malla... Hayron qolaman!

Zosya Lyaxovskayani juda g'aroyib qiz, deb hisoblasa-da, Agreppina Filipevna bu masalada biroz boshqacha fikrda edi. Tabiiyki, o'ziga xoslik ayol kishiga yarashadigan sifat bo'lib, erkaklar nazarida uni jozibali ko'rsatadi. Ammo bu yo'lda kulgili holga tushib qolish xavfi ham yonma-yon yurardi.

Agreppina Filipevnaning qirq sakkizda bo'lishiga qaramay, u anchayin yosh ko'rinar, aslzodalarga xos odob-axloq sohibasi edi. Ko'rinishdan salobatli bu ayol ayniqsa tabassum qilganida yanada haybatli ko'rinar. Och sariq sochlari, rangi noaniq ko'zlari, qalin va chiroyli lablari unga shunday latofat bag'ishlardiki, hech kim unga qarab, shu ayol bir etak bolaning onasi, deb o'ylamasdi. Yana ham

aniqrog'i, gul-gul yashnab turgan bu onaizorni ko'rgan odam, uning butun hayoti tashvish va muammolar girdobida kechganiga ishonmasdi.

Bir paytlar, Agreppina Filipevna va Xioniya Alekseyevna birgalikda Moskvadagi pansionlardan birida tarbiyalanishgan. U yerda birinchi o'rinda ham, ikkinchi o'rinda ham va hatto uchinchi o'rinda ham fransuz tili asosiy til hisoblanardi. Kelib chiqishi rigalik nemislarga borib taqaluvchi Agreppina Filipevna to'laqonli baxtli fe'l-atvorga ega edi. Ehtimol, undan tashqari yana olti qiz va bir o'g'il farzandi bo'lgan ota-onasidan unga meros bo'lib qolgan yagona narsa shu fe'lidir. Pansionda bo'lgan vaqtlarida pansion lahjasida aytadigan bo'lsak, Agrippina Filipevna va Xioniya Alekseyevna bir-birini desa o'lib qolardi. Xioniya Alekseyevnaning o'tmishi haqida avval xabar berganmiz. Agrippina Filipevna esa pansiondan to'g'ri Ivan Yakovlich Veryovkinlar uyiga kelin bo'lib tushdi. Qaylig'i bir hisobda o'zining oqsuyak nasabi, yana bir tarafdin unga nisbatan g'amxo'rliqi bilan «kelajagi porloq» yoshlar toifasiga kirardi. Biroq, Ivan Yakovlich o'tgan davr mobaynida kasbini o'n martalab o'zgartirganiga qaramay, buyuk kelajak orzuligicha qolib ketdi. Agreppina Filipevna esa eriga har yili muntazam ravishda o'g'il yoki qiz farzand hadya qilardi. Shu tariqa noxush holat yuzaga keldi: ularning oilasi yildan yilga kattalashib borar, Ivan Yakovlichning quruq umidlari va Agreppina Filipevnaning fransuz tili bo'yicha bilimlari bilan kun kechirish qiyin edi. Biroq, sodir bo'lgan birgina baxtli voqea nafaqat Agreppinaning balki, barcha rigalik opa-singillarning joniga ora kirdi. Gap shundaki, bu opa-singillardan biriga sharti ketib, parti qolgan, ammo jamiyatda katta nufuzga ega bo'lgan qariyaga turmushga chiqish baxti nasib qildi. Bu muhim voqea sodir bo'lishi bilan, aniqrog'i, Gertruda Shpigel madame Korobin-Unkovskiyga aylanishi bilan, o'sha zahotiyuq barcha opa-singillarning baxti ochilib ketdi. Ular birin-ketin mayda-chuyda amaldorlarga turmushga chiqib ketishdi. Aynan o'sha vaqtlarda Uzelda davlat bankining bo'limi ochildi va ikki opa-singilning eri direktorlikka tayinlandi. Bu ikkisi Rigada qolgan to'rt qizni ham chaqirtirib kelishdi. Ulardan biri gimnaziya direktoriga, yana biri shifokorga, boshqasi

mexanikka, to'rtinchisi esa qarigan chog'ida o'zini Gimeney (qadimgi mifologiyaga ko'ra – nikoh ma'budi) iplari bilan bog'lashni istamadi va uzeldagi ayollar gimnaziyasi rahbari lavozimini ma'qul ko'rdi. Bir so'z bilan aytganda, qisqa vaqt ichida opa-singil Shpi-gellar butun shaharni egallab, tup quyib, palak yozdilar.

Ivan Yakovlichga ham bankdan ish nasib qildi. Uning aynan qanday lavozimga tayinlangani noma'lum, lekin maoshi mo'maygina edi. Hatto kiboriy nasl-nasab ham yorqin orzu-umidlarni ro'yobga chiqarishga yordam bermadi. Uzelga kelgach, ko'p o'tmay davlat ishini yig'ishtirib, qimorbozlikning keng ko'chasi sari dadil qadam tashladi. Oilaning muhtaram otasi uyida sodir bo'layotgan ishlarga mutlaqo aralashmas, bag'rikenglik ila ularni o'z holiga tashlab qo'ygandi. U uyda deyarli yashamas, chunki lo'lilar singari hayot kechirardi. Muttasil yarmarkalar, klublar, qimorxona va shunga o'xshash maishatxonalarda bo'lardi. Ammo, hayotining qiyin vaqtlarida, ya'ni katta yutqizsa yoki biror janjalga aralashib qolsa, qisqa muddat bo'lsa-da uyi bag'riga qaytar va tartibli oilaparvar erkak rolini sabr bilan o'ynardi. Ana shunday vaqtlarda u rafiqasiga nisbatan nihoyatda e'tiborli bo'lib, farzandlarini erkalatar va qulay payt kelishi bilan yana qadrdon olamiga g'oyib bo'lardi. O'z-o'zidan Agrippina Filipevna har yili sarflaydigan o'n ming qayerdan kelardi? Bu shunchalar qaltis va nozik savol ediki, odatda uni javobsiz qoldirishar yoki bo'lmasa shunchaki Agrippina Filipevna «qarz hisobiga kun kechiradi», deya javob qaytarilardi. Ya'ni, uning qarzi shu darajada ko'p ediki, kreditorlar pullarini qaytarib ololmay qolishdan qo'rqib, uni qo'llab-quvvatlashda davom etardilar. Ammo, agar Agrippina Filipevna bir tomondan qizini Uzel-Moxovskiy banki direktori Plovodovga uzatmaganda, boshqa tomondan esa uning to'ng'ich farzandi o'sha vaqtda Uzeldagi eng zo'r advokatlardan biri bo'lmaganida edi, shunday qulay modus vivendi<sup>1</sup> ham tez orada nihoya topishi tabiiy edi. Ana shu ikki holat Agrippina Filipevnaning moliyaviy holati ancha yaxshilanishiga yordam berdi. Endi u toza vijdon bilan har payshanba o'zining fransuz tili to'liq hukmron bo'lgan, olamshumul yangiliklar muho-

---

<sup>1</sup> Hayot tarzi (lot).



kama qilinadigan va turli san'atkorlar o'z mahoratini sinab ko'rishi mumkin bo'lgan bashang *soirees*'larini o'tkaza olardi.

Shunday qilib, Agrippina Filipevnaning hayoti har turli shamol va bo'ronlarga ochiq bo'lishiga qaramay, u o'nga yaqin bolani dunyoga keltirishga ulgurdi. Xuddi tirik zinapoya singari, birinchi pog'onasi barchamizga yaxshi tanish Nikolasdan boshlanib, toki eng so'nggi pog'ona olti oylik Vadimga yetib borguncha Andre, Vol-demar, Nini va Bebelar bilan davom etdi. Bolalar parda yordamida alohida xonalarga bo'lingan ayvonga joylashtirilgandi. Dvoryanlar-ning ushbu yangi avlodida erkaklar tarafi katta ustunlikka ega edi. Bolalarning ikki nafari klassik, yana biri – harbiy gimnaziya da tahsil olsa, boshqasi oddiy bilim yurtida o'qirdi. Yaqin kelajakda Agrippina Filipevnaning chumoli uyasi mamlakatga turli sohalardagi iqtidorli kadrlarni yetishtirib berish bilan «xavf solardi». Agrippina Filipevna-ning to'ng'ich qizi Plovodovga turmushga chiqqani haqida yuqorida aytgandik: bu vaqtga kelib keyingi qizi Alla, ayni bo'y yetgan yosh-da edi va endilikda chumoli uyada yashash uning uchun uyat hisob-lanardi. Shu boisdan u mamanning yotoqxonasiga ko'chib o'tdi va haqiqiy xonimlarga xos tarzda hayot kechira boshladi. Alla chumoli uyasi aholisiga nisbatan jirkanishdan boshqacha munosabatda bo'la olmasligi tushunarli edi. Bordi-yu uya hududidan o'tishiga to'g'ri ke-lib qolsa, kraxmalli benuqson etaklarini ko'tarib, hatto burnini berki-tib olardi.

Nikolas Veryovkinning o'z hayoti haqidagi ilk taassurotlari ham havas qilib bo'lmaydigan muhit bilan bog'liq edi. Ammo bu unga oi-laning boshi bo'lishi uchun xalal bermadi. Chunki, Agrippina Fili-pevna to'ng'ich farzandiga nisbatan munosabatda ta'riflash imkonsiz bo'lgan o'jizlikni his qilar va uning atrofida chuqur hurmatga asos-langan muhit yaratgandi. Nikolas nimaga qo'l ursa ham mukammal-ning cho'qqisi bo'lardi. Uni tanqid qilish uchun eng kichik sabab ham qat'iy rad qilinardi. Nikolas katta janjal tufayli gimnaziya dan haydalganda ham Agrippina Filipevna unga qarshi bir og'iz ham gapirmadi, qaytaga oxirgi pullariga erkatoyini Peterburgga jo'natdi. Nikolas o'ziga bildirilgan ishonchni to'liq oqladi. U tezda poytaxtga

---

<sup>1</sup> Oqshom (fr.)

moslashdi, gimnaziya imtihonlarini topshirdi va universitetda huquq nomzodi bo'ldi. Nikolasning onasiga yozgan xatlari Agrippina Filipevna uchun o'sha baxtli damlardan xotira sifatida xizmat qiladi. Bu xatlar mukammalligi bilan ajralib turmasa-da, hamisha mulohaza va to'liq beparvolik bilan yozilardi. Darvoqe, bu orada, Agrippina Filipevna o'sha vaqtdagi gazetalarda chiqqan e'lonlarni kesib olib, saqlab qo'ygandi. Ularda, jasur student-yoshlarni tarbiyalashda o'z xizmatlarini taklif qilgani haqida yozilgandi. O'xshashi yo'q Nikolasning ushbu *beaux mots*'larini o'qigan baxtli onasi ko'zlari yoshlanguncha kulardi. Uydan olisda bo'lish mashaqqati Nikolasning butun hayotida, ayniqsa advokatlik faoliyatida qizil ip yanglig' o'tdi. Agrippina Filipevna o'g'lidan hech qachon, hech narsa talab qilma-gan, faqatgina o'g'li u bilan bir tom ostida, uning g'amxo'rligida yashashi shart edi.

Nikolasdan keyin Agrippina Filipevnaning ko'ngliga eng yaqini tabiiyki Alla edi. Ta'kidlash lozim, u go'zalligi bilan maqtanolmas-di, uning yuzi butunlay boshqacha edi, ammo, hali rivojlanayotgan, bolacha qiliqlari o'tib ketmagan bu qiziga qarab, Agrippina Filipevna uni o'ziga xosligi va buyuk kelajak egasi bo'lishini his qilardi. Al-lada o'z vaqtida xonadan chiqish fazilati bilan boshlanib, yechimini hech bir donishmand topolmaydigan murakkab kombinatsiyalarda yakunlanuvchi oqsuyaklarga xos odob-axloq allaqachon shakllanib bo'lgandi. Xioniya Alekseyevna ham Allaga maftun bo'lgan va uni ko'rganda:

*Elle est tellement innocente. Qu'elle ne connait presque rien*<sup>2</sup>.

deyish imkoniyatini qo'ldan chiqarmasdi.

– Marhamat qilib ayting-chi, akangiz nima qilyapti? – bir necha bor so'radi Xioniya Alekseyevna.

– Oskarmi? O, u shunchaki noumid tentak xolos, – javob berdi Agrippina Filipevna. – Bir tasavvur qiling: odam Peterburgdan Ural-ga ko'chib kelishi mumkinmi? Nimaga?...Nima deb o'ylaysiz? Baliq

<sup>1</sup> Tamtaroq ifoda (fr.).

<sup>2</sup> U deyarli hech narsani tushunmaydigan darajada ma'suma... (fr.).

ovlash uchun kelganmish. Xudo haqqi ayting-chi, bu borib turgan telbalik bo'lmay nima?

– Haaa... Ammo, adashmasam, Oskar Filipich Peterburgda yaxshigina joyning egasi edi, shundaymi?

– Ha, singlim Gertrudaning sharofati bilan yo'q joydan besh ming oldi, yana nima qilish kerak? Tentak!... Bolalarimni atrofiga yig'ib olib, ertalabdan kechgacha ular bilan birga baliq ovlaydi.

– Qarang-a, g'alati fe'li bor ekan...

– Ahmoqlikdan boshqa narsa emas, Xioniya Alekseyevna...

– Oskar Filipichning paydo bo'lishi Privalovning kelishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgani men uchun g'alati tuyulyapti...

– Eh, sizni qarang-u, Xioniya Alekseyevna, menimcha, bu Privalovingizga juda berilib ketipsiz... Xudo haqqi, rahmingiz kelsin. Akam shunchaki tentak, buning qanday aloqasi bo'lishi mumkin? Har doimgidek, oddiy holat...

Bunday suhbatlar ba'zan «kalondimog'»ni muhokama qilish tarzida yakunlanardi.

– Tushunaman, u sizning kuyovingiz, – derdi Xioniya Alekseyevna boshini orqaga tashlab. – Ammo men u haqda hamisha shunday deyman: Aleksandr Pavlich – kalondimog'...Ha, ha. Yaxshisi uni himoya qilmang, Agrippina Filipevna. U hatto kezi kelsa sizni ham tanqid qilishidan xabarim bor... Haaa. U Privalovning vasiysi va bank direktori, Xudoyim-ey, qo'l yetmas odam! Nima, endi hamma direktor va vasiy bo'lishi kerakmi, Agrippina Filipevna?

Endi kalondimog' odam haqidagi fikrlarga quyidagicha xulosa yasalardi:

– Bilasizmi, Agrippina Filipevna, garchi Aleksandr Pavlich kuyovingiz bo'lsa ham, to'g'risini aytsam, Privalov uning popugini pasaytirib qo'yishidan xursandman...Rosti, juda xursandman. Iltimos, kuyovingizning yonini olmang, Agrippina Filipevna.

– Bu haqda o'ylaganim ham yo'q, Xioniya Alekseyevna.

– Lyaxovskiyni olaylik...soxta banknotalar va o'g'irlangan oltinlar bilan boyib ketdi. Shaytonga ham dars beradi! Tavba, endi bo'lsa Privalov hammangizga yetib ortadi...Ha. Bunaqa bo'sh-bayovligi bilan ayollar bobida omadi kelishi qiyin, ammo Aleksandr Pavlich bilan Lyaxovskiyni ko'tarishi aniq. Bilasizmi, men baxtiqaro bolakay

Tita Privalovni kimdir Shveysariyaga olib borib, tubsiz chuqurga itarib yuborishgani haqida eshitgandim. Ayting-chi, bu ishni kim qilgan, deb o'ylaysiz?

Agrippina Filipevna bunday dadil savolga nima deyishni bilmadi, Xioniya Alekseyevna esa, savoliga o'zi javob berdi:

– Albatta, Lyaxovskiylar!.. Bu kundek ravshan-ku. U hamma narsaga qodir.

– Tushunmadim, bunday qilishdan Lyaxovskiylarga nima naf? Nikolas menga, Tita Privalovning vasiylar ko'z oldida bo'lishi muhim. chunki bordi-yu unga biror kor-hol bo'lsa, meros bo'linadi va vasiylik nihoyasiga yetadi, degandi.

– Bular quruq gap, xolos... Bu Lyaxovskiylarning ishi, Nikolasingiz esa aldayapti. Axir, Nikolas o'shanda nima sababdan Privalovning oldiga borganini men bilaman-ku mon ange.

– Men Nikolasing ishlari uchun hech qachon aralashmasligimni bilasiz-ku, Xioniya Alekseyevna. Bu mening prinsipim.

– Men bilaman va istayman-ki, Nikolas Privalovning ham, vasiylarning ishonchini qozonsin. ...Ha. Baxarevlar Nadinellariga mahliyo bo'lib o'tiraversinlar. Biz esa Privalovni Allaga uylantiramiz. Ular esa quruq g'ururlari bilan qoladilar.. Mana ko'rasiz. Biz faqatgina ishni to'g'ri olib borsak bo'lgani: *tete-a-tete*<sup>1</sup>, kichikkina piknik, asabiylashishga o'xshash holat...Axir bu erkaklarning hammasi tentak: ayol zotini ko'rishdimi tamom, nigohlari korset ortida bo'ladi. Biz esa...

– Yo'q, Xioniya Alekseyevna, eslatib qo'yishga izn bergaysiz, – mag'rur e'tiroz bildirdi Agrippina Filipevna, – siz mening Allam haqida qandaydir Xristovning qallig'i sifatida gapiryapsiz.

– Hazillashdim-ku, Agrippina Filipevna. Biroq, men o'z ishimi yaxshi bilaman...

## II

Privalov Vervovkinning oldiga tongda keldi. Chinnidek qilib tozalangan podyezdda hurmat yuzasidan shlapasini yechib, unga yo'l bo'shatgan bir to'da juldur kiyimdagi erkaklarga duch keldi. Ular

<sup>1</sup> Yuzma-yuz uchrashuv (fr.).

xizmatkor kelib, Privalovga eshik ochguncha boshyalang turdilar. Tepakal xizmatkor eshik og'zida ko'rinishi bilan:

– Bizga Nikolay Ivanichni chaqirib bersangiz...– dedi bukri erkak bo'ynini cho'zib, yelkasini qo'pol qimirlatgancha.

– Ular uyda, s... – baxmal gilam to'shalgan, atrofiga ekzotik o'simliklar qo'yilgan zina tomon Privalovni boshlarkan, hurmat bilan xabar berdi xizmatkor va mehmonni kiritib, erkaklarning yuziga eshikni qarsillatib yopdi. – Tarbiyasiz, to'nkalar, naq eshik og'ziga kelib olishipti, – ming'irladi u Privalov biroz oldinroqqa yugurib o'tarkan.

Xizmatkor Veryovkinning xonasiga xabar bergani ketganda, Privalov Agrippina Filipevnaning hashamatli mehmonxonaasida yolg'iz qoldi. Nima qilishni bilmay, mehmonxonani ko'zdan kechirdi. Yong'oq daraxtidan ishlangan ko'rkam mebel, marmar vazalar, eshik va derazalardagi chiroyli drapirovkalar, divan yoniga to'shalgan olachipor gilam, devordagi konsert royali, suratlar – bu-larning bari nihoyatda nafis va nozik did bilan tanlangandi; mehmonxonadagi har bir buyum shunday joylashtirilgan ediki, o'zini eng yaxshi tarafdin ko'rsatib turardi. Shu bilan birga, ular boshqa narsalarga ifodalovchi uyg'unligi bilan zarur fonni hosil qilgandi. Hatto eng tajribali nigoh ham, bu yuksak san'at namunasiga xos ravishdagi bezaklar ortidan kelib chiqishi muqarrar un question d'argent'ga javob topolmagan bo'lardi. Ojiz yolg'on hashamdor mebel va yumshoq gilamlar bilan uy egasining go'zal tabassumi va kibor odobining davomi sifatida asl holatni yashirib turardi.

– Marhamat, iltifot qiling...– qayerdandir ichkaridan Veryovkinning ovozi eshitildi va tez orada uning allaqanday chiziqli tatar xalat kiygan mo'jaz qomati ham namoyon bo'ldi. – Meni afv eting, otaginam, – kulgili tarzda o'zini oqlamoqchi bo'ldi Veryovkin, Privalovning qo'lidan tutib. – Siz meni jinoyat joyida qo'lga tushirdingiz, desam ham bo'ladi...Bir ishni yakunlab qo'yishim kerak edi, xalatda buni bajarish osonroq bo'lardi. La'nati surtukni qanday kiyaman, – bu haqda biror fikrim yo'q. Men hozir, Sergey Aleksandrich...bor yo'g'i bir daqiqa kutib turing.

---

<sup>1</sup> Pul masalasi (fr.).

Veryovkin shoshilganча yapon pardalari orqasida ko'zdan g'oyib bo'ldi. Bir daqiqadan so'ng u yerdan avvaliga burunning pishillashi, so'ngra g'alati xirillash eshitildi. Go'yoki, pardalar ortida yuzlab tyulen yoki otlar uyuri bor edi. Veryovkinning kabinetini advokatlar xonasiga o'xshash tarzda jihozlangandi. Traktirlarga xos mebel, devorlarda yalang'och qizlar surati, ish stoli ustiga ayiq terisi to'shalgan, terrakotadan ishlangan jozibali haykallar va hokazo. Ish stoli yonidagi dumaloq stolda yotgan qizil baliq qoldiqlari va grafinidagi aroqgina bu manzaraga boshqacharoq tus berardi. Bularga qararkan Privalov Vasiliy Nazarich bilan bo'lgan oxirgi suhbatini esladi. Privalov tabiiyki o'sha kuni ham, undan keyingi kunlarda ham Lyaxovskiylarnikiga bormadi. Ayni paytda shusiz ham unga og'ir edi. Nadya Shatrov zavodlariga ketib qolgani haqidagi fikrning o'zi uch kun davomida unga tinchlik bermadi. O'zi ham hoziroq zavodga jo'nab ketgisi kelar, ammo bu xuddi qizning ketidan quvib yurgandek tasavvur uyg'otishi va shaharda ortiqcha shovqin ko'tarilishi mumkinligini o'ylab bu fikridan qaytgandi. Bundan tashqari Kostyaning oldiga quruq qo'l bilan bormaslik uchun, va-siylar bilan ham uchrashishi kerak edi. Privalov Polovodovlarnikida to'xtashga qaror qildi. Chunki, u Veryovkinga boshqalardan ko'ra yaqinroq edi va undan Lyaxovskiyning oldiga borish oldidan dastlabki ma'lumotlarni olish mumkin bo'lardi.

– Aroq ichasizmi? – so'radi Veryovkin, parda ortidan jingalak boshini chiqarib. – Anavi yerda grafin turibdi... Marhamat, oling. Bugun negadir ko'p chanqayapman...

– Minnatdorman, – javob qaytardi Privalov.

Shu paytda xona eshigi ohista ochildi va ostonada ellik yoshlardagi ozg'in va novcha qariya ko'rindi. Qariya Privalovni ko'rishi bilan chiqib ketmoqchi bo'ldi, ammo Veryovkinning ovozi eshitib, to'xtadi:

– Bu sizmisiz, boboy?.. Begona yo'q, kiravering... Sergey Aleksandrich, tanishtirishga ijozat eting: mening otam, jismonan to'kilib qolgan bo'lsa ham, ruhan juda tetik. Umuman, qariya pahlavon... Aroq ichasizmi, boboy?

– Bag'oyatda mamnunman, – Privalovning qo'lini ayollarga xos uzun barmoqlari bilan jur'atsiz tarzda siqib ko'risharkan, bir

oz bo'g'iq ovozda gapirdi Ivan Yakovlich. – Butun shahar sizning tashrifingiz haqida gapirmoqda, – qo'shimcha qildi u. – G'oyatda, bag'oyatda mamnunman...

Qomati ozg'in va uzun, yelkasi biroz qiyshaygan, oyoqlari ingichka Ivan Yakovlichni ko'rgan kishi, Nikolas Veryovkin shu odamning naslidan, suyaklari, aynan shu qaddi-qomat sohibining suyagi va go'shtidan paydo bo'lganiga ishonmasdi. Kichkina kallasi faxrli taqirlik bilan bezalgan, chakkasidagi sochlarini sigir yoki shunga o'xshash uzun tilli biror hayvon yalab qo'yganga o'xshardi. O'ziga xos bu bosh kekirdagi va tomirlari bo'rtib chiqqan bo'yinga o'rnatilgan, tomog'i esa go'yo tugun qilib boylab qo'yilgandek edi. Burnining qiyshiqligi, qalin qoshlari, rangi o'chgan kulrang ko'zlari va yakkam-dukkam bakkenbardasi Ivan Yakovlichga go'yo hamisha nimanidir tinglab kelgan inson qiyofasini berardi. U inglizcha bichimdagi surtuk kiygan, bir qo'lida esa yangi sarg'ish qo'lqopi bor edi. Va nihoyat Veryovkin noyob ipakdan tikilgan och-sariq rangli kostum-shimda parda ortidan chiqib kelgach, Ivan Yakovlich yuziga tashvishli tus berdi va tushunarsiz tabassum bilan so'z qotdi:

– Nikolas, sening yoningga bir ish bilan kirgandim...

– Yana bor budingizni yutqazdingizmi?

Ivan Yakovlich yelkasini bezovta qimirlatib, ko'z qiri bilan Privalovga ishora qildi.

– Xotirjam bo'ling, otaxon: axir Sergey Aleksandrich bizda millionlar yo'qligini yaxshi biladi-ku, – quvlik bilan do'rilladi Nikolas Ivan Yakovlichning yelkasiga qoqib qo'yarkan. – Xo'sh, yana yutqazdingizmi?

– Y...yo'q, ya'ni qartadagi bir qarzimni yopishim kerak... O'ylovdim-ki...

– Eh, boboy, siz umuman manzilda adashdingiz; hozir hisobimda bor yo'g'i bitta uch rublli bilet bor...Oling, aravakashga berasiz.

– Yo'q, shaxsan men muhtoj emasman, ammo bu Lomtev deganlari bo'g'zimga pichoq tirayapti... Uni ba'zan shunday jin chalib turadi, men esa uning ortidan ancha poyladim.

– Ha, boboy; siz bilan men odamlarning adolatsizligidan ko'p aziyat chekamiz...Aytgancha, aroq ichasizmi, boboy?

Ivan Yakovlich olijanoblik bilan aroqni ham uch rublli biletni ham rad etdi va qanday tovushsiz kirgan bo'lsa, shunday chiqib ketdi. Veryovkin rumkadagi aroqni yutib yubordi va muloyimlik bilan dedi:

– Ajoyib qariya, ammo qurg'ur qimorga bo'lgan ehtirosi nuqul pand beradi. Xo'sh, biror yangilik yo'qmi? Bugun siz bilan ekskursiya o'tkazamiz: dastlab muterxenning<sup>1</sup> qahvasini ichamiz, so'ngra tushlik qilgani Plovodovlarnikiga kirib o'tamiz. Aslida, uchiga chiqqan yolg'onchiligini hisobga olmasa, u ajoyib yigit.

### III

Privalov ilk bor kelganida o'zining ishi bo'yicha Veryovkin shama qilgan «kalavanning uchi» haqida suhbatlashishni kutgandi, ammo Veryovkin buning o'rniga Privalovni qo'ltiqlab, biz uchun tanish bo'lgan mehmonxonaga sudradi. Agrippina Filipevna vorislik huquqiga ega gersoginya sifatida Privalovni oqsuyaklarga xos odmilik bilan qarshi oldi va suhbatning boshidanoq o'zi uchun xos bo'lgan nurli tabassum hadya qildi.

– Muterxen, biz kofe ichishga keldik, – izoh berdi Nikolas o'rindiqqa salmoqlanib o'tirarkan.

Agrippina Filipevna dastlab erkatoyiga ko'z tashladi, so'ngra nigohlarini Privalovga tikdi. Uning yuz ifodasidan: «Sergey Aleksandrich ma'zur tuting, Nikolas ba'zan o'zini shunday tutadi», degan ma'noni uqish mumkin edi. Bir nechta jumladayoq Privalovga, u haqidagi ba'zi gap-so'zlardan xabardor ekani va uni o'z uyida ko'rishdan har doim mamnun bo'lishini shama qildi. So'ngra Peterburg haqida ikki juft so'z aytdi, jilmaygancha uzeldagi boshqa shaharchalardan farqli o'laroq, shuhrat qozonish yo'lida bo'lgan uzeldagi holat haqida afsuslanib gapirdi. Privalov bunday holatlarda qanday javob qaytarish kerak bo'lsa, shunday qildi. Ya'ni, shu zahotiyoyq bu borada Agrippina Filipevna bilan hamfikr ekanini bildirdi. Xulosa shuki, u uzelcha beau monde'aning o'chog'idaligi va Agrippina Filipevna esa kiborlarga xos mukammal xulq-atvor sohi-

<sup>1</sup> Onamning (nem. Mutterchen).



basi ekanini sezmasligi mumkin emasdi. O'z navbatida Agrippina Filipevna Privalov ko'rinishidan biroz qo'polroq bo'lsa ham, ayollar borasida omadi kelish-kelmasligi haqida fikr bildirishga hali erta, degan xulosaga keldi.

Privalov har tomonlama imtihondan o'tkazilgan bu qizg'in suhatga Nikolasning xitobi yakun yasadi:

– Mana, amakim ham keldi!

Privalov mehmonxona eshigiga qarab, faqatgina amakini emas, u bilan birga novcha va ozg'in qizni ham ko'rdi. Qiz ko'zlarini qisgancha, Privalovga noz bilan boqib turardi. «Aftidan, sirli oyimqiz shu bo'lsa kerak», – deya xayolidan o'tkazdi Privalov Allaning ustidagi kostumiga nazar tashlab. Amaki Oskar Filipich qarilikni bo'yniga olmagan odamlar toifasiga mansub bo'lib, hamisha shirin jilmayar, yurganda mayda qadam tashlar, qariya bo'ydoq sifatida ayollar jamiyatini yaxshi ko'rar va xuddi yosharib borayotgan qariyalar singari shubhasiz, biror g'alati odati ham bor edi. Masalan, birov sichqondan qo'rqsa, boshqasi turli ruhlardan bezovta, yana biri esa butun umri davomida turli tarixiy davrlarga oid hassalar kolleksiyasini yig'ardi. Biz Oskar Filipichning baliq tutishga ishqiboz ekanini bilamiz va hozirgina Alla bilan Uzlovka daryosi qirg'oqlaridagi sevimli joyidan qaytib kelgandi. Shu bois, hatto yozgi parusinali palto-sini yechishga ham ulgurmagan va qo'lida ayvoni keng somon shlapasini ushlab turardi. Privalov amakining kichik qo'lini qisib ko'rishganda u zavqlanib ketdi va bir necha bor:

– Ha, ha... kelganingiz haqida eshitgandim... ha!... – deya takrorladi.

– Mening ikkinchi qizim, Alla, – qo'shiq ohangida cho'zib gapirdi Agrippina Filipevna, amaki tabassum qilganicha divanga o'tirdi.

Privalov ta'zim qildi, Alla esa boshini yengil qimirlatib qo'yish bilan cheklendi va onasining yonidan joy oldi. Agrippina Filipevna uni bugungi baliq ovi haqida so'zlab berishga majbur qildi. U esa bu haqda to'liqinlanib, san'at asaridan parcha o'qiyotgandek, amakisi asosiy qahramon bo'lgan kulgili vaziyatlar haqida biroz chuchukroq talaffuzda gapirib berdi.

So'ngra kumush finjonlarda qahva olib kirishdi. Uning ortidan esa boshiga havorang kokoshnik kiygan, qo'lida esa mittivoy Vadimni ko'tarib olgan go'zal onaxon kirib keldi.

– Mana bu tabiat mo'jizasiga e'tibor bering, Sergey Aleksandrich, – dedi Nikolas, Vadimni qo'lga olarkan. – Axir bu mening ukam Vadishka-ku...

– Oh, Nikolas, – nozlangancha javob qaytardi Agrippina Filipevna, – sen har doim nimadir gapirasan...

– Menimcha, hech qanday yomon gap aytganim yo'q, muterxen, – deya o'zini oqladi Nikolas «tabiat mo'jisasi»ni tepaga otib o'ynatgancha. – Ukalik bo'lish tabiiy holat...

– O, shubhasiz tabiiy! – raqqosalarniki singari dumaloq tizzasini silab, uning fikrini ma'qulladi amaki. – Men bir hurmatli xonimni bilardim, u...

Shu vaqtda old tarafdan allaqanday shovqin-suron eshilib, amaking hikoyasi bo'lindi va Agrippina Filipevnaning mehmonxonasiga yig'ilganlar «hurmatli xonim» nima qilgani haqida bilolmay qoldilar. Privalov Xioniya Alekseyevnaning ovozi eshitdi, uni kimningdir xirillagan tovushi bo'lib qo'ygandi.

– Oh, bu Anika Pankratich Lepeshkin, oltin ishlab chiqaruvchi. – Privalovni ogohlantirdi Agrippina Filipevna va kirib kelayotgan Xioniya Alekseyevnani kutib olish uchun viqor bilan yurib bordi. Albat, xonimlar o'pishib ko'rishdilar, ammo kutilmaganda betakalluflik bilan uy bekasining yelkasiga lablarini bosgan oqsochli kimsa ularni ajratib yubordi.

– Meni qo'rqitib yubordingiz, Anika Pankratich...

– Qo'rqmang, Agrippina Filipevna, tishlab olmayman, onagimam. – xirildoq ovozda gapirdi xuddi bochkadek semiz. oqsoch qariya xuddi o'shanday betakalluflik bilan Agrippina Filipevnaning yelkasiga qoqib. U egniga duxoba kamzul va tik yoqali chit ko'ylak kiygan, movut shalvarini qo'nji shishali poyabzalining ichiga tiqib olgandi. – Oh, otaxonlar, tinkam qurib ketdi! – dedi u shishib ketgan barmoqlari har tarafga qaragan kalta va qalin qo'llarini silkitib.

Xioniya Alekseyevna Allani bag'riga bosib ko'risharkan, Privalovga boshini silkitib qo'ydi va qizning qulog'iga shivirladi: «Bu-

gun naqadar go'zalsiz, mon ange...» Lepeshkin, xuddi pufakdek stol tomonga yumalab ketdi. Agrippina Filipevna Privalovga uni tanishtirdi.

– Biz sizning rahmatli dadangiz bilan tanish edik, hatto juda yaqin tanish bo'lganmiz, – dedi Lepeshkin, Privalovga qarab. – Bizning joylardagi eng birinchi odamlardan edi... Ha-a. Hozir unaqa odamlar yo'q, desam ham bo'ladi... Hozirgilarning yuragida o'ti yo'q. Biz siz haqingizda ham eshitganmiz, Sergey Aleksandrich. O'rmonda yashasak ham shaharda daraxt kesishsa, tovushi bizgacha yetib keladi.

Lepeshkin Allaning qo'llarini terdan suv bo'lib ketgan yuziga bosdi, amaki tizzasiga urib salomlashdi va kresloga og'ir cho'karkan:

– Oh, charchadim. otaxonlar... Jazirama!..Kvas ichsak bo'larmidi, Agrafena Filipevna?

– Siz mening xonamga o'ting, – taklif qildi Nikolas. – U yerda chugalchangni ochdan o'ldiradigan narsa topasiz.

– Ammo?... oyog'i yo'q itni ham taqalash mumkinmi?

– Albatta, mumkin.

– Biz ruhoniy hazratlari bilan... – dedi Lepeshkin, ozg'in oyoqlarini sudrab kirib kelgan Ivan Yakovlich bilan ko'rishish uchun o'rnidan turarkan. – Nuroniyga hurmatlarimizni izhor qilaman...

– Ketdik, ketdik, – javob berdi Ivan Yakovlich, Lepeshkinni qo'ltig'idan olarkan; yonma-yon turganda ular 10 raqamini eslatishardi.

– Bu Anika Pankratich, juda g'aroyib odam-da, – so'z qotdi Agrippina Filipevna o'n raqami ko'zdan g'oyib bo'lgach. – Alla, Anika Pankratichga kvas olib kel, – qo'shimcha qildi u. – U har doim senga mehribon bo'lgan.

– Axir Lepeshkin juda aqlli-da, – o'z fikrini bildirdi Xioniya Alekseyevna. – O'zini shunaqa odmi ko'rsatadi, xolos... Oddiy erkak – ammo yuz ming yig'ib qo'ygan. Ha, juda, judayam aqlli.

Shu paytda Nikolasning kabinetida quyidagi holat sodir bo'layotgandi:

– Azizim, Anika Pankratich, qo'llab yuboring, – yalinardi Ivan Yakovlich, Lepeshkinni naq burchakka qisib. – Qadrdonim, menga bor-yo'g'i ikki yuz rubl berib tur... Axir, atigi ikki yuz rubl, arzimagan pul-ku. Senga bir haftadan keyin qaytaraman.

– Sizning bir haftangizni bilamiz, ruhoniy hazratlari, – qo‘pol tarzda javob qaytardi Lepeshkin, yog‘ bosgan yuzini katak qog‘oz sochiq bilan artarkan. – Azob beradigan darajada uzoq cho‘ziladi sizning bir haftangiz, Ivan Yakovlich.

– Istasang, qarshingda tiz cho‘kaman, faqat yo‘q dema...

– Siz meni, akangiz uchun zarbxona ochib qo‘ygan, deb o‘ylaysizmi?

– Azizim, Anika Pankratich, nozlanavermasang-chi... Axir, atigi ikki yuz rubl so‘rayapman!!! Xohlasang, hozirning o‘zida to‘rt yuz rubl olganim haqidagi veksel (qarz olganlik haqidagi hujjat)ga qo‘l qo‘yib beraman.

– Yo‘q, bo‘ladigan gapni gapirsangiz-chi...Hammasi bir go‘r, sizning vekselingiz o‘tgan yili yoqqan qorga o‘xshaydi! Siz, yaxshisi, mendan umid qilmang...

– Jin ursin seni, qari to‘nka!... – boshini changallagancha ingrab yubordi Ivan Yakovlich. – Axir bor yo‘g‘i ikki yuz rubl-a...nozlanishini qarang...

– Sizga pul nima uchun kerak o‘zi?

– Yo xudoyim, xudoyim-yey! «Magnit»da biz bilan ishrat qilgan irbitlik tujjorlar esingdami? Bugun o‘shalar Lomtevnikiga kelishadi...Tushunyapsanmi?

– Nega tushunmay!.. Juda yaxshi tushunaman. Birovni yutarsiz...

– Unda nega pul bermayapsan?

– Afsus... Aktrisalarga olib borasizmi?

– Anika Pankratich, azizim!.. – yalindi Ivan Yakovlich Lepeshkinning qarshisida tiz cho‘kib. – Xudo haqqi, teatrga hatto qayrilib qaramayman! Bugun tuni bilan o‘yin bo‘ladi. Hozir aqlim tetik.

– Pulingiz bo‘lmasa tetik bo‘lganingizning nima foydasi bor. Akangiz bilan har doim shunaqa bo‘ladi.

– Hech narsaga chalg‘imayman va albatta yutaman. Bir narsani tushun: irbitlik tujjorlar... Axir bunday imkon har doim ham bo‘lavermaydi-ku!.. Lomtev bilan ularni shunday boplaylik-ki...

– Bilaman, boplaysizlar, – qo‘pol ohangda gapirdi Lepeshkin, cho‘ntagidan qalin hamyonini chiqararkan. – Axir sizning boshingiz, Ivan Yakovlich, oltindan-ku. Birorta teshigi yo‘q... Agar ayollar bilan qiladigan ahmoqliklaringizni yig‘ishtirganingizda hozir, qarshimda

tiz cho'kib turmasdingiz. Ha... Mana sizga pul, ertagayoq stolim ustida bo'lsin. Yana bir gap, sizning veksellaringiz bir tiyinga qimmat, baribir oyoq ostida qolib ketadi.

Ivan Yakovlich bunday axloqiy maslahatlarga nisbatan hech qanday javob qaytarmadi va pulni ipak dastro'molga qo'shib, beparvolik bilan cho'ntagiga soldi. O'n daqiqadan keyin bu muhtaram kishilar hech narsa bo'lmagandek mehmonxonaga qaytib kirishdi. Alla Lepeshkinga stakanda kvas uzatarkan, yengidagi tugma yechilib, fil suyagidek oppoq qo'li tirsagigacha pushti chuqurchali tirsagigacha ochilib qoldi. Ayyor qariya qisiq ko'zlarini suzib, stakanni qabul qilarkan:

– Ana shunaqa yaxshi narsalar yaxshi-da...sevaman!.. Xonim qiz qariyaga hurmat ko'rsatdi... matolari yetti ipak, sarafani ochiq ko'ylak, kvas tutar qo'li bilan... shunaqa yaxshi odatlarni sevaman-da!

Privalov yoshlar hayotdan zavq olishi kerakligi, ammo bu zavqni Aslzodalar klubida emas, faqatgina Jamoatchilik klubidan topish mumkinligi haqidagi hikoyani yana bir bor zavq bilan tinglash imkoniga ega bo'ldi. Aslzodalar klubi a'zolarining zerikish ortidan dengiz kasalligi ortirib olgan haqidagi latifalar aytili. Xioniya Alekseyevna juda boy insonlar qatorida bo'lgan Lyaxovskiye «kalondimog'» deya ta'rif berdi va hokazo. Mavzu asta sirg'alib, Uzeldagi kelinlar haqida gap boshlanishi bilan yuzaki davom etayotgan suhbat birdan jonlanib ketdi.

– Baxarevlar oilasi naqadar ajoyib, – shirin entikib gapirdi Xioniya Alekseyevna, – shunday emasmi, Sergey Aleksandrich?

– Nimasini aytasiz, – uning fikrini quvvatladi Agrippina Filipovna. – Nadine Baxareva va Sophie Lyaxovskaya bizning eng oldi go'zallarimizdan... Ha. Siz Sophie Lyaxovskayani ko'rmagansiz. Juda ajoyib, sohibjamol qiz... Albatta, u Nadine Baxarevachalik aqlli emas, ammo unda o'zgacha nimadir bor. Hali o'zingiz guvoh bo'lasiz bunga.

– Axir Nadine Baxareva Shatrov zavodlariga jo'nab ketdi-ku, – xabar berdi Xioniya Alekseyevna, Privalov tarafga qaramasdan. – U akasining xo'jaligini yurg'izadi. Juda, judayam o'qimishli qiz.

– Adashmasam, u doktor Sarayev qo‘l ostida o‘qigandi, a? – so‘radi Agrippina Filipevna.

– Ha... Sophie Lyaxovskaya bilan birga. Ular dastlab doktorda, so‘ngra Loskutovda ta‘lim oldilar.

– Shunaqami... – cho‘zib gapirdi Agrippina Filipevna. – Men esa shu paytgacha bu haqda bilmasdim.

– Ha, ha... Hozir Loskoutov Lyaxovskiylarnikida muqim o‘rnashgan. Aytishlaricha, u juda ajoyib odam ekan: beshta tilda gaplasha oladi, butun Rossiyani aylanib chiqqan, hatto, Amerikada ham bo‘lgan...

– Xo‘sh, gap kelinlar masalasiga yetib kelgan ekan, yo‘lga chiqishimiz kerak, – dedi Nikolas, o‘rnidan turib. – Muterxen, bizi ma‘zur tutasiz, biz slavyanlarnikiga kirib o‘tishimiz kerak... Ko‘rishguncha, Xioniya Alekseyevna. Kuzda Anika Pankratich bilan fransuzcha dialektikamizni takomillashtirish uchun pansioningizga boramiz... Shunday emasmi?

Xayrlashuv chog‘ida Agrippina Filipevna Privalovga o‘zini bechora qishloqi ayol sifatida muhtaram mehmon zerikib qolgani sabab, uning keyingi tashrifidan umid qilmayotganini biroz g‘amginlik bilan ko‘rsatishga urindi. Albatta, u poytaxtlik mehmonni o‘zining payshanba kunlari o‘tkazadigan tadbirlaridan biriga taklif qilishga jur‘at qilolmaydi.

– Yo‘q, men albatta sizni ko‘rgani boraman, Agrippina Filipevna, – ishontirdi uni Privalov, bu qadar iltifotdan erib ketib. – Kelgusi payshanbadayoq boraman, ruxsat bersangiz, albatta...

– U aniq keladi, muterxen, – ishonch bilan gapirdi Nikolas. – Biz yashil maydon haqida hatto biror narsa yozishimiz ham mumkin...

«Nega endi bormasligim kerak? – o‘yladi Privalov, zinadan tusharkan. – Agrippina Filipevna, menimcha, nihoyatda hurmatga sazovor ayol...»

Privalov va Nikolasning ortidan eshik yopilishi bilan, bir zumga Agrippina Filipevnaning mehmonxonasida o‘lik sukunat hukmron bo‘ldi. Hammaning xayolida birgina fikr – Privalov millionlari aylanardi. U hozirgina shu yerda edi, mana shu kursida o‘tirdi, shu staknarlarda qahva ichdi va endilikda g‘oyib bo‘ldi.

Amaki bo'ynini cho'zib, Privalov o'tirgan kursiga diqqat bilan razm soldi. Ularda Privalov millionlarining izi qolgani aniq edi.

– Oh, uning chivin-u pashshalarini ham yeb qo'ying! – deya sukunatni buzdi Lepeshkin. – To'rt millionni meros qilib oldi...a? Biz bunaqa pullarni hidlab ham ko'rmasak kerak... Shundaymi, Oskar Filipich?

– Ha... juda topib aytdingiz: hech bo'lmasa hidlab ko'rsak ham mayliydi, – yengil harakat bilan oyoqlarini bir-biriga chalishtirgan cha uning fikrini ma'qulladi amaki. – Ba'zi odamlar juda bo'sh bo'lishadi...

– Siz bilan menda shuncha bo'lganda bormi, Ivan Yakovlich...a? – dedi Lepeshkin. – Shunday tushki ibodat uyushtirardikki, shaytonlarning ko'ngli aynib ketardi...

Ivan Yakovlich bu gapga javob qaytarmadi, faqatgina Privalov chiqib ketgan eshik tomonga qarab qo'ydi. «Eh, shunday boylikning hech bo'lmasa bir qismini meros qilib olsam ham yetardi, – kamtarlik bilan xayol qildi bu taqvodor odam. Ammo shu zahotiy oq hushini yig'ib oldi va qo'shib qo'ydi: – Yo'q, hozirgi holatim ming chandon yaxshi. Baribir xonanda va sozandalar, Marya Stepanovna ularni mendan tortib olishardi. Va o'sha sariq qiz... Eh, jin ursin uni, o'sha sariq qizni... Ofatijon!»

#### IV

Uydan chiqishda, podyezd oldida boya Privalov duch kelgan erkaklar to'dasi Veryovkinni ham qurshab olishdi. Ular hanuz boshyalang, buki erkak esa oyoqlari ostiga yiqilib, «ozod qilish»ni so'rab yolvordi.

– Ertaga, ertaga... Ko'ryapsiz-ku, bugun hech ilojim yo'q! – dedi Veryovkin, mehmonxonaning anchadan buyon ularni kutib turgan past bo'yli, keng ko'krakli, paxmoq yungli saman otlar qo'shilgan izvoshiga chiqish uchun Privalovga ko'maklashar ekan. – Ertaga, og'alar...

– Toabad haqqingizga duo qilamiz, Nikolay Ivanich, – dedi buki erkak yirtiq qalpog'ini yerga tashlagan cha, hammadan baland baqirgan cha. – Muzlab qoldik axir... Yordam bersangiz-chi, Nikolay Ivanich!

– Terimni shilib olmoqchi bular: xuddi bo‘g‘zimga pichoq tiragandek yopishib olishdi, – izoh berdi Veryovkin, izvosh monastirga olib chiquvchi keng Muchnoy ko‘chasi bo‘ylab shitob bilan yurib ketarkan. – Bularning bari mening mijozlarim, – dedi u yo‘l chetida tizilib turgan un do‘konlariga ishora qilib. – Siz bu do‘konlarning uch rublga ham arzimaydigan ko‘rinishiga ahamiyat bermang: anavi qoplar shunday foyda keltiradiki, asti qo‘yaverasiz. Bunday do‘konlarga kirsangiz ko‘rishga arzigulik narsa yo‘q: un to‘ldirilgan o‘ntacha qop, do‘konlar ichida suli, tariq, no‘xat, qandaydir yorma – o‘nta sichqonni to‘ydirishga ham yetmaydigandek tuyuladi...

Izvosh bir qavatli, tomi baland, tizmalari o‘yib ishlangan pastak yog‘och uy qarshisida to‘xtadi. Bu Plovodovning uyi edi. Bolaxona, deraza, podyezd va darvozaga rus didiga xos o‘ymakorlik bilan ishlangan mayda naqshlar tushirilgan va eman rangiga bo‘yalgandi. Bog‘chaga olib chiquvchi uncha katta bo‘lmagan terrasa suvi to‘kib tashlangan akvariumga o‘xshab ketardi. Toshoyna o‘rnatilgan kichik derazalardan filodenrodon o‘simligining panjasimon barglari, kameliya, palma, araukariyalar ko‘rinib turardi. Hovlidan esa tomi shishali uzun yog‘och bino ko‘zga tashlanib, bir qaraganda oranjeriya, fotosurat yoki teatrga o‘xshardi: jo‘ka daraxtlari, shumurt (oq, xushbo‘y gulli daraxt yoki buta), akatsiya va siren daraxtlari ekilgan soya-salqin bog‘cha to‘ppa-to‘g‘ri Uzlovkaga olib chiqardi. U yerda «rus uslubidagi xitoy shiyponchalari» ham, gullardan iborat klumba ham, oynadek silliq shar ham, hatto markaziga oq marmardan ishlangan suv pari o‘rnatilgan chog‘roq favvora ham o‘rin olgandi. Umuman olganda, uy katta did bilan qurilgan va to‘lib turgan piyolaga o‘xshardi. Eshik qo‘ng‘irog‘idan tortib mixgacha, hammasi rus uslubiga moslangan va obrazli qilib aytganda, faqatgina uyning «bu shinamgina yog‘och kulbada yashash nihoyatda ajoyib» deya baqirishi qolgandi, xolos. Agrippina Filipevnaning mujmal hashamatli qabulxonasidan keyin bu yerdagi hamma narsada ko‘z beixtiyor dam olardi va mehmonlarni podyezd ostonasidayoq haqiqiy boylik muhiti qamrab oldi. Privalov o‘tib ketayotib, mehmonxona eshiklariga qadimiy slavyan yozuvida bitilgan maqolni o‘qidi: «Yuz so‘m puling bo‘lmasin, yuzta do‘sting bo‘lsin».



– Bu arifmetik jihatdan ham juda yaxshi ma’lum, – Veryovkin xizmatkori yordamida kiyimini yecharkan, bu iborani izohlab. – Negaki. yuz rubl unchalik katta pul emas, yuzta do’st yigirma besh so‘mdan berganda esa yaxshigina foydaga ega bo‘lish mumkin.

– Aleksandr Pavlich hozir vanna qabul qilyaptilar, – xabar berdi lakey.

– Unday bo‘lsa bekangga mehmonlar keldi, deb ayt, – xuddi o‘z xonasida turgandek topshiriq berdi Veryovkin.

– Ular uyda yo‘qlar...

– Qanday ajoyib: xo‘jayin vannada o‘tiritpti, beka esa uyda yo‘q...

– Yo‘q, yo‘q, men shu yerdaman... – ichdan chiqqan bariton ovozi eshitildi va shu zahotiyuq mehmonxona ostonasida yozgi kostumshim kiygan, baland bo‘yli, ozg‘in janob ko‘rindi. – Adashmasam, – xira tortgan yashil-kulrang ko‘zlarini ishqalab, qo‘shimcha qildi u xuddi kuylayotgandek. – men, Sergey Aleksandrichni ko‘rish baxtiga musharraf bo‘lib turibman.

– Obbo, endi o‘n ming xil xitoycha marosimlar boshlanadi, – ming‘irladi Veryovkin Plovodov Privalovning qo‘lini siqib, ko‘zlariga mehr bilan qarab turgan vaqtda. – «Quyoshning yorqin og‘asi... moviy shaffof osmon...» Quloq sol, Aleksandr, men issiqdan bo‘g‘ilib ketdim: yaxshisi bizlarni tezroq uncha uzoq bo‘lmagan, salqin va bahavo joyga olib bor. Anavi o‘g‘longa esa biror salqin narsa olib kelishni buyursang... Bugun chanqoq juda qiynadi-da... Yo‘q, yaxshisi bu ish bilan o‘zim shug‘ullanaman. Hoy, bolakay, terrasaga tozalanganidan olib kel, gazagiga esa biror sho‘rtang narsa ber!.. Sergey Aleksandrich, ortimdan yuring.

Terrasaga qadimiy qora eman bilan qoplangan oshxona orqali chiqilardi. Oshxonaga kafelli pech o‘rnatilgan, shifti esa xromotrop singari rang-barang naqsh solingan, xuddi o‘shanday qora emandan ishlangandi. Markazda ustiga ko‘k va qizil xo‘rozlar tasviri tushirilgan og‘ir guldor dasturxon to‘shalgan uzun eman stol turardi. Oshxona eshigi tepasida o‘zgarmas qadimiy slavyan bitigida: «Uy burchaklari bilan emas, piroglari bilan go‘zal» bitigi, javonlardan birida esa: «Hatto tovuq ham ichadi» degan so‘zlar ko‘zga tashlanib turardi. Privalov yonida qadam tashlagancha bir qo‘li bilan astagina uning bilagidan tutib, lunatiklardek ketib borayot-



gan uy sohibini zimdan kuzatdi. Avvaliga u Privalovga butunlay kulrang bo'lib ko'rindi: yuzi ham, ko'zlari, sochi, hatto egnidagi kostumi – hamma-hammasi kulrang edi. So'ngra Privalov Plovodovning pastki jag'i ancha rivojlanganini sezdi: fransuz anatomlari bunday jag'larni kalish deb nomlashgandi. Barchalari terrasaga chiqib, kichkina dumaloq stol atrofidagi yashil bog' kursilariga o'rnavishgandan so'ng, Privalov Plovodovning beso'naqay gavdasiga qarab, o'ylab qoldi: «Uni qarang, xuddi hozirgina qayerdadir mixga osilib turganga o'xshaydi». Plovodovning cho'ziq, jonsiz yuziga sezilar-sezilmas qilib qum rangidagi o'simlik yog'i surtilgan edi: katta ochilgan ko'zlari betoqat, qotib qolgan nigoh bilan boqar, katta, sezgir lablari va mustahkam oppoq tishlari esa yuziga dag'al, birinchi qarashda yoqimsiz tus berardi. Biroq Plovodov o'zining baritoncha ovozi bilan so'zlashni boshlaganda bu gaplarni aynan u gapirayotganiga ishonish qiyin bo'lar, aksincha uning ortida boshqa birov turib olib, gapirayotgandek tuyulardi.

– Bu yoqqa... – buyruq berdi Veryovkin qo'lida ikkita patnis bilan paydo bo'lgan lakeyga qarab. – Krujkalar baringa, Sergey Aleksandrich ikkimizga esa grafni.

– Yo'q, men aroq ichmayman, – e'tiroz bildirdi Privalov.

– Boyagi safar ham qo'limni qaytargandingiz, hozir ham menga sherik bo'lmaysizmi? – deya o'qrayganicha so'radi Veryovkin.

– Nikolas, axir hozir kim ham aroq ichardi? – suhbatga aralashdi Plovodov, allaqanday g'ayrioddiy ko'rinishdagi krujkani Privalov tomon uzatib. – Mana, Sergey Aleksandrich, yaxshisi, shaxsan o'zim tayyorlagan kvasdan tatib ko'ring...

– Avval: «menga tegma», deyish, undan so'ng sizning kvasingizni ichish kerak, – hazillashdi Veryovkin va rumkadagi tozalangan spirtni yutib yubordi.

Privalov krujkasidagi kvasdan bir necha qultum simirib, rohatlandi. Kvas darhaqiqat juda yaxshi edi.

– Nihoyat sizni ko'rganimdan juda xursandman, Sergey Aleksandrich, – dedi Plovodov stol ostidan uzun oyoqlarini chiqarib olarkan. – Biz bilan uzoq qolasizmi?

– Agar vaziyat o'zgarib ketmasa, butunlay qolish haqida o'ylayapman, – javob berdi Privalov.

– Bu juda ajoyib-ku: xohish bo‘lsa bo‘lgani, vaziyatni o‘zimizga moslab olaveramiz. Shunday emasmi? Bizning davrimizda poytaxtda yashash gunohi azim. Qishloq odamlarga, ayniqsa bilimli va aqlli odamlarga muhtoj.

«Obbo, bu Lazarya har doimgi qo‘shig‘ini boshladi-ku», – o‘zicha fikr qildi Veryovkin. – Siz ba‘zi-ba‘zida provinsiyamizni ko‘chmas mulk volosti, maklenburg tartibi va yer aristokratiyasi bilan quvontirasiz...

– Men hech kimni xuddi mendek fikrlashga majbur qilmayman, – xafa bo‘lgan ohangda gapirdi Plovodov. – O‘zgalarning fikriga qo‘shilmaslik mumkin, ammo shu bilan birga ularni hurmat qilish ham kerak... Mustaqil fikriga ega bo‘lmagan odam esa...

– Agar bu gaplaringiz bilan menga tosh otmoqchi bo‘layotgan bo‘lsangiz, bekorga ovora bo‘lasiz, Aleksandr... Bu ishingiz zambarkada chumchuq ovlash bilan barobar... Ha-ha!

– Bizda hamma ish shunday bajariladi, – ko‘zlarini yarim yumgancha har bir so‘zini chertib-chertib gapirardi Plovodov. – Hammasiga qo‘l siltaymiz – va bu bilan zo‘r ish qildik, deb hisoblaymiz. Bordi-yu birov nimadir qilishga intilsa – uni kalaka qilamiz. Men bunday holatda nimadir qilish istagini hurmat qilaman. Nima qilgani, qanday qilgani esa butunlay boshqa masala. Uzoqqa bormay: slavyanparastlikni olaylik – kimlar mazah qilmadi? Sergey Aleksandrich, tan oling, har qanday ishda bo‘ladigan muammo va murakkabliklarni hisobga olganda, slavyanparastlikda ham o‘ziga xos yaxshi tomonlari, xalq ongini o‘stirishga xizmat qiluvchi jihatlari mavjud...

– Xo‘sh, endi tirqishlarni berkitishni boshladi, – dedi Veryovkin va shu zahotiyoyq Plovodovni kalaka qildi: – «Rus haqiqatini qo‘msab... xalq hayotining mavhum jihatlari...» Ha-ha-ha!

– Slavyanparastlikda menga yoqmaydigan jihat millatchilik, – ta‘kidladi Privalov. – Mening fikrimcha, slavyan tabiatidan kelib chiqib, rus kishisiga bunday qarash begona. Aksincha, u hamisha o‘zga millatlar, xalqlar bilan yaqinlashishga harisligi va boshqa elat odatlarini o‘zlashtirishga bo‘lgan ko‘r-ko‘rona intilishi sabab, qiynalib kelgan... O‘nlab boshqa millatlarning assimilatsiyasi bilan bog‘liq uzoq yo‘lni bosib o‘tgan tariximizga nazar solsak, ehtimol buni tushunish

mumkindir. Ammo biror xalqqa oʻzida boʻlmagan narsani tiqishtirish – maqsadsiz va adolatsiz harakatdir.

– Boshqa millatlar misolida olsak-chi? Axir burnimizning tagida Italiya va Germaniya birlashdi-ku, endi esa navbat slavyan xalqlariga.

– Slavyanparastlar bu yerda qarama-qarshilikka uchrashadi, – dedi Privalov. – Chunki ular begona nuqtayi nazarni qabul qilish orqali oʻz qarashlaridan voz kechayotgandek boʻladilar.

– Juda yaxshi gap boʻldi... Ha-ha! – dedi Veryovkin, boshini orqaga tashlab. – Xoʻsh, Aleksandr, sizning kurslaringiz tamom boʻldi...

Plovodov qotib qolgan koʻzlarini Privalovga tikkancha, lablarini sassiz qimirlatdi. «Ohho, u Lyaxovskiy aytgandek tentak emas ekan», – oʻyladi u fikrlarini jamlashga urinarkan, barmoqlari bilan qoʻlidagi krujkasini sabrsiz chertardi.

*Farhod TOLIPOV tarjimasi*





## I

Doktor Osokin stakanidagi choyni qoshiqcha bilan uzoq aralash-tirib o'tirdi, so'ng birmuncha qo'pol ohangda dedi:

– Matryona, men hozir senga nima demoqchiligimni bilasanmi? O'lay agar, sen trixinaga shunday o'xshaysanki...

– Trixinagami? – dedi dili og'rib Matryona Ivanovna; u sap-chib divandan turib ketdi. – Sen, Semyon Pavlich, aqldan ozganga o'xshaysan... Men trixinaning nima ekanligini juda yaxshi bilaman: anavinaqa... vetchinaga<sup>1</sup> tushadi-ku, oppoq qurt... Trixina deganing ingichka bo'ladi, bir qara menga, Xudoga shukur...

Matryona Ivanovna gaplarini isbotlash uchun lop etib, butun gavadasi bilan doktorning naq tumshug'i qarshisida turib oldi va hattoki unga oppoq, do'mboq, kalta qo'llarini namoyish qildi, gar-chand akusher ayol sifatida buning aksi bo'lishi kerak esa-da, ana shu qo'llari bilan maqtangan vaqtlari ko'p bo'lgan edi. Matryona Ivanovnaning terisi shalvirab qolgan, lo'ppi yuzi ham yum-yumaloq edi, ana shu yuzda xuddi rangi o'chib ketgan feruza tosh qo'yilganga o'xshash bir juft kichkina moviy ko'zlari bolalarcha qiziquvchanlik bilan yaltirab turardi.

– Ha, shunday, trixina, – gapida turib oldi doktor qisqa qilib oldirilgan, oqish sochlarini hurpaytirib. – Trixina nima degani? Trixina degani jonivorlarni ichiga kirib olib, o'z turish-turmushi bilan ularni yeb bitiradigan xavfli parazitdir, sen esang davosiz ezmaliging, tayinsiz gaplaring zahri bilan odamlarni kasal qilasan. Ko'nglingni ko'tarish uchun aytib qo'yay, Matryona, hozir tibbi-yotda trixinaga qarshi hech qanaqa chora-yu dori topilmadi, bun-dan kelib chiqadiki, bu qurtlar mutlaqo jazo olmay yashayverish-lari mumkin...

---

<sup>1</sup> Vetchina – dudlangan cho'chqa go'shti.

– Bo‘ldi-da endi, safsatangni bas qilsang-chi... Yana hamma seni aqlli odam sanaganiga o‘laymi!.. Tuf-ey! O‘rgildim sendaqa donodan!..

– Albatta, donoman, bo‘lmasa-chi!

– Kechirib qo‘yasan, azizim, sendami, Semyon Pavlich, aql degani emas, shundan zig‘irdaygina bor, uyam bo‘lsa, shapaloq tushirishga yetadi... Qari xo‘roz, boshqa hech nima yo‘q!

Doktor Osokin Matryona Ivanovna gap talashganini o‘ta xotirjamlik bilan tingladi, aftidan, u bundan mamnun ko‘rindi, uzun trubkasini tortarkan, bir muddat oppoq tutun pardasiga ko‘mildi. Matryona Ivanovnaning jig‘iga tegish unga hamisha huzur bag‘ishlar, ba‘zan bu ayol bilan ko‘zdan yosh kelguncha tortishardi. Matryona Ivanovna shunday damlarda ich-ichidan doktorning butun sin-simbati – uning keng yelkalari, kuchli, serjun qo‘llarini, ana shu katta, qariyalarga xos donishmand ko‘rinishdagi boshi, yana doktorning o‘zidan mamnun, manman ifoda qalqgan basharasini ko‘rgani ko‘zi yo‘q edi. Ayol ba‘zan qattiq g‘azab ichida uni ahmoq yoki la‘nati, deb koyir, doktor esa pinagini buzmay vazmin o‘tiraverar, faqat ahyon-ahyondagina kulumsirab qo‘yar, ha, aynan kulumsirab qo‘yardi, chunki Matryona Ivanovna doktorning o‘zini bunday tutishi yasamaligini, dono qilib ko‘rsatishi esa maqtanchoq odamning turish-turmishini ko‘z-ko‘z qilayotganligiga amin edi.

– Aqlli odam-a! – Matryona Ivanovna hech tinchlana olmay kalta qo‘llarini silkigancha avjiga chiqdi. – Hamma ayb aqlli, aqlli, deb miyalariga quyib olgan ana shu propadinsklik xonimlarimizda-da. Qozi Berestechkinning xotinini birgina ichki ko‘ylakda qabul qilasan. Bo‘lmasa-chi, uning huzuriga mo‘tabar xonim maslahatga kelarmish-da, bu kishi bo‘lsa, ustiga hech bo‘lmasa biror xalat ilib olishni ham ep ko‘rmay pirillab chiqib kelarmishlar... Qoyil-e, so‘z ham xayf senday odamga!

Doktor hozir uy libosida o‘tirardi: egnida xalat, paypoqsiz oyoqlarida tuffi, tungi ko‘ylagining yoqalari yelvagay ochiq; bu uning odatiy uy libosi edi. Biroq Matryona Ivanovna doktor kiyinishidagi ba‘zi erkinliklarga e‘tibor berib o‘tirmas, son-sanoqsiz tanish-bilishlariga shunday degani degan edi: «Oh, otaginam, ne-ne qiyofatlarini ko‘rdikki!»

– Fahmi farosatimcha, men o‘z uyimda qanday xohlasam, shunday yashayman, to‘g‘rimi? – gapini to‘g‘riladi doktor, – siqilib yashagim kelmaydi... Faqat bir narsaga hayron qolaman, nega ayrim insonlar menikiga gangib kirib kelaverarkinlar-a? Buning o‘rniga tinchgina uylarida o‘tirib, Psaltir<sup>1</sup> o‘qisalar bo‘lmaydimi.

– Qanday ajoyib, Semyon Pavlich... aql bovar qilmaydi!.. Harbiy kotibning cho‘ri xotin oldida aql-zakovatini pesh qilishi...

Biz tavsiflab berayotgan ushbu sahna doktor Osokinga ham qabulxona, ham mehmonxona, nimani istasangiz, shunga xizmat qilajak katta va shiftlari baland xonada kechayotgan edi. Yog‘ochdan yasalgan divan, lumber qartasi stoli va bir nechta kursilarni aytmasa, xona bo‘m-bo‘sh edi. Anchadan buyon oqlanmagan devorlarda islar osilib yotar, polning har-har yerida it iflos panjalaridan iz qoldirib naqsh solgandi, hadeb qo‘l tegaverganidan kir bo‘lib ketgan devorlar kazarmani yodga solardi. Stol ustida ancha vaqtlardan beri yuvilmagan, sirtida yashil dog‘lar qotib qolgan samovar savlat to‘kib turadi va bor idish-tovoq shundan iborat edi.

Matryona Ivanovna o‘ziga choy quyarkan, dumaloq kiftlarini qisdi.

– Shu qadar esing pastligidan ba‘zan hayratga tushaman, Matryona, – gapira turib doktor ctakanidagi choyni ichib qo‘ydi. – Favqulodda noyob nusxasan, aslida bari xotinlar ham sendan unchalik farq qilmaydilarku-ya... Bir umr bolalarcha nimkalla es bilan yashash, so‘ngra «paq» etib, qarib, yana bolaga aylanib qolish. Mana, jilla qursa, seni olsak, Matryona, o‘zing bujurday badbasharasan, yana buning ustiga noz-istig‘no qilganingga o‘laymi... O‘zing insof qilib aytgin-chi, bularning turgan-bitgani bema‘nilik emasmi?

– Bunisini sen bilishing shart emas, Semyon Pavlich... ha. To‘g‘ri, hozir qarib, kampir bo‘lib qoldim, shuni bilib qo‘yginki, ha, bir mahal-lar o‘sha sen bilgan erkaklar orqamdan ilashib yurishardi, Matryona Ivanovnaning qo‘llarini o‘pishardi.

– Bo‘lmasa nimaga o‘sha orqangdan ilashib yurgan o‘sha galvars erkaklardan bittasiga tegmading? Axir ayol kishining peshonasiga bitilgan vazifasi...

---

<sup>1</sup> Инжилнинг тўрт китобидан бири – псаломлар китоби.



– Erga tegishmi? Men-a?.. Hech qachon! Koʻrdim oʻsha turmushga chiqqanlarni! Yetarlicha koʻrdim! Oʻsha sening hamjinsing erkak toifasidagilar tufayli oilali ayollar qanday azob chekayotganlarini koʻrib yuragim orqamga tortadi... Men qiz bolaman, ha!

- Qari qizmi?
- Shunday ham deylik.
- Iso Masihning qayligʻimi?<sup>1</sup>
- Deylik.

Odatdagiday, ular urishib qoladilar. Matryona Ivanovna, doktor xonadoniga ikkinchi qadamimni bosganim boʻlsin, endi oʻz qadrimni bilaman, deya eʼlon etadi. Marhamat qilib ayting-chi, qanday mashhur shaxs ekan huzuringizdagi janobi oliylari: doktor Osokin emish... xa-xa! Har bir loyxoʻrak oʻz balchigʻining poshshosi. Maʼlum boʻlishicha, Matryona Ivanovna poytaxtda yashaydigan, bir tashrifi yuz rubl turadigan haqiqiy mashhur doktorlar bilan tanish ekan. Ha-a, qandaydir tayini yoʻq doktor Osokin oʻzidan buyuk doktor odam yasaydi... Yoʻq, bu chindanam kulgili, agarda Matryona Ivanovna yozishni bilganidami, manavi pandavaqi doktorchanning boplab adabini berardi, ana shunda kunini koʻrardi...

– Ha, bir narsani aytish esimdan chiqibdi: qari boʻydoq... tufey! – Vaʼz oʻqidi Matryona Ivanovna bir necha marta xonadan chiqishga urinib. – Men ayol kishi nima uchun turmushga chiqmasligini tushunaman, ammo erkak...

– Buning qanday yomon tomoni bor ekan?

– Sababi juda oddiy: demak, bu odam qalbsiz yoki haqiqiy erkaklik layoqatini yoʻqotgan.

Doktor oqarib ketgan soqoliga qoʻl yuritdi va oʻychan iljaydi.

– Men Saratovda harbiy vrach boʻlib xizmat qilganimda, – deb gap boshladi u oʻchib qolayozgan trubkasini tortib, – men Saratovda xizmat qilganimda bari xonimlar meni qaynoq yuragi bor, hatto juda qaynoq, deyishardi.

---

<sup>1</sup> Bu atama nasroniylikning ilk davrida inson qalbi va Iso Masih oʻrtasida bogʻliqlikni ifodalash uchun qoʻllanilgan. Boshqa bir maʼnosi: monax ayol.

– Maqtangan narsasini qaranglar... Saratovlik xonimlar!.. Men ularni bilaman; bunday ayollar butun Volgaga faqat burga tutishga ustaligi bilan dong chiqargan.

Matryona Ivanovnaning bu qilig'i doktorning kulgisini qistatdi, lekin bir ondan so'ng kulgani, o'z ojizligini namoyon etgani uchun afsus chekdi: Matryona Ivanovna kursiga o'tirib oldi va hatto shlapasiga taqilgan sariq gullar bilan bezalgan tasmagini yecha boshladi, bu uning doktornikida yana biror soatlarcha o'tirish istagini anglatardi.

– Yo'q, Semyon Pavlich, hamma gapni ochiqchasiga hal qilib olamiz, – deya ayol finjoniga sovuq choydan quyib oldi. – Agarda men shoh bo'lganimda birinchi navbatda mana shu bari yaramas bo'ydoqlarni uylantirib qo'ygan bo'lardim... ha. Men sen shama qilgan narsani juda yaxshi bilaman-da, iltimos, men bilan bahslashma!.. Seningcha, bo'yi yetgan qiz nima degani, Semyon Pavlich, a?

– Juda oqilona va ahmoqona savol.

– Bo'y yetgan qiz – baxtiqaro inson, bilsang. Birinchi, qiz yosh va go'zal bo'lishi kerak, shunday qizning husni ayni o'n oltidan yigirma to'rt yoshgachadir. Ana undan so'ng bunday qizning kuni kun bo'lmaydi, birpasda yoshlik o'tadi-ketadi, qiz qariydi-qoladi. Shundaymi? Sizlar-chi, erkak zotlar, buni juda yaxshi bilasizlar. Xo'sh, demak, bo'yqizning atigi sakkiz yillik ajoyib davri bor ekan, u shu vaqt ichida o'ziga kelajak qurib olishi kerak, agarda bechora oriyatli va odobli bo'lsa, ana unda juda qiyin bo'ladi, ayniqsa, bizning zamonimizda. Aytaylik, ana shu bo'yqiz yosh yigit bilan jiddiy muloqotda bo'ldi, atrofda bo'lsa shivir-shivir avjiga chiqadi: oyim-qiz to'riga qayliq ilintirmoqchi... Oriyatli qiz bo'lsa, bu gaplarga tupuradi. Axir har bir qiz bolaning o'ziga yarasha g'ururi bo'ladi-da... Undan keyin bizning chekka Propadinsk shahrimizda kuyov zoti ko'pmikin, axir bunday zot anqoning urug'i bo'lsa. Bir qarasang, qizgina so'lib tamom bo'ladi, axir u sho'rlik bundan buyog'iga qanday yashaydi, yashashi ham kerak-ku. Siz pandavaqillarda ko'z degani bo'lsa ekan... Ustomonlari birpasda turmushga chiqadi-ketadi, yoki biror epchil beva bo'lsa, erkaklar bilan ochiqchasiga don olishib yuraveradi. Men haqiqatni gapiryapman, Semyon Pavlich, bor haqiqatni. Sizlar ana shu ilmning barini o'tab bo'lgansizlar, faqatgina

burningiz ostida nimalar bo'layotganlarini ko'rolmaysizlar, xolos. Ko'pgina yaxshi qizlar oriyati, g'ururi deb, o'tirib qoladilar, umrlarini zoye o'tkazadilar, boshqa birovi bo'lsa, chidaydi-chidaydi, axiri birinchi duch kelgan muttaham domiga ilinadi...

– Buning menga nima aloqasi bor?

– Sengami? Mana, bariga sen aybdorsan, bariga... Shuning uchun ham senga gapiryapman-da, azizim Semyon Pavlich. Axir sizlar o'qimishli odamsizlar-ku, birinchi ehtiyojmand o'zingiz bo'lasiz. Sochingiz to oqarib bitguncha o'qiysizlar-ku. Sizlar qanday erkaksizlar o'zi? Shamolday u yoqdan-bu yoqqa esib yuraver, hech kim mushugingni «pish» demaydi. Mana, sen gimnaziyada ham o'qigansan, kerak bo'lsa, qizlar o'qiydigan tomonga ham o'tib yurgansan: gapga ko'nadigan, muloyim oyimillani tuzog'ingga ilintirding, so'ng bir xushro'ygina cho'ri qizga ko'ngling ketadi, kech tushdi, lazzatli tomonlarga jo'naysan. Barini xo'p va ko'p ko'rasan, axir bir kun to'yasan, keyin bular naq hiqildog'ingga keladi... (Matryona Ivanovna qo'lini kalta bo'yniga arra qildi.) Men poytaxtga borib, qanday qilib oliy ma'lumotli bo'lganligingizni bilaman: bittasi uyiga qaytib kelib, ko'nglini ro'kach qiladi. Xo'p, bilim olibsan, xizmat qilaman, deb ishga joylanibsan, keyin qiz tanlashga o'tasan: u qiz yaxshi, bunisi bo'lmaydi, ana unisi yaxshi-ku, sepsiz, uchinchi sepli ham, husni ham bor, ammo ma'lumoti yo'q, siz o'qimishlilar bilan suhbatigizga qo'shila olmaydi, erkin gaplasha olmaydi. Tayyor yemishni obdan ko'rib, titaverasan: oyim-qizlar yonida maza qilasan, yana qanaqadir ish yurituvchi bekani topasan, arfa chaluvchi qiznikiga borib, qo'shig'ini eshitib kelasan. O'zini bilgan odobli qiz bo'lsa, ko'shkida so'lib o'tiraveradi, sen to'ng'iz bo'lsang, to'ng'iz kabi yashaysan, yana o'zingni vijdonli, halol odam sanaganingga o'laymi. «Men, hayotga falsafiy yondashaman» emish. Albatta, oilaviy hayot gigiyena tarafidan olganda, juda a'lo, ammo turmush tashvishlari, ikir-chikirlari ham bo'ladiki, bulardan bosh ko'tarib, ilm qilib bo'psan. Buni senga o'z to'ng'izliging aytib turibdi, Semyon Pavlich, ilm-fan emas. Xo'p, shunday turish-turmushing bilan yurib-yurib ellikka ham borib qolasan, undan keyin itday qarib, o'lib ketasan.

– Tilingni zaharligini, Matryona... Mayli, men qari bo‘ydoq bo‘la qolay, bu bilan hech kimning ishi bo‘lmasin. Sen aytgan o‘sha oriyatli bo‘yqizingga qaytanga yaxshi bo‘ladi, men uni aldamoqchi emasman.

– Voy, sen qanday tentak odamsan-a, Semyon Pavlich!.. Bolalar-chi, farishtalar-chi? Bu nimasi axir? Qovoqxonami. itxonami, oti nima bu yerning (Matryona obdan xonaga tantanavor nazar solib chiqdi)... Bo‘m-bo‘sh, kir-chir, iflos. Mana bu yer ish kabineting, u yerda yotog‘ing bor, anavi xonada-chi... anavi xonada, chap tarafda nima bor, esimdan chiqibdi?

– U xonada itlarim yashaydi.

– Ha, ha... itlaring! Tuf-ey senga, itxona qilmay har narsa bo‘l, nima balo, shayton bolalaganmi ichingda? Xonamish-a...

Matryona Ivanovna so‘l tomondagi xonaga yo‘naldi, eshikni ochdi va boshini sarak-sarak qilganicha ostonada uzoq turib qoldi. Bu xonaning ikki derazasi to‘g‘riga, bog‘ tomonga qaragan va bo‘m-bo‘sh edi, faqat yerga to‘shalgan poxolda qulog‘i kar bo‘lib qolgan qanjiq it Joyka yotardi.

– Oh-ho, yaxshigina xona ekan! – xo‘rsindi Matryona Ivanovna. – Mana shu xonada katta qizing yashasa bo‘lmasmidi. Devor tomonga karavotini qo‘yarding, burchakda kitob javoni, manavi yerda komod, yozuv stoli joylashardi, – zo‘r xona chiqardi. Shunday xizmatdan kelgach, quloq tutarding, Sasha qizim hozir nima qilayotgan ekan, deb. Qara, hayotingda mazimun ham bo‘lardi, bunday to‘ng‘iz bo‘lib yashamasmiding. Goh Sashaga yangi boshmoq olishim kerak, goh Sashaning tobi qochib qolgan, goh Sasha aqlli kitoblardan o‘qishi kerak, unga tushuntirish, ko‘rsatish, o‘rgatish kerak, degan tashvishda yurarding... Sasha-chi, otasiga erkalanarmidi, shunday epkinday, ilk bahor maysasiday sof, beg‘ubor... Nimalar deyapman o‘zi?

Doktor suhbatdoshining gaplarini anchadan buyon tinglamayotgan edi, boshini egib o‘tirardi. Trubka o‘chib qolgandi, choy anchadan beri turganidan sovib qoldi, xonaga g‘ira-shira qorong‘i tushdi.

– Ezmalanib o‘tirib qoldim senikida, – birdan esiga tushib qolib sapchib kursidan turdi Matryona Ivanovna. Kech bo‘ldi, qari bo‘ydoqnikida o‘tirishimni qara. Yaxshi qol, Semyon Pavlich.

– Xayr, trixina.

– Qari xo‘roz!

Doktor yolg‘iz o‘zi qolib, qorong‘ida uzoq o‘tirdi. U trubka chekisi keldi, biroq negadir buni unutib, yana o‘yga cho‘mdi. Ko‘chada fonarlar yondi; qayerdadir ko‘prik tomondami, toshyo‘lni zirillatib fayton o‘tdi. Xonaga doktorning sevimli, irlandlarning setter zotli iti Naxal kirib keldi; xo‘jasining qo‘lini sovuq tumshug‘i bilan turt-di, dumini likillatib turdi, odatdagi erkalashni kutib o‘tirmay o‘sal yotgan Joykaning xonasiga jo‘nadi.

– Ha-ya, katta qizimning xonasi, – itning qadam tovushlariga qu-loq tutib, esladi doktor va achchiq kuldi.

Doktor oqshom uzoq vaqtgacha uxlagani yotmadi, qo‘lida sham bilan uyni aylanib chiqdi, xonadan-xonaga o‘tdi, o‘zining bo‘ydoqlarcha tartibsiz hayotini e‘tibor bilan kuzatdi, xuddi u bu manzarani birinchi marta ko‘rayotganday bo‘ldi. Bexosdan doktor ushbu manzaradan dahshatga tushdi: uying har bir burchagidan unga o‘z yolg‘izligi, boya Matryona Ivanovna aytganiday, to‘ng‘izlarcha bo‘ydoqligi tikilib qarab turganga o‘xshadi. Uydagi yashaydigan joy isi kelgan yagona xona doktorning ish kabinetini edi, – kitob javoni, tibbiy asbob-uskunalar, turli asboblardan, kitoblar, qog‘ozlar qalashib yotgan va chang va tamaki kullari qoplagan yozuv stoli. Yotoq butunlay bo‘sh, o‘rtasiga karavot qo‘yilgan xonadan iborat edi. Doktor to‘shak o‘rnida xashak ustida yotar, uni har kuni almashtirib turardi. Doktor Joykaning xonasida uzoq qolib ketdi. Bu ko‘zlari xantal tusidagi ajoyib qahvarang poynter<sup>1</sup> edi: Joyka qarib, kuch-quvvatdan qolgan, o‘sal bo‘lib yotardi, buning yagona davosi – o‘lim edi. Aqlli it emasmi, aftidan, o‘z ahvolini anglab yotardi va negadir xo‘jasiga yoshlangan ko‘zlari bilan aybdorlarcha mo‘ltirab qaradi.

– Ishlar chatoq, Joyka, – dedi doktor itning qup-quruq tumshug‘i-ga qo‘l tegizib.

---

<sup>1</sup> Kalta va silliq yungli katta ovchi iti.

Joyka arang orqa oyoqlarini poxolga tirab turishga urindi, biroz cho'zilib, bir necha odim otmoqchi bo'ldi, biroq bo'lmadi, holi kelmadi, faqat dumini qayg'uli likillatib qo'ydi, xolos. Naxal yoshligiga borib, hozir ko'rayotgan sahnasini xudbinlarcha tushungisi kelmay, doktorga tiqildi, mallarang mayin junli boshi bilan doktorning tizzasiga suykaldi.

– Bu Matryona deganlari shunday tentakki! – dedi ovoz chiqarib doktor Naxalni erkalatarkan. – Insonning yagona do'sti bu – it. To'g'rimi, Joyka?

## II

Uyezd shahri Propadinsk, Matryona Ivanovna tilga olganiday, unchalik chekkadagi ovloq joy emasdi; aksincha, ozodagina va yigirma ming kishilik aholisi bor, sanoati taraqqiy etgan va ayni turmush tarzining qizg'inligi bilan farq qiladigan barcha Sibir shaharlari kabi jo'shqin hayot qaynagan shaharcha edi. To'g'ri, keng ko'chalar, tosh va yog'ochdan yasalgan binolar mo'jaz tog' daryosi Propadinka oqimiga mutanosib solingan edi. Olislardan shahar manzarasi juda go'zal ko'rinardi: imoratlar, bog'lar, cherkovlar, ma'muriy binolar, chorbog'lar, yer-joylar hammasi rang-barang va jamuljam bo'lib, bir to'pni hosil qilardi va bularda qandaydir nashida bor, ularning o'ziga xosligi sezilib turardi. Aslida shaharning qayerda poyoniga yetishini bilib bo'lmay qolgan edi, chunki yer-joylar va chorbog'lar naq shahar chegarasiga kelib qolgan, so'ngra deyarli markazda xuddi ilib qo'yilgan yashil qalpoqni eslatadigan, jamoat uchun sayilgoh bo'lib xizmat qiladigan serdaraxt tepalik bor edi. Ana shu umumiy ko'rinishda to'rtta shahar maydoni va marhamatli Aleksandr<sup>1</sup> zamoni me'morchiligiga mansub kazarma tipidagi qator mahobatli toshdan yasalgan imoratlar olisdan kattakon yamoqqa o'xshab turardi.

Bu turli-tuman zavod egalari va oltin konlari xo'jayinlari palatalari edi. Ushbu saroylarning yarmi bo'sh va asta-sekin nuramoqda edi, chunki bu joylar egalari yoki singan, yoki o'lib ketgan, yo poytaxt, yo xorijda yashamoqda edilar.

---

<sup>1</sup> Мархаматли Александр I – Наполеон қўшинини мағлуб этган Россия императори.

Propadinsk bunyod etilgach, eng gullab-yashnagan davri oltin konlari, zavod egalari va tog'-kon injenerlarining faoliyati juda taraqqiy etgan, ishlar qizg'in avj olgan qirqinchi<sup>1</sup> yillarga to'g'ri kelardi. Ayniqsa, oltin konlari xo'jayinlari butun Rossiyaga dong'i ketgan Guskovlar va Yefimovlar, ulardan keyin ko'pas-savdogarlar Svetlyakovlar, ijarador Xlizdin, aroq zavodlari egalari Barch-Grjelyaxovskiylar va boshqa boylar nomlari dovruq qozondi. Propadinsk dadil va tez quloch yoydi, hamma to'q, farovon yashay boshladi, faqat Sibirdagina ana shunday ertasini o'ylamay boqibeg'am yashash mumkin, so'ngra esa birdan oltin nari «chekinadi», hayot o'zining odatiy iziga tushib qoladi. Yovvoyi millionlar o'rniga sah-naga bazo'r qo'lga kiritilgan sarmoyalar, sanoatchilar va yangi fe'l-atvorli tadbirkorlar chiqadi.

– Nimasini aytasan, baribir yomon emas, yaxshi yashadik... nimalar o'tmadi! – Propadinsk to'q hayotining eng barbod bo'lish davrini haligacha eslab yurguvchi Matryona Ivanovna. – Guskovchi, Mixaylo Platonich, judayam o'zini ko'rsatishni bilardi: millionlarning bahridan o'tdi-ya, bulardan ozginasi merosxo'rlariga qolgan bo'lsayam xo'p gap... Bo'lmasa-chi, o'zining teatri bor edi, cholg'uchilari to'liq orkestri bor edi, hattoki Italiyadan haqiqiy sirkni yozdirib olib kelmoqchi ham bo'luvdi, ko'p o'tmay o'lib qoldi-da. Anuv birinchi xotinidan tug'ilgan ikkinchi qizi bor-ku, Yevlampiya Mixaylovnani erga berganida-chi, birgina mushakbozlikning o'zi besh mingga tushgan, to'yda qanchadan qancha idish-tovoqlar sinmadi, mehmonlarning ne-ne ko'ylaklari tarra-burra qilinmadi – sanab, sanog'iga yetib bo'lmaydi.

– To'yda nima uchun ko'ylaklarni yirtishgan, Matryona Ivanovna?

– Xursandchilikdan-da, farishtam, xursandchilikdan. Ko'pas-larning shunday g'alati odati bor edi-da: agar kelinning ishlari joyida bo'lsa, bari parcha-parcha qilib yirtiladi. Men o'sha to'yda bo'lganman, kiyimlarimni uvadasi chiqib ketgandi, barini yirtib tash-lashgan edi. Hattoki ish shunday sharmandagarchilikka borib yeta-

---

<sup>1</sup> XIX asr.

diki, Mixaylo Platonich qandaydir xonim oldiga yugurib keladi-da, uning ko‘ylagini yoqasidan etagigacha sharillatib yirtadi, uning egni-dagi bor kiyimini qoldirmay yirtib chiqadi, o‘zi bo‘lsa, quvonchdan ho‘ng-ho‘ng yig‘laydi deng...

Matryona Ivanovnaning sinib, tamom bo‘lgan boy-badavlat Yefimovlarning huvullab yotgan ko‘shklari yonidan joy olgan Sobornaya ko‘chasida o‘z uyi bor edi; uning bor-yo‘g‘i uchta mo‘jazzgina derazalari ko‘chaga qaragan va kiraverishdagi kulrang bo‘yoqqa bo‘yalgan yog‘och eshikka «Sinovdan o‘tgan doya xotin (Sage-femme) M.I. Pupishkina» degan katta, ko‘k rangli yozuvli taxtacha osib qo‘yilgandi. Uy eskirib ketgan edi, aftidan, uni faqatgina yog‘och qoplama ushlab turardi. Matryona Ivanovna uyini ta‘mirlashni ham, yangisini ham qurishga xohishi yo‘q, «mening umrimga shuyam yetib ortadi, buni u yoqqa ko‘tarib opketib bo‘lmasa», derdi. Matryona Ivanovnaning ana shu uyi to‘shiftgacha turli-tuman ko‘hna mebellarga to‘ldirib tashlangan uchta qutiday kichik xonalardan iborat bo‘lib, xuddi eski buyumlar do‘konini eslatardi.

– Bularning barini menga bemorlarim hadya qilgan, – izohlardi Matryona Ivanovna qiziquvchilarga. – Mabodo o‘zlariga mebellardan birortasi yoqmay, jonlariga tegsa, Matryona Ivanovnaga sovg‘a qiladilar. Men bergan narsalarini yo‘q, demay olaveraman, yaxshi odamlarni xafa qilib bo‘ladimi? Albatta, bu lash-lush, eski-tuskilar, lekin men o‘lsam noshukur jiyalarim bularni qayerga joylashni bilishadi.

Mehmonlar qabul qilinadigan xonaga Kareliya qayinidan yasalgan divan qo‘yilgandi, devorda burchlari zarhaldan jimjimador qilib o‘yib bezak berilgan, qizil og‘ochdan yasalgan og‘ir romga solingan beso‘naqay ko‘zgu osilgan edi, divan oldida yumaloq cho‘yan stol savlat to‘kib turardi, divan yonboshlarida marmarsimon qilib bo‘yalgan ikkita g‘ayritabiiy tagkursi joylashgandi; qorindor yong‘oq og‘ochidan komod, ikkita qutisisiz byuro<sup>1</sup>, bir nechta ko‘hna kreslo va stullar bu manzarani boyitib turardi. Albatta, polga gilam ham to‘shalgandi, divanda jun ipdan tikilgan, munchoq qadalgan yosti

<sup>1</sup> Yozuv stolning bir turi..



qo'yilgandi; stollar, javoncha, tagkursilar, kreslo suyanchig'i va divanga «file» namunasidagi to'rsimon to'qima gilamchalar va qo'l sochiqlar ilib tashlangan edi. Haqiga ko'chganda, Matryona Ivanovna orqadagi xonada faqat uxlardi, xolos, bu yerda uning xilma-xil matohlarga to'la sandiqlari, keyin, aftidan, shaddod kampirning bor boyligi saqlanadigan kattakon idish-tovoq javoni ham bor edi.

– Qariganimda, nimani qayerdan topishni bilmay o'tirmay tag'in, – tanishlaridan birortasi uni xasis, deb o'pkalasa, shunday deb javob qaytarardi Matryona Ivanovna. – Axir o'zim sag'ir bo'lsam; yaxshi odamlar oldida yursang, sovuqni ham, ochlikni ham yengasan, mana, men yana Polenkanani ham o'ylashim kerak.

Matryona Ivanovnaning uyining yerto'la qavatidagi hujrada bir paytlar Propadinskning shuhrat qozongan sobiq yulduzi – Polenka Edemova istiqomat qilardi. Ha, bir vaqtlar butun shaharning aqlini olgan, primadonna va oldi sohibjamolning endi qari boshini suqadigan bir parchagina boshpanasi yo'q edi, agarda Matryona Ivanovna bo'lmaganida, sobiq teatr yulduzining ko'chada kimsasiz jon berishi tayin edi. Polenka oltmish yoshni qoralab bormoqda edi; u egniga to'qrang ko'ylak kiygan, bo'ynida to'qilgan durracha, boshiga ajabtovur to'qa taqib olgan edi. Garchand ko'zlari hamon nurli, bari tishlari butun bo'lishiga qaramay, Polenkaning to'la, xomsemiz yuzi uni o'z yoshidan katta ko'rsatardi; ayol sochlarini qanaqadir tugma bilan naq ensasiga chandib olgan edi. Polenka qomatini to'g'ri tutolmasdi, bunga Matryona Ivanovnaning achchig'i chiqar, unga javragani-javragan edi. Ko'pincha, Matryona Ivanovna unga qarab, ichida ajablanardi, bu Polenka g'alati-da, mundoq qarasang, kamsuqumgina va yoqimtoy bo'lib qolar, lekin birdan ichidan g'ururdanni qandaydir bir faryod otilib chiqardi-da, injiqlanib jazavaga tusha boshlardi, bu hol uni yasama va yoqimsiz kimsaga aylantirib qo'yardi. Odatda u begonalar huzurida shunday jazavaga tushardi. «Bo'ldi, Polenkamizga jin tegdi! – deya qo'l siltardi shunday paytlar Matryona Ivanovna. – Axir qarib qolding, bo'ldi-da, odamlar oldida tomosha ko'rsatishing nimasi?»

Matryona Ivanovna bu tariqa shuhratparastlik, xususan, uning izidan izzatlablikni boshidan kechirish jazavasini tushunishni is-

tamas edi: har safar Polenka qiyofasida qachonlardir muxlislar qo'llarida ko'tarib yurgan mashhur aktrisa azob bilan jon berardi, haqiga ko'chganda, aslida u go'zal bo'lishga intilgan malohatli ayol edi. Bu haqiqiy fojia edi, Polenka har safar odatdagi injiqlik xurujidan so'ng mazasi qochib qolardi. Ayol odatda bir necha kungacha kulbasiga qamalib olar, hech kimni, hatto Matryona Ivanovnani ham ichkariga kiritmas edi. Xonasi kichikkina va yagona derazasi hovliga qaragan edi. Buning ustiga Polenkaning qizil og'ochdan yasalgan, ayni shuhrat cho'qqisiga chiqqan paytlari Mixaylo Platonich Guskovning shaxsan o'zlari hadya qilgan g'aroyib karavotidan bo'lak hech vaqosi yo'q edi; ana shu karavotning o'zini butun boshli me'moriy inshoot desa bo'lardi. G'ayrioddiy, pastakkina va kengmo'l ushbu karavot suyanchiqlariga ajabtovur, jimjimador qilib o'yib bezak berilgan edi. Suyanchiqlar burchlarida bir-biriga o'q uzishga shaylangan zarhal amurlar<sup>1</sup> o'tirardi. Polenka boradigan, bosh suqadigan eshigi bo'lmagan vaziyatlarda ham shu karavotni saqlab qola olgan va uning istagi ana shu to'shakda jon bermoq edi. Polenka umidsizlik, tushkunlikka tushgan qayg'uli onlarida ham karavotni berkitib, zanjirlab, kattakon qutiga solib, sudrab yurdi va anchagacha ortgan buyumi nazoratida turdi. Teatrda orttirgan butun shon-shuhrat chiqindisi va kul kukuni ana shu qutiga jam bo'lgan edi; quti ichida qurib qolgan guldastalar, gulchambardan uzib olingan gullar, turli yozuvlar yozilgan enli ipak tasmalar, sarg'ayib va o'ngib ketgan portretlar, taxlam-taxlam she'rlar, dasta-dasta maktublar, ehtiros to'la qizg'in nomalar, nazokat bilan bitilgan sevgi izhorlari va shunchaki inson faqat ko'nglidan chiqarib muhabbat bilan yozib, anglay olishi mumkin bo'lgan telbalarcha safsatalar... bari-bari shu qutida hozir edi. Xonaning bor burchini qimmatbaho sovg'alar g'ilof-tiqinlari band etgan edi va Polenka aynan ana shu g'iloflar, qutilarni qadrlardi; idish ichidagi qimmatli buyum allaqachonlar har xil olg'ir, changali o'tkir garovga beruvchilar qo'liga o'tib ketgan edi, ammo endi hech bo'lmaganda, ana shu g'iloflar ustidagi qorayib ketgan zar bilan bitilgan yozuvlarni o'qib taskin olish mumkin edi. Shunday, qimmat-

---

<sup>1</sup> *Amur* – antik afsonalarga ko'ra, qanotli bola qiyofasidagi sevgi ma'budi.

baho tosh – ko'kish safsar marjon tiqini sirtiga shunday so'zlar yozilgan edi: Propadinsk shahridan Yagona xonimga; fermuar– ilgakli marjon shodasi g'ilofiga: Mag'lub bo'lganlardan G'oliba ayolga; gavhar toshli to'g'nag'ich idishiga: Guskovdan Maftunkor xonimga; so'ngra: Ishboshilar klubidan Milsiz go'zallik sohibasiga; mayor Perederindan Mening ma'budamga, go'zallikdan ko'zlari qamashgan tog'-kon injenerlaridan va h.k, va h.k. Bu sovg'alar ijtimoiy tabiat kasb etgan edi, ularda ko'proq g'iloflarga zeb berilgan bo'lib, eng qimmatli buyumlarga esa ba'zan birgina harf bilan, sana yoki yil qayd etilgan edi. Oltin koni egasi Guskov va ijarador Xlizdin Polenka Edemovaga qimmatbaho hadyalar qilishda bir-birlari bilan raqobat qilgandilar va ikkalasi ham ko'ngillarida komil ishonch bilan aynan Polenka Edemova uni, yagona o'zini sevishiga amin edilar.

«Xudoyim, bularning bari qayoqqa g'oyib bo'ldi? – qandaydir dahshat ichida Polenka o'tmish xotiralarini birma-bir yodga olarkan. – Guskov sinib, allaqachon o'lib ketdi, Xlizdin ham, Yefimov aqldan ozdi... Boshqalar hammasi: kimdir o'ldi, kimdir eski gunohlaridan tavba qilib, xudoga istig'for aytib o'tiribdi, yana kimdir qarigan chog'ida so'nggi vijdoniniyam yutgan».

Polenka ba'zan o'zini o'zining soyasi deb his qilar va hayoti unga aloq-chaloq tush bo'lib tuyulardi. To'g'ri, o'tmish haqida gap ketganda, Polenka, juda bo'lmasa, butun Propadinskni besh panjasiday biladigan mana shu Matryona bilan ko'nglini bo'shatgan chog'lari jonlanib qolardi.

– Bularning bari qayoqqa g'oyib bo'lganini sira aqlimga sig'dirolmayman, – derdi Polenka bilan qahva ichib, fikr yuritarkan Matryona Ivanovna. – Ilgarilari, masalan, qanday qizlar bo'lar-di-ya!..

– Menam shuni aytaman-da, – uning gapini ma'qullardi Polenka, – negadir hozir men bunday qizlarni ko'rmayapman, balki yoshlar ichidan chiqib qolar.

– Yo'q, ilgarilari: Guskovlarning Yevlampiyasi, Xlizdinning qaynsinglisi yevpraksiya, yefimovlarning Lidochka va Kapochkaları, protopop Katonovning naq uch qizi, generalning xotini Otmetisheva, maslahatchining xotini Golubkovalar... Bir-birdan chiroyli,

biri biridan o'zaman derdi!.. Esingdami, protopop qizlarining gitara chalgani, maslahatchining xotini Golubkova bo'lsa, ruscha shalvorlarda, shohi ko'ylakda qanday o'ynagandi?.. Menga hammadan ham Yevlampieya Guskova yoqqandi: xuddi qoshlari suvsarday quyuq, ko'zlari chaqnaq turadi, ko'kraklari ma'budalamikiday, qo'llari-chi, qo'llari qanday edi!.. Xuddi yamshchikka<sup>1</sup> o'xshab uch otli izvoshni haydagani, voy, qo'llari to kiftigacha yo'nib qo'yilganga o'xshardi!

U o'shandan so'ng ichkilikka berildi... Oh-ho! Bari eskida qolib ketdi, endi noliganlari noligan, ingraydilar, yo'taladilar... Birgina biz, sen bilan, Polenka, omon qoldik! To'g'ri, agarda yoshlar bilan solishtirganda, biz hali, ehtimol...

– Mashenka Svetlyakova, Emmochka Bodman, aytishlaricha, go'zalmishlar? – o'zicha dedi Polenka.

– Mashenka Svetlyakovami? Emmochka deysanmi? Xa-xa!.. Chiroylimishlar!.. Nemis movuti degin: Emmochkaning beli juda uzun, Svetlyakovaning qomati xuddi sterlyad baliqqa o'xshaydi... Ularning hammasini bilaman!.. Mana endi ko'p qozi, injenerlar, ko'paslarning xotinlari, – aflari odamga o'xshaydi, ularning ichida bittayam chindan chiroylisi yo'q, bittayam! Men ularni dudlangan mayda baliq deyman, hammasi... ha, turgan-bitganlari dudlangan mayda baliq. Mana, masalan, seni olaylik: Polenka, yoshing bir joyga borgan bo'lsa ham, eski qo'ziqorin bo'lsang ham, xudo haqqi, ana shu go'zallarning hammasini bir joyga to'plasa ham ular birgina oyog'ingga arzimaydi. Oh, sening oyoqlaring qanday chiroyli edi, Polenka, qanday edi!.. Bekorga Xlizdin shampan vinosi bilan mana shu oyoqlaringni yuvib, keyin shu shampan yuvindisi bilan mehmonlarni siylamagandi.

Polenka bu maqtovlarni eshitgach, keksalarga xos yuzlari qizarib, uyalib ko'zlarini yerga qadardi.

– Axir men senga tilyog'lamalik qilmayman-ku, onaginam, – qo'ya qolmasdi Matryona Ivanovna, – men doim to'g'ri gapni aytaman... Faqat o'zing qadringni bilmading, behudaga ana shu razil erkak zotlarga ishonding. Men nega shunday deyapman?.. To'g'ri,

---

<sup>1</sup> *Yamshik* – aravakash

xudoyim meni hech bir husn bilan siylamadi, lekin men bir narsa uchun yaratganga shukur qilaman: hech bir zamon hech bir erkakka ishonmadim, bo'lmasa, bo'yningga to'rva-xalta ilib, har joyda sarson-sargardon yurarmidim.

– Yo'q, bunga men o'zim aybdorman, Matryona Ivanovna...

– Og'zingni ochma!.. Yana o'sha peslarni himoya qiladi-ya... Aftidan, mening qaylig'imni tortib olganingni unutmang o'xshaysan?.. Qarib qoldim-da, bo'lmasa, sen bilan qanday hisob-kitob qilishni bilardim... Qani, vijdoningni o'rta qo'yib aytgin-chi, men kimning aybi bilan qari qiz bo'lib o'tyapman?

– Matryona Ivanovna... qo'ying... – bo'g'iq ovozda shivirladi Polenka yuzlarini qo'llari bilan yashirib. – Yaxshisi, meni quvib yuboring, lekin bunday qiynamang.

– Sening oyoqlaring haqqi, yaxshilik qilgim keldi, – kulib dedi Matryona Ivanovna. – Bo'lmasa sen emas, mening kalam joyida emasdi. Men o'shanda aql bilan ish qilmagan bo'lardim...

Ushbu eski hisob-kitoblar quyidagiday tarzda kechgan edi, Matryona Ivanovnaning qaylig'i bo'lgan, u qandaydir muallim Gogoritskiymi edi, Polenka Edemova bo'lsa, o'sha chog'lar shonshuhrat cho'qqisida bo'lib, qanaqadir shum garov tufayli endigina baxtli bo'lish arafasida turgan yoshlar orasiga nifoq soladi, aktrisa ko'rimsiz doydandan uning qaylig'ini tortib oladi. Gogoritskiy zum o'tmay qarmoqqa tushadi. Polenka bir necha kun u bilan vaqtichog'lik qiladi-qiladi, keyin muallimning pattasini qo'lga beradi; yigit ichkilikka ruju qo'yadi va tez orada o'ladi-ketadi, Matryona Ivanovna bo'lsa, vestalka<sup>1</sup> bo'lib qolaveradi.

– Men bir narsaga hayron qolaman, – fikr yuritdi Matryona Ivanovna o'ychanlik bilan, – insonda bu qadar vahshiylik qayerdan paydo bo'larkin-a? Ikki insonni birdaniga tamom qilasan-da, achinmaysan ham... Senga malomat toshini otmayapman, Polenka, shunchaki misol uchun gapiryapman.

– Sening o'sha Gogoritskiyning rosa kabob bo'lgandi-da o'ziyam! – to'liqinlanib dedi Polenka xotiralarga berilarkan. – Esingda-

<sup>1</sup> Vestalkalar (lot. virgo vestalis) – Qadimgi Rimda katta hurmat va e'tibor ko'rsatiladigan Vesta ma'budasi koinlari.

mi, tog'-kon injeneri Blyudechkin meni deb o'zini otgani?.. U oldin meni o'ldirmoqchi bo'lgandi...

– Shuncha tentak... barini sanab sanog'iga yetib bo'larmidi... Dunyoda ne-ne odamlarni ado qilding, Polenka, qanchadan qancha erli xotinlar seni deb ko'zyosh to'kdilar, ko'zlarini ko'kartirib yurdilar. Menmi, yo'q, jahlim chiqmayapti... Qani, o'sha qo'shiqni aytchi, esingdami?.. Xudoyim-ey, Polenka, axir sen romans kuylayotgan mahal teatrda nimalar bo'lgani...

Matryona Ivanovna protopop Katonovning qizlaridan biri sovg'a qilgan gitarani saqlab yurardi, ba'zida u kechmish eski vaqtlarni eslab ushbu cholg'uni chalishni yaxshi ko'rardi. Odatda Matryona Ivanovna gitara chalib jo'r bo'lar, Polenka titroq, keksayib qolgan ovozi bilan kuylardi. Ikki kampir uchun eng yoqimli xotira bu ko'hna: «Mening vafodor itim» romansi edi. Polenka shu romansni aytganida, Matryona Ivanovna achchiq-achchiq yig'lardi. Polenka Matryona Ivanovnaning ko'nglini ko'tarish uchun «Mo'ri tozalovchi Vanyusha» haqidagi urf bo'lgan qo'shiqni aytib berardi, xususan, qo'shiqda «yuzim qora bo'lsa-da, qalbim top-toza», deya kuylanardi.

Matryona Ivanovna doktornikiga oxirgi marta borib kelgach, to'shagida u yoqdan-bu yoqqa ag'darilganicha ancha vaqtgacha uxlolmadi, so'ngra chidayolmay karavotida chiroq yorug'ida sun'iy gullar uchun qog'ozdan yaproq kesib o'tirgan Polenkaning oldiga tushdi. Sobiq yulduz bu yumushni yaxshi ko'rardi, bu ish uning o'ylashiga xalaqit qilmas, ayni vaqtda unga xush kayfiyat bag'ishlar va yana picha bo'lsa-da, pul ishlab olishi mumkin edi.

– Men anuv ayiqnikiga boruvdim, – deya Matryona Ivanovna Polenkaning karavotiga chiqib, oyoqlarini chalishtirib o'tirarkan.

– Qaysi ayiqnikiga? – loqaydlik bilan so'radi Polenka hozirgina yasagan qaymoqrang atirguliga sirtidan razm solarkan. – Chiroyli chiqdi-ya, to'g'rimi?

– Birpas bas qilsang-chi shu tentakligingni... To'g'risi, uning shunday ahvolga tushib qolgani judayam achinarli!

– Kimga achinding? – dedi Polenka hamon yaratgan asariga to'ymasdan qarab o'sha-o'sha loqaydlik bilan.

– Qanaqa befahmsan, Polenka! – tutaqib dedi Matryona Ivanovna bu e'tiborsizlikdan. – Axir men senga Semyon Pavlich haqida gapiryapman-ku.

– Ha... shunday demaysanmi. Yana urishib qoldinglarmi?

– Menga qara, sen avval menga qulog'ingni tut. Avvaliga rosa tortishdik, so'ngra men uni gap bilan bopladim, doktor bo'lsa tilini tishlab qoldi. Bir qarasang, qo'rs odam, lekin birdan indamay qoldi... Bilasanmi, Polenka, nazarimda, doktor judayam baxtsiz, juda, judayam baxtsiz!

– Bo'lishi mumkin... men bilmayman...

Matryona Ivanovna zimdan Polenkaga nazar tashladi va beixtiyor shu o'y xayoliga kelib qoldi: «Manavi tovuqmiyani o'tirishini qara. Borib turgan to'nka!» Polenka bolalarga o'xshab o'zi yasagan guldan o'zi zavq olib o'tiraverdi, keyin Matryona Ivanovnani xafa qilmaslik uchun o'zini eshitayotganga solishga urindi.

– Ha, men sendan so'ramoqchi bo'lganim, – so'zida davom etdi Matryona Ivanovna samimiy. – Axir sen Semyon Pavlichni yaxshi eslaysan-a, u yosh yigit bo'lib Propadinskka kelganini?

– Doktor Osokinnimi? – shunchaki arzimasa narsani gapirayotganday qayta so'radi Polenka. – Bo'lmasa-chi, esimda... U qachonlardir orqamdan yurgan edi, ahmoqona qiliqlari bilan jonimga tegib ketgan edi.

– Qanday ahmoqliklari?

– Har xil. O'shanda unga qaragim ham kelmas, vaqtim ham yo'q edi: bir tarafdin Guskov, bir tarafdin Xlizdin shilqimlik qilib yopishib olishgandi, yana bu doktor yetishmay turuvdi. Qariyalar degin juda aqldan ozgandi: meni doktordan qizg'anishar, men bo'lsam, ulardan qanday qutulishni bilmasdim.

– Sen bu gaping bilan Semyon Pavlich ham menga oshiq bo'lgan demoqchimisani?

– Shubham yo'q, shunga o'xshash gap bo'lgan edi.

Matryona Ivanovna qanchalik ijkilab so'roqqa tutmasin, Polenka aniq-tiniq doktor bilan oralarida nimalar bo'lganini eslay olmadi, – keksa aktrisaning xotirasi pand berdi.

Doktor Osokin Propadinskda g'alati inson degan nom bilan dovruq qozongan edi. Hamma doktor Osokinni aqlli odam, juda aqlli, degan fikrda edi, u birdan favqulodda jazavasi tutib, tentaklik qila boshlardi: goh bemorni urishar, goh biror oyimqizning asabiga tegib, yig'lamoqdan beri qilar, goh kutilmaganda nayrang ko'rsatar va hammaning hayratdan og'zi ochilib qolardi. Shuni ham aytish kerakki, bir vaqtlar shunday voqealar ham bo'lgandiki, dono deb dovruq qozongisi kelgan biror viloyatlik albatta biror xurmacha qiliq chiqarar va shu sabab o'laroq, ba'zan qip-qizil tentaklar ham to o'la-o'lgunlariga qadar aqlli odam, degan sharaf bilan umr kechirib o'tardilar. Doktor Osokinning ajab qiliqlari ikki turga bo'linar edi: doimiy va tasodifiy g'alatiliklar. Birinchisi, doktor gigiyena maqsadida bo'lsa kerak, doimo faqat yangi xashak ustida yotar, faqat qaynatilgan suv ichar, faqat allaqanday o'zgacha usulda o'zi uchun maxsus pishiriladigan sabzi pirogini tanovul qilar, qishda yozgi furajka, yozda esa qishki telpak kiyib yurardi, bo'yinbog'larni tan olmas, o'ziga birgina ishni ravo ko'rardi va u bundan rohatlanardi – hovliga chiqib, taxlangan sarjnlarni sochib tashlardi.

– Shunday qilsam, musiqa eshitganday bo'laman, – deya izohlardi doktor bu qilig'ini o'zicha.

Garchand doktor Osokin, imkon qadar, hamisha shaxsiy amaliyotdan qochsa-da, shaharda katta e'tibor qozongan edi, u bemorlariga o'ta qo'pol muomala qilar, ayni shu harakati so'ngida aks samara bergandi; eng asabiy va noziktabiat insonlar ham doktor Osokindan boshqasiga ishonmay qo'ygandi. Ular sabr-toqat bilan doktorning o'taketgan qo'polliklarini ko'tarar, yig'lar, bunday vaziyatlarda zarur spirtni hidlar, shu qo'rsiga aslo ko'rinmaganim bo'lsin, deya qasam ichar va favqulodda biror hodisa yuz berguday bo'lsa, birinchi eslariga doktor Osokin kelar va uni chaqirtirar edilar. Hikoya qilishlaricha, doktorning chin muxlisi, uning g'alati fe'l-atvoridan hayratlanib, qoyil bo'lib yurgan bemorini naq uyidan quvib chiqaradi, m-me Berestechkinani esa birgina ich kiyimda qabul qiladi.



Doktor Propadinskda o'ttiz yildan ortiq va hamisha mutlaq yolg'iz yashab kelmoqda edi. Doktor xonadoni tartibsizliklar va yashash uchun hech qanday qulayliklar yo'qligiga nodir misol sifatida tillarda doston edi va bu o'zi haqda afsona-rivoyatlar to'qilishiga asos bo'lib xizmat qilardi. Gap shundaki, doktor bu yerda o'ttiz yildan ziyod yashab kelayotgani boisdir, aftidan, shahardan ko'chib ketishni umuman xayoliga keltirmas edi. Doktorning bittagina xizmatkori bor edi: u ham bo'lsa, o'ta ahmoq, esi past qarol Avel bo'lib, doktor uni dunyoda birinchi inson deb atash uchun ham ushlab turardi va yana faqatgina sabzi pirogidan boshqa taom pishirishning uddasidan chiqmaydigan qari oshpaz ayol Taisya bor edi. Doktor ot boqmas, chunki kishiga ulov bo'lmish ana shu ot tufayli, shahar bo'ylab piyoda yurishday ajoyib rohatfarog'atdan o'zini mahrum qilishni istamas edi.

– Men piyoda yurishni go'zal manzara asarni tomosha qilishga o'xshataman, – deya izohlardi doktor unga ot boqishni maslahat qiluvchilarga. – Meni afv eting-u, otda yurish – bu o'taketgan telbalik va majburan to'g'ri o'z ajali tomon eltuvchi oson yo'ldir, men esam buni istamayman va yuz yoshgacha yashashimga umid qilaman.

Doktor Propadinsk ahli jamoati bilan uncha chiqishmas va umuman, hech kimnikiga bormas edi; unikiga ham mehmonlar kamdan kam kelar va Matryona Ivanovnaning tashrif buyurib turishi esa baxtli istisno edi. Ular qanday tanish-bilish bo'lib qolganlar va bunga nima sabab bo'lgan, u yog'ini aytish mushkul edi, yana bir narsani ham qayd etish joizki, doktor xotinlarning ashaddiy dushmani edi. Biroq Matryona Ivanovna deyarli har hafta doktornikiga borib turar va hattoki o'zining son-sanoqsiz tanishlarini doktor Osokin mensiz zerikib qoladi. deya ishontirar edi.

– Siz unikida nima qilasiz, Matryona Ivanovna? – qo'ymay so'rab-surishtirardi go'l xotinlar.

– Nima qilardim? Choy ichaman... Mabodo deylik, oradan ikki hafta o'tib ketdi, har safar: «Nima bo'ldi, Matryona, men seni o'lib qoldingmi, deb o'ylabman», deydi. Men ham uni pirog bilan siylab o'tirmayman-ku. Baribir aqlli odam bilan gurunglashish yaxshi-da,

xuddi aqling bir sarjinga o‘sganday sezasan o‘zingni. Ba’zan ikki soatlarcha suhbatlashamiz.

– Azizam Matryona Ivanovna, aytishlaricha, doktor yigirma yildan beri allaqanday ilmiy ish yozayotgan emish, to‘g‘rimi?

– Aldab nima qilaman, men ilmiy ish haqida hech nimani bilmayman. Kitoblarni so‘rasangiz, chindan ham juda ko‘p, asosan o‘zimizning tibbiyot sohamizga doir. Endi, har xil asboblar ham bor, bankalar, shisha idishlar... Ularni nima qiladi – xudo biladi. Shunchaki o‘zini aqlli odam sifatida ko‘rsatadi-da... Ba’zan shunaqasi ham bo‘ladi, kasallik bor-ku, faqat otini unutdim, lotinchasi nima edi-ya.

Butun Propadinsk doktor Osokinning favqulodda allaqanday ilmiy ish ustida ishlayotganiga amin edi, chunki kabinetida chiroq tun qoq yarmidan o‘tib ketsa-da, o‘chmas edi. Biroq doktorning nima bilan shug‘ullanishi – sir edi, garchand bu haqda yaxshimi yomonmi, har xil taxminlar yurardi: ayrimlar doktor «falsafiy asar» yozyapti, desa, boshqa birovlar viviseksiya<sup>1</sup> yoki spiritizm<sup>2</sup> bilan shug‘ullanadi, yana ba’zilari esa – doktor hech qanday ish qilmaydi, nari borsa, feldfelbelchasiga surunkali ichadi, derdilar. Doktorning nima ishlar bilan shug‘ullanishiga yagona shohid – Osokinning itlari edi, lekin ular xuddi uning xizmatkori singari birovga ko‘rganlarini gapirib bera olmasdilar.

– To‘ramizning nima ishi bor deysizmi? Odati, tong yorishguncha u burchakdan-bu burchakka borib kelaveradi, ishi shu, – ters javob qaytarardi Avel qiziquvchilarning so‘roqlariga. – Oldiniga kitobini o‘qiydi, so‘ng mayoqqa o‘xshab borib kelaveradi-borib kelaveradi... Keyin nima bo‘lishini o‘ylasang qo‘rqib ketasan; uning kalasida nima bor, xudo biladi.

Doktor Osokin itlar bilan muloqotini insonlar muloqotidan afzal ko‘rardi va hordiq chiqarmoqchi yoki ko‘nglini chog‘ qilmoqchi bo‘lgan kezlari bo‘sh vaqtini itlari bilan birga o‘tkazardi. U itlariga o‘z qo‘llari bilan yemak berishni yaxshi ko‘rardi, har

<sup>1</sup> Tink hayvonni yorib tekshirish.

<sup>2</sup> O‘lganlar ruhi narigi dunyoda yashaydi, ular bilan gaplashish mumkinligiga ishonuvchi mistik oqim.

kuni ular bilan shaharni ikki soatlarcha sayr qilardi. Shaharda doktor itlarining g'ayritabiiy aqliga misol bo'lmish haqiqiy mo'jiza haqida mishmishlar yurardi, ular hattoki boshqa itlar bilan o'ynamasmish, aniq, o'zlarining ahmoqona it zotiga mansub ekanligidan uyaladi.

Aslida ish, aytganlariday, unchalik sirli emas, jo'ngina edi. Doktor Osokin haqiqatan ilm bilan mashg'ul edi, juda tirishqoqlik ilm-fan bilan shug'ullanardi, o'z mashg'ulotlariga qanchalik uzoq ko'milsa, shunchalik unga shavq bilan berilib ketardi. Olislab ketgan yoshligida ko'ngli tusagan ishlarni qilgan ham: rohat-farog'atdan mahrum bo'lmagan, klublarda bo'lgan, havaskorlik spektakllarida ishtirok etgan, barno-barno ayollarning ko'nglini ovlagan ham, keyin birdaniga hammasini tashlab yuboradi va uyida o'tirib qoladi. Sharoblar, qartalar, g'iybatlar atrofida kechadigan viloyat hayoti chindan ham doktorni qiziqtirmasdi va u bajonidil ana shu turmushni «ilm-fanning tengsiz bebaho noni»ga almashgan edi. Doktor Osokin ayni kuch-g'ayratga to'lgan chog'ida bir qiziqarli mavzuga kirishib ketdi va uni favqulodda qunt, matonat bilan ishlab chiqdi.

Doktorning hayoti besamar ketmadi va u faxr-iftixor bilan ish stoli va qo'lyozmalariga qaradi. Aslini olganda, boshqalar viloyat hayotining mayda-chuydalariga o'ralashib, umrlarini behuda sovurib yurganida, u, doktor Osokin buyuk g'oyalar, nazariyalar, gipotezalar va ulug' tuyg'ular olamida g'arq edi. Uning o'z g'oyasi bor edi va doktor buni insoniyat bilimlarining umum xazinasiga qo'shilishini, ishtirok etishini istar edi. Biroq bor ilhomini namoyon etgan fath etguvchi, fotih olim qiyofasida uning iftixori va shoirona hayratlari ko'pincha apatiya – tushkunlik, shubhalar va hattoki umidsizlik daqiqalari bilan almashib turardi. Bu haqiqatan to'lg'oq azobi edi, doktor faqat bir narsadan cho'chir edi: axir o'lik bola tuqqan onalar qanchalar qattiq azob chekadilar, shu singari uning yigirma yillik sermashaqqat mehnati o'rta qiq chiqishi bilanoq kamalak ranglari aro singib ketgan sovun ko'pigi misol havoga uchib ketajak ta limotlardan biri bo'lib qolishi ham mumkin edi. Odatda unda ana shu umidsizlik ortidan yaratguvchi tafakkurgagina xos ko'tarinki ruh, ya'ni juda tetik kayfiyat paydo bo'lardiki, doktor kallasida o'z-o'zidan quvonchli bi-



rikmalar, mantiqiy umumlashmalar, kutilmaganda yakuniy fikrlar va mutlaq yangi dalillar yuzaga kela boshlardi.

Doktor Osokinning turmush tarzi va mashg'ulotlari haqida bahs ketganda, uning Matryona Ivanovna munosabati anglashilib qoldi: axir tinimsiz faoliyatda bo'lgan olimning ongi dam olishi ham kerak-ku, ilm-fan cho'qqilaridan tushib, kichkina odamchalarning haqiqiy tor dunyosi, mayda manfaatleri, mayda izzatlabliklari va o'zaro munosabatlarida tasavvur qilib bo'lmaydigan chalkashliklarni ko'rib, maza qilishi ham zarur-ku axir. Matryona Ivanovna mayda odamning eng yaxshi timsoli, namunasi bo'la olardi, u ayolni o'ziga xos patologik holatni o'rgangani singari o'rganib chiqdi. Ayol olimni hamisha taajjubga solardi, doktor, ko'zlarini qisganicha, unga uzoq tikilib qoldi.

– Ha, namuncha menga tikilib qolding? – derdi achchiqlanganidan Matryona Ivanovna o'zini noqulay sezib.

– Qani sen ham kimgadir ko'zingni qisib, qarab ko'rgin-chi: o'sha qaragan odaming tobora maydalashib-maydalashib boraveradi... so'ngra bir qurt-qumursqaga aylanib qoladi.

Biz ushbularni bayon etayotgan mahal doktor o'z ishining poyonini oldindan ko'rib bo'lgan edi: qachonlardan buyon intilib kelgani, nihoyat o'z mehnatini jamoat e'tiboriga havola etishi va o'z g'oyalarini yangitdan uyg'un ravishda muomalaga qo'yib yuborishi mumkin bo'lgan ardoqli va lazzatli onlar yetib kelayozgan edi. G'alaba nashidasi va tantanasi haqidagi o'y doktor nafasini siqib qo'yayozgan va endi u ishining arziyas tomonlarini tugatmasdan birdan o'lib qolsam-a, deya qo'rqa boshlagandi. Allaqanday puch tasodif yuz beradi-yu – butun umri mobaynida chekkan mehnat-u zahmatlari poyoniga yetmay qolishi mumkin ediki, bu unga o'lim bilan barobar edi.

«Mabodo aqldan ozmayapmanmi? – derdi u ba'zan es-hushini yo'qotgandek allaqanday chizmalar va matematik formulalar bilan to'ldirib bijir-bijir yozib tashlangan asosiy qo'lyozmasini varaqlarkan, o'ylanib. – Yana biror yarim yil o'tgach, bari bitadi».

Doktor shunday deya chamaladi, biroq ish butunlay boshqacha kechdi, kulfat u sira xayoliga keltirmagan tomondan keldi: falokat

doktorning naq oq sochli boshiga Matryona Ivanovnaning tilidan kelib tushdi. Ha, ana shu hech tuzalmas, tuturiqsiz xotin doktor Osokinning butun bir haftasini harom qildi, hayotini puchga chiqardi, uning miyasiga Matryona Ivanovna, albatta, mutlaqo ongsizlik bilan, beixtiyor aytib qo'ygan iborasi taqillatib uraverdi. Doktor kabinetida u yoqdan-bu yoqqa yurarkan, hadeb shu so'zlarni takrorlayverdi: «Katta qizimning xonasi!.. Katta qizimning xonasi!» Matryona Ivanovna aynan shunday dedi va ajablanarlisi shundaki, hammasi shu iborada mujassam edi: nega o'g'il emas, qiz, yana albatta kattasi?

– Axir men hayotimning butun boshli bobini ko'rib chiqdim-ku! – taajjublaniardi doktor ovozi chiqarib. – Baxtli g'oya: imkoniyatga qarab yashash. Ha, aynan shu narsa menga yetishmagan edi! Ba'zi qoidalar butunlay yangitdan yoritiladi.

Sof ilmiy o'y-mulohazalar bilan baravar fikrlar o'zga o'zanda kecha boshladi: doktor o'zi to'g'risida o'yladi va beixtiyor tevarak-atrofiga nazar sola boshladi. Yana shunisi ajablanarli ediki, doktor hammadan ham qachonlardir qari bo'ydoq bo'lib, ya'ni dunyodan toq o'taman, deb xayoliga keltirmagan ham edi, haqiqatda esa shunday bo'lib chiqdi. Hayotning o'z mantig'i bor, ammo bu g'irt bema'ni mantiq edi. Doktor qanchalik ko'p o'ylagani sayin, shunchalik miyasiga hayratomuz o'ylar kela boshladi, hammadan hayratlanarlisi shunda ediki, shu fikrlarni bari Matryona Ivanovnaning o'sha mash'um iborasi atrofida aylana boshladi.

Ana shu ko'ngil kechinmalarining oqibati o'laroq, ajab nojo'ya ish amalga oshdi.

Doktor «ajoyib tong»larning birida uyidan chiqdi va odaticha, shahar chekkasi tomon emas, balki Prolomnaya ko'chasidan shahar markaziga qarab yurdi. Kuz kirgan, har yer-har yerda shahar ko'chalari butunlay loy-balchiqqa botgan edi, biroq doktor o'tiladigan yo'llardan olg'a qadam tashlab o'tdi va yo'lida duch kelgan tanishlariga qo'lini eski telpagiga qo'yganicha diqqat bilan ta'zim qildi. U Prolomnaya ko'chasidan o'tib, loy-balchiqqa botib yotgan Chayqov bozoriga chiqdi, so'ng un do'konlari mo'l, dehqonlar aravalari va gurra kaptarlar galasi donlagan torgina Muchnaya ko'chasiga qay-

rildi. Nihoyat, doktor shahar markaziga ko'hna rastalar bilan band Sobornaya maydoniga kelib qoldi. Doktor binolar tepasiga osilgan lavhalarga ko'z yugurtirarkan, g'o'ldiradi: «Yo'q, bu yer emas...» Attorlik mollari rastalari, kolonial do'konlar<sup>1</sup>, qizil gazmollar rastalari, sarrojlilik do'konlari – bularning doktorga keragi yo'q edi.

– A-ha, mana bu yerda ekan, – doktor ovozi chiqarib dedi, Sobornaya maydoniga chiqadigan bino burchiga osilgan lavhani o'qirgan. – «M-me Raskepovaning moda va ko'ylaklari». Mana... shu yerda...

Doktor butun boshli Sobornaya maydonidan osongina o'tib olib, to'g'ri moda do'koniga yo'naldi va faqat biroz nafas rostlab olish uchun pillapoya yonida to'xtadi. So'ngra salmoqlanib, tosh zinalarini hatlab, ikkinchi qavatga chiqdi, shisha fonardan siqilib o'tdi va nihoyat do'konga kirib keldi. Doktor Osokin hech qachon bunday joylarda bo'lmagandi, u uchta oynasi maydonga qaragan uzun xonaga birma-bir nazar solib chiqdi. Devorga yaqin tayyor ko'ylaklar javoni turardi; ushbu javonlar o'rtasida ko'k rang kartonlarga liq to'la tasmalar, to'rlar va rang-barang kashtalar namunalari uchlarini chiqarib ko'rgazma qilib qo'yilgan uzunasiga loklangan yog'och raflar cho'zilib ketgandi. Alohida oynalarda, enligina peshtaxtalarda doktor vazifasi nima ekanligini bazo'r fahmlashi mumkin bo'lgan quyidagi buyumlar chiroyli qilib terib qo'yilgan edi: to'qa to'rbezaklar, tasma parchalari, kapalak nusxa bezaklar, qiyiq durrallar, sharflar, bo'yalgan patlar, turfa rangli naychasimon shisha munchoqlar, qanaqadir birinchi yasalgan shaqildoqlar va h.k. Mo'jazgina yarim doira shaklidagi ark, polga turli-tuman gazmollar o'rami uyib tashlanib, band etgan keyingi xonani birlashtirib turardi. Ana shu rangli tutun pardasi orasidan yoshgina tikuvchi qizlarning shaddodgina yuzlari qiziqqonlik bilan doktorga tikildi.

– Nima xizmat, doktor? – yoqimli ovozda so'radi m-me Raskepova arkda paydo bo'lib. – Siz huzurimga birinchi marta kelishingiz shekilli... Marhamat, o'tiring.

---

<sup>1</sup> Chor Rossiyasida mustamlaka mamlakatlardan keltirilgan qahva, choy, guruch kabi mollar sotiladigan do'konlar.

– Ha, mening sizda jiddiy ishim bor, – soʻz boshladi doktor telpagini behuda karton qogʻozlar orasiga tiqishga urinib. – Nima desamkin, menga bir yosh qizga zarur boʻladigan anjomlar kerak, hammasi... Oti nimaydi, kechirasiz, shunday soʻz bor-ku...

– Sep.

– Ha, ha, aynan sep, – yengil tortib dedi doktor va qoʻllarini oq sochlariga olib borib, taradi. – Diqqat qiling, sep yoshgina xonimga kerak.

M-me Raskepova iltifot bilan kuldi:

– Sep keksa ayollarga qilinmaydi-ku.

Qoʻshni xonada yosh tikuvchilar kalaka qilganday kuldilar va hattoki maneken oʻrnida xona oʻrtasida turgan rangpar, ozgʻin qiz ham iljayib qoʻydi; tikuvchilarning onaboshi tikuvchisi, koʻzlari jahldor, sargʻish ayol kula olmadi, chunki ogʻzi ninatoʻgʻnagʻichlarga toʻla edi, u manekenga koʻylakni kiydirib koʻrayotganida shu ninalar qadash uchun kerak boʻlardi.

– Doktor, jiyaningiznimi yoki kambagʻal qarindosh qizni turmushga beryapsizmi deyman? – soʻz qistirdi m-me Raskepova.

– Y-yoʻq... unday emas, – dedi xijolat tortib doktor va hattoki telpagi bilan bir nechta karton qogʻozni tushirib yubordi. – Bir yoshgina xonim bor, menga juda yaqin...

M-me Raskepovaning yuzi jiddiy tortdi, pistaday kichkina lablarini qattiq yumdi-da, doktorga qisqacha qilib, «yoshgina xonimga» nimalar kerakligini aytdi. Xonimning boʻyi masalasida qiyinchilik yuzaga keldi, biroq doktor uning oʻlchamini keltirishni vaʻda qildi.

– Oʻzingiz bir tasavvur qiling-a, madame, bu xonimning qatʻiyan hech vaqosi yoʻq, – deya izoh berdi doktor oqish qoshlarini koʻtarib.

– Yana, ish boʻlmasa, oʻsha yosh xonim taqadigan qoʻlqopi raqamini ham opkeling, keyin nechanchi poyabzal kiyishiniyam, – quruqqina qilib tushuntirdi m-me Raskepova tundlik bilan jiddiy ohangda. – Bizning vazifamiz har qanday buyurtmani oʻz vaqtida va vijdonan bajarish.

Doktor m-me Raskepova oxirgi jumlaning qanday taʻkidlaganini umuman payqamadi; u toʻq rang sochlari silliq taralgan toʻlagina sipo xonimga ishonuvchan nigoh bilan jilmayib qaradi, mana shu

do'kon, tasmalar, yerda sochilib yotgan matolar, sho'x-shaddod qizlarning kulib turgan yuzlari kabi bu ayol ham unga yoqib qolgan edi. Bularning bari uning uchun yangilik edi va shuningdek, aynan uning talablariga javob berardi: o'ziga kerakli hamma-hamma narsa shu yerda hozir edi. M-me Raskepova doktor qachon ketar ekan, deya sabr bilan kutdi, u esa do'konning butun anjom-u jihozlarini bir boshdan sinchiklab ko'rishda davom etdi.

– Axir bu juda qiziq, juda... – g'o'ldiradi u.

– Nima?

– Ha... Siz, madame, ehtimol jonivorlarning sevgi faslida ranglarini o'zgartirishi, ya'ni o'z muhitidan ajratib bo'lmaydigan tusi haqida, keyin qushlarning juftlashish davrida qanday go'zal patlar chiqarishi to'g'risida eshitgandirsiz? Xuddi shu narsa sizning sohangizga kiradi va hatto amaliy jihatdan ayrim yo'llanmalar uchun juda foydali manba bo'lishi mumkin. Hayvonlarning o'z muhitidan ajratib bo'lmaydigan shakli va tusi – bu umumiy ilmiy atama, garchand bu faqatgina alohida tur vakillarini muhofaza qilish ma'nosida anglashilsa-da, juftlashish davrida chiroyli patlarning hosil bo'lishi kelgusida shu turni davom ettirish maqsadlari uchun xizmat qiladi. Garchand bu holatda o'simliklar roli passiv bo'lsa-da, bu o'rinda ranglar o'zgarishi fahmlanadi: ya'ni urug'lantiruvchi gullarni changlatadigan o'sha hasharotlar e'tiborga olinadi. Faqat, bilasizmi, bir jihati bor: jonivorlar turni davom ettirish chog'i ularning nari tusini o'zgartiradi, xolos, insonlarda esa aksincha.

– Kechirasiz, doktor, mening vaqtim yo'qroq edi, – dedi ensasi qotganidan sovuqqonlik bilan gapni kesib m-me Raskepova.

– Aybdorman, yana bir savol: umid qilamanki, ishingiz yaxshi ketyapti?

– Har qalay yomon emas, shikoyatim yo'q.

– Kiyim-kechakka ayniqsa qachon talab kuchayadi, yilning qaysi fasli, kuzatganmisiz?

– Albatta, qishda, doktor... Ballar, oilaviy tadbir kechalari, teatr, umuman, biz bu vaqtda, ayniqsa katta bayramlar oldi ishga ko'milib ketamiz.



– Qiziq... Yana bu yerda maxsus inson xususiyati ko'zga tashlanadi. Ammo bu tushunarli hol, chunki inson iqlim sharoitlariga azaliy qaramlikdan ozod bo'ladi va hayotning sun'iy shaklini bunyodga keltiradi.

– Kechirasiz, doktor...

– Bo'ldi, ketyapman, ketyapman... Biz yana siz bilan biror vaqt bu haqda bafurja suhbatlashamiz.

– Menga bari o'lchamlarni jo'natishni unutmang.

– Albatta, – g'o'ldiradi doktor telpagini oq sochli boshiga bostirib kiyib.

Hali doktor ketidan eshikni yopishga ulgurmasidanoq butun do'kon kulgidan zirillab ketdi: m-me Raskepovaning o'zi ikkala qo'llarini silkinib turgan bo'liq ko'kraklariga qo'yganicha kulgandan-kulardi, hatto bosh tikuvchining o'zi ham bihilab kulayotgan maneken oldida kulgidan bukchayib qolgandi; hamma chevarlar, tikuvchilar hamda dazmol bosayotgan va turli yumushlarni bajaruvchi kichkina yugurdak qizlar ham ko'zlari yoshlanguncha kulardilar.

– Bir qarang-a: umuman hech vaqosi yo'q yoshgina xonim... – takrorlardi m-me Raskepova go'shtdor kiftlarini ko'tarib. – Bu xonimlarni bilamiz!.. Xa-xa...

M-me Raskepova bilan birga, aftidan, bari ana shu to'r, kartonlar, tasmalar, kashtalar, kapalaknusxa bezaklar kulardilar, xaridorlarga ko'rsatish uchun osilgan tayyor ko'ylaklarning bo'm-bo'sh yenglari shalpayib, qayg'uli tarzda yelka qisib turardilar.

#### IV

Butun Propadinsk doktor Osokinning ko'rsatgan hunari haqida gapirardi, chunki m-me Raskepova bu haqda hikoya qilganda mubolag'a-yu tashbehlarni tejab o'tirmadi, so'zda xasislik qilmadi va o'zicha «predmetni yoritdi». Xonimlar dahshatga tushdilar va bo'lib o'tgan voqeani aqldan ozgan doktorning qarilik telbaligiga yo'ydilar. Ko'plar shunday bo'lganligiga achindilar, ba'zilarining achchig'i keldi, qolganlar yelkalarini qisib qo'ya qoldilar yoki ma'noli qilib tomoq qirdilar.

– Axloqsizligimni pardalashim kerakdir, deb ham hisoblaman, – derdi jahllari chiqqanidan xonimlar. – Bir xil erkaklarga o‘xshab o‘ynashini ta‘minlashini boshqalar orqali qilsayam bo‘lardi-ku. Bo‘lmasa-chi, kuppa-kunduz kuni to‘g‘ri do‘konga kirib keladilar-da, deyilar: «Uning hech vaqosi yo‘q...» Ajab bo‘pti!

– Qizlarim oldida juda yomon ahvolga tushdim, – deya m-me Raskepova buyurtmachilariga uqtirardi. – Meni afv eting-u, o‘zining borib turgan sharmandagarchiligini shunday andishasizlik bilan izohlashidan yoqa ushlaysan... Qarang-a, doktor hamma ayollarni qushlar, erkaklarni esa hayvonlar deydi. U buni shunday g‘alati qilib aytadiki.

Hammaning xayolini bir xilda yagona savol band etdi: kim ekan doktorning ko‘ngliga shunchalik yaqin bo‘lgan, hech vaqosi yo‘q o‘sha sirli yoshgina xonim? E‘tiborli xonadonlarda onalar yosh qizlar huzurida doktordan gap ochilguday bo‘lsa, ko‘zlari mo‘ltiray boshlard; uning nomi yuqumli marazga o‘xshab qolgandi. Umu-man, shahar ahlining eng pokiza tuyg‘ulariga til tekkan, rasvo bo‘lgan va haqorat etilgan edi va shunda tabiiyki, hamma nigohlar doktor xonadoniga borib turadigan yagona inson Matryona Ivanov-naga qadaldi.

– Yaxshigina do‘stingiz bor ekan-da o‘ziyam, – deya hujum qildi xonimlar Matryona Ivanovnaga. – O‘zingiz o‘ylang, har bir oilada bo‘yi yetgan qizlar bor, bu yoqda esa birdan shunday sharmandalik, mojaro chiqib tursa... Yana, ustiga-ustak, ahli jamoat odob-axloqi, jamiyat fikriga tupurib, ochiq-oydin shunaqa ish qilib tursa.

– Qariganda chol yomon qaytibdi, esini yeb qo‘yibdi, – Matryona Ivanovna ularning fikriga qo‘shilar, boshini chayqardi. – Oxirgi safar uyiga borganimda men ham payqagandim buni, o‘shanda tikka turib, betiga shartta aytib tashlaganman.

– Siz o‘zingiz doktornikida o‘sha yoshgina ayolni ko‘rganmisiz?

– Hay-hay, nimalar deyapsiz, bekam, hozir haddingizdan oshdingiz; men qizman va bunday narsalarni tushunmayman, ha. Shunaqa ishdan so‘ng agarda ko‘chada Semyon Pavlichni ko‘rib qolguday bo‘lsam, men uni tanimayman, ha... Kechirasiz, uni deb, meni birorta tuzukroq xonadonga kiritishmaydi endi!

Bir so'z bilan aytganda, Matryona Ivanovna doktordan qat'iyon voz kechdi va hattoki unikiga choy ichgani borganidan ham tona boshladi.

– Atigi, balki ikki martacha borgandirman doktornikiga, yana tibbiyot masalasida, nega desangiz, axir sohamdagi muammoni men kim bilan maslahatlashaman bo'lmasa?

Biroq ba'zi xonimlarning taxminlar-u farazlaridan osonlikcha qutulib bo'lmadi.

– Bu yerda ishqiy sahnalar yashirin bo'lganligi muqarrar, – bir ovozdan takrorlardi ular. – Axir siz doktorni anchadan buyon bilasiz, Matryona Ivanovna; ehtimol ilgari shunday ishlar ham bo'lgandir...

– Ishq?.. – deydi Matryona Ivanovna o'zini tushunmaganga olib sodda-mug'ambirlik bilan; yumaloq boshini yo'q, deya chayqaydi. – Yo'q, ishqiy sarguzashtga o'xshash hech bir voqea bo'lmagan. Doktor bir to'ng'izday bo'ydoq bo'lib kun kechirayapti, bo'lgani shu. Endi u kim bilan oshiq-ma'shuq o'ynasin?.. Ilgarilari u, albatta, har yerga: Guskovlarnikiga, Yefimovlarnikiga, protopop Katonovlarnikiga, maslahatchi Golubkovlarnikiga borib turardi. Hammayoqda bo'yqizlar va xonimlar bo'lardi, lekin hech qanday ishqiy munosabatlar bo'lmagan va bo'lishi ham mumkin emasdi. Bunisini men yaxshi bilaman va boshimni kundaga qo'yib aytishim mumkin. Ko'zlaringizga darrov ishq sahnalari keladi-qoladiya, e-he, ilgari bunaqa ishlarga qattiq turilardi... Albatta, o'taketgan suyug'oyoq ayollar ham bor edi, ular erkaklar bilan erkin muomalada bo'laverardi.

Matryona Ivanovna qanchalik dadillik bilan hujumni qaytarmasin, baribir xonimlar uni shu darajaga olib kelishdiki, axiryi boobro' onaxon xastalanib qoldi: isitmasi chiqib, tumov bo'ldi. Matryona Ivanovna to'shakda naq uch kun yotdi, bu bilan Polenka Edemovaga ancha-muncha tashvish ortirdi: u Matryona Ivanovnaga to'g'ri kelgan malhamlardan surtdi, jo'ka guli damlamasini ichirdi va hattoki yonib turgan lahcha cho'g' ko'mirdan unga suv purkadi. To'rtinchi kun deganda Matryona Ivanovna to'shakdan turib, o'zi sevgan joy – deraza oldiga qo'yilgan ijarador Xlizdin hadya qilgan chuqur ko'hna kresloga o'tirdi.

– Xuddi qahva meni to‘yib ichgin deb, imlayotganga o‘xshaydi, – o‘ychan dedi Matryona Ivanovna ko‘chaga qarab. – Kunim bitganga o‘xshaydi, Polenka. Ko‘zimga anavi la‘nati doktor ko‘rinyapti...

Polenka uychasida qahva qaynatish bilan ovora bo‘larkan, Matryona Ivanovna biror tanish o‘tib qolarmikin, degan qiziqishda ko‘chaga qarab o‘tirardi. Matryona Ivanovna ko‘chadagi yo‘lkaga qararkan, birdan yuragi «shuv» etib ketdi: yo‘lkadan doktor Osokin telpagida to‘g‘ri uning uyi tomonga kelmoqda edi. Matryona Ivanovna qichqiray dedi, ammo qo‘rquvdan nafasi ichiga tushib ketdi, faqat u go‘yo oshpaz ustida pichog‘ini o‘ynatgan tovuq misol ko‘zlarini chirt yumib oldi. Biroq Matryona Ivanovna behuda xavotirga tushibdi: doktor telpagi omon-eson uning derazasidan o‘tib ketdi, so‘ngra darvoza tomonda g‘oyib bo‘ldi. Polenka doktor uychasiga kirib kelganida finjonga qahva quyayotgan edi; eski aktrisa zaif ovozdagi qichqirib yubordi, Matryona Ivanovnaning sevimli chinni finjoni polga tushib ketdi.

– Men sizni olib ketgani keldim, – muloyim dedi doktor Osokin eshik oldida to‘xtab, endi Polenka bu telba odamdan qochib ketishi uchun hech qanday imkon qolmagandi. – Boring, kiyining, ketamiz, men sizga bir narsalarni...

– Nega endi?.. Bilmayman, keyin borsam bo‘lmaydimi! – Polenka o‘zini butunlay yo‘qotib qo‘yganidan poyintar-soyintar gapira ketdi bo‘ynini yupqa durra bilan yashirarkan.

– Yo‘q, hozir, – so‘zida turib oldi doktor. – Men sizni kiyinib chiqquningizcha shu yerda, dahlizda kutib turaman.

Avvaliga Polenka qo‘rqib, vahimaga tushdi va hatto lip etib derazadan tushib qochib ketmoqchi ham bo‘ldi, lekin so‘ng o‘zini tutib oldi. Haqiqatan nega endi doktordan qo‘rqishi kerak, axir ular hozir tashqariga chiqadilar, ko‘chada esa, tabiiy, odamlar bo‘ladi, hech bo‘lmasa, qorovul, deb qichqirishi ham mumkin-ku. U shoshapisha qayta bo‘yalgan shohi ko‘ylagini, tuyaqush pati qadalgan eski shlapasini kiydi, ustiga eskib ketgan burnus – mursagini tashladi va doktor zim-ziyo dahlizda sabrsizlik bilan u yoqdan-bu yoqqa yurib turgan dahlizga chiqdi.

– Doktor, izn bersangiz, Matryona Ivanovnaning oldiga kirib, ketayotganimni aytib qo‘yay?

– Unga shunchalik hurmatingiz balandmi? Bekorchi gapni qo‘ying.

– U betob...

– O‘lib qolmaydi.

Polenkaning doktor izidan itoat bilan ergashishdan boshqa iloji qolmadi. Doktor Polenka taxmin qilganiday, shaharning u burchidagi uyiga ergashtirib jo‘nadi. Doktor nazokatli kavalier singari yonidagi xonim orqasidan yurdi va faqat chorrahaga kelganlarida qisqa qilib qachon burilishlari kerakligini aytdi. Shunday qilib, ular doktor uyiga eson-omon yetib keldilar, Osokin shunchalik iltifotli ediki, hattoki o‘zi eshikni ochib, ayolga yo‘l berdi va uning burnusini yechishiga yordam qildi.

Kiraverish qabul xonasida mehmonni stolda qaynab turgan samovar, qoq nonli savat va bir quti konfet kutib turardi. Polenkaning ko‘ngliga batamom g‘ulg‘ula tushdi va agarda qochish fursati tug‘ilsa, har ehtimolga qarshi chiqadigan eshikni eslab qoldi, doktor esa indamay unga bo‘sh choynakni ishora qildi. Polenka titrab turgan qo‘llari bilan choy damlarkan, doktor og‘ir qadamlar bilan xona bo‘ylab u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi va vaqt-vaqti bilan ayolga qarab-qarab qo‘ydi. Polenka butun vujudida doktorning og‘ir nazarini his qildi va bundan o‘zini battar noqulay his qildi. Doktor egniga eski harbiy mundir va hatto kraxmallangan ko‘ylak kiyib olgan, aftidan, shu libos badanini qisayotgan edi.

– Choyni achchiq ichasizmi yoki uncha emasmi? – nihoyat Polenka o‘rtadagi og‘ir sukunatni buzdi.

– Achchiq.

Doktor choyni olib, Polenkaga tikilib qaradi va dona-dona qilib so‘zhladi:

– Siz, muhtojlikda, juda qashshoq yashayapsiz shekilli, xonim... Ha, o‘ylaganimdek bo‘lib chiqdi va bunga zarracha shubham yo‘q...

Polenka birdan lovullab ketdi, e‘tiroz bildiray, deb og‘iz juftlagan edi hamki, doktor uni qo‘lidan ushlab tortdi va Joykaning xona-

si tomon sudradi. Doktor borib eshikni lang ochdi, mehmoniga yo‘l berdi va yaqindagina jihozlab yasatilgan xona ko‘rinishiga qandaydir bezovtalik bilan nazar solib chiqdi. Xona yangitdan pardozdan chiqarilgan edi: devorlarga pushti rang gulqog‘ozlar yopishtirilgan, oynalarga ipak darpardalar ilingan, polga Eron gilami to‘shalgan, devorning bir tomonida ipak parda ostida oppoq choyshab solingan chiroyli temir karavot turardi, ikki deraza o‘rtasiga ayollarning yozuv stoli joylashgan, burchakda kitoblar taxlangan ochiq kitob javoni, deraza yonida ayollar ish stoli qo‘yilgan edi; komod, garderoab va yuz-qo‘l yuvgich xonaning boshqa burchagini egallagan va bular kaltagina parda bilan berkitilgan edi. Har yerda qat‘iy tartibda qizlarning kundalik turmushida asqatguvchi rang-barang buyumlar tizilgan edi: pardoz-andoz vositalari, albomlar, tikuvi boshlab qo‘yilgan kashtalar, deraza tokchasida unutib qoldirilgan poxol shlapa va h.k.

– Bu yerda kimingiz turadi? – ajablandi Polenka xonaga qiziquvchanlik bilan nazar solarkan.

– Kim turadi deysizmi?.. Bu bizni katta qizimizning xonasi.

Polenka hammasini tushundi. Uning rangi dokaday oqarib ketdi va choy ichiladigan stol atrofidagi kursisiga bazo‘r yetib keldi. Doktor yana xona bo‘ylab yura boshladi, uning qanday og‘ir nafas olayotganini eshitish mumkin edi.

– Polenka, esingizdami, siz bundan o‘ttiz yillarcha muqaddam «Oq xonim»da o‘ynagandingiz? – deya so‘z boshladi doktor o‘z o‘rniga, sovib qolgan choyiga yaqin kelib o‘tirarkan.

Polenka boshini quyi egganicha indamay qoldi; uning yuziga mayda-mayda keksalik ko‘zyoshlari toma boshladi.

– Bu voqea ancha oldin, ancha ilgari bo‘lib o‘tgan edi, – so‘zida davom etdi doktor biroz tin olgach. – Men o‘shanda sizni birinchi marta ko‘rgan edim. Egingizda oddiygina oppoq ko‘ylak edi, soch-laringizga oppoq choygul taqqan edingiz... O, men bularning barini juda yaxshi eslab qolgan edim!.. Siz o‘shanda qanday ta’sirli, ajoyib kuylagan edingiz, men esam yosh yigit edim... Albatta, bularning bari qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin bo‘lganligini anglayapsizmi?

– Doktor, esimda... lekin men o'shanda shunday g'o'r, tentak edimki... Siz mening ko'nglimni olmoqchi bo'lib, iltifot qilib yuradingiz, lekin axir o'shanda butun shahar mening ijroimdan aqllarini yo'qotayozgandi. Albatta, bu voqealar bo'lib o'tganiga shuncha uzoq vaqtlar bo'ldiki, undan keyin kim o'ylabdi shunday bo'lishini... Siz menga shunga o'xshash nimalardir degan edingiz, biroq men hali juda yosh, g'o'r...

– Hm...ha. Men ham yosh edim va ikki yosh birgalikda bi-noyiday yashasak kerak, deya go'llarcha fikr qilibman. Bu men uchun xuddi yorug' kun singari ravshan edi, chunki... chunki men sizni juda sevardim. Ha, mana endi sizning ko'zlaringizga qarab shuni aytishim mumkinki, siz o'shanda meni tushunishni istamagansiz... Bizni sizning teatrda erishgan yutuqlaringiz, boshingizni aylantirgan mast qiluvchi shon-shuhrat pardasi bir-birimizdan ayirdi. Buni tushunish juda oson: men kambag'al edim, sizning atrofingizni esa boy-badavlat odamlar o'rab olgandilar. Sizning o'rningizda bo'lgan har qanday ayol xuddi sizday yo'l tutardi... Bizning tuzatib bo'lmas xatomiz shundan iboratki, biz faqat o'zimiz to'g'rimizda o'ylaganmiz... Men boshqa seva olmadim, siz bo'lsangiz, o'z yoshligingizni arzimagan sariq chaqaga al-mashtirdingiz.

Doktor yuzini qo'llari bilan berkitdi, Polenkaning nazarida, qariya unsiz yig'laganday tuyuldi.

– Doktor, meni afv eting, – shivirladi Polenka, xuddi «Olijanob otalar» sahnasidagi kabi ko'zlariga oq ro'molchasini bosib.– Kechiring, doktor.

Bu jumla doktorni o'rnidan sapchib turib ketishga majbur qildi. U Polenkaga g'alati qaradi, qo'lini siltadi va ingrab yubordi – uning ko'zlari to'la yosh edi.

– Biz mana shu yerda yashashi kerak bo'lgandan uzr so'rashimiz kerak, – dedi bo'g'iq ovozda doktor «katta qizining xonasi»ni ko'rsatib. – Biz o'z bolalarimizni o'ldirdik... Bu yuvib bo'lmaydigan dahshatli gunohdir. Menga ana shu olrang bolalar yuzlari tinchlik bermayapti... ular ko'zlarim oldida tirikday turibdi... O, o'ylasam, aqldan ozaman!..

Doktor ho'ngrab yig'lab yubordi va deraza tomonga teskari o'girildi. Polenka yig'lamadi, biroq vaqt-vaqt bilan xuddi shikoyat qilganday shing'illab turgan, o'chib qolayozgan samovarga ma'nosiz boqdi; u o'zini ana shu dahshatli sahna ostida ezilib, yanchilib jon berayotganday his etdi.

Kech kirgan, qorong'i tushgandi, shunda Polenkaning uyiga qaytishi kerakligi esiga tushdi. Doktor uni kuzatib qo'ymoqchi bo'lib otlandi, u shunchalik xushmuomala ediki, hatto Polenkaga qo'lini uzatdi. Ular butun yo'l bo'yi jim ketdilar, faqat doktor Matryona Ivanovnaning uyiga yaqin qolganda dedi:

– Siz bugungi mojaroga unchalik e'tiboringizni qaratmaysiz, deb umid qilaman... Hayotga falsafiy nuqtayi nazardan qarash kerak. Biz hammamiz tabiatning ko'r qonunlari qo'lida faqatgina material hisoblanamiz, xolos.

Polenka hech nima deb javob qaytarmadi, doktorning qo'lini indamay qisib qo'ydi-da, indamay xonasiga kirib, g'oyib bo'ldi. Doktor biroz vaqt yo'lkada turdi, so'ng dedi:

– U haliyam o'sha-o'sha befarosat tentak.

Doktor avvaliga ixtiyorsiz ravishda uyga yo'l oldi, biroq uyiga ko'zi tushgach, uni qandaydir kuch itardi: bu yerda nima qiladi? Nimadir ko'kragidan bosib turganday bo'ldi, shunda u xonasida bo'g'ilib, nafasi qaytganday bo'ldi. Unga havo, imkon qadar ko'proq havo kerak edi. Doktor keyinchalik bu kechani qanday o'tkazganini yaxshi eslayolmadi; u Propadinskning loy-balchiq ko'chalarida tong otgunga qadar yurib vaqtini o'tkazdi va juda tushkun, xarob ahvolda: balchiqqa botib, tinka-madori qurib, holdan toyib, telpaksiz uyiga qaytdi. Hatto Avel xo'jasini bunaqa umidsiz, tushkun'kepatada ko'rib qo'rqib ketdi.

Ana shu mash'um tunda doktor yana bir karra o'z hayotini boshdan kechirdi. U azob-iztirob bilan o'zi Propadinskka yosh vrach bo'lib kelgan uzoq o'tmishini aniq-ravshan ko'rdi. O'shanda yaqindagina shaharda birinchi teatr tashkil bo'lgan, truppa xarajatlarini oltin koni xo'jayini Guskov o'z hisobidan ko'targan edi. Har qanday yangilik kabi teatr ham ommani o'ziga jalb qilgan, ana shu jamoat uzra malla sochli, ajib ko'zlari chaqnoq Polenka Edemova davr-u



davron surardi. Polenka xavfli yo'ldan ketayotgan edi, chunki tevaragini o'ragan bari tuturiqsiz sayoqlar-u va haddini bilmaydigan boyvachchalarga o'ta ko'ngilchanlik bilan munosabatda bo'lardi. Qizda muvaffaqiyati garovi ehtimoli hisoblanmish o'sha soddalik va yoshlikning g'o'rliги, beg'uborligi bor edi. Polenka izidan yigitlarning ilakishib yurishi, unga iltifot qilib, ko'nglini ovlashi yoqardi va qiz xushtorlarining bariga, jumladan, doktorga ham o'z tabassumini aya-may ulashaverardi.

Doktor endi xotirlasa, yomon teatr, didsizlarcha bo'yalgan yomon parda, yomon orkestr va yuragini hovuchlab sezdirmay o'tib boradigan joy isqirt sahna ekan. Polenkaning pardoxonasi sahnaning o'ng tomonida bo'lib, allaqanday yog'och tagsupadan uch pog'onacha chiqib borish kerak edi. Bu yerda hamisha yangi bo'yoq, yonib bitgan sham, yosh daraxt va yana faqatgina viloyat teatrlari kulislari ortidan anqiydigan hid anqib turardi. Doktor pardoxonaga kirib kelgan mahal Polenka bu yerda yolg'iz bo'lib, sahnaga chiqishga shay bo'lib turardi.

– Mazangiz yo'qmi? – so'radi Polenka doktorga qarab.

– Ha, men siz bilan gaplashib olishim kerak, – deb gap boshladi doktor jiddiy ohangda. – Besh daqiqa bo'sh vaqtingiz bormi?

– Gapiravering, faqat tezroq... hozir parda ochiladi.

Doktor, so'zlarni shoshilib tanlab, odatda har bir san'at dargohida bo'lgani kabi teatr ham mashhur kishilarni o'rab turgan xavf-xatar haqida, ana shu shon-shuhrat, muvaffaqiyatlarga qayg'uli va ayanchli kelajagi evaziga erishilajagi haqidagi muqaddima so'zlarini irod et-gach, u aktrisaga o'z qo'li va yuragini taklif etdi.

Polenka, aniq, qo'rqdi va rangi oqarib ketdi. U bir necha lahza doktorga jim qarab turdi-da, so'ng chiroyli mallasoch boshini orqaga tashlaganicha dedi:

– Doktor, mening sira vaqtim yo'q, parda...

– Bu javob emas.

– Men sizni ranjitganimdan afsusdaman, doktor, biroq men... men... xullas, siz meni tanlab, yanglishdingiz.

Alam va umidsizlikdan, bunday ahmoqona vaziyatga tushgan ak-sariyat boshqa yigitlar kabi doktor ham butun vujudi bilan ilm-fanga

sho'ng'ib ketdi. U tanish-bilishchilikni yig'ishtirdi, ijtimoiy hayotdan voz kechdi va o'zini uyining to'rt devori orasiga mahkum etdi, uydan faqat ishlayotgani tibbiyot ixtisosligi ishlariga taalluqli hollardagina chiqdi.

Doktor Polenkadan voz kecharkan, oilaviy hayotdan butunlay kechaman, deb mutlaqo xayoliga keltirmagan edi va vaqti kelib, pok qalbli biror mehribon qizga uylanish va turmush qurish uchun faqat Polenkaga bo'lgan tuyg'ulari so'nishini kutdi. Yillar ketidan yillar o'tdi, doktorning qalbi esa ayollarga nisbatan alam-nafratga to'lib toshdi. Ayollarda biror-bir nuqson topguday bo'lsa, u terisiga sig'may quvonib ketadigan bo'ldi. Albatta, erkaklarga solishtirganda, ayol eng past jonzot va bu jins vakili bo'lmish ayol hech qachon bolalik holatidan, ko'zi ochilmagan ushbu zulmatdan chiqqa olmaydi. Erkak odamning sevgilisiga bo'lgan muhabbati aynan bolalarga bo'lgani kabi, xuddi shunday erkaklar o'rtasidagi munosabatlarda haqorat hisoblanmish alamli shafqat hissi anglashiladi. Ayollardagi ana shu tentakona bolalik to'g'ri keksalikka o'tadi, o'tganda ham samarasiz afsus-nadomatlar, mizantropiya – odamovilik va riyokorlik bilan birga o'tadi. Tentak ayollar ana shu besh-olti yillik bolalik baxtini qolgan butun tussiz umriga almashadilar. Erkak kishi esa hali hayot shavqiga to'la, ayni kuch-quvvatga to'lgan paytda bo'ladi va ayol kishi bunday hayotga ko'nikkanligi sabab yashashda davom etayotganida, o'zining yarim ongsiz mavjudligi holatida joni uzilayotgan mahal erkak olg'a intilib boraveradi.

Bir so'z bilan aytganda, doktor mizantropiyaga tushib qolgan, ya'ni odam isini suymaydigan bo'lib qolgandi va u dunyodagi bari ayollarga qarshi nojo'ya xatti-harakatlari bilan o'zini ovutardi.

## V

Polenka doktornikidan qaytgach, qattiq tobi qochib qoldi. Endi unga qarash gali Matryona Ivanovnaga keldi. Yana o'rtada sirli malhamlar va jo'ka guli paydo bo'ldi. Polenka ba'zan bildirmaygina yig'lardi, lekin Matryona Ivanovna uning yig'lagan ko'zlarini ko'rib, g'azablanardi.

– Shoshmay tur hali, o‘sha yaramasning dodini bermasammi hali, – do‘q qilardi Matryona Ivanovna doktorning otini atamay.

– Yo‘q, u juda yaxshi odam, – deya Polenka doktorni himoya qilardi.

– Yaxshi, judayam yaxshi!

Matryona Ivanovna, Polenka unga hammasini, unga nima bo‘lganini aytib berishini kutishga to‘la haqli edi, biroq Polenka o‘jarlik bilan sukut saqlardi va faqatgina og‘ir xo‘rsinardi, xolos. Albatta, Matryona Ivanovnaning o‘rnida bo‘lgan har qanday odam Polenkadan nima bo‘ldi, qani, ayt, deb to‘g‘ri so‘rayverardi, biroq Matryona Ivanovna, avvalo, mag‘rur ayol edi va begona odamning ko‘ngliga suqilib kirishni umuman xohlamasdi. Bundan tashqari, Matryona Ivanovnaga ularning o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan voqeaning yarmi butunlay ravshan edi: hammasiga aybdor doktor Osokin va u o‘sha nusxaning qanday ta‘zirini berishni biladi.

Polenka picha tuzalib, birovning yordamisiz yura oladigan bo‘lgach, Matryona Ivanovna mo‘ljallagan birinchi navbatdagi ishini amalga oshirdi, oldindan ana shu inson zotiga mansub gazanda bilan hisoblashish lazzati ta‘mini tuyib, doktornikiga jo‘nadi. Matryona Ivanovna o‘y-xayollari bilan band, doktorning uyiga qanday kelib qolganini bilmay qoldi. Eshik qulf emas ekan, Matryona Ivanovna, doimgiday, doktor qabul xonasiga bemalol kirib keldi. Dastlab uni hayratda qoldirgan narsa anchadan buyon uyning isitilmaganligi va bo‘m-bo‘shligi bo‘ldi.

– Hoy, Semyon Pavlich, qayerdasan? – chaqirdi Matryona Ivanovna tevaragiga alanglab.

– Bu yerdaman, – kabinetdan bo‘g‘iq ovoz eshitildi.

Doktor egnida eski harbiy shinel va boshida yozgi furajka, kleyonka qoplangan ko‘hna divanda yotardi. Matryona Ivanovna uni xasta holatda ko‘rib joyida qotib qoldi: bu boshqa birov, sap-sariq, so‘lg‘in, ko‘zlari osti qovoqlari qorayib ketgan, nigohlari bezovta begona odam edi.

– Nimasi bu, qari xo‘roz, suvaraklarni muzlatib qirmoqchimi-san? – deya tashlanib qoldi Matryona Ivanovna.

Doktor divandan turib ketdi va negadir cho'chib ikkala qo'llarini silkitdi.

– Jim, jim... sh-sh-sh! – shivirladi u xuddi g'ozlarni qo'riqlayotganday. – U haliyam uxlayapti...

– Senikida kimning uxlayotganligi menga judayam qiziq-da...bi-ror suyug'oyoq ayoldir-da.

– Xudo haqqi, jim, – yolvordi doktor. – U kech turadi.

Doktor oyoq uchida qabul xonasiga chiqdi, ardoqli xona eshigi-ga xavotirlanib qaradi va Matryona Ivanovnani imo qilib chaqirdi. U eshikni sal qiya ochdi-da, ko'zlarini bilan xonani ko'rsatdi. Karavot-da Joyka yotar va momiq dumini gunohkorona likillatardi. Matryona Ivanovna kimga qarashini ham bilmay qoldi: xonagami, itgami yoki doktorgami.

– Bu – katta qizimning xonasi, – dedi doktor jiddiy tusda.

– Bo'ldi-da endi, Semyon Pavlich, ko'ngli toza, yaxshi odamlar-ni boshini qotirmasang-chi...

– Agar ishonmasang, borib, Polenkadan so'ra: bu bizning qizi-miz.

Matryona Ivanovna birdan qo'rqib ketdi, doktor so'zlaridagi oso-yishta ohangdan qo'rqib ketdi. Matryona Ivanovnaning miyasiga yalt etib dahshatli fikr kelib qoldi, shunda u, o'zini-o'zi tinchlantirish uchun jo'rttaga qattiq ovozdagi so'radi:

– Shundaymi... Qani Avel, xizmatkoring?

– Avelmi?... Ketib qoldi... U pullarimni o'g'irlab, ketib qoldi.

– To'xtab tur, menga qara, Xudo haqqi... sabzi pirogini yeyaverib aqling kirali-chiqali bo'lib qolibdi. Agar Avel pullaringni o'g'irlab ketgan bo'lsa, nega politsiyaga aytmading?

– Politsiyaga borishning nima keragi bor? Men kecha divanda yotuvdim, Avel kabinetimga kirdi-da, stoldan pullarni olib, ketdi... Men undan ko'zimni uzmay yotaverdim. U ishini ustomonlik bilan puxta qildi, meni uxlab qolgan deb o'yladi shekilli. Menimcha, unga pullar juda zarur bo'lsa kerak-da.

– Yo'q, otaginam, sen aqldan ozibsan... mutlaqo esdan ayrilibsan. Qancha edi o'sha pul?

– Ikki ming edi.

– Oh, xudoyim, xudoyim-ey!

Doktor, aftidan, hech nimani tushunishni istamadi va faqat bir necha marta boshini ushlab-ushlab ko'rdi, kallasining o'z joyida turgan-turmaganligidan aniq shubhalandi.

– Estdan og'ibdi, butunlay esidan ayrilibdi, – deya o'yladi Matryona Ivanovna va endi nima qilarini bilmay tamomila sarosimaga tushib qoldi.

– Kabinetga kiraylik, men senga bir nima ko'rsataman, – dedi doktor.

Doktor yozuv stolidagi qog'ozlarni uzoq titkiladi va nihoyat, katta qalin daftarni qidirib topdi. Matryona Ivanovna undan ko'zini uzmay kuzatib turdi. Ayol doktorning aqlidan ozganligiga endi shubhalanmay qo'ydi. Nega bu odam aqlidan ozgan ekan-a?

– Mana bunga, – dedi doktor qo'llarini daftarga urib. – Yigirma yillik mehnatim sarflangan... ha. Aytishim mumkinki, qat'iy matematik yo'l bilan kuch va materiyaning yo'q qilib bo'lmaslik haqiqatini isbot qildim. Matryona, faqat birgina aniq fan bor, u ham bo'lsa, bu matematika, mana, men undan foydalandim.

– Qani, qani, bu yerda nima yozilgan, o'qi-chi.

– «Hayotni tugatib bo'lmaslik qonuni», – doktor qo'lyozmada yozilgan sarlavhani o'qidi. – Sen biror narsani tushunasanmi o'zi?

– Tushunaman, tushunaman... o'qiyver.

– Men senga faqat oxirini o'qib beraman. Yaqindagina tugata oldim buni... «Kuch va materiyani yo'q qilib bo'lmaslik ilmiy belgilab qo'yilgan haqiqat, – o'qiy boshladi doktor, – garchand bu nizom dalillari tashqi olamning o'ta qo'pol ko'rinishlar doirasida aylansa-da, bu nufuzdan to'la foydalanadi. Menga, birinchidan, oliy matematika yordamida, ana shu qo'pol empirik haqiqatni qat'iy ilmiy yo'l bilan isbot qilish baxti nasib etdi. Olingan formula keng miqyosda shunday ifodalanadi: koinotda kuch va materiyaning aylanuvchan va o'zaro uyg'un birikmalarini haqiqiy zaxirasi plus organik hayotning butun zaxirasi, dunyo yaralishi ibtidosi va ayrim holatlarning cheksiz bepoyonlikdagi rang-barang amalgamasidan<sup>1</sup> tuzilgan kuch

<sup>1</sup> *Amalgama* – simobning biror metall bilan qotishmasi.

va materiyasining butun zaxirasiga tenglashadi. Kuch va materiya zaxirasi xuddi o'shanday qolaveradi, biroq ana shu asrlar bo'yi ko'z ilg'amas bepoyonlikda uzayib ketgan «plus o'sib borayotgan organik hayot» qismat kuchi ila kuch va materiyaning o'zgarmas doira bo'ylab tilsimli doirasini yorib o'tadi; almashib borayotgan o'zaro uyg'un birikmalar, ya'ni kombinatsiyalar va differensiyalanishga qodirligi olg'a intilib almashganida emas, balki taraqqiyot aynan ana shu o'sib borayotgan organik hayot chegaralarida hisoblanadi. Ushbu plus o'zining poyonsiz takrorlanishida, nihoyat, ko'paytiruv belgisiga aylanadi. Shu tariqa, tashqi olam ortidan abadiy kuch va materiyaning tarkibiy va buzuvchi ta'siri kuch va materiyaning yo'q bo'luvchanligi chegaralarida ortidan uzoqqa siljiydigan faoliyatning eng murakkab va ko'z ilg'amas katta ichki olamining ko'rinishlari o'sib boraveradi».

Doktor qo'lyozmani stolga qo'yarkan, og'ir nafasini rostladi. Matryona Ivanovna xijolat tortganidan burchaklarga qaradi va qo'llari bilan ko'ylagi burmalarini o'ynay boshladi.

– Ha, Matryona, qaysi birimiz jinni ekanmiz? – so'radi doktor papirosini tutatib... – O'qiyveraymi?

– O'qi, Semyon Pavlich.

– Yaxshi... Faqat senga foydasi kamroq bo'ladi.

– Mayli, hali urishishga ulguramiz.

Doktor papirosini chekib bo'ldi va yo'talib oldi-da, qo'lyozmasini o'qishda davom etdi. «Shuhratning achishtiruvchi nafsi»-chi, ibodatning ruhlantiruvchi harorati, birinchi muhabbatning sof zavqi, izzat-nafs tahqirlanishi azoblari, qoniqarsiz hayotning umrbod iztirobga to'la tashnaligi, inson tabiatining qonuniy talablarini majburan bo'g'ish, bu nima degani? Inson qayg'u-alamlari, azob-uqubatlarning ana shu cheksiz-chegarasiz okeanida xuddi ummonda cho'kib ketayotgan inson kabi mittigina insoniy quvonch yo'q bo'lib ketsa, o'sha matematik teng ta'sir etuvchi kuchni qayerdan izlaymiz? Nahotki eng aniq va buyuk matematik formula g'arib-kambag'al kishini to'g'ridan to'g'ri azob-uqubatlardan, jamiyatni ma'naviy nifoq-ixtiloflardan qutqara olarmikin?»

– Biroq shu yerda, – deya gap boshladi doktor qo‘lyozmani bir tomonga olib qo‘yib, – yangi fikr paydo bo‘ldi. Hozirgacha gap bor narsalar haqidagi faktlar va borliq ko‘rinishlari haqida ketdi, voqelik, mavjudot nazarda tutildi, lekin qator hayotiy voqea-hodisalar ham borki, unda bu hayot yashirin va jonsiz, karaxt shaklga kirgan bo‘ladi. Aksariyat hollarda aynan shu yerda to‘p bo‘lgan hayot uchiqunlari gurullab yonish uchun, yangi mavjudotning serhasham shakli quloch yoyishi uchun pichagina arzimagan narsalar, qandaydir tasodiflar yetishmaydi, – bu g‘afatda yotgan kuchlarni, imkoniyatga qarab yashash deb bo‘ladimi? Vaholanki bularni hisobga olmasdan bo‘lmaydi, chunki ularga ulkan kuch-quvvat sarflangan, ehtimol shularda mavjud bo‘lishning yuksak ko‘rinishlari namoyon bo‘lishi mumkindir.

Matryona Ivanovna boshini chayqadi va o‘zini doktorning gaplarini tushunayotganday tutdi.

– Mana, masalan, mening oilam bor, imkonimga ko‘ra qizim... Men uni, ha, uni, qizimni ko‘rib turibman; u shu yerga keladi, men bilan gaplashadi... Men nega ilgari shu narsani payqamaganimga taajjublanyapman: axir qizim hammavaqt men bilan yashagan, mening ichimda... Menga qanday yaxshi, qanday oson... Insonga ato etilgan, aynan takroriy hayotda yashash, ikkinchi marotaba yosh bo‘lish va ayni sen o‘lmaysan, faqat yangi, yaxshiroq tarzda yashay boshlaganingni his qilish qanday oliy baxt.

Doktoring alahlab aytgan gaplarini tinglarkan, Matryona Ivanovna yig‘lab yubordi.

Doktor Osokin asta-sekinlik bilan aqldan ozish boshlangan edi, bu xastalik *psixiatriyada idee fixe*<sup>1</sup> nomi bilan mashhur. Albatta, qariya endi xususiy amaliyot bilan shug‘ullanolmasdi, yana ustiga-ustak yashash uchun hech nimasi yo‘q edi. Matryona Ivanovna butun Rossiyaning doktoring qarindoshlarini qidirdi va qidiruv ishini uni o‘z uyida olib qolish bilan tamom qildi.

---

<sup>1</sup> G‘oyaga yopishib qolish (fr.).

– Endi men bir yo‘la ikkalasiga qarashimga to‘g‘ri keladi, – dedi Matryona Ivanovna. – Har holda uyda erkak kishining bo‘lgani yaxshi...

Quyosh chiqib turgan ochiq kunlari ko‘pincha ko‘chada tel-pak kiyib olgan va yo‘lka bo‘ylab o‘ychan va ovoz chiqarib o‘zi bilan o‘zi gaplashib ketayotgan telba doktorni uchratish mumkin edi.

*Ma’suma AHMEDOVA tarjimasi*





## MUNDARIJA

|   |     |
|---|-----|
| Privalov millionlari ( <i>Farhod TOLIPOV tarjimasi</i> ).....               | 3   |
| Doktor Osokinning sog'ayishi<br>( <i>Ma'suma AHMEDOVA tarjimasi</i> ) ..... | 115 |

Rus adabiyoti durdonalari

---

*Adabiy-badiiy nashr*

**DMITRIY NARKISOVICH MAMIN-SIBIRYAK**

**PRIVALOV MILLIONLARI**

*Romandan parchalar va hikoya*

Rus tilidan *F. Tolipov, M. Ahmedova* tarjimalari

Nashr uchun mas'ul  
*Azimboy Boboniyozov*

To'plab, nashrga tayyorlovchi  
*Muqaddas Xafizova*

Muharrir *Shahnoza Shoabdurahimova*  
Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*

Texnik muharrirlar: *Lina Xijova, Yekaterina Stepanova*  
Musahhihlar: *Maqsuda Ishonxonova, Gulnora Pattoxova*  
Kompyuterda tayyorlovchi *Gulmira Qulnazarova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 3-noyabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90<sup>1</sup>/<sub>16</sub>. Ofset qog'oz. «Times New Roman» garniturasida  
ofset usulda bosildi. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Nashr tabog'i 9,81. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma №21-467.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20  
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.  
e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)





**D.N. Mamin-Sibiryak**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7607-0-7



9 789943 760707